




«KAMOLOT»
KUTUBXONASI

Nikolay
Gogol

Taras Bulba



Nikolay
Gogol



«KAMOLOT»
KUTUBXONASI

Taras Bulba



МАЖБУРӢ
НУСХА

YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2015

UO'K: 821.161.1-

KBK: 84(Ros-Rus)

G-61

Gogol, Nikolay

Taras Bulba / Nikolay Gogol. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2015. – 304 b.

ISBN 978-9943-27-509-6

O'z davrida rus adabiyotining eng iste'dodli yozuvchilaridan sanalgan Nikolay Gogolning ijodiy tajribasi tunganmasdir. Gogolcha uslub, gogolcha til, gogolcha tasvir, gogolcha humor, gogolcha realizm jahon yozuvchilari uchun o'ziga xos mahorat maktabi. Ikki qismdan iborat ushbu kitobda muallifning qiziqarli qissalari jamlangan bo'lib, ularning har birida o'sha davrdagi xalq hayoti, jamiyatning o'ziga xos muammolari yengil humoristik uslubda yoritilgan. Gogol asarlarining tub ma'nosini chuqur anglab, qahramonlari bilan yaqindan tanisharkansiz, odamzodning tug'ilish, yejish, ichishdan iborat va nihoyat paymonasi tolganda olamdan o'tishi muqarrar bo'lgan bu o'tkinchi dunyoda hirs-havas nimadan o'zi, deya o'ylanib qolasiz. Turmushning majruh va hajviy darajada bema'niliği-yu yaramasligini ko'rasiz, binobarin, asar qahramonlari taqdirda qatnashasiz, ular ustidan kulasiz va qayg'usidan azoblanasiz.

UO'K: 821.161.1

KBK: 84(Ros-Rus)

2015/11/4

Afrosiab library

nomidagi

4530

Uzbekiston MK

N1 32084
3

ISBN 978-9943-27-509-6

© Nikolay Gogol, «Taras Bulba», «Yangi asr avlod», 2015.

TARAS BULBA

I

– Qani, o'g'lim, menga qara-chi! Juda g'ala-tisan-ku! Bu nimasi, poplar kiyadigan ro'dapo to'nлarni kiyib olibsizlar? Yo akademiyadagilar-ning hammasi shunaqa kiyinishadimi?

Kiyevning ruhoniylar tayyorlaydigan akademiyasida o'qib qaytgan ikki o'g'lini keksa Bulba shu so'zlar bilan qarshi oldi.

O'g'illari endigina otdan tushishgan edi. Ikkovi ham yaqindagina maktabni bitirib chiqqan talabalar singari yovvoyiroq, azamat o'spirinlar edi. Beg'ubor tetik yuzlaridagi maysa mo'ylariga hali ustara tek-kani yo'q. Ular otalarining bunday muomalasidan juda xijolat bo'lib, indamay yerga qarab turardilar.

Bulba o'g'illarini aylantirib ko'rarkan:

– To'xtanglar! To'xtanglar! Yaxshiroq ko'ray! To'nлaring muncha uzun? Ana xolos! Dunyo bino bo'lib bunaqasi ko'rilmagan bo'lsa kerak! Qani, birortang chopib ko'r-chi! Ko'ray-chi, etagingga o'ralashib yiqlasmikansan, – dedi.

Nihoyat kattasi:

- Ota, massxara qilmang, kulmang! – dedi.
- Savlatingni qara, axir! Kulmay bo'ladimi?
- Masxara qiladigan bo'lsangiz, azbaroyi Xudo otam bo'lsangiz ham ayab o'tirmayman!
- Ha-ha, hali shunaqami! Otangni-ya? – dedi Taras Bulba, taajjub bilan bir necha qadam orqa-siga chekinib.

– Ha, otam bo'sangiz ham, masxara qiladigan bo'sangiz ayamayman.

– Hali men bilan urishmoqchimisan? Qanaqasiga? Mushtlashamizmi?

– Qanaqasiga desangiz ham mayli.

Bulba yengini shimarib:

– Kel, bo'masa mushtlashamiz, ko'ray-chi, mushtlashishga qalay ekansan! – dedi.

Anchadan beri bir-birini ko'rмаган ota-bola quchoqlashib ko'rishish оrniga bir-birining goh biqiniga, goh ko'kragiga mushtlab, do'pposlashdilar; xo'b savalashib olishgach, orqaga tisarilib, bir-biriga qarab qo'yishardi-da, yana do'pposlashishardi.

Bolalarning nimjongina, ozg'in mehribon onasi suygan bolalarini hali bag'riga bosib ulgurmagan edi. U ostonada turib:

– Hoy yaxshilar, buni qaranglar; bu chol jinni bo'libdi, miyasi aynib qolipti; bir yildan beri ko'rмаган bolalari kelsa-yu, bu qurg'ur, bilmadim, nima xayolga tushibdiki, jigaporasini bag'riga bosish оrniga mushtlashyapti-ya! – dedi.

– E, juda ajoyib so'kisharkan! – dedi Bulba biroz to'xtab. – Azbaroyi Xudo, mushtlashishni qoyil qilarkan! – o'zini rostlab olib, keyin yana:

– Sinashga ham hojat yo'q ekan. G'aroyib kazak bo'ladi! Barakalla, o'g'lim. Kel, o'pishib olaylik, – dedi. Ota-bola o'pishib ko'rishdilar. – Barakalla, o'g'lim! Hammani ham meni urgandek do'pposla, hech kimdan tap tortma! Lekin nima desang ham kiyim-boshing g'alati: bu osilib turgan chilviring nimasi? Sen, lapashang, nega qo'llaringni shalvillatib turibsan, – dedi kichik o'g'liga qarab. – Itvachcha, nega meni do'pposlamading?



Kenjasini quchoqlab turgan ona:

– Tag'in nima balo deyapsiz! O'z otasini uradimi, bu nima jinnilik! Har narsa ham evi bilan-da; yosh bola shuncha yo'l yurib kelgan bo'lsa-yu (yoshi bola yigirmadan oshgan, bo'yи rosa bir sarjin kelar edi), damini olsin, ovqat yesin deyish o'rniqa, mushtlash deysiz-a! – dedi.

– Sen juda erka bo'lib qolibsan! – dedi Bulba.

– Onangning gapiga qulq solma, xotin kishining hech narsaga aqli yetmaydi. Sizlarga erkalikni kim qo'yibdi? Arg'umoq minib, jang maydonida hunarlarining ko'rsatlaring, bildinglarmi? Manavi qilichni ko'rdinglarmi? Onangiz shu bo'ladi! Sizlarning miyalaringga quylgan gaplarning barisi behuda; akademiyangiz, alifbe kitoblarining, falsofa-yu safsatalaringiz hammasi bir pul, barisiga tupurdim! – Bulba kitobga yozib bo'lmaydigan yana bir-ikki gap ham aytди. – Yaxshisi, men sizlarni kelasi haftadayoq Zaporoyyejo'nataj. Ilm degani ana o'sha yerda! Asil maktab ham o'shanda: aqlingiz ham o'sha yerda to'ladi.

Keksayib, ozib ketgan ona ko'ziga yosh olib:

– Uyda atigi bir hafta turishar ekan-da; sho'rliklar yayrab, sayr-tomosha ham qilishmas ekan-da! O'z uylarini ham tuzukkina ko'rolmas, men ham ularning diydoriga to'yolmas ekanman-da! – dedi.

– Kampir, bas qil, qo'y yig'ingni! Kazak xotinchalish bo'lmaydi. Senga qolsa ikkovini etagingga qamab, tuxum bosgan tovuqdek bosib yotar eding. Bor, bor tezroq, dasturxonni tuzat, nima bo'lsa qo'y. Qandolatlaring bizga kerakmas. Bitta qo'y, echki keltir, qirq yillik bol keltir! Ko'proq araq keltir, shirin-shakar, jiyda-mayizlik emas, shishada o'ynab turadiganidan, tozasidan bo'lsin.

Bulba o'g'illarini mehmonxonaga boshlab kirdi. Ular kirganda uyni yig'ishtirib yurgan, qip-qizil marjon taqqan ikki chirolyi cho'ri qizlar yugurib, chiqib ketdi. Ular har kimga bir tegishmay qo'ymaydigan boyvachchalarining kelganini eshitib, o'zlaridan xavotir olib turgan bo'lalar kerak, o'z odatlarini qildilar, odatda ular erkaklarni ko'rishlari bilan qichqirib qochishardi, keyin qat-tiq uyalib, anchagacha yenglari bilan yuzlarini bekitib yuradilar. Uyning mehmonxonasi qadimgi zamон talabiga mos qilinib, shunday orastalangan ediki, hozir u davrdan nom-nishon ham qolmagan va uning tasvirini faqat qo'shiqlarda hamda xalq dostonlarida uchratish mumkin, uning ta'rifini hozir Ukrainianadagi uzun soqol keksa, so'qir sozandalar to'plangan xalqqa aytmay qo'yanlar; bu mehmonxona xuddi Ukrainianada uniya¹ uchun jang-u jadallar boshlagan og'ir va notinch davr didiga monand orastalangan edi. Hamma yoq chinnidek toza, yarqirar edi. Devorlarga qilich-qalqon, baliq to'r, qamchin, qafas, miltiq, dori solinadigan naqshdor qortiq, oltin yugan, kumush halqali tushovlar osilgan edi. Derazasida hozir faqat eski butxonalardagina qolgan va ko'tarib qaralmasa hech narsa ko'rinxaymaydigan kichkinagini xira dumaloq oynalar. Eshik va derazalari qizilga bo'yalgan, jimjimador. Uyning burchaklaridagi ko'zachalar, yashil va ko'k shishalar, o'ymakor kumush va oltin suvi yugurtirilgan qadahlar va tovoqlar – Venetsiya, Turki-

¹ Uniya – Rim papasining qo'li ostida pravoslav va katalik cherkovining birlashuvi. XV asrda polyaklar Ukrainianani qul qilish uchun uniyadan maskuraviy qurol sifatida foydalanganlar.

ya va Cherkasda yasalgan bu buyumlar qo'ldan-qo'lga o'tib, har xil yo'llar bilan Bulbaning mehmonxononasiga kelib qolgan, chunki alg'ov-dalg'ov urush zamonlarida bu xil ishlar ko'p bolardi. Uyni gir aylantirib qayin po'stlog'idan qilingan kursilar qo'yilgan; uyning to'ridagi burchakda, butlar tagida katta xontaxta; serhasham katta koshinkor pechka. Har yil ta'tilda uylariga kelib-ketib turgan ikki yigitga bular juda yaxshi tanish edi; ular otlari yo'qligidan va maktab bolalariga otliq yurish rasm bo'lмаганligidan piyoda kelib-ketishar edi. Ularning faqat uzun kokillari bo'lib, yonida yarog'i bor har bir kazak ularni kokilidan ushlab ura olardi. Bulba bolalari maktabni bitirganidan keyin ikkita ayg'ir yubordi.

O'g'illari kelishi munosabati bilan Bulba hamma yuzboshilarni, barcha askarboshilarni chiqirtirdi: qadron oshnasi yasovul Dmitro Tovkach bilan yana ikki kishi kelganda, Bulba o'g'illarini ularga tanitib: «Qarang, qanday azamat yigit bo'lish! Yaqinda ikkovini Sechga yuboraman», – dedi. Mehmonlar Bulba bilan o'g'illarini qutlab, so'rashganlardan keyin: «Juda yaxshi ish qilasiz, yosh yigitlarga Zaporoye Sechdan yaxshi ilm-u hunar yo'q», – dedilar.

– Qani, og'aynilar, dasturxonga! Har kim xohlagan joyiga o'tiraversin! O'g'illarim, hammadan avval araqdan boshlaylik! – dedi Bulba. – Xudo yor bo'lsin! O'g'illarim, salomat bo'linglar. Ostap, sen ham, Andriy, sen ham omon bo'l! Urushda hamisha qo'lingiz baland bo'lsin! G'ayridinlarning dodini beringlar. Musulmonlarning ham, turklarning ham, tatarlarning ham dodini beringlar. Agar lyaxlar dinimizni oyoqosti qiladigan bo'lsa,

ularning ham dodini beringlar! Qani, kosang-ni tut; qalay, araq joyidami? Araqni lotinchada nima deydi? Ana shunaqa, o'g'lim, lotinlar ah-moq bo'lishgan, ular araq nimaligini ham bilish-magan. Lotincha she'rlar yozgan bittasi bor-ku, oti nima edi? Savoddan no'noqroqman, shuning uchun otini ham bilmayman. Goratsiyimidi?¹

Katta o'g'li ko'ng'lida: «Otam chakana odam emas. Juda tullak, cho'lning bilmagan narsasi yo'q, tag'in o'zini bilmaslikka soladi!» – deb qo'ydi.

Taras yana so'z boshlab:

– Arximandrit sizlarga araq hidlashga ham yo'l bermagandir. O'g'llarim, rostini aytinglar, tol, olcha novdalari bilan xo'b savalarmidi yoki juda mulla bo'lib ketganligingizda darra bilan urarmidilar? Shanba kungina emas, chorshanba-yu payshanbalarda ham xo'b darra yegan bo'sangiz kerak? – dedi.

Ostap parvo qilmay:

– O'tgan ishga salavot, ota, bo'lgan ish o'tdi-ketdi! – deb javob berdi.

– Qani, endi bittasi tegib ko'rsin-chi, haddi sig'adimi! Bitta-yarimta tatarvachcha qo'limizga tusha ko'rsin kazakning qilichi qanaqaligini bilib oladi! – dedi Andriy.

– Barakalla, o'glim, balli, o'g'lim! Bunday bo'lsa men ham sizlar bilan birga boraman, Xudo haqqi, boraman! Bu yerda nimani kutaman? Bu yerda menga pishirib qo'yibdimi? Qo'noq ekib, ro'zg'or qilib, qo'y boqib o'tiraymi? Nari tursin-ey, men kazakman, toqatim bormi bunga! Hozir urush bo'lmay turibdi-da. Mayli, sizlar bilan birga Zaporojyega ketaveraman, Xudo ursin, ketaman,

¹ Goratsiy – qadimgi Rimning mashhur shoiri.

tomosha qilib kelaman! – chol Bulba sekin-sekin avj qilib, bir mahal juda ko'tarilib, jahl bilan o'rnidan turdi-da, qaddini rostlab, o'ziga oro bergach, qat'iy ishonch bilan: – ertagayoq jo'naymiz, paysalga solib nima qilamiz! Bu yerda poylab yotgan bilan hech qanaqa dushmanni tutolmaymiz! Bu uy, bu ashqol-dashqolning bizga nima keragi bor? Bu xurmachalarni nima qilamiz? – dedi. Bu so'zlarni aytgach, xurmacha bormi, boshqa idish bormi, hammasini urib-irg'itib sindira boshladi.

Erining bu xil qiliqlarini ko'p ko'rib, ko'nikib qolgan kampir kursida termilib o'tirar, churq etib, bir gap aytishga holi yo'q edi. Ammo uning uchun nihoyatda dahshatli bo'lgan bu qarorni eshitgach, ko'z yoshini to'xtata olmadi: bolalaridan bunday tez judo bo'lish vahimasiga tushib qoldi. Uning termilgan ko'zlarida, qaltiragan lablarida zohir bo'lgan qayg'u va alamini hech qanday qalam egasi ta'rifga keltirolmas edi.

Bulba haddan tashqari o'jar. Bu xil tabiatli odamlar sertashvish XV asrda, yarim ko'chmanchi umr kechirgan Yevropaning bir burchagida paydo bo'lishi mumkin edi; o'sha davrda knyazlar janubiy Rossiyani tashlab qochgan va vahshiy mo'g'ullar uni poymol qilib, kulini ko'kka sovurgan edi. U zamonlarda bu yerning odamlari xonavayron bo'lib, hech narsadan tap tortmaydigan, jasur bo'lib ketgandi. Dahshatli qo'shinlar ko'z oldida, doimiy xavf-xatar va olovlar ichida yashagani uchun dunyoda qo'rquv degan tuyg'u borligini unutgan, hech narsaga parvo qilmay qo'ygan edi. Avvaliga yuvosh bo'lgan slavyan qalbiga jangovarlik o'ti tushib, kazaklar paydo bo'lgan, ya'ni, serzavq, oliyhimmat rus tabiatini qanot yozgan;

daryo bo'ylari, yaylovlar, darxon yerlar son-sanoqsiz kazaklar bilan to'lgan zamонлар edi. Bularning sonini bilmоqchi bo'lgan sultonga ular o'rинli javob berib: «Kim bilsin! Butun dasht-biyobonni kazak bosib ketgan, qayerda bir tepacha bo'sa, o'sha yerda kazak bor», – degan vaqtlar edi. Bu ruslardagi kuch-quvvatning misli ko'rilmagan bir junbishi ediki, buni xalqning boshiga tushgan kulfatlar yuzaga chiqardi. Avvalgi hokimliklar, toziboz «ovchilar» bilan to'lgan mayda-chuyda shaharlar, bir-biri bilan urishib-talashib yotgan mayda hokimlarning shaharlari orniga, hammasiga bir xilda dahshat solib turgan xavf-xatar oldida birlashgan, g'ayridin vahshiylarga qarshi dushmanlik hislari bilan bir-birlariga bog'langan dahshatli harbiy qismlar paydo bo'ldi. Ularning doimiy kurashlari va behalovat turmushlari Yevropani ag'dar-to'ntar qilib tashlamoqchi bo'lgan boyagi vahshiylardan saqlab qolganligi tarixdan hammaga ma'lum. Mayda-chuyda hokim-knyazlar orniga o'tirgan va bu keng o'lkalarni egallab olgan polyak podsholari, garchi andak bo'sa ham kazaklarning ahamiyatini tushundilar, bunday jangovarlik yaxshi posbon ekanini angladilar. Ularga iltifot ko'rsatdilar, xushomad qildilar. Bu podsholarga tobe bo'lgan kazaklarning o'z ichlari-da saylangan getmanlar¹ qishloq va dahalardan polk va qismlar tuzdilar. Bu polklar muntazam askar polklari emas, ko'zga ko'rinmas, ammo urush chiqquday bo'sa yoki yurtda g'alayon ko'tarilsa, ko'p emas, rosa sakkiz kunda hamma otlanib, aslahalanib chiqar edi. Polyak podshosi

¹ Getman – kazaklar saylangan podsholarni shunday atardilar.

odam boshiga faqat bir oltindan pul to'lardi. Ikki haftada shunday ko'p askar yig'ilar ediki, hech qanday buyruq va zo'rlik bilan buncha askarni yig'ib bo'lmas edi. Urush tamom bo'lgach, har bir askar dala va yaylovlarga, Dnepr bo'ylariga qaytar, baliq ovlash, oldi-sotdi, araq tayyorlash bilan shug'ullanar, o'z ixtiyori o'zida, dorilamon yuraverar edi. O'sha zamondagi ajnabiylar bu kazaklarning iste'dodiga hayron qolardilar, ularning hayron qolishiga o'rinn ham bor edi. Kazak bilmagan hunar yo'q; musallas solish, aravasozlik, miltiq dori qilish, temirchilik, misgarlik – xuldas, har bir ish qo'lidan kelar va buning ustiga aysh-ishrat, araqxo'rlik, bo'zaxo'rlik ham qolmas edi. Urush chiqqanda otlanib chiqishga majbur bo'lgan kazaklardan tashqari, agar lozim bolsa, hamma vaqt talay ko'ngillilar ham to'planar edi. Yasovullar¹ barcha qishloq va dahalarning bozorlarida aravada turib: «Hoy, pivoxo'r-bo'zaxo'rlar, eshitmadim demanglar, pivoni endi tashlanglar, pechkalardan tushinglar, pashshaga yemish bo'lmanglar! Maydonaro chiqinglar, mardi maydon bo'linglar! Dalada yurgan dehqonlar, tariq-qo'noq ekkanlar; qo'y haydagan cho'ponlar, xotinbozlik qilganlar, bu ishlarni tashlanglar, otlanishib chiqinglar, jangda shuhrat topinglar!» – deb chaqirishi bilan hamma otlanib chiqardi. Yasovullarning bu so'zlari xuddi g'aramga tushgan cho'g'dek ta'sir qilardi. Dehqon omochini yondirib, bo'zaxo'r, pivoxo'rlar xum bochkalarini sindirib, kosiblar, do'kondorlar ishlarini tashlab, do'konlarini yopib, uylaridagi ko'zalarini pachoqlab otlanib chiqardilar. Xullas, bunday paytlar-

¹ Yasovul – kazak askariy qismlarida o'tta zabitlik unvoni.

da rus tabiatи yayrab, juda g'ayratga minar, bor kuch-quvvatini maydonga chiqarib ko'rsatar edi.

Taras shu yerning o'zida tug'ilgan lashkar-boshilardan edi. U faqat jang uchun yaratilgan, aytganini qiladigan qo'pol tabiatli, to'ng odam edi. U zamonda Polsha asilzodalarining ta'siri ancha bo'y ko'rsatib, ko'p odamlar Polyak-urf-odatlarini qila boshlagan: shon-shavkat, dab-daba, yasan-tusan, uyda xizmatkor va cho'rilarni saqlash, lochinlar, tozi itlar bilan ov qilish, qasr va saroylar, to'y-tomoshalar, ziyofatlar kabi narsalar odat tusiga kirgan edi. Bular Tarasga yoqmas, u kazaklarning sodda hayotini yaxshi ko'rар, Varshava tomonga og'ib, hech narsa bo'lmaganday yashayotgan oshna-og'aynilaridan bezgan va ularni polyak boylarining yuvindixo'ri der edi. Tinib-tinchimagan Taras o'zini pravoslav dinining asil himoyachisi hisoblar edi. Qayerdaki ijaraxo'rlardan va tugun pulidan shikoyat qilgan kishilar bolsa, darhol o'z kazaklari bilan o'sha yerga borib, jabr qilganlarning jazosini berardi. Uch holda albatta qilichni qinidan chiqarishni o'ziga bir qoida qilib olgan edi; o'lponchilar oqso-qollarni hurmat qilmay, ular huzurida bosh kiyimlarini olmasalar; dinni xor qilib, ota-bobolarning rasm-odatlari hurmat qilinmasa; so'ogra, oxirgisi, dushman g'ayridin turklar bolsa, nasroniy dini yo'lida ularga qarshi qilich ko'tarmoqni hamma vaqt ham joiz deb bilar edi.

Endi bolsa u, ikki azamat o'g'li bilan Sechga borib, undagilarga: «Ko'ringlar, sizlarga qanday azamatlarni boshlab keldim!» – deb kerilishini, ko'p urushlarni ko'rib chiniqqan o'rtoqlariga bolalarini taqdim qilganida qanday faxrlanishini,

bolalarning jonbozlik va bo'zaxo'rlikdagi polvonligini ko'rib qanday suyunishini o'ylar, ichidan shodlanar edi, chunki bo'zaxo'rlikni ham mard yigitlarning katta fazilatlaridan biri deb hisoblar edi. Avval o'g'illarini yolg'iz yubormoqchi edi, lekin ularning baquvvat, zabardast azamatliklarini ko'rib, o'zining ham g'ayrati qistab, jangovarligi qo'zg'ab ketdi-yu, o'zi birga boradigan bo'ldi. Darhol harakatga kirishib, safar jabdug'ini tayyorlashga tutindi, o'g'illariga ot, egar-jabduq topib berdi; og'ilxona, omborxonalardan xabar oldi, ertaga birga boradigan navkarlarni saraladi. Yasovul Tovkachga: «Agar Sechdan xabar berguday bo'ssam, darhol butun askar bilan yetib bor», – deb buyruq qildi. O'zi shirakayf bo'lib, boshi garangroq bo'lsa ham, hech narsa esidan chiqmadi. Hatto otlarni sug'orib, oxurga yirik, toza bug'doydan solib qo'yishni buyruq berdi, hamma ishni saranjom qilgach, horib-charchab biroz orom oldi.

– Qani bolalarim, endi uqlash kerak, ertaga Xudo nimani xohlasa, shuni qilamiz. O'r'in solib o'tirma! Ko'rpa-to'shakning keragi yo'q. Hovlida yotamiz.

Osmon qoraygani ham yo'q edi, Bulba yotdi, u hamisha erta yotar edi. Gilamga dumalab, po'stinga burkandi, chunki kechasi havo salqin bo'lar, bundan tashqari, Bulba uyida yotganida issiqroq o'ralib yotishni yaxshi ko'rardi. Biroz o'tgach, xurraq otib, uqlab qoldi. Uning ketidan hovlidagilarning hammasi ham uyquga kirdi. Hovlining burchak-burchagida yotgan nimaiki bor, hammasi xurraq otib pishillasha boshladi. Qorovul elburutdan uqlab qoldi, chunki boyvachchalar kelishi munosabati bilan hammadan ko'p ichgan edi.

Boyaqish onagina uxlamadi, xolos. Bechora ona qatorasiga yotgan aziz o'g'llarining boshida o'tirib, ularning jingalak sochlarini tarar va ko'z yoshi to'kar edi; bolalarining diydoriga tikilib sira to'ymas, butun vujudi va barcha sezgilari bilan termilar, lekin to'ymas edi. Oq sut berib boqqan, parvarish qilib o'stirgan bolalarining diydoriga ham to'yolmasdan qoladimi endi? «Jonom bolalarim, shirinlarim! Nima ko'rguliklar va savdolar boshingizga tusharkan?» – deb yig'lardi u; ko'zidan oqqan yoshlari bir zamonlardagi husnini buzgan ajinlar orasida to'xtab qolardi. U alg'ov-dalg'ov, to'polon zamonning barcha ayollari kabi mushtipar, ojiza edi. Boyaqish muhabbat zavqini faqat andak vaqtgina surdi, yoshlik jo'shga kelgan ilk vaqtarda, sho'xlik kezlaridagina biroz aysh qilib qoldi; bechorani o'ziga maftun qilgan rahmsiz eri qilich-qalqonni, jo'ra-ulflatlarni, bo'zaxo'rлarni deb, uni tashlab ketardi. Eri yilda ikki-uch marta ko'rardi, xolos. Eri bir ko'rinish berib, bir necha yillar dom-u daraksiz ketardi. Eri oldida bo'lib, birga turgan vaqtłari ham o'ynab kulmasdi. Eridan haqorat-u xo'rliklar ko'rар, kaltak yer edi. Eri faqat rahmi kelgandagina silab-siypab iltifot ko'rsatar edi. To's-to'polon hukmron Zaporojyening alg'ov-dalg'ovi ichida yashab bag'ri tosh bo'lib ketgan dilovar pahlavonlar orasida bu xotin g'alati ko'rnar edi. Yoshligi hech qanday rohat ko'rmay o'tib ketdi, go'zal yuzlari o'pich, siynasi quchoq ko'rmay so'lidi, tez fursatda qarib, yuzini ajin bosdi. Ko'nglidagi bor muhabbati, barcha sezgilari, xullas, xotin zotida bo'ladigan barcha malohat-u nazokat bu xotinda faqat bir onalik sezgisiga aylangan edi. Bolalari ustida kuyib-yonib, go'yo

bir qushdek o'rgilar edi. Uni o'g'llaridan, jondan shirin bolalaridan judo etmoqchilar, ularning diy-doridan abadiy mahrum qilmoqchilar. Kim bilsin, birinchi jangdayoq biror tatar boshlarini kesib tashlaydimi? Ularning tanasi qayerlarda yumalab yotarkin, qaysi darrandaga yemish bo'larkin, hol-buki, bu tananing har bir tomchi qoniga, har bir parcha etiga u bor-u yo'g'ini berardi. Polvon uyqu bolalarning ko'zini yumdirdi. Ona uyquga tolgan bu ko'zlarga tikilib yig'lar, Bulba ertaga uyqudan turgach, zora insofga kelib, safarni bir-ikki kunga qoldirsa, balki ko'proq ichganidan bunday jadal qilayotgandir deb umidvor bo'lardi.

Tikkadagi oyning shu'lasi uxbab yotgan odamlarga to'lgan hovli yuzini, uning atrofidagi ko'rada ham oshib o'sgan o't-o'lanylarni yoritib turar edi. Kampir hali ham bolalari boshida, ularga tikilib o'tirar, ko'ziga uyqu kelmasdi. Otlar ham tong yaqinlashib qolganini bilib, ovqatga qaramay, o'tga dumalab yotib oldi. Baqaterakning avval tepadagi barglari, keyin sekin pastdagilari ham qimirlay boshladи. Ona sahar paytigacha mijja qoqmasdan o'tirib chiqdi, lekin toliqmadi, hatto kechaning ko'proq cho'zilishini tilar edi. Qir tomonidan toychaning kishnagan tovushi eshitildi. Osmon yalt etib qizardi.

Bulba uyg'onib irg'ib turdi. Kecha qilgan buyruqlari juda yaxshi esida turgan edi.

– Qani, yigitlar, turinglar, bo'ladi shuncha ux-laganingiz! Turinglar, otlarni sug'oringlar! Kampir qani? (Xotinini doim shunday der edi). Kampir, tez bo'l, safarimiz uzoq, ovqat hozirla!

Umidini tamomila uzgan bechora kampir no-chor va noiloj boshini egib, uyga kirib ketdi.

Kampir yig'lay-yig'lay ovqat hozirlash bilan ovora bo'lganda, Bulba: «Uni qilinglar, buni qilinglar», – deb buyurar, otlarni va yaxshi egar-jabduqlarni o'zi tanlar edi. Talabalarning aft-angori tamomila o'zgardi: eski, iflos etiklarini tashlab, kumush nag'alli saxtiyon etik, kengligi Qora dengizdek keladigan qat-qat burmali, zar ishtonbog'li shalvar kiyib olishdi. Ishtonbog' uchiga popuk va qo'ng'iroqlar osilgan edi. Qip-qizil cho'g'dek movut chakmon ustidan gulband kamar bog'lashdi. Turkcha o'ymakor to'pponcha kamarga bog'langan, oyoqqacha tushgan qilich yurganda shaqir-shuqur qilardi. Hali uncha oftob yemagan yuzlari tozalanib oqardi. Maysa qora mo'ylovları yuzlarini yanada oqartirib ko'rsatar, yigitlikka xos bo'lgan sog'lomlik va tozalik ularning husniga husn qo'shar edi. Sho'rlik ona! Bolalarini bu suratda ko'rishi bilan tili lol bo'lib, bir kalima so'z ham ayta olmadi, ko'z yoshlari to'xtadi.

Nihoyat Bulba:

– Qani, o'g'llarim, bo'ldi! Vaqt o'tmasin! Endi dinimiz buyurgani shuki, safarga chiqish oldidan birpas o'tirib, sukut qilaylik, – dedi.

Hatto eshik tagida ta'zim bilan turgan yigit-chalar ham o'tirishdi.

– Onasi, endi bolalaringga fotiha ber! – dedi Bulba. – Xudodan so'ra, ular mardona kurashsinlar, mardlikni qo'ldan bermasınlar, dinimizga homiy bo'lsinlar, agar bunga yaramasalar, yorug' dunyodan benom-u nishon ketsinlar, bolalarim, onangizga yaqinroq kelinglar, onaning duosi o'tdan, suvdan saqlaydi.

Boyaqish kampir ularni quchoqladi, ho'ngrab yig'larkan, ikkovining bo'yniga bittadan but osdi.

– Xudoning panohiga topshirdim, o'gillarim, onalaringni unutmanglar... Xat yozinglar... – Bechora ortiq hech narsa deya olmadi.

– Bolalarim, yuringlar! – dedi Bulba.

Eshik oldida egarlangan otlar tayyor edi. Bulba o'zining Shayton deb atalgan otiga mindi. Bulba nihoyatda gavdali, bahaybat edi, shuning uchun yigirma pudlik yuk ustiga tushgan ot gandiraklab ketdi. Ona o'g'llarining otga minganliklarini ko'rgach, chehrasida qandaydir bir yuvoshlik, ma'yuslik zohir bo'lib turgan kenja o'g'lining uzangisidan ushlab oldi va ko'zları javdirab, boshini egarga qo'yib, uzangini mahkam chanchallab turaverdi. Ikki azamat uni sekin qo'ltilqlab, ichkariga olib ketdi. Ammo bolalari darvozadan chiqar-chiqmas, keksaligiga qaramay, go'yo qu'lundek chaqqonlik bilan uydan yugurib chiqdi. Shu payt unda misli ko'rilmagan bir kuch paydo bo'lib, bolalaridan birining otini mahkam ushlab to'xtatdi, telbalardek jazavalanib quchoqlab oldi. Uni yana qaytarib, uyga kirgizishdi.

Yosh kazaklarning ko'ngillari buzildi, yig'lagani otalaridan qo'rqqanlaridan, o'zlarini zo'rg'a bosib xomush borar edilar. Otaning ham dili vayron bo'lib borar, lekin sir boy bermas edi. Havo xira, ko'katlar yashnab yotar, qushlarning sayrashida allaqanday nosozlik bor edi. Yo'lovchilar biroz yurib, qayrilib qaradilar. Ularning qo'rg'onlari go'yo yer ostiga kirib ketganday, faqat ikkita mo'risi, yoshligida ular olmaxon singari shoxma-shox sakrab o'ynagan daraxtlarning uchigina ko'rinar edi, xolos. Uzoqda shu chog'gacha o'tgan umrlari xotirotini saqlagan o'lanzorgina ko'rinish turibdi. Bir vaqtlar bu ko'kalamzorning shu'dring tushgan

o'tlari ustida dumalashib o'ynagan edilar, so'ngra bu ko'kalam maydonda yengiltak oyoqlari bilan shipillatib, o'tib borayotgan qora qosh kazak qizlarini poylagan edilar. Nariroq borgan edilar, bir uchiga aravaning g'ildiragi bog'langan quduq yog'ochidan boshqa hech narsa ko'rinxmay qoldi. Birozdan keyin, orqada qolgan yaylov ham uzoqdan qirdek ko'tarilib, orqadagi hamma narsani to'sdi. Alvido endi yoshlik, alvido, barcha o'yin-u tomoshalar, alvido!

II

Oqliqlarning uchovi ham indamasdan xomush borar edi. Keksa Taras o'tgan zamонларни о'йлар edi. Yoshlik chog'lari, o'tgan umri bir-bir xayolidan o'taverdi. Butun umri yoshlik bilan o'tishini xohlovchi kazak o'tgan yillariga doim afsus qiladi. U eski yor-u birodarlarimdan Sechda kimlarni ko'rар ekanman deb o'йlar edi. Kimlar tirik, kimlar o'лганligini o'йlab, ko'ziga yosh keldi, sochlari oqargan boshi quyi solindi.

O'g'illari o'зга xayollar bilan band edi. Lekin o'g'illari haqida batafsil aytmoq lozim. Ular o'n ikki yoshda Kiyev akademiyasiga berilgandilar, chunki o'sha zamondagi obro'li amaldor kishilar bolalarini maktabga berishni shart bilar edilar. Garchi keyin maktab tarbiyasidan asar ham qolmay, uni tamom unutsalar ham, bolani maktabga berib o'qitishni amaldor to'ralar zarur deb bilar edilar. Maktabga kelgan talabalarning hammasi singari Taras bolalari ham dalada o'sgan yovvoyi edilar; u yerda bir muncha adab yeb silliqlangan va ularning hammasini bir-biriga o'xshatgan

qandaydir umumiy sifatlar paydo bo'lar edi. Bolalarning kattasi Ostap bir yil o'qir-o'qimas qochnan edi, lekin uni tutib, xo'b savalab, yana eltib qo'ygan edilar. To'rt marta kitobini yerga ko'mgan va har gal o'lguday kaltaklab, boshqa yangi kitob olib bergen edilar. Otasi: «Agar o'qib, mulla bo'lib chiqmasang, ibodatxonadagilarga yigirma yil malaylik qildiraman, Zaporojyega oyoq bostirmayman», – deb og'ziga so'z olmasa, bu qiligini yana qilishiga hech shak-shubha yo'q edi. Ilmni hech pisandga olmagan, yuqorida ko'rganimizdek, o'g'llariga o'qishni yomonlab nasihat qilgan Tarasning bunday deyishi taajjub. Shunday keyin Ostap juda katta havas bilan o'qib, kitobdan boshini ko'tarmay tez orada eng o'tkir talabalar qatoriga o'tdi. U zamonning o'qishi, safsata-yu mantiq turmushdan tamomila yiroq, tirikchilikka hech qanday tegishligi yo'q ilmlar edi. O'qishni bitirib chiqqanlar olgan ilmlarini hech narsaga tatbiq qilolmasdilar. U zamon ulamolari boshqlardan battarroq omi edilar, chunki juda tajribasiz va noshud edilar. Diniy maktabning dorilamonligi, azamat o'spirin yigitlardan birtalayining bu yerda yig'ilganligi ularning o'qishga hech aloqasi bo'lмаган, tamomila boshqa yo'llarga boshlar edi. Goho qiyinchilik, goh och qo'yib jazo berishlar, gohida tani sog' va baquvvat yigitda qo'zg'aladigan ehtiroslar hammasi yig'ilib, ularda uddabunrolik xususiyatlarini paydo qiladi, bu xususiyatlar keyinchalik Zaporojyeda takomilga yetadi. Och talabalar Kiiev ko'chalarida izg'ib yurar, ularni ko'rgan novvoy va do'kondor xotinlar darrov nonlari bormi, qovoq urug'lari bormi bekitar, burgut bolasini qanoti ostiga olgandek,

mollarini yashirar edilar. Talabalarga ko'z-qulqoq bo'lib turish vazifasi bo'lgan xalfalarning shalvari-dagi cho'ntagi shu qadar chuqur ediki, mabodo biror do'kondor xotin bexabar qolsa, uning butun do'konni jo bo'lardi. Bu madrasa talabalari alohi-da bir toifa edi. Polyak va rus asilzodalari orasiga ularni kirgizmas edilar. Hokim Adam Kisel, garchi o'zi madrasaga homiylik qilsa ham, talabalarni odamlarga qo'shmay, «qattiqroq ushlanglar» deb buyurar edi. Biroq uning bu xil buyrug'iiga ehtiyoj yo'q edi, chunki rektor va professor rohiblar dar-ra va novdani ayamas, peshqadam xalfa bosh-liqlar aksari ma'ruzachilarning buyruqlari bilan talabalarni shunday savalar edilarki, ular bir necha haftagacha qashinib yurar edilar. Ularning aksarisiga bu kaltak qalampirlik araqdan andakkina achchiqroq ko'rinar edi, xolos. Ba'zilari bu xil kaltakdan bezor bo'lib, yo'l bilsalar va yo'lda qo'lga tushmasalar, Zaporojyega qochib ketar edilar. Ostap Bulba mantiq, hatto aqoyid ilmini ixlos bilan o'qishga harakat qilgan bo'lsa ham, baribir darradan sira qutulolmadi. Bu hollar uning tabiatini dag'allashtirib, badjahl qilishi tabiiy edi. Ostap hamisha eng yaxshi jo'ralardan hisoblanar edi. Yomon yo'lga yurganda, birovning bog'iga o'g'irlikka tushganda bosh bo'lmas, lekin mullavachchalardan bitta-yarintasi birorta ish boshlaguday bo'lsa, hammadan avval uning yoniga kelib qo'shilar, ammo sheriklariga hech mahal nomardlik qilmas edi, har qancha kaltaklassalar ham sirni aytmas edi. U jang va o'yin-kulgi, sho'xlikdan boshqa narsaga e'tibor bermas; tengdoshlariga aslo qalloblik qilmas, ko'ngli ochiq edi. U shunday shafqatli, yaxshi yigit ediki, bunday

fazilat faqat o'sha zamonda va shunday odam tabiatida bo'lishi mumkin edi. Sho'rlik onasining ko'zyoshlari uning ko'nglini buzgan, faqat shugina uning boshini xam qila olar edi.

Ukasi Andriy bir muncha g'ayratli va zehni o'tkirroq edi. Og'ir tabiatli, irodasi kuchli kishilar odatda qynalib o'qiydi, lekin Andriy qynalmasdan havas bilan o'qidi; akasidan ko'ra uddaburo edi. Ko'pincha xavf-xatarli ishlarda boshqalarga bosh bo'lar, gohida farosatlilik qilib qolar, akasi Ostap bolsa hech bir bo'yin tovlamasdan egnini yechib, indamay yotardi va o'la qolsa uzr so'ramasdi. Andriyda ham dilovarlik havasi katta edi-yu, lekin bu bilan birga ko'ngli boshqa hissiyotlardan ham xoli emas edi. O'n sakviz yoshdan o'tgach, yuragiga ishq-muhabbat o'ti tushdi. Ayol uning sho'x xayolini ko'proq mashg'ul qila boshladi. Falsafiy munozaralarni tinglab o'tirgan chog'larida ham qora ko'zli tannoz, muloyim xotinning siymosi har dam xayolidan o'tib turardi. Selkillab turgan oppoq siynasi, yumshoq muloyim bilaklari ko'z oldidan o'taverar; ayol kishining jozibali badaniga tegib turgan ko'ylaklarining o'ziyoq unda allaqanday hirslarni qo'zg'atar edi. Ko'nglidagi bu yigitlik hirslarini sheriklari dan yashirar, chunki u zamonlarda jangga kirmasdan avval xotin va ishq-muhabbat xayoliga tushmoq kazak yigitga or-nomus hisoblanardi. So'nggi yillarda u jo'ralarining sho'xliklariga kamroq aralashar, ko'proq Kiyevning olchazor chorborg'larida, xilvat yerlarda, ko'chaga qaragan va kishining havasini keltiradigan pastak-pastak uylar orasida o'zi tanho izg'ib yurardi. Gohida hozir eski Kiyevning malorossiya va polyak dvor-

yanlari turgan uylari serhasham boylar mahalasiga ham kelar edi. Bir kun u xayoli parishon ketayotganida bir polyak boyining aravasi uni bosib ketayozdi; shunda o'rindiqda o'tirgan shop mo'ylov aravakash qamchin bilan uni boplab soldi. Talabaning achchig'i chiqib, qamchin alamiga chidolmay, zabardast qo'li bilan aravaning orqa g'ildiragidan ushlab to'xtatdi. Aravakash o'zidan qo'rqib, otlarni qamchilagan edi, otlar sapchib ketdi; yaxshiki, Andriy qo'lini tortib oldi, lekin yuzi bilan loyga yiqilib tushdi. Allakim xaxolab, kulib yubordi. Boshini ko'tarib, alanglab qarashi bilan deraza yonida turgan misli ko'rilmagan bir nozaninga ko'zi tushdi. Uning shahlo ko'zi, oq yuzi ertalabki ostobning shu'lasida tovlanib turardi. Qiz astoydil xaxolab kular, kulish husniga husn qo'shar edi. Andriy shoshib qoldi. Sarosimalanib qizga qarab, yuzidan loyini artmoqchi bo'lib, butun yuziga surtib yubordi. Bu go'zal kim bo'saykin? U darvoza orqasida do'mbira chalib turgan yosh yigit atrofida turgan birtalay yasangan xizmatkorlardan so'rab, qizning kimligini bilmoqchi bo'lgan edi, uning loy chaplangan yuzini ko'rib, ular ham kulib yubordilar. Ni-hoyat surishtirib bilsa, bu go'zal Koven shahar hokimining qizi bo'lib, bu yerga bir necha kunlik mehmon ekan. Andriy ertasigayoq, kechasi mullavachchalarga xos bo'lgan jasorat bilan devordan oshib bog'ga tushdi, keyin shoxlari uyning tomiga osilib turgan daraxtdan tomga chiqdi; keyin mo'ridan tushib, to'ppa-to'g'ri qiz yotadigan uyga kirdi. Qiz sham oldida o'tirib qulog'idagi qimmatbaho isirg'asini olmoqda edi. Sohibjamol polyak qizi tanimagan odamga ko'zi tushishi bi-

lan shunday qo'rqib ketdiki, gapirishga ham tili aylanmay qoldi. Ammo talabaning serryayib, qolini ham qimirlatolmay qo'rqib turganini ko'rdi-yu, uni tanib qoldi va ko'chada loyga yiqilib tushgan odam ekanini bilgach, yana kulib yubordi. Andriyning avzoyi buzuqqa o'xshamas, o'zi chiroylikkina yigit edi. Qiz xaxolab kulib, ancha vaqtgacha uni masxara qildi. Bu sohibjamol qizning qiliqlarida polyak qizlariga xos yengiltabiatlik bo'lsa ham, lekin uning chiroyli, charos ko'zlari mehr-vafodan darak berib, ishva bilan boqardi. Hokimning qizi dadil yurib, Andriyning oldiga keldi va charaqlab turgan tillaqoshini uning boshiga kiygizib, isirg'asini labiga bosdi; zar bilan tikilib, piston qadalgan to'r ro'molini uning ustiga tashladi. Shunda ham talaba qimir etmas, qopga tushgan, qo'l-oyog'i bog'langan kishidek tik turar edi. Qiz bo'lsa, sho'x polyak qizlariga xos tantiqlik bilan Andriyga har xil kiyimlar kiygizar, uni ming ko'yga solib, mayna qilar edi, uning bu qiliqlari bechora talabani yanada battar uyaltirar edi. U qizning shahlo ko'zlariga tikilgancha og'zini ochib, ag'rayib qoldi. Shu payt eshik tomonda taqillagan ovozni eshitib, qiz cho'chidi. Andriyga darrov karavot tagiga bekinishni buyurdi; xotirjam bo'lgandan keyin cho'ri kanizagi tatar xotinni chorlab, yigitni sekingina bog'ga chiqarib, devordan oshirib yuborishni tayinladi. Biroq talaba osonlik bilan devordan oshib keta qolmadı. Qorovul uyg'onib qolib, uning oyog'iga rosa soldi. G'alvani eshitib, yig'ilgan xizmatkorlar ko'chada uni ko'p savaladilar. Bechora zo'rg'a qochib qu'tuldi. Bundan keyin qizning uyiga yaqin borish xavfli bo'lib qoldi, chunki hokimning xizmatkor

va chokarlari juda ko'p edi. Yana bir kun qizga butxonada duch kelib qoldi. Qiz uni ko'trib, xuddi qadrdon oshnasini uchratgandek, tabassum qilib qo'ydi. Bir kun yana bir marta ko'zi tushib qoldi, shundan keyin Koven shahar hokimi yurtiga ketib qoldi. Shahlo ko'z qiz qaraydigan darchadan endi yuzi tovoqdek birov qarar edi. Boshini quyi solib, otning yoliga tikilib, parishonhol borayotgan Andriy shu xayollar bilan band edi.

Bu orada ularning uchovi ham ko'kalamzor bi-yobon quchog'iga kirib ketdilar; o'tlarning balandligidan ularning qora telpaklarigina ko'rinar edi.

Xayol surib borayotgan Bulba boshini ko'tarib:

– Ha, ha, azamatlar, nega dampingiz chiqmaydi. Tarki dunyo qilgan kishilardek xomush borasizlar! Qo'yinglar! Xayollarni tashlanglar! Qani, bir chekishib olaylik, so'ngra otimizga shig'ov berib, bir uchaylik, qush ham yetolmasin! – dedi.

Kazaklar otlari yoliga engashib olib, o'tlar ichida yo'qolib ketdilar, qora telpaklari ham ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bosilib ketayotgan o'tlarning shovullashigina ot qo'yib ketayotganlarning izini ko'rsatar edi.

Bulutlardan tozalangan osmonda oftob o'zini ko'rsatib, sahroga nurini to'kib, jon kirgizganiga ancha bo'ldi. Kazaklarning ko'nglini xira qilib, xomushlikka solib turgan narsalar bir lahzada yo'qolib, ko'ngillari ochilib ketdi.

Dasht borgan sari go'zallahdi. U zamonlarda butun Janub, hozirgi Novorossiya yerlari to Qora dengizgacha odamzod oyoq bosmagan biyobon edi. Bu bepoyon ko'kalamzor yerlar aslo omoch ko'rmagan, faqat maydon ichiga kirganda go'yo chakalakka kirgandek ko'milib ketgan otlargina bu yerlarga oyoq bosardi. Tabiatda bundan

boshqa chiroyli manzara bo'lmas. Yer yuzi kun sarig'iga bo'yalib, tovlanib turgan bepoyon suvgaga o'xshar, bu suvning betiga rang-barang gullar sochilgan edi. Baland bo'yli nozik o'tlar orasidan ko'k, qizil, yashil, lola va chuchmomalar, sariq gullar, bo'tako'zlar bosh chiqarib turardi. Kim bilan, qayerdandir bu yerga kelib tushib ko'kargan bug'doy pishay deb qolgan. Bu o't- o'lanlar tagida kakliklar bo'yinlarini cho'zib, xiromon yurar edi. Havo turli-tuman parrandalar ovoziga to'lgan. Osmonda qanot yoyib, bir joyda turgan qar-chig'aylor o'tlar orasiga tikiladi. Bulutdan chet-roqda uchib borayotgan bir gala yovvoyi g'ozlar ovozining aks-sadosi qayerdadir uzoqdagi ko'ldan eshitilar edi. O't ichidan uchib chiqib, ko'm-ko'k havo to'lqinlari ichida qanot qoqib cho'milayot-gandek qanot qoqib-qoqib osmonga chiqqan oqqush ko'zdan g'oyib bo'lib ketdi, faqat bir qora nuqtadek ko'rindi, ana quyosh nuri ichida pirillab o'ynadi. Bu dasht-u biyobon muncha ham go'zal!

Yo'lovchilar ovqatlangani va bir necha daqiqa dam olgani to'xtadilar. Ularga hamroh bo'lib borayotgan o'n kazak otdan tushib, araq solingan zarang idishlarni bog'langan joyidan yechib oldilar. Moy bilan non yoki bittadan patir yedilar, mador bo'sin deb, bir kosadan may ichdilar, chunki Taras Bulba yo'lga chiqqanda ko'p ichishga ijozat bermas edi. Andak xo'rak qilib olgach, kechgacha yana yo'l yurdilar. Kechqurun dasht tamomila o'zgarib, boshqa tusga kirdi. Rang-barang turlanib turgan keng dala botayotgan kunning oxirgi nuridan yorishib, keyin sekin-sekin qorong'ilasha bordi. Soyaning yurishi va ko'kalamzorning tim ko'k rangga bo'yalib borishi aniq ko'rinish turar-

di. Yerdan ko'tarilayotgan bug' quyuqlashdi, har bir gul, har bir o'lan anbar bo'yи sochar, butun dasht xushbo'y hidlarga to'lgan edi. G'ira-shira qorong'i bosgan osmon yuziga, go'yo kattakon bir cho'tka bilan surtilgandek, qizg'ish zarhal yo'l tushdi; goh-gohida yengilgina barra bulutlar parcha-parcha bo'lib o'tar edi. Dengiz to'lqininining shamolidek mayin shabada o't-o'lanlar boshini o'pgandek mayin esib o'tar, odam yuzini silar edi. Kunduzdag'i nag'malar tinib, endi boshqa nag'malar boshlandi. Ola-bula yumronqoziqlar inlaridan chiqib, cho'qqayib o'tirib chiyillashar, chigirtkalar qattiqroq chirillasha boshlardi. Gohida uzoqdagi ko'ldan g'ozlar ovozi chiqib, havoni jaranglatardi. Yo'lovchilar dalaning o'rtasida to'xtab yotgani joy axtardilar. O't yoqib, qozon osib, umoch pishirdilar, qozondan chiqqan bug' os-monga chirmashar edi. Kazaklar ovqatlangach, otlarini o'tlagani qo'yib yubordilar va to'nlarini taglariga to'shab yotdilar. Osmondagi yulduzlar ularga qarab turardi. O'tlar orasidagi qurt-qu-mursqalarning guvillagan, chirillagan, shitirlagan ovozi tun qorong'isida ularning qulog'iga bir nag'madek eshitilar, sof havoda go'yo tozalanib, uyquga tolganlarni allalagandek bo'lardi. Mabodo, ulardan birortasi o'rnidan tursa butun dala uning nazarida yiltiragan rang-barang hasharotlarga to'lgandek ko'rinar edi. Gohida o'tloqlarda, daryo bo'ylaridagi qamishzorlarda yongan o'tda qop-qorong'i osmonning bir parchasi yorishar va ayni shu mahal Shimol tomonga uchib ketayotgan qator-qator g'ozlar oq-qizilga tozlanib yaraqlab ketar edi, kecha qorong'isida go'yo qizil ro'mollar uchib ketayotganga o'xshardi.

Yo'lovchilar eson-omon bormoqdalar. Hech qayerde daraxt uchramadi, hali ham bag'ri keng, go'zal sahro. Unda-bunda yiroqdagi Dnepr dar-yosi bo'yalaridagi daraxtlarning ko'm-ko'k uchlari ko'riniq qolardi. Taras faqat bir marta uzoqda o't ichida qorayib ko'ringan narsani ko'rsatib: «Bolalarim, ko'rdingizmi, hov ana chopib tatar ketyapti», – dedi. Uzun mo'ylovi kichkinagini bosh uzoqdan baqrayib qaragach, tozi itdek havoni hidladi-da, kazaklarning o'n uch kishi ekanliklarini ko'rib, bir lahzada ko'zdan g'oyib bo'ldi. «Qani, bolalar, unga yeta olasizmi? Ovora bo'l manglar, hech yetolmaysiz, uning oti mening Shayton otimdan ham chopqir». Ammo Bulba, mabodo, biror yerda biqinib yotgan tatarlar bo'lmasin deb ehtiyyotini ko'rib qo'ydi. Dnepraga quyiladigan Tatarka nomli anhor bo'yiga yetib kelgach, otlari bilan suvga tushdilar, izlarini bekitmoq uchun suvda ancha yurgandan keyin chiqib, yana to'g'ri yo'llariga ketdilar.

Bundan keyin yana uch kun yurgach, o'ylagan manzilga yaqinlashdilar. Havo salqinlashdi. Dneprning yaqinligi bilindi. Dnepr yiroqda yiltirab, usfdan ayrilib ketgan qora yo'ldek ko'rindi. Daryoning shabadasi yuzga urdi, borgan sari yaqinlashib, nihoyat yerning yarmisini egalladi. Bu yerlar daryoning yayrab, oshib-toshib oqayotgan joyi edi. Suvning o'rtasida unda-bunda paydo bo'lgan orollar daryo suvini yanada ko'proq yayar, qirg'oqlaridan oshirar, bunda uning to'lqlilari na toshga, na tepaga uchramay, yayrab-yayrab chayqalar edi. Kazaklar otdan tushib, kemaga mindilar. Uch soat suvda yurgandan keyin Xor-

titsa degan orol bo'yiga yaqinlashdilar. Makonini doim o'zgartirib turgan Sech shu yerda edi.

Daryo bo'yida bir gala odam shovqin-suron ko'tarib, kemachilar bilan so'kishar edi. Kazaklar otlarini rostlab oldilar. Taras ham o'ziga oro berib, kamarini mahkamroq tortib, kerilib, mo'ylolini silab qo'ydi. O'g'llari ham o'zlarini rostlab, qandaydir bir qo'rquv aralash bирgalashib Sechdan yarim chaqirimlik joydagи bir manzilga kelib tushdilar. Bu manzilga kirishlari bilan tomi chim bilan yopilgan yerto'lada ishlab turgan yigirma besh temirchilikdagi ellik bolg'aning ovozi ularning qu-log'ini bitirdi. Baquvvat ko'nchilar ko'chaga qaragan darvozaxonada o'tirib, yo'g'on-yo'g'on qo'llari bilan bir qancha ho'kiz terisini oshlar edilar. Attorlar chaqmoq tosh, miltiq dorilarini yoyib o'tirar edilar. Armani qimmatbaho ro'mollarni osib qo'yibdi. Tatar qo'yning kallasini unga belab, sixga tortib kabob qilar edi. Juhud bo'ynini cho'zib, bochkadan araq suzar edi. Ammo yo'lovchilarga eng avval uchragan odam, ko'chaning o'rtasida yalpayib uxlab yotgan zaporojyelik kishi edi. Taras to'xtab, zavq bilan unga qaramasdan o'tolmadi.

Taras otini to'xtatib: «Yalpayib yotishini qara-ya! Gavdasini qarang!» – dedi.

Darvoqe, uning yotishi juda haybatli edi. Ko'chaning o'rtasida arslondek cho'zilib yotar, uzayib tushgan kokili yarim gaz yerni olar edi; qimmatbaho qizil movutdan tikelgan shalvariga mol-davlatni hech nazar-pisand qilmaganini ko'rsatish uchun qora moy surtib qo'ygan edi. Bulba unga zavq bilan qarab, har xil hunarmand ustalar do'kon ochib ishlab turgan va turli-tuman millat odamlariga to'lgan tor guzardan o'tib ketdi;

aysh-ishrat bilan miltiqbozlikdan boshqa hech hunari bo'lмаган Sechni boqqan ham, kiydirgan ham yarmarkaga o'xshagan shu guzar edi.

Yo'lovchilar nihoyat guzardan o'tib, chim bilan yopilgan uylar yoki tatarchasiga kigiz yopilgan o'tovlarni ko'rdilar. Ba'zi uylarning oldida zambaraklar turardi. Guzardagi singari pastak bostirma uylar, past devorlar bunda yo'q. Hech qorovulsiz, pastakkina qo'rg'onchalar bundagi-larning juda beparvoliklarini ko'rsatar edi. Og'izlarida mushtuk bilan ko'chaning o'rtaSIDA bema-lol yotgan bir necha bahaybat zaporojyelik ularga e'tiborsiz qarab qo'ydi-da, qimir etmay yotaverdi. Taras o'g'illari bilan birga ular o'rtaSIDA o'tib ketayotganda: «Esonmisizlar, og'alar!» – deb so'rashdi. Ular ham «Salomat bo'ling!» deb javob qaytar-dilar. Har qadamda rang-barang kiyimli odamlar to'da-to'da bo'lib turardilar. Oftobda qoraygan yuz-lari ularning ko'p janglarni ko'rib va ko'p mash-aqqatlar tortib chiniqqanliklarini ko'rsatardi. Sech degani shu ekan-da! Sherdek mardlar, dilovar pahlavonlarning makoni shu edi. Bevosh kazak-lar butun Ukrainaga shu yerdan tarqalar.

Yo'lovchilar yurt yig'ilib maslahat qiladigan maydonga keldilar. To'ntarilgan kattakon bochka ustida ko'yakchan bir odam o'tirib, ko'ylagini yamar edi. Bir to'da mashshoqlar chiqib, ular yo'lini to'sdilar. Cholg'uchilar o'rtaSIDA bir yigit bosh kiyimini yarimta qilib, o'yinga tushar edi. O'yin-chi faqat: «Sho'xroq chalinglar! Foma, arag'ing-ni ayama nasroniylardan!» – der edi, xolos. Ko'zi shishgan Foma, kim so'rasa, katta bir kosada araq quyib berardi. O'yinchi yigit oldida to'rtta keksaroq odam tapir-tupir yer tepib o'ynar, keyin

shamoldek g'irillab aylanib, mashshoqlarni bosib ketgudek bo'lardi; so'ngra o'tirib olib, zarang yerni kumush nag'allari bilan toza shibbalar edi. Yerning gumburlagan ovozi tevarak-atrofga ketar, etiklar nag'alining do'pir-do'piri uzoqdan ham eshitilar edi. Ammo bular ichida birovi hammadan qattiqroq qichqirar, ko'proq o'yinga tushar, kokili yoyilib uchar, azamat ko'kragi ochiq edi. Egnida issiq po'stin, terga pishib ketgan.

Buni ko'rgan Taras:

– Po'stiningni yechsang-chi; terlab ketganiningni qara, – dedi.

O'yinchi:

– Iloji yo'q, – dedi.

– Nega?

– Iloji yo'q, shunaqa odatim bor, nimani egnimdan yechsam, araqqa sarf qilib yuboraman.

Azamatning na boshida bosh kiyimi, na belida kamari, na ustida to'ni, na belbog'i bor, bularning hammasi allaqachon joy-joyini topib, araqqa ketgan edi. Odamlar borgan sari ko'paydi; ular ham o'yinga qo'shildilar. Olamda misli ko'rilmagan sho'x, azamat ixtirochilar kazakcha deb nom berishgan bu o'yin ko'ngilda bor gina-kuduratni sidirib tashlar, lekin zavqi yo'q odam buni bilmas edi.

– Attang, otim bo'lmasa bir tushardim-da! Bir o'ynar edim-da! – dedi Taras.

Bu orada butun Sechda izzatli, obro'li oqsoqol mo'ysafidlar ham kela boshladilar. Taras bir qancha tanish-bilishlarini ko'rdi. Ostap bilan Andriy har qadamda ularning: «Pecheritsamisan! Esonmisan, Kozolup!» «Taras, qayerdan kelib qolding?», «Doloto, sen o'zing bunda nima qilib yuribsan?», «Salomatmisan, Kirdyaga! Gus-



tiy, qalaysan! Remen, seni bunda ko'raman deb xayolimga ham kelgani yo'q edi-ya!» degan tovushlarinigina eshitar edilar. Sharqi Rossiya-da o'zi xon, o'zi bek bo'lib yurgan va bu yerga kelgan barcha pahlavonlar bir-birlari bilan o'pishib, hol-ahvol so'rasha ketdilar: «Kosyan nima bo'ldi? Borodavka qalay? Koloper qalay? Pidsishko nima bo'ldi?» Taras o'z savollariga: «Borodavka Tolopanda osildi, Qiziqirmanda Koloperning terisini shildilar, Pidsishkoning boshi tuzlanib, Sargradga¹ yuborildi» degan javoblarni oldi. Keksa Bulba boshini quyi solib, «Yaxshi kazaklar qani!» – dedi.

III

Taras Bulba o'g'illari bilan Sechda yashay boshlaganiga bir haftacha bo'lib qoldi. Ostap bilan Andriy urush mashqlarini kam qilar edi. Sechdagilar urush mashqlari bilan ovora bo'lib, behuda vaqt o'tkazishni yoqtirishmasdi. Bundagi yigitlar jangning o'zida, urushda chiniqib, pishar edilar va bu sababdan ham ketma-ket urush bo'lib turar edi. Urush to'xtagan bekorchilik vaqtarda kazaklar boshqa bir narsa o'rganishni o'zlariga ep bilmay, gohida merganlik va chavandozlikni mashq qilar edilar; dala va yaylovlarga chiqib, vahshiy hayvon ovlashni o'rganar, qolgan bo'sh vaqtlarini o'yinkulgi, aysh-ishrat bilan o'tkazar edilar. Ularning serzavq xalq ekanliklari shundan ma'lum edi. Sech hayoti nihoyatda ajoyib bir hayot. Bu yerdagilar juda kayf-safoga berilgan. Bazm va ziyoftlar boshlanar edi-ku, lekin adog'i bo'lmas edi. Ba'zilar kosibchilik, ba'zilar savdogarchilik,

¹ Sargrad – hozirgi Istambul.

do'kondorlik qilar edilar. Lekin aksariyat, agar kissasida puli bo'lsa va topgan-tayangan davlati hali savdogarlar bilan araqfurushlar qo'liga o'tib ulgurmagan bo'lsa, kecha-kunduz aysh-ishrat bilan umr o'tkazar edi. Bu umumiy tomosha-yu bazmlarda kishini o'ziga maftun qiladigan allaqanday bir joziba yoki sehr bor edi. Bu – tomosha alam va qayg'usidan ichib, dumalab yotgan araqxo'r, bo'zaxo'rlar bazmi emas, to'lib-toshgan shodlik, xursandlik edi. Bu yerga kelgan har bir kimsa bor-yo'g'ini unutar, haligacha uning miyasi mashg'ul etgan ikir-chikirlarni orqaga tashlar edi. U o'zining o'tmishiga tupurar edi desak ham bo'ladi. Bu yerga kelgan odamlar o'zlariga o'xshagan keng osmondan boshqa na uy-joyi, na qarindosh-aqrabosi, na bola-chaqasi bor, doim o'ynagan-kulgan, zavqdan boshqa hech bir narsasi bo'lмаган, улфатларга ош 'шилиб, барча ташвішларни унүтиб, маишатбоzlikkа cho'mib ketar edi. Bu narsa boshqa hech qanday manbadan nash'a olishi mumkin bo'lмаган qaynab-toshgan shodlik, xursandchilik tug'dirar edi. Xushyoq-maslik bilan yerga yumalab yotib, rohat qilmoq uchun to'plangan bu odamlarning bir-birlariga aytgan latifalari, mayda-chuyda gap va hazillari shunday qizib, shunday jonli bo'lib ketar ediki, bularni eshitib indamasdan, kulmasdan o'tirmoq uchun zaporojyeliklar kabi beg'am bo'imoq kerak. Janubiy tomonda yashovchi ruslarni boshqa rus qardoshlaridan haligacha ayirib turgan katta bir xususiyatlari shudir. Bundagi shodlik, mastlik sururi qiy-chuv bilan o'tsa ham, lekin qovoqxonaga kirib olib, o'zini badmastlik quchog'iga tashlab, barcha tashvishlarni unutadigan ayrim odamlarning mastligi emas, o'rtoqlar, jo'ralar,

maktabdoshlar ulfatchiligi edi. Farq shunda edi-ki, maktabdagи tiz cho'kib o'tirish va qo'lda kaltak bilan o'tirgan muallimning maza-bemaza gaplарини eshitish оrniga, ular besh ming otliq bo'lib, hujum qilar edilar: koptok o'ynaydigan оланзор оrniga bepoyon qirlar, uzoqdan tatarning boshi ko'rinish qolgan, yashil salla o'ragan turk chaq-chayib qarab turgan bepoyon qirlarda javlon urar edilar. Farq yana shuki, ularni maktabda majburan birlashtirgan bo'salar, bu yerda ular o'z xohishlari bilan ota-onalarini tashlab, uylaridan chiqib kelganlar; bu yerdagi odamlar dor tagidan qochgan va o'limdan qutulib maishat va o'yin-kulgilarga berilgan, kayf-u safoga to'la turmushni topgan kishilardir. Bundagi odamlar olivjanoblik va oliyhimmatlik bilan kissalarida bir tiyin ham saqlab qola olmagan, shu chog'gacha bir oltinni katta bir davlat deb bilgan va ijarraxo'r juhudlar dastidan cho'ntaklari bo'shab, kissalarini ag'dar-to'ntar qilganda ham hech bir narsa topilmaydigan odamlardir. Bu yerdagilar diniy maktabning darrasiga chidamasdan qochgan va o'qib-o'qib alifni tayoqdan ajrata olmagan kishilardir. Ammo ular orasida Goratsiy, Sitserronlarning kimligini, Rim respublikasi nimaligini bilgan odamlar ham bor, keyinchalik qirol askarlari ichida ko'p ish ko'rsatgan zabitlar ham bor edi. Bular orasida qayerda bo'lsa ham jang qilmoqni o'zlariga ulug' bir maslak qilib olgan, o'zini odam bilgan mard kishilarning urishmasdan jim yotishini uyat deb hisoblagan va ko'pni ko'rgan zabitlar ham ancha bor edi. «Bizlar Sechda bo'lganmiz, pishganmiz, chiniqsan pahlavonlarmiz» deyish uchun bu yerga kelganlar ham ko'p edi. Bu yerda kimlar yo'q? Bu ajoyib dorila-

mon Sech o'sha zamon taqozosi edi. Urushni yaxshi ko'rgan, oltin qadahlardan may ichishni sevgan, tilla va tangalar, kimxob havaskorlari bu yerda o'zlariga doim kasb topar edilar. Faqat xotinparastlargina bu yerda hech narsa topolmaydilar, chunki ayol zoti Sechning tevarak-atrofiga ham yaqin kelolmas edi.

Ostap bilan Andriy ko'z o'ngida Sechga behisob odamlar kelganini va ularning hech kim qayerdan kelding, kim bo'lasan, isming-u zoting nima deb so'ramaganini ko'rib nihoyatda ajablanar edilar. Bu odamlar Sechga yaqindagina o'z uylariga qaytib kelgandek kelar edilar. Kelgan odam faqat askarboshi oldiga borib ko'rinish berar, askarboshi esa kelgan odamlardan odatda:

– Xush kelibsan, Isoga inonasanmi? – deb so'rар edi.

Kelgan odam:

- Inonaman, – deb javob berardi.
- Aziz avliyolarga iqrormisan?
- Iqrorman.
- Butxonaga borib turasanmi?
- Borib turaman.
- Qani, bo'lmasam, cho'qinib ko'r!

Kelgan odam cho'qinar edi.

Askarboshi:

– Xo'p, yaxshi, qaysi bo'linma tarkibiga kirishni xohlasang o'shangang kir, – der edi.

Shu savol-javob bilan butun rasmiyat tamom bo'lar edi.

Sechdagilarning hammasi bitta butxonada ibodat qilardilar va ro'za tutish, araq ichmaslik to'g'risidagi gaplarga aslo qulq solgilari kelmasa ham, bu butxonani bir tomchi qonlari qolgun-

cha muhofaza qilishga tayyor edilar. Foydaxo'rlik payiga tushgan juhudlar, arman va tatarlargina yurak hovuchlab, bu yerlarga kelib, tirikchilik va oldi-sotdi qilar edilar, xolos, chunki zaporoj-yeliklar savdolashishni bilmas, qo'llarini kissalariga solganda, qancha pul chiqsa, shuni berib, ketaverar edilar. Lekin foydaparast kishilarning bunda ko'rgan kuni qursin! Ular yonar tog'ning etagiga kelib, uy-joy qilgan kishilarga o'xshar edilar, chunki zaporojyeliklarning kissasida pullari qolmasa, bir xil ko'zi ochlar chiqib, do'konlarni buzib-yiqitib, mollarni talon-toroj qilib ketaverar edi. Sechdagilarning hammasi oltmis bo'linmadan iborat bo'lib, bo'linmalarning har biri o'z boshiga mustaqil bir respublikaga, hatto ko'proq hamma narsasi taxt va tayyor bo'lgan maktabxonaga o'xshar edi. Hech kim mol-u mulk orttirmas va mol boqmas, hamma narsa askarboshining qo'lida bo'lar, uni odatda otaxon der edilar. Pul, kiyim-bosh, ovqat, g'alla, hatto o'tin-ko'mir ham uning qo'lida bo'lar edi. Birovning ortiqcha puli bo'lsa ham, unga berib qo'yardi. Ko'pincha bo'linmalar o'rtasida janjal chiqib, mushtlashuvga aylanar, maydonga chiqib, to bir tomon yengilmaguncha mushtlashar edilar. Bir tomon zo'r chiqqach, tomosha boshlanar edi. Yosh o'spirinlarni o'ziga maftun qiladigan xususiyatlari ko'p bo'lgan Sechning ta'rifi ana shu.

Ostap bilan Andriy yoshlik va yigitlikning baracha g'ayrat va havasi bilan jo'sh urib turgan bu dengizga o'zlarini tashladilar va bir lahzada ota uyini ham, maktabni ham, avvalda ko'ngillariga g'ulg'ula solgan barcha narsalarni ham unutib, bu yangi turmushga cho'mib ketdilar. Bu yerning

har bir narsasi ularning xayolini mashg'ul qildi. Sechning doimiy bazm-u tomoshasi, o'yin-kulgisi, dorilamon idora va qonunlari ularni taajjublantirar edi; bunday dorilamon o'lkada bu xil qonunlar ularning nazarida, ba'zan, hatto haddan tashqari qattiq ko'rinar edi. Agar birorta kazak o'g'rilik qilsa, arzimagan bir narsani o'g'irlab qo'ysa, kazaklarning hammasiga isnod keltirgan bo'lar edi. Bunday odamni nomusini yo'qotgan, insofsiz deb la'nat doriga bog'lab, yoniga bir so'yil tashlab qo'yar edilar, har bir odam o'g'rini so'yil bilan bir marta urib o'tar edi. Shunday qilib, uni to o'lguncha urar edilar. Qarzini to'lamay muttahamlik qilgan odamni zanjirlar bilan to'pga bog'lab qo'yar edilar, yor-u birodarlaridan biri kelib, ajratib olmaguncha bandi bo'lib yotardi. Lekin birovni o'ldirganligi uchun odamlarga beriladigan qattiq jazo Andriyga juda qattiq ta'sir qildi. Odam o'ldirgan kishini tiriklayin o'raga tashlab, o'ldirilgan odamning tanasi solingan tobutni ustiga qo'yib, keyin tuproq tortar edilar. Bu jazo ko'p vaqt largacha uning esidan chiqmay, vahima bosib yurdi. O'lik solingan tobut bilan birga tiriklayin ko'milgan odam uning ko'zidan sira nari ketmadi.

Ko'p fursat o'tmay, yigitlarning ikkovi ham hammaga manzur bo'ldi. Ular aksari boshqa c'rtoqlari, ba'zida bo'linmadagilarning hammasi birga dalaga chiqib, undagi behad va behisob har xil parranda-darrandalarni, bug'u va takalarni ovlar edilar yo har bo'linmaning o'ziga chek bilan ajratilib berilgan ko'l, daryo va ariqlarga borib, to'r tashlar va natijada butun bo'linma baliqxo'rlik qilar edi. Kazak uchun imtihon bo'lguday hunar bo'lmasa ham, ulardagi g'ayrat-shijoat ularning

dong'ini chiqarardi. Yaxshi otadigan mergan, Dnepr daryosidan suvning oqimiga qarshi suzib o'tadigan bo'ladiilar. Bu ishlar Sechga kelgan har bir yangi odamni kazaklar jumlasiga olmoq uchun bir imtihon edi.

Lekin keksa Taras ularga boshqa bir kasb tayyorlamoqda edi. Bunday aysh-ishrat va o'yinkulgi bilan o'tgan umr uning nazarida zoye ketganday bo'lar, u haqiqiy ish istar edi. U doim butun Sechni mardonaliq ishiga boshlasam, mard-u maydon, ish ko'ssatadigan bir mojaro boshlasam deb o'ylar edi. Nihoyat bir kuni askarboshi oldiga kelib, to'ppa-to'g'ri:

– Askarboshi, odamlarimiz bir yayrasin, – dedi.
Askarboshi og'zidagi kichkina mushtugini olib, yoniga tupurib tashlagach:
– Yayraydigan joy yo'q! – dedi.
– Nega yo'q bo'lsin? Turklar yoki tatarlar ustiga otlansak bo'ladi.

Bemalol o'tirib, sekin mushtugini yana og'ziga olgan askarboshi:

– Turklar ustiga ham, tatarlar ustiga ham otlanishning iloji yo'q! – dedi.
– Nega iloji yo'q?
– Shunday, iloji yo'q. Sultonga biz urushmaymiz deb va'da qilganmiz.
– Axir u g'ayridin-ku. Xudo ham, payg'ambar ham g'ayridinlarni uringlar degan.
– Yo'q, haqimiz yo'q. O'zimizning dinimizni oraga solib, qasam ichmaganimizda va'dadan qaytsak mumkin edi, lekin endi sira iloji yo'q!
– Nega iloji yo'q! Haqimiz yo'q deganining nimasid? Ikkita o'g'lim bor, ikkovi ham yosh, o'spirin. Ikkovi ham hanuz urushni ko'rgani yo'q, sen

haqqimiz yo'q deysan. Zaporojyeliklar otlanib chiqmasin ekan-da!

– Keragi yo'q.

– Demak, kazaklarning kuchi behudaga yo'q bo'lib ketaversinmi, odamlar tuzukroq bir ish qilmay, bekorga sasib-chirib ketsinmi? Vatanga ham, dinga ham ulardan hech qanday foyda bo'lmasinmi? Bunday bolsa, bizning tirikligimizdan nima foyda? Dunyoda nima deb yuribmiz? Shuni menga uqtirib ber. Sen dono odamsan, bekorga askarboshi bo'lganining yo'q. Menga tushuntir, dunyoda nima uchun yuribmiz?

Askarboshi uning bu savoliga javob bermadi. U ham xiyla o'jar odam edi. Andak jim turgach:

– Nima desang ham, urush qilmaymiz! – dedi.

Taras yana qaytarib:

– Shundaymi? Urush qilmaymizmi? – dedi.

– Yo'q.

– Shu bilan urushni orzu qilmaylikmi?

– Urushni xayolingga ham keltirma.

Bulba dilida: «Shoshmay tur, nomardning bo-lasi! Tanbechingni beray!» – dedi-da, askarboshidan o'ch olishni ko'ngliga tugib qo'ydi. Taras u-bu bilan gapni bir yerga qo'yib, hammasiga ichirdi, mast bo'lgan bir necha kazak to'planishib, qoziqqa dovul osib qo'yilgan joyga chiqdilar. Odamlarni to'plamoqchi bo'lganda, odatda, shu dovulni chalar edilar. Dovulning cho'pi dovulchida turar edi. Bu yerda cho'pni topmay, har qaysilari qo'llariga bittadan kaltak olib, dovul chala boshladilar. Dovulning tovushiga, bir ko'zi ko'r, uyqu bosgan baland bo'yli dovulchi hammadan oldin yetib keldi.

Dovulchi kela solib:

- Dovulni kim chaldi? – deb dag'dag'a qildi.
Ichib olib, kayfi taraq bo'lgan oqsoqollar:
– Ovozing'ni chiqarma! Dovul chal degandan
keyin cho'pingni keltirib chalaver! – dedilar.

Dovulchi bunday voqealarning oqibati nima bo'lishini juda yaxshi bilganligidan, cho'ntagida ola kelgan cho'pni olib, dovulni chala boshladi. Dovul tovushi chiqishi bilan darhol zaporoye-liklar aridek yopirilib kelaverdilar. Kelganlar gir aylanib o'tirdilar. Dovul uchinchi marta urilgandan keyin oqsoqollar ham keldilar. Gurzisini ko'tarib askarboshi, muhrini ko'tarib, qozi-askar, qalamdonini ko'tarib mirza, hassasini ko'tarib yasovul keldi. Askarboshi bilan oqsoqollar bosh kiyimlarini olib, to'rt tomonga engashib salom berdilar. To'plangan kazaklar qo'llarini biqinlariiga tiragancha, gerdayib turar edilar.

– Bu yig'inning boisi nima birodarlar, tilagingiz nima? – deb so'radi askarboshi. Har tomondan chiqqan shovqin-suron va so'kishlar uni gapirishga qo'ymadni.

Olomon orasidan ba'zi birovlari:

– Gurzini tashla! Shaytondan tug'ilgan, darrov gurzini tashla! Endi seni bosh bo'lishingni xohlamaymiz! – deb qichqirishar edi. Es-hushi o'zida bo'lgan ba'zi bir hushyorlar ularga qarshilik qilmoqchi bo'lganday ko'rinar edilar. Lekin mastlar ham, hushyorlar ham mushtlasha ketdilar, shovqin-suron, to'polon boshlandi.

Askarboshi gapirmoqchi bo'lib ko'rdi, lekin g'azablangan qaysar olomonning urib o'dirishi dan qo'rqib, gapirmay qo'ya qoldi, chunki bunday voqea ko'p bo'lgan edi. Shu sababdan engashib,

40
xalqqa ta'zim qilganidan keyin gurzini yerga qo'yib, olomon orasiga kirib ketdi.

Qozi-askar bilan mirza va yasovul ham:

– Og'alar, biz ham martaba alomatlarini tashlaylikmi? – dedilar-da, mirza qalam va qalamdonini, qozi muhrini, yasovul hassasini yerga qo'ymoqchi bo'ldi.

Yig'in orasidan:

– Yo'q, sizlar o'z martabangizda turaveringlar, biz faqat askarboshini o'rnidan tushirmoqchi edik, chunki askarboshimiz xotinchalish bo'lib qolipti, bizga askarboshining asili kerak! – dedilar.

– Qani, endi kimni askarboshi etib saylaysizlar? – dedilar oqsoqollar.

– Kukubenkoni saylaymiz! – deb qichqirdi bir qism.

– Kukubenkoning bosh bo'lishini xohlamaymiz! Hali yoshlik qiladi, ona suti og'zidan ketgani yo'q! – deb qichqirishdi ba'zilar.

Ba'zi birovlar:

– Shilo bo'lsin, Shiloni askarboshilikka ko'taramiz! – deb qichqirdi.

Olomon orasidan ba'zilar:

– Og'zingga tosh, itvachcha, o'g'irlik qilib sharmanda bo'lg'an-ku, o'sha ham odammi, kazak emas, tatar, yo'qolsin araqxo'r, sohti qursin Shiloning! – deb koyidi.

– Borodatiyni askarboshi qilib ko'taramiz. Borodatiy bo'lsin!

– Borodatiyning sardor bo'lishini xohlamaymiz! Yo'qolsin nomard!

Taras Bulba bir-ikki kishining qulog'i tag'iga borib: «Kirdyagani saylaymiz denglar!» – deb shivirlab qo'ydi.

Olonmon orasidan ba'zi birovlar:

– Kirdyagani saylaymiz. Kirdyagani! – deb hayirsa, ba'zilar:

– Borodatiyni saylaymiz, – deb qichqirishar edi.

– Kirdyagani saylaymiz, Shilo kerak emas.

Kirdyaganing askarboshi bo'l shini xohlaymiz!

Nomi zikr qilingan kishilar o'z-o'zini sayladi degan gap bo'lmasin deb, darrov odamlar orasidan chiqib ketardilar.

Birov:

– Kirdyaga bo'lsin, Kirdyaga! – desa, birov: – Borodatiy bo'lsin, – deb qichqirar edi.

Keyin ish mushtlashishga aylandi. Oqibat Kirdyaga tarafдорлари zo'r chiqib, o'sha saylandi.

– Kirdyagani deganlar bu yoqqa yuringlar, – deb qichqirdilar.

Kazaklardan o'ntachasi yig'indan chiqib, uning tomoniga o'tdi. Ularning ba'zilari shu qadar mast ediki, zo'rg'a tikka turar edi. Bu o'ntacha kazak Kirdyaga saylanganligini bildirish uchun to'ppato'g'ri uning oldiga ketdi.

Yoshi qaytib, keksayib qolgan bo'lsa ham, ko'pni ko'rgan aqli Kirdyaga xuddi hech narsani bilmaganday chodirida bahuzur o'tirar edi.

Kelganlardan:

– Og'aynilar, nima deysizlar, nima maqsadda keldinglar? – deb so'radi.

– Qani yur, seni askarboshi qilib saylaylik.

– Birodarlar, rahm-shafqat qilinglar, bunday ulug' martabaga loyiq emasman! Men qayda-yu, askarboshilik qayda! Bunday ulug' vazifani o'tashga aqlim yetmaydi. Yurtda mendan boshqa tuzukroq odam qurib ketibdimi?

Kelganlar:

– Endi indamasdan boraversang-chi! – deb qichqirdilar. Ikki kishi uning qoʻltigʻidan ushlab, oyogʻini tirab, orqasiga chiranganiga qoʻymay, urib, turtkilab, tepkilab maʼraka oʻrtasiga olib keldi.

– Nomard, orqangga chiranma! It, axir seni izzat qilib, katta koʼtargandan keyin izzatingni bilda! – deb koyiganlar ham boʻldi.

Shu tarzda Kirdyagani maʼraka oʻrtasiga olib keldilar.

Uni sudrab kelganlar:

– Qani, ogʻaynilar, nima deysizlar? Shu kishining askarboshi boʼlishini xohlaysizlarmi? – deb xalq oʻrtasiga tashladilar.

Toʼplangan odamlar:

– Xohlaymiz! – deb qichqirdilar. Shovqin-suron olamni bosdi.

Oqsoqollardan biri gurzini olib, yangi saylangan askarboshiga tutqazdi. Kirdyaga rasm-odatni bajo keltirib, dafʼatan gurzini olmadi. Oqsoqol tagʼin tutqazdi, yana olmadi, uchinchi marta tutqizganda «barakalla» degan ovozlar koʼtarildi, shovqin-suron olamni tutdi. Bundan keyin eng keksa moʼysafidlardan toʼrt kishi oʼrtaga chiqib (Sechda juda qarib qolgan keksa kishilar yoʼq edi, chunki bu yerdagilarning hech biri oʼz ajali bilan oʼlmas edi) yogʼib oʼtgan yomgʼirdan, loy boʼlib qolgan tuproqdan har qaysisi bir siqimdan olib yangi saylangan askarboshining boshiga surtdilar. Suyuq loy boshidan oqib tushib, uning yuz-koʼzlari, moʼylovlari loyga bulandi. Ammo Kirdyaga joyidan qimirlamay turar va oʼziga bunday izzat-ikromlar koʼrsatgan kazak-larga rahmat oʼqir edi, xolos.

Saylov shu bilan tamom boʻldi. Bu saylovga hech kim Bulbadek xursand boʼlmagan boʼlsa ke-



rak, chunki Bulba Kirdyagani saylab, eski askarboshidan o'ch oldi va bundan tashqari, Kirdyaga uning eski qadrdon do'sti bo'lib, quruqlig-u suvdagi ko'p janglarda ikkovi birga bo'lgan, urushning azob-mashaqqatlarini birga tortgan edi. Yangi saylov to'yi boshlanib, hamma tomosha va xursandchilikka kirishib ketdi; shunday katta to'y bo'ldiki, Ostap bilan Andriy haligacha bunday to'yni ko'rмаган edi. Qovoqxonalar talon-toroj qilinib, sharob, sharbat, pivo va araqni tekinga ichaverdilar... Qovoqxonachilar o'zlar eson qolganlariga shukr qilar edilar. Tong otguncha polvon va botirlar sha'niga qo'shiq va ashulalar aytildi; do'mbira va chirmandalar, ibodatxonada zaporojyeliklarning dostonlarini aytib chalnadigan ruboblar bilan ko'cha-ko'ylardan to'da to'da bo'lib yurgan mashshoqlarni osmondag oy ham ancha vaqtgacha xo'b tomosha qildi. Nihoyat mastlik va horiganlik zo'r chiqib, hammani yengdi. Kazaklar har yerda dumalashib, o'rtoqlar bir-birlari bilan quchoqlashib, hatto yig'lashib, yiqilib qolaverdilar. Unda bir guruh bo'lib yotibdi, bunda yana bir to'dasi qulabdi, birov qulayroq joy axtarib, to'g'ri to'nka ustiga chiqib yotibdi. Baquvvatroq, o'zini tetik tutgan eng oxirgi odam hali ham g'o'ldirar edi, mastlik nihoyat uni ham yengdi, u ham yiqilib, butun Sech uyquga ketdi.

IV

Ertasi Taras Bulba zaporojyeliklarni biror ishga qo'zg'atish to'g'risida yangi askarboshi bilan maslahatlashar edi. Askarboshi aqli, ko'pni ko'rgan, yurtning baland-pastini bilgan, ayyor

odam edi. Avval: «Sira iloji yo‘q, va’dadan qaytib bo‘lmaydi» dedi, keyin biroz o‘ylab turib: «Mayli, ilojini qilamiz, va’damizdan qaytmaymiz-ku, lekin boshqa ilojini topamiz; yurt yig‘ilsin, lekin mening buyrug‘im bilan emas, o‘zlari to‘planishsin, buni qanday qilishni o‘zingiz bilasiz; bizlar oqsoqollar bilan birga hech narsadan xabarimiz yo‘qdek, keyinroq chiqamiz», – dedi.

Bu maslahatdan keyin oradan bir soat o’tar-o’tmas dovul chalindi. Darrov mast va yengiltak kishilar ham topildi. Maydonga behisob kazak to‘ldi. G‘ovur-g‘uvur gap boshlandi: «Kim», «Nega, nimaga yurtni to‘pladilar?» Hech kim javob bermas edi. Nihoyat u yoq bu yoqdan: «Kazaklarning kuni bekorga o‘tyapti, urush yo‘q! Oqsoqollar qo‘rqoq bo‘lib qoldilar, semirib ketdilar! Dunyoda haqiqat yo‘q ekan-da!» – degan gaplar chiqsa boshladи. Boshqalar avvalboshda bu gaplarni eshitib turdilar, keyin ular ham qo‘shilishib: «To‘g‘ri, dunyoda hech haqiqat yo‘q ekan!» deya boshladilar. Oqsoqollar bu xil gaplarga taajjublanib, qarab turgan-day bo‘lardilar. Nihoyat askarboshi o‘rtaga chiqib:

– Zaporojyelik og‘alar, ijozatingiz bo‘lsa, bir so‘z aytay! – dedi.

– Ayt!

– Hurmatli birodarlar, gap shuki, yurt ahlining ko‘pi qovoqchi juhudlardan hamda o‘z qarindoshlaridan ko‘p qarzdor bo‘lib qoldi, shu daraja ga yetdiki, hech kimda insof va diyonat qolmadи. Buni o‘zlarining ham xo‘b yaxshi bilasizlar. Yana shu gap ham borki, ko‘p yigitlarimiz urush nima ekanini haligacha bilmaydilar, holbuki, urush bo‘lmasa, yigit kishi tirikchilik qilolmaydi. Bu ham, hurmatli og‘alar, o‘zingizga ma‘lum. Um-

rida bir marta ham g'ayridin bilan urushmagan odamni zaporojyelik deb bo'ladi mi?

Bulba ko'nglida: «Ma'qul gapiryapti», – deb qo'ydi.

– Ammo, og'alar, meni ahd-paymonni buzib, urush qilmoqchi bo'ldi deb o'ylamanglar. Xudo saqlasin, mening murodim bu emas. Ammo cherkovlarimizning ahvoli yomon deb aytishga ham gunohdan qo'rqaman. Yurtimiz Xudoning karam va marhamati bilan necha yillardan beri bor, lekin ibodatxonamizning tashini qo'yavering-a, hatto ichidagi butlar ham tuzukkina yasatilgan emas. Hech bo'lmasa, kumush libos qilib berish ham hech qaysimizning esimizga kelmaydi. Bir-ikkitalar xayr qilib ketgan narsadan boshqa hech nima yo'q. Ularning xayri ham ko'p emas edi, chunki ular hayotliklarida bor-yo'qlarini ichib qo'ygandilar. Bu gaplardan maqsadim, g'ayridinlar bilan urush qilish emas. Urush qilmaymiz deb sultonga va'da bergenmiz, bu va'damizni buzsak, gunohkor bo'lamiz, chunki o'ttada dinimizning hurmati bor.

Bulba ko'nglida o'zicha: «Nega yana bu aljirayapti?» – deb qo'ydi.

– Xullas, og'alar, urush chiqarish imkoni yo'q. Bu mardlarning ishi emas. Ammo kalta aqlim bilan bilganim shuki, nuqul yoshlarning o'zlarini qayiqqa o'tqazib jo'natsak deyman. Anatoliya¹ qirg'oqlarini bir alg'ov-dalg'ov qilib kelsinlar, nima deysizlar, og'alar!

Olomon har tomondan:

– Hammamizni olib bor, hammamizni, dinimiz yo'liga boshimiz fido bo'lsin! – deb qichqirdi.

¹ Anatoliya – kichik Osiyoning dengiz bo'yłari.

Askarboshining quti o'chdi. Butun zaporoyeliklarni qo'zg'atish niyati unda yo'q edi. Yarash ahdini buzmoq uning nazarida nohaqlik edi.

– Hurmatli og'alar, yana bir so'z aytsam ijozatmi?

Zaporoyelyeliklar qichqirishib:

– Bas, bundan yaxshi nima der eding! – dedilar.

– Unday bo'sa xo'p. Men sizlarning xizmatkor ringizman. Ma'lum va ravshanki, hatto kitoblarda ham aytilganki, xalqning tilagi – Xudoning tilagi. Barcha xalq bir bo'lib o'ylab topganidan ma'qul roq'ini o'ylab topib bo'lmaydi. Ammo shunisi borki, yigitlarimizning bu o'yinlarini sulton jazosiz qoldirmasligi o'zingizga ma'lum. Biz shaylanib, hozir bo'lib tursak yaxshi bo'lardi, kuch-quvvatimizni saqlab turardik va hech kimdan qo'rmas edik. Bizlar hammamiz yurtimizni tashlab ketsak, tatarlar hujum qilib qolishi ham mumkin, ular turk sultonining ko'ppagidirlar. Bu ko'ppaklar old tomondan kelmaydilar, egalari bo'lganda uyga ham kirolmaydilr, lekin orqadan kelib pochadan oladi, tishlaganda ham hazilakam tishlamaydi. Haqiqatni aytadigan bolsak, kifoya qilganday odamimiz ham yo'q, miltiq dorilarimiz ham hammamizga yetgudek emas. Men bolsam sizning ixtiyorингиздаман, xizmatingizga hozirman.

Ayyor askarboshi so'zidan to'xtadi. Guruhlar ning baribir-biri bilan so'zlasha boshladi, aymoq oqsoqollar maslahat ochdilar, mastlar har tugul kamroq edi, shu sababdan jo'yali maslahatga qu loq solmoqqa qaror qildilar.

Bir necha kishi darhol Dneprning narigi bo'yida askarning omborxonasi va xazinasи turadigan joyga ketdi. Bunda suv tagida va qamishzor to'qay ichida askarning butun xazinasи va dush-

mandan g'animat olingan yarog'-aslalahalarining bir qismi yashirilgan edi. Qolgan boshqa odamlar qayiqlarni tuzatib, safarga hozirlashga tutindilar. Bir lahzada daryo bo'yi odamga to'ldi. Bir necha duradgor ustalar arra-bolta bilan hozir boldilar. Yosh-qari, keng yag'rinli zabardast yigitlar, sochiga oq tushgan mo'ysafidlar shalvarlarini shi-marib olib, tizzagacha suvga tushib, yo'g'on ar-qonlar bilan qayiqlarni sohildan suvga tortar edilar. Yana birovlar, tayyor, quruq holda va boshqa har xil yog'ochlarni tashib keltirardilar. Bir yoqda qayiqlarga taxta qoqar edilar, bir yoqda qayiqlarni to'ntarib, yoriqlarini bekitar, qora moy surtar edilar. Bir tomonda qayiqlarning yoniga qamish bog'lar edilar, chunki dengiz to'lqini qayiqni botirib yubormasligi uchun uning yonini baland ko'tarib, qamish bog'lash kazaklarda rasm edi. Daryo bo'ylab qator qurilgan o'choqlarga mis qozon osib, qayiqlarga quyish uchun mum eritardilar. Ish bilgan keksalar yoshlarga o'rgatardilar. Har tarafda taqir-tuqur, shovqin-suron. Daryo bo'yi junbishga keldi.

Shu onda kattakon kema suv bo'yiga yaqinlashib kelaverdi. Kemadagi bir to'da odamlar uzoqdan qo'llarini silkitar edi Bular yirtiq-yamoq kiyimli kazaklar edi. Ularning ko'pining egnilarida ko'ylak va og'izlarida kalta mushtukdan boshqa hech narsa yo'q edi. Ularning bu ahvoli biror baloga uchraganliklarini yoki bor-yo'q kiyimlarini ichib sop qilganliklarini ko'rsatar edi. Ular orasidan past bo'qli, keng yag'rinli, yoshi elliklarga borgan bir kazak chiqib keldi. U boshqalardan ko'proq baqirar, boshqalardan serharakatroq edi, ammo

ishlayotganlarning taqir-tuqur va g'ovur-g'uvuri-
dan uning gapini eshitib bo'lmas edi

Kema suv bo'yiga kelib to'xtaganda, askar-
boshi ulardan:

– Nima xabar keltirdingiz? – deb so'radi.

Ishlayotganlarning hammasi ishlarini to'xta-
tib, bolta-teshalarini ko'targancha ag'rayib turar
edilar.

Past bo'yli kazak kemada turib:

– Shum xabar keltirdik, – deb javob berdi.

– Qanaqa shum xabar?

– Hurmatli og'alar, sizlardan ijozat bo'lsa so'z-
layin.

– So'zla!

– Yoki yurtning hammasini to'playsizmi?

– Gapiraver, hammamiz shu yerdamiz.

Daryo bo'yidagilarning hammasi bir yerga jam
bo'ldilar.

– Getman yurtida bo'layotgan voqealardan
xabaringiz yo'qmi?

– Nima bo'libdi? – so'radi oqsoqollardan biri.

– Ana xolos! Hech narsa eshitmagan bo'san-
giz, tatarlar qulog'ingizga xo'b paxta tiqqanga
o'xshaydi.

– Tezroq gapir, nima bo'libdi!

– Bo'lgani shuki, onadan tug'ilib haligacha
bunday ishlarni ko'zimiz ko'rgan emas!

– Itvachcha, tezroq gapirsang-chi, nima bo'lib-
di! – deb olomon ichidan sabri qolmagan birov
baqirdi.

– Shunday zamon boldiki, aziz dinimiz qo'li-
mizdan ketdi, butxonalardan ajradik!

– Nega ajralamiz?

– Juhudlar butxonalarni ijaraga olibdilar. Juhudga juzya to'lamasak, ibodatimizni ham qilolmaymiz.

– Nima deyapsan?

– Demak, endi, itdan tug'ilgan itvachcha juhud harom qo'li bilan pasxamizga tamg'a qo'yib bermasa, nonimizni butxonaga olib borib, tabarruk ham qilolmas ekanmiz.

– Hurmatli og'alar, hamma gapi yolg'on, tabarruk pasxaga juhud harom qo'li bilan tamg'a bosishi aslo mumkin emas.

– Quloq soling, hali bundan battarini aytib beraman. Ukrainianing hammasida ksendzlar aravaga tushib, yurtma-yurt yurar emish. Aravada yurganlari ham mayli-ya, aravaga ot emas, bizning dindoshlarimizni qo'shar emish. Quloq soling, yana aytaman. Juhud xotinlar poplarimizning aziz to'nlarini yubka qilib kiyayotgan emishlar. Og'alar, Ukrainianada ana shunaqa gaplar bo'lyapti! Sizlar bo'lsangiz, bu yerda o'yin-kulgi bilan ovorasiz. Tatarlar juda yuragingizni olib qo'yganga o'xshaydi, qulog'ingiz eshitmaydigan, ko'zingiz ko'rmaydigan bo'lib qolibdi, dunyoda nima bo'layotganini bilmaysizlar.

Muhim ishlarda sira hovliqmaydigan, shoshmasdan jim o'tirib, barcha g'azab va qahrlarini bir yerga jamlab, keyin harakat qiladigan zaporoyeliklar singari haligacha ko'zlarini yerga qadab, jim o'tirgan askarboshi endi boshini ko'tarib:

– To'xta, to'xta, men ham bir-ikki og'iz so'z aytay, – dedi. – Sizlar nima qildingizlar, otangizni jin ursa, sizlar nima qilardingizlar? Qo'lingizda qilichingiz yo'qmidi? Shunday xo'rlikka qanday qilib yo'l qo'yib berdingiz?

— Qanday yo'l qo'yib berdingiz deydi-ya! Lyaxlarning o'zi ellik mingcha bor edi; o'zimizda ayb yo'q emas, yashirib nima qilamiz, o'z ichimizdan chiqqan itlar ham bor edi, bu nomardlar ularning diniga kirib ketdilar, bu ahvolda qo'limizdan nima kelardi.

— Getmaninglar, askarboshinglar nima qilishdi?
 — Askarboshilarning kunlarini Xudo hech kimga solmasin.
 — Nima qilishdi?

— Getman Varshavada allaqachon mis sixda kabob bo'ldi. Lashkarboshining qo'l-oyoqlari bilan boshini kesib, bozorlarda xalqqa tomosha qildirib yuribdilar. Lashkarboshilarning ishi shu bo'ldi!

Xalq orasida g'ala-g'ovur ko'tarildi; dahshatli qattiq bo'ron turar oldidan havo jim bo'lganidek, avval jimjit turdilar, keyin har tarafdan ovozlar chiqib, to'polon boshlandi.

— Juhudlar bizning ibodatxonalarimizni ijara qilib olaversinmi? Pravoslav dinidagilarni g'ayri mazhablar aravaga qo'shsinlar! Ha-ha! Rus yurtida la'nati g'ayridinlar shunday g'addorliklar qilsinlar! Lashkarboshi, getmanlarga shunday zulmlar qilsalar, qanday gap! Yo'q, bunday qilib qo'yamaymiz, aslo qo'yamaymiz!

Bu xil gaplar har yoqqa tarqaldi. Zaporoye-liklar g'ayratga mindilar, Bu qo'zg'alish yengil tabiatli xalqning to'poloni emas, balki qo'zg'alishi qiyin va lekin bir qo'zg'alsa, bir qizisa, sira tinxmaydigan, sira sovimaydigan salmoqli, vazmin tabiatli kishilarning qo'zg'oloni edi.

Olomon orasidan birov:

— Juhudlarning hammasini osmoq kerak, xotinlariga muborak to'nlardan yubka tikmasin-

lar, muborak pasxamizga tamg'alarini bosmasinlar, nomard itlarni bitta qo'ymay daryoga tashlamoq kerak! – dedi.

Olomonda birov og'zidan chiqqan bu so'zlar go'yo yashindek bir onda hammaga tarqaldi; olomon juhudlarni qirg'in qilmoqchi bo'lib mahalla-ga yopirildi.

Bechora juhudlarning qo'rkoq yuraklari qini-dan chiqib, araqdan bo'shagan bochkalarga, pechkalarga bekindilar. Ba'zilari, hatto xotinlar-ning ko'ylagi ichiga ham kirib ketdilar, lekin kazaklar ularni qayerda bo'lsa ham topib, omon qo'ymadilar.

Tayoqdek daroz bir juhud qo'rqqanidan ser-rayib qolgan basharasini ko'rsatib:

– Valine'matimiz, janoblar! Yolg'iz bir kalima so'zimiz bor, shuni aytaylik, haligacha qulog'ingiz eshitmagan, qimmatini aytib ado qilib bo'lmay-digan bir so'z aytamiz! – deb baqirdi.

Hamisha gunohkorning gapini tinglashni yax-shi ko'rgan Bulba:

– Mayli, gapirsin! – dedi.

Juhud:

– E, oliynasab zotlar. Sizdek yaxshini dunyo ko'rgani yo'q. Azbaroyi Xudo, aslo ko'rgan emas. Siz kabi saxiyalar, oliyhimmat mardlar olamda yo'q... – dedi. Qo'rqib qaltiraganidan nafasi ichida tushib, ovozi chiqmay qoldi. – Siz haqingiz-da birorta yomonlikni xayol qilishimiz mumkin emas. Ukrainianada ijara xo'rlik qiladiganlar bizlar-dan emas, ular boshqa! Azbaroyi Xudo, boshqa! Ular juhud ham emaslar, ularning kimligi ham noma'lum. Ular shunday xalqki, basharalariga tupurib tashlamoq kerak. Mana boshqalardan

ham so'rang; gapim rost emasmi, Shlyoma, yoki sen, Shmul, ayta qol!

Boshida yirtiq do'ppi, ranglari kesakdek gezargan Shlyoma bilan Shmul odamlar orasidan turib:

– Azbaroyi Xudo, rost! – deb javob berdilar.

Novcha juhud yana so'zlab:

– Bizlar dushman bilan aslo apoq-chapoqlash-ganimiz yo'q. Shayton vasvasasiga olgan kato liklarni bo'lsa aslo yaqinimizga yo'latmaymiz; siz lar bilan bir tug'ishgan og'a-inidekmiz... – dedi.

Olomondan birov:

– Nima deding, zaporojyeliklar senlar bilan og'a-inimi? La'nati juhudlar bizlarga teng bo'larmi, o'ylamang! Og'alar, nomardlarning hammasini daryoga tashlash kerak! – deb qichqirdi.

Shu odamning so'zi bilan juhudlarni ushlab daryoga tashlayverdilar; har tarafdan dod-faryod boshlandi. Juhudlarning paypoq kiygan, boshmoq kiygan oyoqlari osmondan kelganda rahmsiz kazaklar kulishar edi, xolos. Va'z aytaman deb, boshi baloga qolgan bechora juhudni to'nidan ushlagan edilar, to'nini yechib, bitta ola-bula kamzuli bilan qochib, Bulbaning oyog'iga o'zini tappa tashladi, zor-zor qilib yalinardi:

– Valine'matim, egam. Ulug' xo'jam, Xudo rahmati og'angiz Doroshni ham bilar edim. Bechora dilovar pahlavonlarning zebi, sultanati edi. Turk-larga bandi tushib qolganda ajratib olish uchun sakkiz yuz oltin pul bergen edim.

Taras:

– Og'amni bilarmiding? – deb so'radi.

– Xudo haqqi, bilar edim. Ko'p oliyhimmatli, saxiy odam edi.

– Oting nima?

- Yankel.
- Ma'qul, – dedi Taras, keyin biroz o'ylagach, kazaklarga qarab dedi:
- Juhudni qachon lozim bolsa osamiz, buguncha uni menga berib turinglar.

Taras kazaklari bilan aravalari turgan joyga juhudni olib ketdi.

– Qani, arava tagiga kir, qimirlamasdan yotaver; yigitlar, siz bu juhudni qo'yib yubormanglar.

Taras bu so'zlarni aytgach, maydonga qarab ketdi, chunki yurtning hammasi allaqachon o'sha yerga yig'ilal boshlagan edi. Bir onda hamma daryo bo'yini, qayiqlarni tashlab, bu yerga yig'ildi, chunki endi safar yo'li suvdan emas, quruqlikdan tushdi; kema va qayiqlar emas, ot-aravalar kerak bo'lib qoldi. Endi yosh-qari – hamma safarga otlandi; barcha oqsoqol, askarboshi va ellikboshilarning maslahati va Zaporojyening barcha lashkarlari xohishi bilan tikka Polshaga borib, polyaklarning qilgan yomonliklari, dinga va kazaklar sha'niga keltirgan xo'rliklari uchun ularдан o'ch olishga, shaharlardan o'lja olib qishloqlarga, ekinlarga o't qo'yemoqqa va butun sahroni larzaga keltirib, dovruqlarini chiqarmoqqa qaror qildilar. Hammalari shu ondayoq otlanib, aslahalarini taqa boshladilar. Askarboshi o'sib, go'yo bo'yiga yana bir gaz bo'y qo'shildi. U endi xalqning shamoldek beqaror, harna deganiga bo'ysunib bajaraveradigan ojiz kishi emas, balki butun ixтийор qolida bo'lgan amir, faqat buyruq qilishni bilgan mustabid edi. Bevosh, taralabedod pahlavonlarning barchasi boshlarini quyi solib, askarboshi buyruq qilganda ta'zim bilan yerga qarab, saf tortib turar edilar. Askarboshi chuqur mulo-

55
 hazalarga asoslangan botirliklarni bir emas, ko'p qilgan, ko'pni ko'rgan, tadbirli, aql-farosatli puxta bir kazakdek salobat bilan shoshmay va ovozini balandlatmay, og'ir-vazmin ohangda buyruq berar edi.

– Yaxshilab qarab chiqinglar, hamma narsalaringni birma-bir ko'zdan o'tkazinglar! Aravalarni, mol idishlarni tuzatib olinglar, miltiqlaringizni otib ko'ringlar, kiyim-kechakni ko'p olmanglar, odam boshiga bittadan ko'yak, ikkitadan shalvar, bitta mo'ndichada tariq-talqon olsangiz bas, hech qaysingiz bundan ortiq yuk olmang. Kerakli narsalardan aravalarga tag'in ortib olamiz. Har kazakda ikkitadan ot bo'sin. Ikki yuz juft ho'kiz ham olmoq kerak, chunki botqoq joylarga botganda, suvdan kechganda ho'kiz kerak bo'ladi. Og'alar, hammadan ham batartib bo'linglar. Orangizda shunday kishilar borki, agar Xudo yarlaqab, biror o'ljaga uchrab qolguday bolsa, qimmatbaho xitoyi tovar va duxobalarni darrov paytava qilib oladilar. Bunday shaytoniy fe'lni tashlang, har xil yubkalarga tegmang, faqat yaxshi qurol-aslaha duch kelib qolsa oling, so'ngra oltin-kumush bo'lsa oling, chunki bular ixcham bo'ladi va har qachon asqatadi. Yana, og'alar, shuni aytib qo'yamanki, agar safarga chiqqanda birortangiz ichib mast bo'sangiz, bunday odamga sud yo'q, bunday noma'qulchilikni qilgan odam askarimizning eng atoqli polvonlaridan bo'lsa ham itdek, bo'ynidan aravaning orqasiga bog'latdirib qo'yaman. Itdan battar qilib, o'sha yerning o'zidayoq otib tashlayman. O'ligi ham ko'milmasdan darranda-yu charrandalarga yemish bo'ladi, chunki safarga chiqqanda ichkilik ichgan odam-

ga dinimiz janoza buyurmaydi. Yoshlar, har ishda keksalarning gapiga qulqoq solinglar! Agar o'q tegsa yoki qilich tegib boshingiz yoki badaningiz yaralansa, ko'p e'tibor qilmasdan darhol bir otim miltiq dorini bir kosa araqqa qorib, ichib yuboring, shifo topasiz, isitma ham chiqmaydi; agar yara katta bo'lmasa bir siqim tuproqni kaftingizga tupuk bilan qorib, yara joyingizga qo'ying, shu bilan yara qotib qoladi. Qani, azamatlar, ishni boshlang, shoshmasdan puxta ish qiling!

Askarboshining gapi shu edi; u gapini tamom qilishi bilan hamma darrov ishga kirishib ketdi. Sech boshdan-oyoq hushyor bo'ldi, kazaklar orasida hech vaqt mastlik degan narsa bo'lma-gandek bitta ham mast odam topilmas edi. Birovlar tegarchaklarning temirini tuzatar, aravaga yangi o'q solar, birovlar aravalarga qoplab g'alla ortar, yarog'-aslalalar tashir, birovlar ot va ho'kizlarni haydab keltirar edi. Har tarafda otlar tuyog'ining ovozi, sinab otilgan miltiq tovushi, qilichlarning shaqir-shuquri, mollarning ma'rاغani, aravalarning g'ijiri, shovqin-suron, g'ovur-g'uvur boshlanib, tez fursatda kazaklar ko'chi butun dalani bosdi. Mabodo, birov cho'zilib ketgan karvonning boshidan oxirigacha yugurib bormoqchi bolsa, ko'p yugurmog'i lozim bolardi. Kichkina butxonada ibodat qilishdi, pop hammaga muborak suvdan sepdi, hammalari butni bir-bir o'pdilar. Karvon harakatga kelib, Sechdan jo'naganlarida, zaporojyeliklarning hammasi orqalariga qayrilib qaradilar. Hamma birdaniga:

– Onamiz, xayr senga! Seni har qazo, har balodan Xudo o'z panohida saqlasin! – deb xo'shlashdilar.

Bir guzardan o'tayotganda Taras Bulba o'zingning juhudi Yankel kapa qurib, chaqmoq dori, paytava, boshqa har xil yo'lga kerak buyumlar, hatto kulcha va nonlar ham sotib o'tirgani ni ko'rdi. Taras ko'nglida: «Shayton juhudni qara-ya!» – deb otini u tomonga surib borib:

– Tentak, bu yerda nima qilib o'tiribsan? Chumchuqni otgandek otib tashlasinlar deysam mi? – dedi.

Yankel javob o'rnida unga yaqinroq kelib, go'yo bir sir aytmoqchi bo'lgandek ikki qo'lli bilan isho-ra qilib:

– Xo'jayin, dampingizni chiqarmang, hech kim-ga aytmang, kazaklar aravasi ichida menga qarashli bir arava bor, kazaklarga kerakli har xil buyumlar yuklaganman, yolda yana turli oziq-ovqat topib, hech juhud sotmagan arzon baho bilan sotaman, azbaroyi Xudo, rost, – dedi.

Taras Bulba yelkasini qisib, juhudning uddaburoligiga hayron qolib, karvoni tomoniga qarab ketdi.

V

Tez orada Polshaning janubi-g'arbiy qismi boshdan-oyoq vahima ichida qoldi. Har yerda: «Zaporojyeliklar qo'zg'alibdilar, kelayotgan emishlar!» – degan ovoza tarqaldi. O'zini qutqara bilgan har bir kimsa qochdi. Ehtiyyotkorlikni, qo'rg'on va qal'alar solishni o'ylamagan va tatarlar kelib hamma yoqni xarob qiladigan bo'lgach, uylar solib bekorga pul va kuch sarf qilib nima qilamiz deb, o'zlariga faqat vaqtinchalik solingan poxol uylarda yashagan odamlar har tarafga tarqaldi-

lar. Hamma vahimaga tushib, to'polon boshlandi: birov qo'sh ho'kizini ot va miltiqqa alishib, sarboz bo'lib ketar, birov mollarini haydab, olib qochish mumkin bo'lgan bisotlarini ortib qochar edi. Ba'zilar qurollanib, yo'lga chiqib, kazaklarga qarshilik ham qilardi, lekin elburutdan qochib qolay deganlar ko'p edi. Zaporoye askaridek dong'i chiqqan va zohirda butun tuzilishi tartibsizlik, beboshlikdan iboratdek ko'rinsa ham, lekin jang va urushlar zamонiga moslangan bu to'polonchi, jangovar olomonga sira bas kelib bo'lmasligini hamma bilar edi. Otliqlar yuklarini og'ir qilmay va otlarini qiynamay borishar, piyodalar hushyorlikni qoldan bermay, karvon orqasidan borar edilar. Butun karvon kunduzi istirohat qilib, kechasi yo'l yurar, shahar va qishloqlardan va u zamonda har qadamda uchragan daraxtzoqlardan nariroq, xilvat joylardan borar edilar. Karvon oldida tilchi va ayg'oqchilar borib, ular yo'lning tinch-notinchligidan xabar berib turar edi. Aksari kutilmagan joylardan chiqib qolib, bor-yo'qni vayron qilar, qiron keltirar edilar. Qishloqlarga o't tushar, askarlar ketidan haydab olib ketish imkonи bo'lмаган mollarni shu yerdayoq so'yar edilar. Ular urushdan ko'ra ko'proq aysh-ishrat bilan, kayf-safo bilan ovora bolganday ko'rinar edi. U vahshiy zamonda zaporojyeliklarning qilgan bedodliklari endigi odamlarning tepe sochini tik turg'izar edi. Go'daklar qirg'ini, ko'kragi kesilgan xotinlar, tizzasigacha terisi shilinib, qo'yib yuborilgan odamlar, xullas, bu kabi vahshiyliklar ko'p edi. Kazaklar eski qarzlarini naqd pul bilan tolamoqda edilar. Bir ibodatxonanining ruhoniysi kazaklarning yaqinlashib kelganliklarini eshitib,

tarki dunyo qilgan rohiblaridan ikki kishini ular oldiga yubordi va hukumat bilan zaporoyjeliklar o'rtasida hech qanday xusumat yo'qligini, podsho amriga itoat qilmasdan bo'yin tovlasalar, xalq hurmat qilgan barcha qonun-qoidalarni buzgan osiylar jumlasidan bo'lislilarini bildirib, ularni to'g'ri yo'lga da'vat qilmoqchi bo'ldi.

Kazaklar askarboshisi:

– Xo'jayiningga borib, mendan va barcha kazaklar nomidan aytginki, sira qo'rqmasin, bu hali holva: kazaklar tamakisining tutunigina, xolos, – dedi.

Tez fursatda hashamatli ibodatxonaga o't ketdi. Uning serhasham baland derazalari alanga ichida qoldi. Har tarafga to'dalashib qochgan rohiblar, juhudlar va xotin-xalaj ozroq sarbozi bo'lgan va o'zini qo'riqlashga andak imkonni bo'lgan shaharlarga kelib tiqildilar. Hukumatning fursat o'tgandan keyin goh-gohida yuborgan bir necha guruh askarlari kelib, kazaklarni topolmas yoki ularga duch kelsalar, otlarini qamchilab orqalariга qochar edilar. Ba'zida avvalgi janglarda g'ala-ba qilib kelgan lashkarboshilardan bir nechalari to'planishib, zaporoyjeliklarga qarshi chiqar edilar. Talonchilikdan va manfaatparastlikdan yiroq bo'lgan va dushmanning kuchsizini emas, balki kuchlisini poylagan, yuragida keksalar oldida o'zini ko'rsatish orzusi yongan, arg'umoq otlarga minib kerilib, yengi tashlangan chakmon shamolda uchib borayotgan mag'rur polyaklar bilan yakka-ma-yakka olishib, mardligini ko'rsatish havasida bo'lgan yosh yigitlar bu paytlarda o'zlarini sinab qolar edilar. Ularning bu sinovi gashtli bo'lar edi; ular bunda ko'p egar-jabduq, qimmatbaho qilich va miltiqlar o'ja olar edilar. Yaqindagina temir

qanot chiqarib, uchirma bo'lgan qushlardek bir oy ichida chiniqib, tamomila o'zgarar va voyaga yetar edilar. Shu chog'gacha yigitga xos bo'lgan yumshoqlik yuzlaridan zohir bo'lib turganlarning yuzida endi bir dahshat, salobat, o'zlariga biroz g'alati tuyilar edi. Chol Taras bo'sa, ikki o'g'lining ham saralar jumlasidan bo'lganini ko'rib zavqlanardi. Nazarida jangovar yo'l, dilovar va og'ir vazifalarni bajarish Ostapning peshonasiga yozilganday ko'rinaridi; u har qanday hodisa yuz berganda ham hech esankiramasdan, sarosimaga tushmasdan yigirma ikki yoshli yigitning tabiatida bo'lmaydigan mardlik va vazminlik bilan bir lahzada har qanday xavf-xatarni daf qilar, darhol chorasi ni topar va xatarga chap berib qolar edi, lekin qochib emas, balki keyin uni yengmoq va daf qilmoq uchun chap berar, har bir harakatida dadillik, mardlik ko'rinar va kelgusida ko'plarga rahbar bo'lajagi har bir harakatidan ko'rinib turar edi. Uning vujudida bir quvvat-shijoat ko'rinar, mardlik-dilovarlik xislatlari endi yayrab aylanmoqda edi.

Qari Taras gohida unga qarab:

- Vaqtি kelsa alomat bir lashkarboshi bo'ladi, azbaroyi Xudo, ajoyib lashkarboshi bo'ladi! Shunday pahlavon bo'ladiki, mendek otasini ham yo'lda qoldiradi! – der edi.

Andriy o'q va qilichlar ohangiga maftun bo'lgan edi. O'ylash, mulohaza qilish, o'zining va boshqanning kuch-quvvatini taroziga solib o'lchab, so'ngra bir ish qilish degan narsani bilmas, jangdan zavq olib, uni bir dahshatli huzur, bir lazzat deb bilar edi. Kishi qizishib ko'zlari tingan, telbalangan, boshlar tanadan judo bo'lib, otlar gumbur-

lab yiqilgan paytlarda, o'q yog'ib turgan, boshda qilichlar o'ynagan paytlarda bularga parvo qilmay har tarafga ot qo'yar, o'ng-so'nga urar, boshqalariga zarba berar va boshqalardan olgan zarbasini sezmay, bu kezlarda o'zini go'yo mast bo'lib, bazm ichida yurgandek bilar edi. Andriyning g'ururlik g'ayrati junbishga kelib, esli-hushli odam hech bir vaqt jasorat qilolmaydigan ishlarga qadam bosganini, bunday g'ayrat-shijoati bilan ko'p janglarni ko'rib, chiniqqan keksalarni ham taajjubga soladigan ajoyib mo'jizalar ko'rsatganini ko'rgan otasi hayron qolar edi. Qari Taras uning ishlariga hayron qolib:

– U ham azamat, hech qanday dushman bungayam bas kelolmaydi, Ostap emas-u, lekin u ham xo'b dilovar yigit! – der edi.

Qo'shin to'ppa-to'g'ri Emanno shahriga qarab yurishga qaror qildi; ovoza gaplarga qaraganda bunda mol va xazina, davlatmand boylar ham ko'p edi. Bir yarim kun yo'l yurib, shaharga yovuq keldilar. Shahar xalqi kuchi yetgancha o'zini mudofaa qilishga, dushmanni uyg'a kirgizgandan ko'ra ko'cha-ko'ylerda, o'z eshiklari ostonasida jon berishga qaror qildi. Shahar atrofiga baland devor olingan edi, devori past yerkarta tosh terilgan va uylar solinib, bu yerkarta zambaraklar qo'yilgan, ba'zi joylariga qayin yog'ochidan baland qator qoziqlar qoqilgan, shahar mudofaa-sida turgan askarlarning kuchi xiyla bor edi va ularning ustlariga tushgan vazifaning muhimligini bilar edilar. Zaporojyeliklar shaharga kela solib birdan devorga minmoqchi bo'ldilar, lekin shahardagilar ular ustiga zambarak o'qi yog'dirdilar. Shahardagi savdogarlar va boshqa fuqaro

toifasi ham bekor turmasdan guruh-guruh bo'lib shahar devori tagiga keldi. Ularning chehrasiga boqqan odam ularning qarshilik qilishga qattiq jazm qilganlarini bilar edi. Xotinlar ham chetda turmasdan otlandilar. Shahar devoridan tosh-g'ishtlar, temir-tersaklar, xum-u ko'zalar, qaynatilgan qatron va nihoyat ko'zni ko'r qilib ochtirgani qo'yagan qop-qora qumlar kazaklar boshiga yog'ilal boshladi. Zaporojyeliklar qo'rg'on qamal qilishni yoqtirmas, bu ularning ishi emas edi. Askarboshi chekinishga buyruq berib:

– Og'alar, xafa bo'l manglar, hozir chekinamiz, lekin agar ulardan bittasini shahardan tashqari ga chiqarib yuborsak, men nasroniy emas, yaramas tatar bo'lay; hammasi bitta qolmasdan och qolib itdek o'lib ketsin, – dedi.

Askarlar orqaga chekinib, shaharni o'rab oldilar. Bekorchilikdan zerikib, tevarak-atrofdagi qishloqlarni talon-toroj qilishga, ekin va xirmonlarga o't qo'yishga, o'roq tegmagan bug'doylarni yilqilar ga oyoqosti qilishga tutindilar; o'sha yili hosil juda mo'l bo'lib, ekinlar tekis bosh tortgan va hamma dehqonlar suyungan edi, lekin kazaklar yaxshi ungan, ko'karib turgan bug'doylarga yilqilar ni qo'yib yubordilar. Shahardagilar ularning rizz-ro'zi bo'lgan, pishib turgan ekinlarning poymol bo'lishini ko'rgach, vahimaga tushdilar. Bu orada zaporojyeliklar barcha aravalarni shahar atrofiga ikki qator qo'rg'on qilib o'rab, o'z yurtlaridagi kabi bunda ham chodir qurdilar, chilim chekish, g'animat qilib qo'lga tushirgan yarog'-aslalahalarni almashtirish, mindi-mindi, juft-toq o'ynash bilan mashg'ul bo'lib ketdilar. Shaharga sira parvo qilmay, o'zlari bilan ovora bo'lib yotaverdilar.

Kechalari gulxan yoqardilar, har bir bo'linmaning oshpazi katta mis qozonda ovqat pishirar, kechasi bilan yonib chiqqan o't oldida posbonlar uxlamasdan tong ottiar edilar. Ammo oradan ko'p vaqt o'tmay bekorchilik ularni zeriktirdi, ichkilikni sog'indilar. Askarboshi askarlarga beriladigan may ikki hissa oshirilsin deb buyruq berdi; qiyin safar va xavf-xatar bo'lмаган vaqtarda ba'zida shunday ishlarga ruxsat berilar edi. Bu xil tiriklik yoshlarga va xususan, Tarasning o'g'illariga aslo yoqmadi. Andriy ancha zerikib qoldi.

Taras unga:

– Esi past, sabr qilsang murodingga yetasan; mushkul ish boshiga tushganda es-hushini qo'lidan bergen mard mard emas; bekorchilikka ham zerikmasdan sabr qilgan, birov nima desa ham qulqol solmay, o'z yo'lida mahkam bel bog'lagan odam marddir, – dedi.

Lekin g'ururi oshgan yigit bilan keksa kishining ittifoq bo'lishi imkondan tashqari. Ularning ikkoveda ikki xil tabiat, bir ishga ikki xil qarash bor.

Bu orada Tarasning Tovkachga topshirib kelgan lashkarlari ham yetib keldi. Tovkach bilan birga ikki yasovul, mirza va bir necha amaldorlar ham keldi. To'rt mingdan ortiq kazak yig'ildi, bular orasida o'z xohishi bilan otlanib, yo'nga chiqqan bir qancha ko'ngillilar ham bor edi. Yasovullar Tarasning bolalariga kampir onasidan duoyi salom, Kiyevdagi Mejigor ibodatxonasidan sarv yog'ochidan yasalgan bittadan ikkita but ham keltirdilar. Ikki o'gil muborak butlarni bo'yniga osib olarkan, beixtiyor mushtipar onasini eslashdi. Kampirning yuborgan bu sovg'asi ularga nimadan bashorat berar edi? Dushmanni yengib, eson-omon,

shod-u xurram, ko'p g'animatlar, kelgusida dos-ton bo'lguidek shon-shavkatlar, izzat-hurmat bilan o'z yurtlariga qaytib kelishlaridanmi yoki?.. Lekin kelajak degani ko'zdan g'oyib, odamning oldida qamishzor to'qaydan ko'tarilib chiqqan kuz tumanidek xira bo'ladi. Bu tumanda qushlar bir-birlarini ko'rolmay qichqirishib, past-u baland har tarafga uchadilar, bunda kaptar qarchig'ayni, qarchig'ay kaptarni ko'rmaydi, kushandasining yiroq va yaqinligini bilmaydi...

Ostap o'z ishi bilan mashg'ul bo'lib, bo'linmaga kirib ketdi. Andriy bo'lsa, o'zi ham bilmay, negadir yuragi siqlar edi. Kazaklar kechqurungi o'yin-kulgilarini tamom qildilar, qorong'i tushdi, iyul oyida bo'ladigan ajoyib, xush havo esdi. Andriy chodirga bormadi. Uxlamadi, beixtiyor ko'z o'ngidagi manzaraning tomoshasiga cho'mdi. Osmonda behad va behisob yulduzlar yiltirab yonar, tevarak-atrofda ancha joygacha orqasiga moy idishlari osilgan va dushmanidan g'animat olin-gan har xil yuk va ovqat ortilgan aravalalar turardi. Aravalalar oldida, tagida va atrofida zaporojye-liklar har xil vaziyatda dumalashib yotar edilar. Birovning boshida qop, birovning boshida bosh kiyimdan yostiq, birov-birovning biqiniga boshini qo'ygan holda yotar edi. Har bir kazakning yonida qilich, miltiq, mis qoplangan kalta mushtuk, temir chaqmoq bor. Kattakon, bahaybat ho'kizlar oyoqlarini taglariga bosib, tepadek bo'lib yotar edilar; uzoqdan qaraganda ular unda-bunda do'ppayib yotgan katta toshlarga o'xshar edi. O't ichida har tarafdan, uyquga kirgan askarlar ning xurragi eshitilar, ularning xurragini eshitgan daladagi otlar oyoqlaridagi tushovlaridan

achchiqlanib, kishnab javob qaytarar edilar. Bu onda mahobatli mudhish bir manzara iyul kechasingin go'zalligiga qo'shildi. Uzoqda shu'lesi tovlanib, o't ko'rindi. Bir yoqda ajoyib mahobatli alanga viqor bilan osmonga ko'tarilib, ko'k yuziga yoyildi, bir yoqda yonadigan bir narsaga uchrab to'satdan gurillab, osmon-u falakka chiqib ketdi, uning parcha-parcha bo'lib uzilgan uchqunlari osmonga chiqib o'chardi. Kuyib ko'mir bo'lgan ibodatxona go'yo bir qora rohib xo'mrayib turgandek, o'tning har bir shu'lesi tushganda mudhish hashamatini bir-bir ko'rsatib qo'yardi. Bir tomonda ibodatxonaning chorborg'iga o't ketib yonmoqda. Buruqsigan tutun ichida qolgan daraxtlarning pishillagan ovozi eshitilayotgandek bolardi. Alanga gurillab yuqori chiqqanda pishib turgan olxo'rilarni qip-qizil cho'g'dek yoritar, unda-bunda sarg'ayib turgan noklarni oltindek yaraqlatar, bular orasida devorga yoki daraxt shoxiga hamda uylar bilan birga o'tda yonib halok bo'lgan bechora juhud yoki sho'rlik zohidning o'ligi qorayib ko'rinar edi. Alanga tepasida pirillashib uchib yurgan qushlar g'uj-g'uj bo'lib turgan mayda butlarga o'xshar edi. Qamaldagi shahar uyqua kirgandek, tomlari, qoziq, devorlari, qo'rg'onlari uzoqdagi yong'in shu'lasidan tovlanar edi. U kazaklar orasiga kirib, oralab chiqdi. Posbonlar bo'tqalarni ishtaha bilan yeb, endi gulxan atrofida uxlamoqda edilar. Andriy bu beparvolikni ko'rib, hayron bo'ldi-da, yaxshiki, yaqin o'rtada dushman yo'q, hech kim xavf solmaydi deb xayolidan kechirdi. Nihoyat uning o'zi ham bir aravaga chiqib, boshi tagiga qo'lini qo'yib chalqancha yotdi; ammo uyqusi kelmay, anchagacha

ko'kka boqib yotdi. Havo ochiq, ravshan va tiniq. Osmonga belbog' bo'lgan «somon yo'li» oqarishib ko'rinar edi. O'qtin-o'qtin u hushidan ketgandek, ko'zları jimirlashar, uyqu bosib, nazarida osmon xiralashar, bir ondan keyin yana ko'zidan uyqu pardasi ko'tarilib, osmon yorishar edi.

Shu onda allaqanday odamning g'alati siymosi lip etib, ko'z oldidan o'tganday boldi. Andriy: «Uyqi bosyapti, yuzimni yuvsam, uyqim o'chib ketar», – degan xayol bilan ko'zini kattaroq ochgan edi, allaqanday toliqqan bemor odamning ozg'in basharasi u tomonga engashib qarab turgani ni ko'rdi. Yoyilib yotgan qop-qora, uzun sochlari boshga tashlangan ro'mol tagidan chiqib turardi. Bu odam ko'zining allaqanday yaraqlashi, qotma rangsiz yuzining so'lginligi kishining ko'nglini, uni odam emas, jin deyishga moyil qilardi. U beixtiyor to'pponchasiga qo'l uzatib, qaltiroq bosgandek:

– Kimsan? Jin bo'sang, yo'qol ko'zimdan, odam bolasi bo'sang, bemahal hazil qilibsan, bir otishda o'diraman! – dedi.

Jin javob o'rniga barmog'ini labiga qo'yib: «Tovush chiqarma», – deb yolvordi. Andriy qo'llini tushirib, tikilibroq qaradi. Uzun sochlardan, bo'yni va qora mag'izdan kelgan ochiq ko'kragidan uning ayol ekanini bildi. Ammo juvon bu yerning odami emas, chunki yuzi qorachadan kelgan va bemorlar chehrasidek rangsiz edi. Keng yonoqlari turtib chiqqan, o'zi so'lib, botib ketgan ko'zi qiyiq, qovog'i qayrilib tushgan. Andriy uning yuziga tikilib qaragan sari ko'proq taniganday bo'lardi. Nihoyat sabri chidamay:

– Ayt, kimsan? Tanishga o'xshaysan yoki biror joyda ko'rganmidim? – dedi.

– Ikki yil burun Kiyevda.

O'tgan talabalik vaqtlaridan xotirada nima qolgan bo'lsa, hammasini esiga olishga harakat qilib:

– Ikki yil burun Kiyevda? – deb qaytardi. Uning yuziga yana bir karra tikilib qaragach, birdan: – Tatar misan! Hokim qizining cho'risimisan!.. – deb ovozining boricha qichqirib yubordi.

Tatar xotin qo'llini qovushtirganicha yolvorib, a'zoyi badaniga titroq kirib:

– Jim! – dedi va Andriyning shovqinidan biror kimsa uyg'onib qolmadimikan deb orqasiga qayrilib qaradi.

Andriy nafasi tiqilib, yuragi yorilguday bo'lib:

– Ayt, ayt, sen nimaga va nima uchun bu yer ga kelding? Malika qayerda, tirikmi? – dedi. Hovliqdan nafasi ichiga tushib zo'rg'a gapirardi.

– Malika shu yerda, shaharda.

Andriy yana beixtiyor qichqirib yuborguday bo'lib:

– Shahardami? Nega u shaharda? – dedi. Vujudagi hamma qoni nazarida yuragiga kelib quyilib, tiqilib qolganday bo'ldi. – Shaharga nega keldi?

– Chunki hokimning o'zi ham shaharda. Bir yarim yildan beri Emanno shahriga hokim.

– Erga tekkanmi? Gapirsang-chi tezroq, g'alati misan, qalay axir u...

– Ikki kundan beri hech narsa tatigani yo'q.

– Nega!

– Shahar xalqidan hech kimda allaqachondan beri bir burda non yo'q. Hamma anchadan beri faqat tuproq yeydi.

Andriy taxta bo'lib qoldi.

– Malika shahar devoridan qaraganda zaporoj-yeliklar orasida senga ko'zi tushib qolibdi. Borib,

pahlavonga aytgin, agar men esida bo'ssam, bu yoqqa kelsin, agar unutgan bo'ssa, kampir onamga bir burda non berib yuborsin, chunki onamning ko'z oldimda o'lib ketishiga aslo chidolmayman. Avval men o'lay, onam mendan keyin o'ssin. Yolvorib so'ra, oyog'iga yiqil. Uning ham kampir onasi bor, o'sha onasi uchun bersin deb meni yubordi.

Kazakning yosh dilida birtalay hissiyot uyg'on-di, yondi.

- Sen bu yerga qanday kelding?
- Lahm bilan keldim.
- Lahm bormi?
- Bor.
- Qayerda?
- Mard yigit, hech kimga aytmaysanmi?
- Muqaddas dinim ursin, aytsam!
- Jarga tushib ariqdan o'tgandan keyin qamishzor bor-ku, shunda.
- Xuddi shaharning o'ziga chiqadimi?
- To'ppa-to'gri shahar ibodatxonasiga chiqadi.
- Yur, hozir yur.
- Iso paygambar-u Bibi Maryam haqi, bir burda non ber!
- Xo'p, beraman. Sen arava oldida tur yoki yaxshisi, aravaga chiqib yot; hamma uxbab yotibdi, hech kim seni ko'rmaydi, men hozir qaytib kelaman.

Andriy o'z bo'linmasiga qarashli ovqatlar saqlangan aravalalar tomonga qarab ketdi. Yuragi o'ynar edi. O'tmish zamonlar, kazaklar turgan lashkargoh, azob-mashaqqatlarga to'lgan jangbozlik hayoti orqasida pinhon bo'lgan narsalar to'satdan yuzaga chiqib, uni g'arq qilib yubordi. Go'yo den-

giz qa'ridagi paydo bo'lgandek, yana o'sha mag'rur xotin Andriy ko'z oldida namoyon boldi; uning chiroyli qo'llari, ko'zlar, kulib turgan lablari, siynasiga tushgan to'sdek qop-qora qalin sochlari, kelishgan qaddi-qomatining dirkillab turgan har bir a'zosi yodiga tushdi. Yo'q, bular yodidan chiqmagan, ko'nglida so'nmagan, faqat boshqa kuchli sezgilarga o'rinn berish uchun bir chetga chiqib turgan edi, xolos. Ammo bu xayollar yosh yigitning qattiq uyqusini ko'p buzar edi, uyqusi o'chib, ko'p vaqtlar uxlayolmasdan to'lg'anib, bedor yotar va bu holning sabin bilishga ojiz edi.

Andriy ketyapti, lekin qizni yana ko'rish tuyg'ulari dilini o'ynatar, tizzalari qaltirar edi. Aravalar oldiga kelgach, nimaga kelganini esidan chiqardi, nimaga kelganini eslab olmoqchi bo'lib, anchagacha peshonasini qashib turdi, nihoyat esiga kelib, cho'chib tushdi, butun vujudi larzaga keldi, xayolida qiz ochdan o'lgandek bo'ldi. Darhol aravaga chiqib, bir necha bolak katta qora nonni qo'ltiqlab oldi. Lekin shu ondayoq zabardast yigitlarga xo'b yaxshi ovqat bo'lgan bu non uning nozik badaniga yoqmasmikan, unga botmasmikan deb o'ylab qoldi. Kecha askarboshi uch marta umoch bo'ladigan unni bir marta osh qilib qo'yibsan, deb oshpazni koyigani esiga tushdi. Qozonda, albatta, umoch osh bo'lsa kerak, deb otasining safarda ovqat qiladigan qozonchasi olib, oshpaz oldiga ketdi. Oshpaz tagida kuli sovumagan o'n chelaklik ikki qozon o'tasida uxlاب yotardi. Qozonlarga qarab, ikkovining ham bo'shligini ko'rib hayron qoldi. Ularning bo'linmasida odam kam bo'la turib, shuncha ovqatni birato'lasiga yeb tamomlamoq hazilakam gap

emasdi. Boshqa bo'linmalarning qozoniga ham qaradi, ularda ham hech narsa yo'q: «Zaporoyeliklar bolaga o'xshaydilar – oz bo'sha ham qolmaydi, ko'p bo'sha ham qolmaydi», – degan gap beixtiyor yodiga tushdi. Nima qilsin? Otasining askarlariga qarashli aravalardan qaysidir birida ibodatxona novvoyxonasidan talanib olingan bir qop oq non bor edi, shekilli. Andriy to'ppa-to'g'ri otasining aravasi oldiga keldi, lekin aravada qop yo'q. Ostap qopni boshiga qo'yib, arava tagida xurraq otib, uxbab yotardi. Qopni bir qo'li bilan tortgan edi, Ostapning boshi yerga tushdi; u cho'chib uyg'ondi-yu, dik etib turib o'tirdi va uyquga to'la ko'zi bilan ovozining boricha: «Ushla, ushla, badbaxt lyaxni ushla! Otni tutinglar, otni!» – deb baqirdi. Andriyning quti o'chib, qo'lidagi qopni o'qtalib: «Tovushingni chiqarma, o'diraman!» – deb dag'dag'a qildi. Ammo Ostap allaqachon jim bo'lib uxbab qolgan, xurragining shabadasiga yotgan yeridagi o'tlar tebranar edi. Ostapning uyqu ichida qilgan shovqini bitta-yarimtani uyg'otib qo'ymadimikin degan xavotir bilan Andriy u yonbu yoniga alanglab qaradi. Yaqindagi bo'linmadan kokilli bir bosh ko'tarilib qaragandek bo'ldi, lekin u ham u yon-bu yoniga qarab ag'darilib yotaverdi. Andriy andak turgach, qopni ko'tarib, yo'nga tushdi. Tatar xotin damini chiqarmay yotardi.

– Tur, ketamiz, hamma uyquda, qo'rqlma! Mabodo, bu yuklarning barisini men ko'tarolmasam, bitta nonni ko'tarib olasanmi?

U shunday deb qopni orqaladi, bir arava oldidan o'tarkan, yana bir qop tariqni ham ko'tarib oldi. Tatar xotinga ko'tartirmoqchi bo'lgan nonlarni ham qo'ltinglab olib, qaddini andak buk-

kanicha, uyquda yotgan zaporojyeliklarni oralab, dadil ketaverdi.

Andriy otasining yonidan o'tib ketayotganda u payqab qolib:

– Andriy! – deb chaqirdi.

Yuragi orqasiga tortib ketdi; qaltirab turib, astagina:

– Labbay! – dedi.

– Yoningda ayol kishi bor-a! Tursam, azbaroyi Xudo, teringni shilaman! Ayol zotiga ilakishsang, yaxshi bo'lmaysan!

Taras buni aytgach, boshini tirsagiga qo'yib, choyshabga o'ralib olgan tatar xotinga tikilib qaradi.

Andriy otasining yuziga qaragani yuragi betlalay, quti o'chib bezrayib qoldi. Birozdan keyin boshini ko'tarib qarasa, chol Bulba boshini kaftiga qo'yib, uxbab yotibdi.

Andriy cho'qinib oldi. Ko'nglidagi vahima qanday to'satdan kelgan bo'lsa, shunday to'satdan yo'qoldi. Tatar xotinga qaramoqchi bo'lib qayrildi. U chodirga o'ralib, qop-qora tosh haykaldek uning ko'z o'ngida tik turar, yiroqdagi o't shu'lasasi uning murda ko'zidek so'ngan ko'zlarinigina yoritib ko'rsatardi. Andriy xotinni yengidan ushlab tortdi: ikkovi har damda orqaga qarab-qarab ketaverishdi. Bora-bora qiyalikdan jar bo'yiga tushdilar. Jarlikdan suvi yalqovlanib oqqan, qirg'og'ini qiyoq bosgan, har qadamda bir do'ng do'ppayib turgan ariq bo'yiga keldilar. Jarga tushgach, sayhon daladagilar ko'zidan g'oyib bo'ldilar. Andriy qayrilib qaraganda, odam bo'yicha keladigan balandlikdagi tikka yon bag'ir devordek uning oldini to'sib qoldi. Tepasida bir

necha o't silkinib turar, osmonda qizil oltindan yasalgan o'raqqa o'xshagan oy yonboshlab turar, qir tomondan esgan shabada tong yaqinlashib qolganidan xabar berardi. Ammo na shahar tomondan, na vayron bo'lgan tevarak-atrofdan qichqirgan xo'roz ovozi kelar edi. Ular kichkina yog'och ko'priordan o'tdilar. Ariqdan o'tdilar, jarning bu tomoni narigi tomonidan yanada baland va tikroq ko'rinar edi. Bu yer shahar qo'rg'oni ning tabiiy mustahkam joyi edi. Har holda shahar devori bunda pastroq, posbonlar ko'rinas edi. Ammo nariroqda ibodatxonaning qalin devori baland chiqib turardi. Jarning tik yon bag'rini o't bosgan. Jarlikdagi ariq bo'yida odam bo'yi keladigan qamish o'sib yotardi. Jar ustida ekinlardan qolgan barg va poyalar ko'rinar va bular bir vaqt-larda bu yerda ekin borligini ko'rsatar edi. Sassiq o'tning shapaloq-shapaloq katta barglari ichidagi qulqoq o'tning boshi, chaqirtikanak, bo'yini ham-madan baland cho'zgan kungaboqar ko'riniib turar edi. Bu yerga kelganda, tatar xotin oyog'idagi kavushini tashladi-da, yalang oyoq bo'lib, etagini ko'tarib oldi, chunki borayotgan yerkari botqoqlik va ko'lob edi. Ular qamishlar orasidan o'tib, shox bosilib qo'yilgan va to'g'on qilingan joyga keldilar. Shoxni olib tashlab edilar, bir g'or ko'rindi; g'orning og'zi tandirning og'zidek edi. Tatar xotin boshini engashtirib g'orga kirdi. Uning ketidan yelkasidagi qoplari bilan ikki bukilib Andriy ham kirdi; andak fursatdan keyin ikkovi qop-qorong'i zulmatga kirib ketdi.

VI

Andriy tor va qop-qorong'i g'or ichida qopdagi nonlarni ko'tarib, tatar ayolning ketidan arang borar edi.

– Hozir yorug'likka yetamiz, men sham qo'yib ketgan joyga yaqinlashdik, – dedi juvon.

Darhaqiqat, g'orning qop-qora devorlari sekinskin yorisha boshladi. Birozdan keyin kichkina supachaga yetdilar; bu joy qo'ng'iroqxona bo'lsa kerak, chunki devor tagida kichkinagini kursicha qo'yilgan va uning ustida bo'yoqlari ko'chib, siyqalanib qolgan Bibi Maryam surati bor edi. Surat oldiga osib qo'yilgan kichkina kumush shAMDONDAN g'ira-shira yorug' tushib turardi. Tatar ayol engashib, yerdan uzun oyoqli mis shamdonni oldi, shamdonga zanjir osilgan, zanjirga shaming burnini oladigan qaychi va kurakcha osig'liq edi. Xotin shamni chiroqchadan yoqib oldi. G'or ko'proq yorishdi; birgalashib borayotganlari goh yorug', goh qorong'i tushib, xuddi Jerardonning della notte¹ degan suratlariga o'xshar edilar. Ju vonmardning sog'lom, mohtobdek yuziga qarganda, hamrohining yuzi za'sarondek sarg'aygan, so'ligan edi. G'orning ichi bir muncha kengaydi, Andriy qaddini rostlab oldi. U Kiyevdagagi g'orlarga o'xshagan bu lahmning devorlariga taajjub bilan qarardi. Kiyev g'orlarida bo'lgan tokchalar bunda ham bor, ba'zi joyda tobutlar ham bor edi. Gohida rutubatdan chirib, undek uqalanib tushgan

¹ Gerard Gontgorst – (1590–1656) niderlandiyalik rassom. Tunda mash'ala va chiroqlar bilan yoritilgan manzaralarni ko'p tasvirlagani uchun unga «tun rassomi» deb taxallus qo'yilgan.

odam suyagi ham uchrardi. Bu dunyoning tashvish va g'avg'olaridan, kulfat-u g'am, vasvasalaridan qochgan aziz avliyolar bunda ham bo'lganliklari ko'rinish turardi. Ba'zi joyda nam ko'p bo'lib, shundoqqina suv edi. Charchab qolayotgan hamrohiga dam bermoq uchun Andriy har qadamda to'xtar edi. Xotinning bir burda yegan noni ovqat hazm qilishdan chiqib qolgan qornini og'ritdi, shu sababdan xotin o'qtin-o'qtin to'xtab, harakat qilolmay, turib qolar edi.

Nihoyat ular kichkina temir darvozaga duch keldilar. Tatar xotin zaif ovoz bilan: «Xudoga shukr, keldik», – dedi, so'ngra darvozani qoqmoqchi bo'lib, qo'lini ko'taray desa, ko'tarolmadi. Shu sabab Andriy darvozani qattiq qoqdi. Gumburlab chiqqan ovozdan u tomon yalanglik ekani ma'lum bo'ldi. Gumburlagan ovoz go'yo baland gumbazga borib yetgandek bo'ldi. Nihoyat, eshik ochildi. Qo'li-da kalit va sham bilan tor zinada turgan rohib ularni kutib oldi. Katolik mazhabida bo'lgan rohibni ko'rishi bilan Andriy beixtiyor to'xtab qoldi. Kazaklarda nafrat tug'dirgan bu zohidlarni ular juhuddan battar qilar edilar. Rohib ham zaprojyelik kazakni ko'rgani hamon orqaga tisarildi, ammo tatar xotin nimadir degan edi, u xotirjam bo'ldi. Rohib ularga chiroq tutdi, ketlaridan darvozani qulflab, zinadan yuqoriga boshlab bordi; bir mahal ular ibodatxona butxonasining baland qorong'i gumbazi tagidan chiqib qoldilar. Baland shamdonlarda qator shamlar yonib turgan mehroblardan biri oldida pop tiz cho'kib, ohista-ohista duo o'qir edi. Uning ikki tomonida yoqasiga oq to'r qadalgan, qizil to'n kiygan ikki yosh hofiz qo'lida shamdon bilan turar edilar. Pop Xudodan mo'jiza

so'rар, shaharga najot, odamlarga sabr-toqat, qanoat tilar edi. Arvohga o'xshagan bir necha xotin tiz cho'kib, kuch-quvvatdan ketib, quyi solingan boshlarini oldilarida turgan kursi va qora yog'och o'rindiqlarga qo'yib, sajda qilgandek turar edilar. Yana bir necha erkak yon tomondagi gumbazlarning ustunlariga suyanib, ma'yus holda tiz cho'kib o'tirardilar. Quyoshning ertalabki qizg'ish nuri mehrob tepasidagi rang-barang oynali darchani yoritdi-yu, ko'k qizil va boshqa xil shu'lalar dan qorong'i butxona birdan yorishib ketdi. Butxonaning to'riga chuqurlashib kirib kelgan mehrob bir lahzada yarqirab ketdi. Shamdondagi sham tovlanib, alvon rangga bo'yalgan bulutdek yoyildi. Andriy qorong'i burchakda turib, kun shu'lasining ko'rsatgan mo'jizasini hayrat bilan tomosha qilar edi. Shu mahal chalingan qo'ng'iroqlarning viqor bilan chiqqan ovozi butxonani yangrattdi. Bu ovoz borgan sari avj olib, nola-yu faryodga keldi, keyin sekin-sekin tushib, xushovoz sozanda qizlar hofizlik qilgandek, samoviy bir ohang baland yuksalib, gumbazlarni nolaga keltirdi, yana bir faryod urib tushdi, pasaydi, o'chdi. Nag'ma ovozi anchagacha gumbazlarni sadoga keltirib turdi. Andriy bu dabdbabli musiqa zavqiga botib, ag'raygancha qoldi.

Shu on birov uning etagidan tortdi. Tatar xotin:
– Vaqt bo'ldi, – dedi.

Ular butxonadan o'tib, hech kimga sezdirmasdan, butxona oldidagi maydonga chiqdilar. Quyosh nurlari osmonga allaqachon yoyilgan, har bir narsa kun chiqqanligidan darak berardi. Maydonda hech kim yo'q. Uning o'rtasida taxta xontaxtachalar turar va ular bir haftagini avval bunda bozor bo'lib, ovqatlar sotilganidan xabar

berardi. U zamonda tosh terilmagan ko'chada to'p-to'p loylar qurib yotardi. Chorsining tevarak-atrofidagi bir qavatli g'isht uylarning to'sinlari, sarrof va ustunlari ko'riniib turardi. U zamonlarda shaharliklar shu xilda imorat solardilar; Litva va Polshaning ba'zi joylarida hali ham shu xildagi imoratlar bor. Bu uylarning tomi nihoyatda baland bo'lib, tuynuk va darchalari ko'p edi. Butxonaga yaqin bir tomonda, birorta mahkama yoki devonxona bo'lsa kerak, boshqa uylarga o'xshamagan baland bir imorat turardi. Bu imorat ikki qavat bo'lib, tepasida mezanasi ham bor va bu mezanada posbon turardi. Uyning peshtoqiga katta soat qo'yilgan edi. Maydonda hech jon asari yo'q, ammo Andriyning qulog'iga birovning ingrab yig'lagan ovozi eshitilgandek bo'ldi. U yon-bu yoniga qarab, chorsining narigi tomonida hech bir qimirlamasdan yerda yotgan ikki-uch odamni ko'rdi. Yotganlarning o'likmi, tirikmi yoki uqlab yotganliklarini bilmoq uchun tikilibroq qaragan edi, oyog'i tagidagi bir narsani ko'rdi. Bu xotin kishining o'ligi edi. U aftidan juhudga o'xshardi. O'likning aft-basharasi juda xunuk bo'lib, yosh-qarilagini bilib bo'lmasa ham, har holda yoshligi sezilardi. Boshida qizil ipak ro'mol, qulog'ida ikki qator marvaridmi, munchoqmi taqilgan isirg'a, qo'ng'iroq bo'lib tushgan kokili tomirlari o'ynab ketgan bo'yniga tushib turardi. O'likning yonida uning qurigan ko'kragini changallab, suttan asar topmay, alamidan uni buraganicha bir go'dak yotar edi. Go'dak na yig'lar, na boshqa bir ovoz chiqarar, uning sekin-sekin tushib-chiqib turgan qorniga qarab, hali o'limgan yoki oxirgi nafasini olib, endi jon beryapti desa bo'lar edi. Ular bir ko'chaga kir-

dilar, bunda devonavor bir odam ularning yo'lini to'sdi va Andriyning yelkasidagi bebaho narsani ko'rgach: «Non!» – deb baqirib, yo'lbarsdek unga hamla qildi, ammo kuchi devonaligidan kam-roq edi. Andriyning rahmi kelib, bir dona nonni unga tashlagan edi, u xuddi quturgan itdek nonga o'zini tashlab, nonni g'ajidi va ko'p vaqt-dan beri ovqat yemaganligi ta'sir qilib, shu on-dayoq tirishib jon berdi. Har qadamda ochlikdan o'lganlarni ko'rib, hayron bo'lardilar. Ko'plar uy-larida ochlik balosiga chidolmay, ko'chaga chiq-sak, osmondan biror luqma ovqat tushmasmikan degan umidda ko'chaga qochib chiqqanday ko'ri-nardilar. Bir uyning darvozasi tagida bir kampir o'tirardi, lekin uxlab qolganmi, o'lganmi yo esa hushidan ketganmi, hech bilib bo'lmas edi. Hech narsa eshitmas, ko'rmas, boshini quyi solgan-chá sira qimirlamas edi. Yana bir uyning tomidan osilib tushgan sirtmoqlik arqonda zaif bir tan osilib yotar edi; bechora ochlik azobiga chidolmay, ajalni o'zi tezroq chaqira qolibdi.

Ochlikning bu mudhish guvohlarini ko'rgan Andriy tatar xotinga:

– Rizq bo'lganday hech narsa topilmadimikan? Agar odamda boshqa sira iloj qolmasa, avval hazar qilgan narsalarini ham yeyaverishi kerak. Yemoq harom bo'lgan maxluqlarni ham yesa bo'ladi, har qanday narsa ham halol bo'ladi, – dedi.

– Hammasini yeb sobladilar. Hayvon deganidan asar ham qolmadi, shaharda na ot, na it va na sichqon qoldi. Shahrimizda ovqat g'aamlash degan odat yo'q edi, mahsulotlar qishloqdan kelardi.

– Bugun muqarrar mag'lubiyat va o'limga ro'para bo'lib turib, shaharni qanday muhofaza qilmoqchi bo'lasizlar?

– Hokim shaharni topshirmoqchi edi-ku, Budjakidagi lashkarboshi kecha ertalab qarchig‘ay qanotida xat yuborib: «Shaharni bermanglar, askarlarim bilan yordamingizga yetib boraman, faqat falon lashkarboshining kelishini kutib turibman, kelsa birga boramiz», – debdi. Shunga ishonib, ular tez fursatda kelib qoladilar deb kutib turibdilar... Ana uyimizga yetib ham qoldik.

Boshqa uylardan farq qiladigan bir uyga uzoqdan Andriyning ko‘zi tushdi. Uyni chamasi Italiya binokorlaridan birortasi solgan bolsa kerak, chunki chiroyli, nozik g‘ishtlardan ikki qavat qurilgan edi. Pastki qavat derazalarining oldi baland peshtoq qilib ishlangan; yuqori qavat bolsa bir necha qator ravoqlardan iborat edi. Ravoqlar o‘rtasidagi panjaralarga, uyning burchaklariga tamg‘alar osilgan. Koshinkor g‘ishtlardan qilin-gan keng zinapoyadan maydonga chiqilar edi. Zinapoyaning ostida bittadan posbon turar; posbonlar g‘alati vaziyatda bir qo’llari bilan oybolta-ning uzun dastasini ushlab, yana bir qo’llari bilan engashgan boshlarini tutib turardilar, ularning bu turishi jonli odamga emas, balki haykalga o‘xshar edi; ular uyquda emaslar, mudroqda ham emaslar, lekin hech narsaga parvo qilmay-dilar, hatto zinapoyaga chiqqan odamga ham qaramadilar. Zinapoyaning tepasiga chiqqanda, ular boshdan-oyoq qurollangan, yasangan, qo‘li-da duonoma tutib, o‘qib turgan askarni ko‘rdilar. Askar suzilgan ko‘zlarini ochib, ularga boqmoqchi bo‘lgan edi, tatar xotin bir narsa degach, ko‘zini yana kitobga tikdi. Andriy bilan tatar xotin bir uyga kirdilar. Kenggina bu uy mehmonxona yoki ayvonchadek bir joy bolsa kerak. Bu uy devor-ga yaqin har xil holatda o‘tirgan askarlar hamda

amaldorlarning davlat va martabasini, shavkat va dabbabasini ko'rsatmoq uchun lozim bo'lgan boshqa har xil navkarlar, bakovul-u yasovullar, mirishkorlar bilan to'lgan edi. O'chgan shamlarning isi kelib turardi. Panjaralik kattakon derazadan ertalabki quyosh allaqachondan beri mo'ralab turgan bo'lsa ham, uyning o'rtaсидаги одам бо'йи keladigan ikkita shamdonda shamlar hali ham yonig'liq edi. Andriy to'ppa-to'g'ri borib tamg'alik, serhasham katta eshikka kirmoqchi bo'lgan edi, tatar xotin yengidan tortib, yon tomondagи kichkina eshikni ko'rsatdi. Bu eshikdan yo'lakka chiqdilar, keyin bir uyga kirdilar. Andriy bu uyni yaxshilab qaray boshladi. Darpardaning tirqishlaridan tushib turgan yorug' ba'zi narsalarni – qizil parda, zarhal peshtoq va devordagi suratlarni yoritar edi, xolos. Tatar xotin Andriyni bu yerda turg'izib, ikkinchi uyning eshigini ochgan edi, u yoqdan yaraqlab yorug' tushdi. Oyoq sharpasi va ohista-ohista chiqqan tovush Andriyning qulog'iga eshitildi va butun vujudiga titroq kirdi. Eshik ochilishi bilan bo'yi suqsurdek bir juvon uzun sochlarini yuqori ko'tarilgan bilagiga tushirib, selkillatib, lip etib o'tib ketdi. Tatar xotin qaytib kelib:

– Ichkariga kiring, – dedi.

Andriy qanday qilib ichkari kirganini va eshikning qanday yopilib qolganini bilmadi. Uyda ikkitasham yoqig'liq, but oldida qora chiroq lipillab turar edi. Butlar baland kursicha ustida turar, katolik mazhabidagilarning rasmicha, cho'qin-ganda tizzani qo'ymoq uchun kursiga pillapo-yacha qilingan edi. Ammo uning ko'zlari bularni emas, boshqa narsani izlar edi. Bu tomonga qay-

rilib qarashi bilan, talpingan vaziyatda qotib qolgandek ko'ringan hilqatga ko'zi tushdi. U butun gavdasi bilan uning quchog'iga o'zini tashlamoqchi bo'lib turgan paytda to'satdan to'xtab qolanga o'xshar edi. Ammo Andriy ham uning oldida hayron bo'lib ag'rayib qoldi. Uni bu suratda ko'raman deb o'ylagani yo'q edi. Bu hilqat Andriy bilgan, tanigan qiz emas. Bu unga sira o'xshamaydi. Lekin avvalgidan ikki hissa ortiqroq ko'hlik edi. O'sha vaqtarda u kamolga yetmagan, endi esa san'atkorning qo'lidan bitib chiqqan, rassom oxirgi qalamni tortib tamomlagan bir asar edi. O'shanda sho'x bir qiz edi, endi bu kamolga yetib ochilgan go'zalga aylanibdi. Uning yuqoriga qaragan ko'zlarida ko'ringan hissiyotlar to'liq, chala-yarim, kinoya va ramzlar emas, balki to'lato'kis ifoda qilingan sezgilar edi. Ko'zidan oqqan yoshlar hali qurigancha yo'q, yurak-bag'rini ezib oqqan yosh ko'zida yiltirab turibdi. Siynasi, yelka va bo'yinlari kamolga yetgan go'zallik doirasidan oshganmas. Avval tarqalib, betiga tushib turgan sochlari, endi selkillagan qalin sumbul sochga aylan mish; sochining bir to'dasi boshiga turmakklangan, bir to'dasi buralib-buralib, ko'kragiga tushib turardi. Yuzida o'zgarmagan hech bir yeri qolmagandek edi. Uning esida qolgan sifatlardan loaqal bittasini izlab topishga ko'p harakat qildi, ammo uning chehrasida avvalda bo'lgan xususiyatlardan endi bittasi ham qolmabdi. Rang-ro'yi har qancha o'tgan bo'lsa ham, husniga hech nuqson yetmabdi, aksincha, chehrasida allaqanday viqorli bir salobat paydo bo'lgan edi. Buni ko'rgan Andriyning ko'nglida g'alayon boshlandi; tavoze bilan bosh eggan vaziyatda qotib

goldi. Juvonmardlik, yigitlik husni kamolga yetgan, harakatsizligining o'zida yayragan bir erkinlik, mardonialik alomati zohir bo'lib turgan kazak yigitini ko'rganda qiz ham hushi og'ib, hayratda qolgan edi. Yigitning ko'zida himmat va shijoat o'ti yonar, o'q-yoydek qayrilib tushgan qoshi barqutdek yiltirar, oftob yeb pishgan yuzlarida bokiralik o'ti tob urib, yonib turar, maysa mo'ylovlari tim qora ipakdek yiltirar edi.

– Himmati baland mard yigit, sizga har qancha minnatdorchilik bildirsam kam, – dedi qiz; kumushdek jaranglagan tovushida bir titroq paydo bo'ldi. – Men bir mushtipar zaifa, minnatdorchilikni bajo keltirishga ojizlik qilaman, yolg'iz Xudodan qaytsin.

U shunday deb, ko'zlarini yerga tikdi. Oppoq qovoqlari bodomdek qayrilib tushgan, kipriklari o'qdek terilgan. Boshini quyi solganda guldek yuzining qizili tovlandi. Andriyning tili lol bo'lib, nima deyishni bilmay turar edi: yuragini o'rtab turgan gapini aytishni istadi, qalbi qanday jo'sh urib turgan bolsa, shunday jo'shqin va shunday otashin so'zlar aytishni xohladi, lekin aytolmadi. Bir nima og'zini tutgandek, tilini bog'lagandek bo'ldi. Bu kabi so'zlarga javob qaytarmoq diniy maktabda, jang-u jadallar ichida badaviydek o'sgan odam qo'lidan kelmaganini sezib, o'zidan va o'zining dag'al kazakcha tabiatidan koyindi.

Shu payt tatar xotin uyg'a kirdi. U yigit keltirgan non va boshqa taomlarni oltin tovoqda o'z malikasi oldiga qo'ydi. Malika tatar xotinga, nonga ko'z tashlab, keyin Andriyga qaradi, bu qarashda ko'p ma'no bor edi. Uning xastaligini, dilida mavj ur-

gan hissiyotlarini bayon qilishga ojizligini namoyish etgan bu qarash Andriyga barcha so'zlardan ko'ra yaqin edi. Bir onda joni orom oldi, nazarida band-bandи bo'shashdi. Qanday og'ir bir iskanjada siqilib turgan hislar endi yayrab, ozodlikka chiqqanday bo'ldi va qaynab chiqayotgan so'z bulog'iga aylanmoq istadi. Ayni shu mahal malika tatar xotinga qarab, iztirob bilan:

– Onam-chi? Unga olib borib berdingmi? – deb so'radi.

– U kishi uyqudalar.

– Otamga-chi?

– Olib borib berdim. O'zim borib, mard yigitga minnatdorchilik bildirib kelaman dedilar.

Qiz nondan bir burda sindirib, og'ziga olib bordi. Andriyga jon kirib, oppoq toza qo'llari bilan non sindirib yeishini tomosha qilar edi. Bu onda ochlikdan telbalanib, bir burda non ichiga kiriishi bilan joni uzilgan odam yodiga tushib, birdan rangi o'chdi-da, qizni qo'lidan ushlab:

– Bo'ldi, ko'p yemang! Anchadan beri ovqat yemagan bo'sangiz, bu non sizga zahar bo'lar! – deb qichqirdi.

Qiz ham darrov qo'lini tortdi, nonni tovoqqa tashlab, yuvosh go'dakdek uning ko'ziga termilib qoldi. Uning bu turishini kim ta'rif qila oladi... Gohida qizning qarashida ifodalangan tuyg'ularni na qalam tasvir eta oladi, na til. Qizning bu qarashlarini ko'rgan odamning zavqqa to'lgan yuragini shirin sezgilar egallab oladi. Buning ta'rifи yanada qiyin.

Qalbi jo'sh urib, hayajoni ortgan Andriyning himmati qo'zib, dedi:

– Malikam! Tilagingiz nima, hojatingiz nima, amr qiling! Olamda qanday mushkul ish bo'lsa buyuring, amringizga muntazirman! Odam bolasi qo'lidan kelmagan yumushingiz bo'lsa buyuring, jonioymi fido qilay, amringizni bajaray. Fidoyingiz bo'lay, sadag'angiz bo'lay! Dinim haqi qasamyod qilay, yo'lingizda jon bermoqdan ortiq lazzat yo'q... Afsus, bu tuyg'ular ta'rifidan ojizman! Uch yerda chorbog'im bor, otam yilqisining yarmisi meniki, onamning topgan-tutgani, otamdan yashirgani hammasi meniki! Menda bor qurol-aslaha yurtimizdag'i kazaklarning hech qaysisida yo'q. Qilichimning dastasi bir qancha yaxshi arg'umoqlar, uch ming qo'y bahosiga arziydi. Bularning barchasidan kechib, bir og'iz so'z desangiz yoki qora qalam qoshingiz bilan bir imo qilsangiz barchasini tashlay, o'tga yoqay, suvga oqizay! Tentaklardek bema'ni so'zlar aytayotgandirman, ehtimol, mening bu gaplarim bu o'rinda kelishmas, shoh-u shahzoda va knyazlarga loyiq bolgan so'zlar mendek butun umrini talabalikda, dalada o'tkazgan odamga munosib emasdir. Ko'rdim, sizni Xudo boshqalardan afzal qilib yaratmish, barcha bek-bekzodalarning xotinlari, qiz va kanizaklari sizdan pastda. Bizlar sizga qullikka ham yaramaymiz; yolg'iz ko'k farishtalari xizmattingizga loyiqdirlar.

Kuch-quvvatga to'lgan yosh qalbni oynada aks etgandek ravshan ko'rsatgan va yurakdan chiqqan samimiyl bu so'zlarni qiz butun vujudi bilan tinglar, bir kalimasini ham qoldirmay mahliyo bo'lib eshitar edi. Qalbning tub-tubidan qaynab chiqqan tovush bilan aytilgan bu gapning har bir kalimasida zo'r bir kuch bor edi. Qizning ko'hlik

yuzi cho'zilib, mahliyo bo'lib qoldi, ha deganda oldiga tushaverib, bezor qilgan sochlarini orqasiga tashlab, ag'rayganicha qoldi. Keyin bir so'z demoqchi bo'ldi, biroq to'satdan to'xtab, yigitning yelkasidagi vazifasi boshqaligi, otasi, og'alari va butun yurti uning orqa tomonida dahshatli bir o'ch niyatida turganliklari, shaharni qurshab olgan zaporojyeliklarda shafqat yo'qligi va butun shahar bilan birga ular ham o'lim changalida qolganliklari yodiga tushdi... yodiga tushdi-yu, ko'zları jiqla yoshga to'ldi, darhol ipakdan tikan ro'molini yuziga yopdi, bir lahzada ro'mol ho'l bo'lib ividi; boshini orqaga tashlab, go'yo gazandaning chaqqani naqadar alamlı ekanini endi shu onda payqagandek, quyi labini durdonadek tishlari bilan tishlagancha, alam-hasratlarini unga ko'rsatmaslik uchun yuzidan ro'molini olmasdan anchagacha shu holda turdi.

Andriy:

– Bir og'iz so'zingiz ayting, – dedi-da, uning ipakdek mayin qo'llidan ushladi. Qo'li qo'liga tegishi bilan tomirlariga go'yo o't yugurgandek bo'ldi, qo'li ustida jonsizdek turgan qo'llarni siqdi.

Ammo undan sado chiqmadi, yuzidagi ro'molini ham olmadı, qimirlamadi.

– Nega buncha xafasiz. Ayting menga, nimaga buncha qayg'urasiz?

Qiz yuzidagi ro'molini irg'itib tashladi, ko'ziga tushgan sochining uzun tolalarini surdi. Oydin kechaning orombaxsh mayin shamoli suv bo'yida-gi qamishzorni shitirlatib o'tgan, shitir-shitir tovushlar qo'shilishib, mungli bir nag'ma hosil qilgan, yo'lovchi kun botib, qorong'i tushib qolganini ham sezmaydigan, qo'sh haydab kelayot-

ganlarning shodlik qo'shiqlarini ham, qayerdadir uzoqda taraqlab borayotgan aravaning ovozini ham eshitmaydigan kechki paytning shamolidek ohista-ohista gapirib, hasrat va nola qildi.

— Men yig'lamay, kim yig'lasin. Meni tuqqan onaning baxti qora emasmi? Peshonam sho'r ekan. E, battol taqdir, muncha berahmlik qilasan! Avval hammani oyog'imga yiqitding, bekzodalarni, boy-u boyonlarni, boshqa yurtlardan kelgan baron va graflarni, ko'p mard-maydonlarni oyog'imga yiqitding. Bularning barchasi shaydoym edi, mening iltifotimni o'zlariga ulug' bir martaba deb bilar edilar. Agar bir ishora qilsam, ularning eng baland martabaligi, eng chiroyli va asilzodasi men-ga er bo'lar edi. Berahm taqdirim, bularning hech qaysisiga ko'nglimni og'dirmading, hech qaysisiga muhabbatimni qo'zg'atmading. Yurtimizning eng oliyanob juvonmardlariga hushimni tushirmay dushmanga, yurtim yoviga ishqimni tushirding. E, mushfiq Maryam ona, qaysi gunohim, qaysi bir shumligim uchun meni muncha sargardon qilib, bu savdolarni boshimga solding. Rohat-farog'atda o'tar edi kunlarim. Eng laziz taomlar, shirin maylar ovqatim edi. Bular nechun edi? Nimaga kerak edi? Yurtimizning eng kambag'al qash-shog'i boshiga tushmagan kun mening boshimga tushib, ochlikdan o'lmoq uchunmidi? Bunday shum kunga qolganim yetmasmidiki, o'lar holimda ota-onamning yuz ming azoblar bilan qiyanalib o'rganini ko'rар ekanman, ota-onamga jonimni fido qillardim-ku, bu ham yetmagandek, endi o'lar paytim umrimda ko'rmagan muhabbatni ko'rdim, eshitmagan muhabbat so'zlarini eshitdim. Baxtim qoraligi, peshonam sho'rligi yetmasmidi, bu xil so'zlari bilan yuragimni ezib, dilimni pora-pora

qiladi, yosh umrimga yana ko'proq achintiradi, o'z o'limimni o'zimga battarroq qo'rqinchli qiladi-yey, shum peshonam! Ollohim, gunohimni afv et! Yanada ko'proq qaqshab sendan yana battarroq nolib ketayin!

Bu hasratlarni qilib jim bolgandan keyin, chehrasida nochor va notavonlik alomatlari ko'rindi; qayg'uli peshonasidan, ma'yusona yerga qaragan ko'zlaridan tortib, to cho'g'dek yallig'lanib turgan yuzida qotib qolgan ko'z yoshigacha chehrasidagi hasrat-alamdan so'zlangan so'zlar: «Bu chehrada baxtdan asar yo'q!» – deganday edi.

– Go'zallar go'zali, dunyodagi eng yuksak narsalarga ma'buda bolishga arzigiday go'zal, shunday hasratlar ichida qolsa! Yo'q, bu hech qachon ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan voqeа, bu-naqasi hech qachon bolmagan, – dedi Andriy. – Yo'q, sizga o'lim yo'q, qasamyod qilib aytamanki, siz o'lmaysiz, olsangiz, men tug'ilmagan bolay, yorug' dunyoda menga eng qimmatli bolgan barcha narsalardan ajray! Agar taqdirga chora bolmay, na kuch, na mardlik taqdirni o'zgartirolmasa, ikkovimiz birga o'lamaniz, avval men o'lamani, sizning oldingizda tizzangizga bosh qo'yib o'lamani, olib sizdan ajramasam, toki tirikman, siz bilan birgadirman.

Parivash boshini irg'itib, yigitga qarab ohista-gina dedi:

– Mard yigit, o'zingizni ham, meni ham aldamang; bilaman, afsuski xo'b yaxshi bilaman, siz menga ko'ngil qo'yolmaysiz; vazifangiz, ahdingiz nimaligini ham bilaman; otangiz, birodarlarlingiz, yurtingiz – Vataningiz chaqiradi, bizlar bolsak sizning dushmaningizmiz.

— Otam, birodarlarim, Vatanim menga kerakmas, — dedi Andriy boshini silkib va terakdek qaddini rostlab. — Agar shu gap joiz bo'lsa, aytay, bundan buyon mening hech kimim yo'q! — dedi takrorlab yana o'sha tovush bilan. Azmida mustahkam, qaroridan sira qaytmas kazaklar bosh-qalar qo'llidan kelmagan, mushkul ishga bel bog'laganini bildirmoq bo'lganida qo'llari bilan qanday harakat qilsalar, shu xilda harakat qilib yana davom etdi: — Hech kimim yo'q, hech kimim! Ukraina mening Vatanim deb menga kim aytdi? Uni kim menga Vatan qilib berdi? Ko'ngil qayerni istasa va nimani xush ko'rsa, Vatan o'sha. Mening Vatanim sizsiz! Bu Vatanni men jon ichida jo qilgum, umrim boricha uni jon ichida saqlayman. Qani, birorta kazak kelib, meni undan judo qilsin-chi, bir ko'ray! Bu Vatanga bor-u yo'g'imni beraman, fido qilaman!

Qiz go'zal bir haykaldek qotib, uning ko'ziga tikilib qoldi, keyin birdaniga yig'lab yubordi va beg'araz, oliyanob ayollargagina xos bo'lgan go'zal talpinish bilan, uning bo'ynidan quchoqlab oldi, qordek oppoq qo'llarini uning bo'yniga chir-madi. Ayni shu mahal ko'chada karnay va dovul tovushi ichida qandaydir ovozlar eshitildi, ammo bu tovushlar yigitning qulog'iga kirmadi; u faqat muborak og'izdan chiqqan xushbo'y issiq nafasni sezardi, ko'zlaridan sharillab oqib, yuziga tu-shayotgan yoshlarni, sochlari boshidan yoyilib tushib, qop-qora ipakdek uni chulg'ab olganini payqardi, xolos.

Bu paytda tatar xotin shod-xurram shovqin solib, yugurib keldi va:

– Qutuldik! Qutuldik! Biznikilar shaharga kirdilar, bug'doy, so'k, un bilan birga bandi tushgan zaporojyeliklarni ham keltirdilar, – dedi.

Ammo qaysi «biznikilar» shaharga kirgani ni, nimalar keltirganini va qaysi zaporojyeliklarni bog'lab keltirganlarini ularning hech qaysisi eshitmadi. Andriy yer yuzida bo'lmas samoviy zavq-shavqlarga to'lib, uning yuziga yopishgancha totli lablaridan so'rar, bu lablar ham bejavob turmas edi. Shirin lablar ham javob qaytardi va bu ikki tomondan bo'lgan bo'sada odam bolasi umrida faqat bir marotaba topadigan lazzat topildi.

Kazak nobud bo'ldi! Barcha pahlavon kazakkardan ajradi! Endi na Zaporojyeni ko'rsin, na ota uyini ko'rsin va na butxonani ko'rsin. Ukraina ham uni qo'riqlashni bo'yninga olgan eng botir avlodini ko'rmas bo'ldi. Chol Taras boshidagi oq kokilini yular va o'zini isnodga qoldirib, bunday o'g'ilni tug'dirganiga va o'g'li tug'ilgan kun-u soatga la'natlar o'qir edi.

VII

Zaporojyeliklar orasida shovqin-suron, to'polon edi. Askarning shaharga qanday qilib kiranini avval hech kim bilolmadi. Keyin ma'lum boldiki, yon tomondagi shahar darvozasini qurshab turgan Pereyaslav bo'linmasidagilarning hammasi ichib, o'lesi mast bo'lgan edi. Shuning uchun ularning yarmini qirib tashlab, qolganlari ni hash-pash deguncha bog'lab, bandi qilib olib ketganliklari taajjub emas. Yaqindagi bo'linmalar, shovqin-surondan uyg'onib qurollarini olib otlangunlaricha askarlar allaqachon darvozaga borib

qolgan edilar; ko'zidan uyqu o'chmagan, mastligi yaxshi yozilmagan zaporojyeliklar to's-to' polon bo'lib askarlar ketidan quvlaganlarida faqat keyinda qolgan saflargina ular bilan otisha-otisha shaharga kirib ketdilar.

Askarboshi hammani yig'ishga buyruq berdi; hamma yig'ilib boshlaridan bosh kiyimlarini olib jim bo'lishganda, askarboshi dedi:

– Hurmatli og'alar, bu kecha ana shunday voqeа bo'ldi; ichkilikning oqibati shunaqa bo'ladi! Dushman yana bizni ana shunaqa haqoratlar qilib ketdi!.. Sizlarga odat ekan-da, araqni ozroq oshirishga ruxsat berilsa, boshingiz bilan cho'mib ketasizlar. Iso dini yo'lida jonbozlik qiladigan askarlarning dushmani shalvaringizni yechib ketishi u yodda tursin, basharangizga tupurib ketsa ham bilmaysizlar.

Kazaklar ayblarini bilganliklardan boshlarini quyи solib turardilar. Bitta Nezamaynovskiy bo'linmasining atamani¹ Kukubenko so'z qotib aytdi:

– Ota, shoshma. Askarboshi askarlar oldida so'z aytayotganda uning ro'parasiga chiqib, biron gap aytish odobsizlik bolsa ham, haqiqatni aytish kerak. Sen biroz nohaq koyiding. Agar safarda, jang vaqtida, qiyinchilik paytida ichib mast bo'salar, ayb, albatta, yigitlarimizda bolari edi, bu holda ularni o'limga hukm qilsang ham, haqing bor edi. Ammo hammamiz bekor edik, shahar yonida behuda umr o'tkazar edik. Ro'za vaqtি yoki dinimiz buyurgan boshqa bir taqiq vaqtি emas edi, bekor qolgan odam ichmasdan bo'ladiimi? Bu gunohkorlik emas. Lekin yaxshi-

¹ Ataman – kazaklarda tayinlangan boshliq yoki askarboshi.

si shuki, biz endi begunoh kishilar ustiga hujum qilish qanaqa bo'lishini ularga ko'rsatib qo'yaylik. Avval ham ko'p yaxshi tanbehlarini bergen edik-ku, lekin endi shunday kaltaklaylikki, bittasi ham uyiga eson-omon yetib ololmasin.

Bo'linma atamanining so'zi kazaklarga yoqdi. Juda yerga qarab qolgan boshlarini ko'tardilar, ko'zлari: «Kukubenko yaxshi gapirdi!» deb uning so'zini ma'qulladilar. Askarboshi yonida turgan Taras Bulba bo'sa:

– Askarboshi, Kukubenko haqiqatni gapirgan ga o'xshaydi! Bunga nima deysan? – deb qo'ydi.

– Nima ham derdim? Bunday o'g'ilni tug'dirgan otaga balli deyman, xolos. Koyimoq, so'kib gapirmoq katta donolik emas, odamning boshiga kulfat tushganda uni koyib, yana xafa qilmasdan ko'nglini ko'taradigan, dalda va darmon beradi-gan gaplar kerak. Suv ichib, tashnaligi qongan otga bir qamchi berganda qanday irg'isa, odanni ham shunday o'ynatadigan gap aytmoq kerak, donolik deb shuni aytadi. Men o'zim bir-ikki og'iz so'z aytib, ko'ngillaringizni ko'tarib qo'ymoqchi edim, biroq Kukubenkoning fahmi yetib, mendan oldinroq aytib qo'ydi.

«Askboshi ham ma'qul gapirdi!» dedilar tur-gan yigitlar. Oradan yana bir nechalar «ma'qul gap» dedilar. Ko'k kaptardek savlat bilan tur-gan mo'ysafidlar ham boshlarini irgab, oqargan mo'ylovlarini burab ohistagina: «Yaxshi, ma'qul gap aytildi!» – deyishdi.

Askboshi yana so'zlab:

– Og'alar, endi quloq solinglar, qo'rg'oniga o'rmalab chiqmoq, ajnabi nemis ustalari singari lahm qazimoq biz kazaklarga munosib ish emas, buni dushmanlar qilsin, bizga yarashmay-

di. Ammo bizga ma'lum bolgani shuki, chamasi, dushman ko'p zaxira olib kirmabdi. Chunki ot-aravalari kam edi. Shahar xalqi och, kirgan ovqatni biryo'la yeb qo'yadi. So'ngra otlarga ham yem-xashak kerak. Qaydam, birorta avliyolari panshaxa bilan osmondan tashlamasa... buni ham Xudo biladi, ularning ksendlari gapdan boshqani bilmaydi. Harqalay, shahardan chiqishga majbur bo'lishi turgan gap. Uch to'daga bo'linib, uch darvoza qarshisida uch yo'lni to'sib turinglar. Katta darvoza oldida besh bo'linma tursin, boshqa darvozalarning har qaysisida uch bo'linmadan tursin. Dyadkivskiy va Korsunskiy bo'linmalari pistirmada tursin! Polkovnik Taras ham askarlari bilan pistirmada tursin! Titarevskiy bo'linmasi bilan Timoshevskiy bo'linmasi aravalarning o'ng tomonini saqlab tursinlar. Shcherbinovskiy va Steblikivskiy bo'linmalari yuqoridan chap tomonni saqlasinlar! Gapga chechanroq azamatlar safdan chiqib, dushmaniga gap otib, jahlini qo'zg'asin! Lyax degan xalqning miyasi bo'lmaydi, so'kkanga aslo chidamaydi, shu bugunning o'zidayoq hammasi shahardan gurillashib, chiqib qolishsa ham ajab emas. Bo'linma atamanlari, har qaysingiz o'z qo'shiningizni ko'zdan o'tkazing, kimning odami kam bo'lsa, Pereyaslavskiy bo'linmasining qolgan odamlaridan qo'shib olinglar. Qaytadan har bir narsangizni ko'zdan o'tkazing! Bosh og'rig'iga hammaga bir kosadan araq, bittadan non berilsin. Ammo kecha yeganlaring hali ham hazm bo'lmagandir, kecha shunday ovqatxo'rlik bo'libdiki, kechasi hech kimning qorni yorilmaganiga hayronman. Sizlarga yana bir nasihat; agar birorta araqfurush juhud biror

kishiga bir piyola sotguday bo'lsa, bunday itning manglayiga to'ng'iz qulog'ini ilib, oyog'idan osib qo'yaman! Og'alar, qani, ishingizdan qolmang, ha, barakalla!

Askarboshi shu tarzda buyruqlarini berdi, turganlarning hammasi boshlarini egib, ta'zim qilgach, bosh kiyimlarini kiymay o'z bolinmaliga, aravalariqa qarab ketdilar, ancha nariga borgandan keyin bosh kiyimlarini kiyib oldilar. Hamma otlana boshladи, qilich va shamshirlarini sinab ko'rdilar, qoplardagi dorilardan yonlaridagi doridonlarga solib oldilar, aravalarni tuzatdilar, otlarni tanlab oldilar.

Taras yig'indan keyin o'z askarlari qoshiga borarkan, yo'lda: «Andriy qayerga yo'qoldiykin?» – deb ko'p o'yladi, lekin o'ylab hech o'yiga yetolmadi. Uni ham boshqalar bilan birga bandi qilib, uyquda yotganda bog'lab, olib ketdilarmi, biroq Andriy tirik ekan, o'zini bandi qilib qo'yadigan odam emas-ku.

U o'lganlar orasida ham yo'q edi. Taras hushi og'ib, parishonhol bordi, birov uning nomini aytib chaqirib turganini ham payqamadi. Nihoyat, hushi o'ziga kelib:

– Kim meni chaqirdi? – dedi.

Uning oldida Yankel juhud turgan ekan.

Juhud:

– Taqsir polkovnik, taqsir polkovnik, – dedi muhim bir ish to'grisida gapirmoqchi bo'lganday hovliqib. – Taqsir polkovnik, men shahar ichiga kirib chiqdim!

Taras juhudga qaradi va uning shaharga kirib chiqqaniga hayron qolib:

– Qaysi dushman seni u yoqqa olib bordi? – dedi.

– Hozir so'zlab beraman, – dedi Yankel. – Tong otarda shovqin-suron ko'tarilib, kazaklar otishni boshlaganlarida, men darrov to'nimni yopinib yugurganimcha bordim, yengimni yo'lda kiyib oldim, chunki shovqin-to'polonning boisini, tong otar paytda kazaklar nega o'q ota boshlaganliklarni tezroq bilmoqchi edim. Askarning keti shaharga endi kirishi bilan xuddi shahar darvozasiغا yetib keldim. Qarasam, bayroq dor janob Gal'yandovich askar oldida ketyaptilar. U kishining menga tanishligi bo'lardi, chunki uchinchi yilga qadam qo'ydi, yuz oltin qarz olgan edi; men pulimni qistamoqchi bo'lganday uning orqasidan boraverib, birga shaharga kirib oldim.

– Shaharga kirib ol, tag'in qarzingni ham so'ramoqchimiding?! O'sha yerning o'zidayoq it-dek dorga ostirmadimi? – dedi Bulba.

– Xudo haqqi, ostirmoqchi bo'ldi, navkarlari keilib, meni bog'lamoqchi ham bo'ldilar, bo'ynimga arqon ham tashladilar, lekin men yolvorib, janoblari qachon xohlasalar shunda bersinlar, mayli, agar boshqa pahlavonlarga qarz bergen pullarimni jamg'arib olishga yordam bersalar, yana qarz beraman deb va'da qildim. Janob bayroqdorning kissalarida bir tanga ham pullari yo'q, uy-joylari, chorvoqlari, to'rt yerda qasrlari va bundan tashqari yerlarining bir etagi Shklovgacha borsa ham chaqa deganidan, kazaklarga o'xshab, u kishida ham yo'q. Agar Breslav juhudlari u kishiga yordam qilib, qurol-aslaha sotib olib bermasalar, urushga otlanib, chiqa olmas ham edilar. Shuning uchun seymda¹ ham u bo'lgan emas...

¹ Seym – o'sha zamonalarda Polsha va Litvada mamlakatning boyon toifalaridan saylanadigan hukumat muassasasi.

– Shaharda nima qilding? Bizning odamlarni ko'rdingmi?

– Bo'lmasa-chi, biznikilar unda juda ko'p: Itska, Raxum, Samuylo, ijarachi Xayvalox bor...

Tarasning jahli chiqib:

– Itlaring boshingda qolsin! Juhudlaringni menga aytib nima qilasan! Bizning zaporojyeliklardan hech kimni ko'rmadingmi deb so'rav-yapman, – dedi.

– Bizning zaporojyeliklarni ko'rmadim, faqat Andriy janoblarini ko'rdim, xolos.

– Andriyni ko'rdim deysanmi? – dedi Bulba qichqirib. – Qayerda ko'rding? Zindondami, yerto'ladami? Asirga tushgandami? Xor-zor bo'ptimi?

– Janob Andriyni bandi qilishga kimning kuchi yetadi, hozir u kishi shunday ulug' odamki... azbaroyi Xudo, men taniy olmadim, kiygan jubbalari,sovutlari hammasi oltindan, boshlarida-gi dubulg'a ham oltindan, bellarida zarrin kammar. Ko'klamda bog'da turli-tuman parrandalar sayrashib, o't-o'lanlar chaman bo'lganda oftob qanday yaraqlasa, u kishi ham shunday yarqirab ketganlar. Hokim otning ham juda alomatini beribdi, ikki yuz oltindan kam turmaydi.

Bulba taxtadek qotib qoldi.

– Nega birovning kiyimini kiyibdi?

– Chunki yaxshi-da, shuning uchun kiygan. U kishi o'zлari ham, boshqalar ham ot choptirib yurishibdi, u kishiga ta'lim beryaptilar, ammo u kishi ham boshqalarga ta'lim beryaptilar; polyakning «мана ман» degan badavlati ham bunchalik bo'lmaydi.

– Kim uni bunga majbur qilibdi?

— Men birov majbur qilibdi deganim yo‘q-ku. U kishining o‘z ixtiyorlari bilan ular tomoniga o‘tib ketganlaridan janobim bexabarmi?

— Kim o‘tib ketibdi?
 — Andriy janoblari.
 — Qayoqqa o‘tib ketibdi?
 — Ular tomoniga, batamom ularniki bo‘lib qol-gan.

— Bekor aytasan, to‘ng‘iz!
 — Nega bekor aytay, yolg‘on gapirib ahmoq-manmi? Yolg‘on gapirsam, boshimga balo bo‘la-di-ku! Agar juhud sizdek hurmatli insonlar ol-dida yolg‘on gapirguday bo‘lsa, itdan battar qilib osadilar-ku, bilmaymanmi!

— Demak, aytishingcha, u Vatanini-yu dinini sotibdi-da?
 — Sotibdilar deganim yo‘q, ular tomoniga o‘tib-dilar dedim, xolos.

— Nomard juhud, yolg‘on aytasan! Nasroniy mamlakatida bu xil ish aslo bo‘lgan emas, sen it yanglisyapsan!..

— Agar yanglishgan bo‘lsam, uyim ostonasini o‘t bossin! Yolg‘on aytgan bo‘lsam, ota-onamning go‘ri oyoqosti bo‘lsin, agar xohlasangiz, nima sababdan o‘g‘lingizning ular tomoniga o‘tib ketgani-ni aytib beraman.

— Nima sababdan?
 — Shahar hokimining bag‘oyat chiroyli qizi bor, Xudoning mo‘jizasi, ortiqcha ta‘rifga muhtoj emas!

Juhud qo‘llarini yozib, ko‘zlarini qisib, biror narsaning ta‘mini ko‘rgandek og‘zini qiyshay-tirib, ishqilib nima bo‘lsa-da, basharasida «juda chiroyli» degan alomatlarni ko‘rsatishga harakat qildi.

– Xo'sh, nima qilibdi endi!

– O'sha qizni deb ular tomoniga o'tib ketdi. Odam birovni yaxshi ko'rib qolsa, etikning tag charmiga o'xshab qoladi; ivib, qayoqqa qayirsang, qayrilaveradi.

Bulba o'ylanib qoldi. Xotinning o'zi zaif bo'lsa ham, hukmi zo'rligi, ko'p pahlavonlar ularning dastidan halok bo'lganligi, Andriy ham bu jihatdan bo'shroqligi esiga tushib, anchagacha turgan joyida qoqqan qoziqdek qotib qoldi.

– Menga quloq soling. Men sizga voqeaning hammasini aytib beray, – dedi juhud. – Shovqinni eshitib borgach, shahar darvozasidan kirib keta-yotganlarni ko'rishim bilan, darrov har ehtimolni o'ylab, bir shoda marvaridni yonimga solib oldim, chunki shaharda nozanin zebolar, boyvuchcha xotinlar ko'p. Binobarin, yeyishga ovqatlari bo'lmasa ham, marvarid olsalar kerak deb o'yladim. Bayroqdorning navkarlari meni qo'yib yuborganlaridan keyin darrov yugurGANIMCHA hokimning hovlisiga marvarid sotgani ketdim. Tatar cho'risi bor ekan, undan so'rab bilsam, zaporojyeliklarni quvlagach, darrov to'y bo'lar-kan. O'glingiz Andriy, zaporojyeliklarni haydab beraman, deb va'da beribdi.

– Badbaxtni o'sha yerda o'ldirib qo'ya qolma-dingmi? – deb shovqin soldi Bulba.

– Nega o'ldiray? O'z ixtiyori bilan o'tib ketdi. U odamda ayb yo'q, u tomon yaxshi uchun o'tib ketgan-da!

– Sen uni o'z ko'zing bilan ko'rdingmi?

– Azbaroyi Xudo, xuddi o'zim, o'z ko'zim bilan ko'rdim. Juda alomat polvon bo'libdi! Hamma-dan ham savlati ortiq! Xudo salomat qilsin, meni

ko'rib, darrov tanidi, men yaqiniga borgan edim, aytdiki...

– Xo'sh, nima dedi?

– Aytgani shu bo'ldiki... Avval meni imlab chaqirdi, keyin «Yankel!» deb chaqirdi, men ham «Ha, Andriy» dedim. «Yankel, otamga, akamga, barcha kazaklarga, zaporojyeliklarga, hammaga borib ayt, otamdan ham, akamdan ham, barcha birodarlarimdan ham kechdim, hammasi bilan urushaman dedi...»

Tarasda toqat qolmay:

– Yolg'on aytasan, shaytonning haromzodasi! Xudoning la'natiga qolgan sen nomard, Isodek odamni dorga qoqqansan! Iblis, hozir joningni olaman! Tez bu yerdan daf bo'l, bo'lmasa hozir ajaling yetadi! – deb baqirdi va g'azabidan qilichiga qo'l urdi.

Juhudning quti o'chib, joni boricha qochdi. Garchi Taras uning ketidan quvlamay, duch kelgan birovdan alam olish yaxshi emas deb o'ylab, jim turgan bo'lsa ham, u kazaklar orasidan dalaga chiqqanicha orqasiga qaramay rosa qochdi.

Taras kecha tunda Andriyning bir xotin bilan odamlarni oralab o'tib ketayotganini ko'rganligini esladi. Uning sochi oqargan boshi xam bo'ldi, lekin bunday nomus ish bo'lganiga va o'z o'g'lining dini va iymonini sotganligiga sira ishongisi kelmas edi.

Nihoyat, Taras askarlarni boshlab, kazaklarining o'tidan omon qolgan bir daraxtzordan o'tib, shu yerda bekinib yotdi. Qolgan zaporojyeliklar otliq, piyoda bo'lib uch darvozani mo'ljallab uch yo'lda tushdilar. Umanskiy, Popovichevskiy, Kanevskiy, Steblikivskiy, Nezamaykovskiy, Gur-

guziv, Titarevskiy, Timoshevskiy bo'linmalari biring-sirin yo'nga tushdi. Yolg'iz Peryaslavskiy bo'linmasi yo'q edi. Bu bo'linma odamlari qattiq mast bo'lib, o'z nasibalarini o'zlari uzdilar. Ularning ba'zisi dushman qo'lida bandilikda uyg'on-di, ba'zisi uyg'onmasdan qora yer bag'riga kirdi, ataman Xlib o'zini ishtonsiz, ko'ylyakchan lyaxlar qo'lida ko'rди.

Shahardagilar kazaklarning qo'zg'alib qolganlarini bildilar. Shahar aholisining hammasi devor tagiga yig'ildi. Kazaklar ko'z o'ngida jonli bir manzara paydo bo'ldi; bir-biridan basavlat polyak pahlavonlari devor tepasiga chiqdilar. Oq g'oz pati qadalgan mis dubulg'alar quyoshdek yaltirar edi. Ba'zilar boshida qizil va ko'k ranga har xil qalpoqlar; qalpoqlarning uchi qayrilgan. Ustlarida zarbof kamzul, yengi tashlangan. Qilich va miltiqlariga oltin-kumush qadalgan; bu xil aslahalar ularga juda qimmatga tushar edi. Pahlavonlarning ustida bundan boshqa har xil zeb-u ziynatlar ko'p edi. Hammadan oldinda qizil zar qalpoq kiygan polkovnik savlat bilan kerilib turar edi. Polkovnik gavdasi yo'g'on, baland bo'yli odam bo'lib, qimmatbaho keng kamzul unga tor edi. Bosh tomondagi darvozalarga ya-qin joyda past bo'yli, qotmadan kelgan yana bitta polkovnik savlat bilan turar edi; bu kishining kichkina, o'tkir ko'zlari qalin qoshi tagida o'ynab turar; ingichka, qotma qo'llari bilan har tarafga ishora qilib, buyruq qilar edi. O'zi kichkina bo'lsa ham askariy ishni yaxshi bilganligi ko'rinib turardi. Undan nariroqda turgan uzun bo'yli, sersoqol, sermo'ylov, yuzlari qip-qizil bayroqbardor janoblari o'tkir may, yaxshi ziyofat va maishatni yaxshi

ko'rар edilar. Xorunjiydorning orqasida birtalay boy-boyonlar turar edilar. Bularning ba'zisi o'з puliga, ba'zisi podsholikdan, ba'zisi ota-bobosidan qolgan qasrlarda nima bo'lsa hammasini juhudlarga garovga qo'yib, otlanib chiqqan edilar. Amaldor va mansabdorlarning yuvindixo'ri bo'lgan yana har xil chakana-chukana odamlar ham ko'p edi. Bu toifa odamlarni amaldorlar savlat-u dabdaba uchun navkar va chokar qilib, ziyoftlarga ergashtirib, olib borardilar. Ular bo'lsa, ziyoftlarda kumush qadah va tovoqlarni o'g'irlab, ertasiga yana birorta mansabdor boyning aravasini minib, aravakashlik qilib ketaverar edilar. Xullas, qal'a boshida har toifa odam bor edi. Bu odamlar ba'zida ichay desalar, pul topolmas edilar-ku, lekin urush deganda dabdaba uchun har qancha bo'lsa sarf qilardilar.

Kazaklar saf-saf bo'lib, qal'a tagida jim turardilar. Bularning hech qaysisida oltin-kumush yo'q, faqat qilich dastalari, miltiq qo'ndoqlari gohida ko'rinish qolar edi. Urushga yasanib chiqish kazaklarda odat emas. Kiygan sovtlari ham, kiyimlari ham sodda, boshlaridagi qo'y terisidan tikilgan qora telpaklari uzoq-uzoqdan qorayib ko'rinar edi.

Zaporojyeliklarning saflaridan ikki kishi oldin-ga chiqdi. Biri yosh, ikkinchisi qariroq, ikkovi ham gapga chechan, ishga ham chaqqon va epchil edi. Bularning birini Oxrim Nash, ikkinchisini Miktita Golokopitenko der edilar. Ularning ketidan Demid Popovich ham chiqdi. Keng yag'rinli bu odam ko'pdan beri Sechda yurar, Andrianopolga ham borgan, ko'pni ko'rgan, o'tda yongan, boshiga qora moy surtilgan va mo'ylovlari kuygan hol-

da Sechga qochib kelgan edi. Lekin Popovich endi yana tuzalib, sochi qop-qora, qalin mo'ylovleri ham o'sib juda basavlat, baquvvat bo'lib ketgan, so'zga usta, uzib-uzib oladigan odam edi.

– Hoy, qizil chopon polvonlar, shop-shaloplar-ningiz-ku, juda vahimali, kuchlaringiz qalay ekan, shuni bilgim keladi!

Qal'a tepasida turgan yo'g'on askarboshi:

– Shoshmay turinglar! Hammangizni bog'lab olay! Sho'rlik qullar, miltiq bilan otlarni bu yoqqa beringlar. Sheriklaringni bandi qilib, bog'lab kel-ganimni ko'rdinglarmi! – der edi.

Qo'l-oyog'i arqon bilan bog'langan zaporojye-liklarni qal'a tepasiga chiqarib ko'rsatdilar. Oldinda ataman Xlib mastlikda qanday yotgan bo'lsa, shu holda, shalvarsiz, ko'ylakchan turar edi. O'z kazaklari oldida yalang'och turganidan hamda uxlab yotganida itdek bandga tushgani-dan nomus qilib, ko'zini yerga tikkancha turar edi. Ko'pni ko'rgan boshidagi sochlar bir kechada oqarib ketgandi.

Pastdagi kazaklar:

– Xlib, xafa bo'lma, xalos qilib olamiz! – deb qichqirardilar.

Bo'linma atamani Borodatiy ham qichqirib:

– Og'ayni, xijolat bo'lma! Yalang'ochlayin seni tutib olganlariga sen aybli emassan; bunaqa ishlar har bir kishining boshiga tushadi, ammo seni avrat-tingni yopmasdan ko'rsatgan ularga uyat, – dedi.

– Uyquda yotganlar bilan urishishga botir ekansizlar-a! – dedi Golokopitenko qal'adagilarga qarab.

Yuqoridagilar ularga qarab:

– Shoshmanglar, hali kokilingizni kesib olamiz! – dedilar.

– Kokilimizni qanday qilib kesar ekanlar, shuni ko'rsam edi! – dedi Popovich oti ustida turib qayrilib qarab. Keyin o'zining odamlari turgan to-monga qarab: – Balki lyaxlar rost aytarlar, anov qorni katta boshlab chiqsa, u hammalariga juda yaxshi qalqon bo'ladi! – dedi.

Kazaklar Popovichning bir gap aytmoqchi bo'lganini fahmlab:

– Nega hammasiga qalqon bo'ladi deb o'ylaysan? – dedilar.

– Chunki hamma askar uning orqasiga beki-nib olgandan keyin bittasini nayzaga olib ko'rchi, ololmaysan!

– Kazaklar qah-qah urib kulishdi. Ko'p kazaklar o'zlarini to'xtatolmasdan, anchagacha xaxolab, Popovichga: «Birovni askiya qiladigan bo'ssa, shunday bulg'ab tashlaydiki...» – dedilar, lekin u yog'ini aytmay qo'ya qoldilar.

Askarboshi:

– Qochinglar, tezroq qochinglar devor tagidan!
– deb qichqirdi, chunki lyaxlar gapning alami-ga chidolmadilar, shekilli, kattalari qo'lini siltab buyruq qilganday bo'ldi.

Qal'a tagidan andak qochib edilarki, birdan zambaraklar gumburlab berdi. Devor tepasida to'polon-g'avg'o boshlandi! Keksa hokim ham otga minib kelib qoldi. Darvoza ochilib, askarlar yopirilib chiqaverdilar. Oldinda saf-saf bo'lib yasan-gan navkarlar, ular ketidan sovut kiyganlar, keyin temir jubba kiygan, sipar ko'targanlar, mis dubulg'alilar kelardilar; hammadan keyinda har qaysisi o'z ta'bicha yasangan boy-u boyonlar kelardilar. Kibr havosi oshgan bu toifa boshqalarga qo'shilishga or qilib, alohida borar edi; askar yig'ol-

maganlari g'ulom va chokarlari bilan chiqqan edilar. Bulardan keyin yana saf bo'lganlar chiqishdi, bulardan keyin savlat va shukuh bilan xorunjiy chiqdi, keyin yana saf-saf bo'lib, askar chiqqach, keyinda yo'g'on polkovnik chiqdi. Hammadan keyinda past bo'yli qotma polkovnik chiqdi.

Askarboshi:

– Qo'y manglar, saf rostlatmang! Hammangiz bиро'ла yopiriling! Boshqa darvozalarni qo'yaving, Titarevskiy bo'linmasining odamlari, yon tomondan uring! Dyadkivskiy bo'linmasining askarlari, yon tomondan ur! Kukubenko bilan Palivoda, orqa tomonga zo'r ber! Bir-biridan ayirib tashlanglar! – deb qichqirardi.

Kazaklar har tarafdan ot qo'yib, ularni alg'ov-dalg'ov qilib yubordilar, o'zlar ham aralashib ketdilar. Loaqlal bir marta otishga ham qo'ymasdan qilichbozlik, nayzabozlik boshlanib ketdi. Hamma bir yerga g'uj bo'lib, har kim bu jangda o'zini ko'rsatdi. Demid Popovich oddiy askardan uchtasini nayzaga ildi, mansabdor boyonlardan ikkitasini otdan yiqitib: «Xo'p yaxshi otlar ekan, shunaqa otga juda ishqiboz edim», – der edi. Otlarni dalaga haydab yuborib, u yoqda turgan kazaklarga: «Otni tutib olinglar», – dedi. Keyin yana o'rtaga kirib boyagi otdan yiqilganlarning tepasiiga keldi va birini chopdi, birining bo'yniga arqon tashlab egar qoshiga bog'ladi, qimmatbaho dastalik qilichini, belidan bir hamyon to'la oltinini yechib olgach, o'zini sudrab ketdi. Azamat o'spirin kazak Kobita polyak lashkaridagi pahlavonlaridan biri bilan olishib qoldi; yoqama-yoqa tutishib bo'g'izlasha ketdi. Kazak uni yenga boshlab, o'tkir pichoq bilan ko'kragiga urdi, ammo o'zi ham

omon qolmadi, cho'g'dek bir o'q kelib, xuddi chakkasiga tegdi. Uni yiqitgan botir nasli ulug‘, marta-basi baland, o'zi chiroyli, qaddi-qomati kelishgan suqsurdek yigit edi. Saman otga mingan bu pahlavon ko'p botirlik ko'satdi, zaporojyeliklardan ikki kishini ikki taqsim qilib tashladi. Azamat kazak Fyodor Korjni oti bilan ag'darib, otini otib o'ldirdi, o'zini nayzaga ilib oldi. Ko'p kazaklarning boshini kesdi, qo'lini chopdi, Kobitani ham chakkasidan otib yiqitdi.

Nezamaykovskiy bo'linmaning boshlig'i ataman Kukubenko bu pahlavonni ko'rib:

– Ana shu odam bilan olishib ko'ray deyman,
– dedi.

Oting boshini qo'yib yuborib, to'ppa-to'g'ri uning orqasidan yetib keldi va bir na'ra tortib edi, yaqin o'rtada turganlarning hammasi bu na'radan cho'chib tushdi. Lyax otining boshini burib, u tomonga qayrilmoqchi bo'lgan edi, oti unga itoat qilmadi. Kukubenkoning tovushidan hurkib qochib ketdi. Kukubenko orqasidan o'q uzib qoldi. O'q ko'kragiga tegib, otdan yiqildi. Ammo lyax ham mardona turib, dushmanga zarba berish harakatida edi, lekin qo'llidan darmon ketib, qilichini ko'tara olmadi. Kukubenko og'ir shamshirini ikki qo'llab ushlab, uning qoni qochgan og'ziga tiqdi. Shamshir uning ikki tishini sindirib, tilini kesib, bo'ynidan chiqib, yerga mixdek qoqildi. Lyax yerga qoqilganicha abadiy qoldi. Nasli balandning qip-qizil qoni tirqirab otilib chiqib, kimxob to'nini bo'yadi. Kukubenko uni bu yerda qoldirib, askarlari bilan o'zini boshqa to'pga urdi.

Umanskiy bo'linmasining atamani Borodatiy o'z askarlaridan ajralib chiqib, Kukubenko o'ldir-

gan lyax pahlavoni yotgan joyga kelganda, uning liboslarini ko'rib:

– Shunday qimmatbaho narsalarni olmasdan ketipti-ya! Men o'z qo'lim bilan yettisini o'ldirdim, lekin bunday qimmatbaho libosni hech ko'rma-dim! – deb o'likning sovut va jubbalarini yechib olish niyatida engashdi, tosh qadalgan pichog'ini qinidan chiqarib oldi, belidagi nozik ipak ko'yak, qizdan esdalik uchun saqlagan soch tolalari, qimmatbaho kumush solingan jildni ham yechib oldi; xuddi shu mahal orqasidan bir xorunjiyning yetib kelganini bilmay qoldi; xorunjiy ikki marta unga duch kelib, ikki marta egardan yiqilgan, yaxshigina shikast yegan edi. U qilichini ko'tarib, engashib turgan Borodatiyning bo'yniga urdi. Kazakning nafsi joniga balo bo'ldi. Boshi tanasidan judo bo'lib, uzilib tushdi, yer qizil qonga bo'yaldi. Kazakning qattiq joni qahr-g'azab bilan, ayni zamonda, bunday baquvvat tanadan tez chiqib ketganiga taajjublanib, osmon-u falakka parvoz qildi. Xorunjiy atamanning boshini egar qoshiga bog'lab olish uchun kokiliga qo'l uzatishi bilan uning ham kushandasini yetib keldi.

Lochin osmon-u falakka chiqib, baquvvat qanotlarini qoqib, bir necha davra qilgach, bir joyda qanot yozib to'xtab turadi-da, so'ngra yo'l bo'yida sayragan jo'ja bedanaga xuddi o'qdek o'zini otadi. Tarasning o'gli Ostap ham xuddi lochindek to'sat-dan xorunjiyning tepasiga yetib kelib, bo'yinga ar-qon tashladi. Sirtmoq xorunjiy bo'ynini siqqanda qip-qizil yuzi taloqdek bo'lib ketdi, to'pponchasini olib otgan edi, qo'li qaltirab o'q xato ketdi. Xorunjiy qo'lliga tushgan bandilarini bog'lash uchun egariga ipak chilvir bog'lab qo'ygan ekan, Ostap

uni o'z ipi bilan o'zining qo'l-oyog'ini bog'ladi, chilvir uchini egariga bog'lab olib, sudrab ketdi. Xorunjiyni sudrab borarkan, Umanskiy bo'linmasining askarlarini chaqirib: «Ataman bilan vidolashib qolinglar», – deb qichqirar edi.

Umanskiy bo'linmasining kazaklari atamlari Borodatiydan ajralganlarini eshitgandayoq jang maydonini tashlab, atamanning o'ligi tepe-siga yig'ildilar, shu yerda atamanlikka kimni saylash maslahati boshlandi. Maslahat shunga kelib to'xtaldiki:

– Gapni cho'zib nima qilamiz. Bulbaning o'g'li Ostapdan boshqa atamanlikka munosib odam yo'q; hammamizdan yosh bo'lsa ham, aqli keksalnikidan kam emas, – dedilar.

Ostap boshidan telpagini olib, kazaklarning unga ko'rsatgan izzat-hurmatlariga rahmatlar aytdi; urush chog'i fursat yo'qligini bilib: «Yoshman, aqlim yetmaydi», – deb uzr aytib o'tirmasdan, darrov bosh bo'lib, to'daga kirib ketdi va o'zini atamanlikka bekorga saylamaganliklarini ko'rsatdi. Lyaxlar jang juda qizib ketganini payqab, bir yerga to'planish uchun maydonning bir chekkasiga qochib o'tdilar. Past bo'yli qotma polkovnik darvoza tagida bir chekkada turgan to'rt yuz odamga ishora qilgan edi, zambaraklar gumburlab, kazaklar ustiga o'q yog'ildi, lekin zambarak o'qi odamlarga tegmasdan urushdan hurkib, asovlanib turgan ho'kizlar orasiga borib tushdi. Ho'kizlar qo'rqib, bo'kirishib, kazaklarning ot-aravalalariga o'zlarini urdilar, aravalarni sindirib, ko'p odamni bosib, yanchib tashladilar. Ammo Taras bu paytda pistirmada yotgan joyidan chiqib, butun askarlari bilan qiyqiriq solib,

o'rtaga o'zini urdi: hurkigan mollar qiyqiriqdan hurkib, orqasiga qaytib, lyaxlar orasiga uring ketdi; otliqlarni qaytarib, hammani bosib-yanchib, tumtaraqay qilib yubordi.

Zaporoyyeliklar qichqirishib:

– Barakalla, ho'kizlar, safarda ko'p xizmat qilgan edinglar, endi jangda ham ish ko'rsatdinglar, – deb o'zlarini yana dushmanga urdilar.

Dushmanning ko'pini qirdilar. Pahlavonlardan Metelits, Shilo, ikkala Pisarenko, Vovtuzenko va yana bir nechalar xo'b qahramonliklar ko'rsatdilar. Lyaxlar ishlari shikastga qarab ketganini ko'rgach, tug'-bayroqlarini tashladilar, shahar darvozasini och deb qichqirdilar. Temir qoplan-gan darvoza g'ijirlab ochildi; qo'radagi qo'yardek g'uj bo'lib pitirlashib turgan, horigan, chang bos-gan otliqlar ichkari kirdilar. Zaporoyyeliklarning ko'plari ular orqasidan quvlamoqchi bo'lgan edi-lar, Ostap o'z odamlarini to'xtatib: «Og'alar, devor-dan nari qochinglar, devorga yaqin kelmanglar!» – deb buyurdi. Darvoqe, to'g'ri aytgan ekan, qal'a tepasidan to'p qo'yib, duch kelgan har narsani kazaklar ustiga tashlay derdilar, ko'plari halok bo'ldi. Ayni shu mahal askarboshi kelib qolib, Ostapni alqadi: «Yangi bo'lsa ham, askarga eski atamandek boshchilik qiladi!» – dedi. Chol Bulba, yangi ataman kim ekan, deb orqasiga qayrilib qaradi: Umanskiy bo'linmasining boshida qal-pog'ini chakkasiga qo'yib olib, ot o'ynatib, qo'lida atamanlik gurzisi bilan Ostap ketyapti. O'g'liga qarab: «Obbo nomard-ey!» – deb suyundi, o'g'li-ga buncha hurmat ko'rsatganlari uchun Umanskiy bo'linmasining hamma odamlariga minnat-dorchilik bildirdi.

Kazaklar yana orqaga qaytdilar va o'z lashkar-gohlariga ketmoqchi bo'ldilar. Qal'a tepasida yana lyaxlar ko'rindi, endi ustlaridagi chakmonlari yirtilgan edi. Ko'plarining ustlaridagi qimmatbaho to'nlarida qon qotib qolgan, chiroyli dubulg'alari ni chang bosgan.

Zaporojyeliklar pastdan turib:

– Ha, barchamizni bog'lab oldinglarmi? – deb qichqirardi.

Semiz polkovnik yuqoridan turib, hali ham:

– Hap, sizlarni! – deb baqirib, arqon ko'rsatar edi.

Chang bosgan, charchagan, askarlardan ba'zi o'jarlari hali ham bir-birlariga do'q qilishar, gap otishar edi. Nihoyat hamma joy-joyiga qaytdi. Birov jangda charchab dam olgani chodirga kirdi, birov yarasiga tuproq separ, ro'molini va dushmanning o'ligidan yechib olgan qimmatbaho ki-yimlarini yirtib, yarasini bog'lar edi. Baquvvat-roqlari o'liklarni yig'ishtirib ko'mish bilan ovora edilar. Shamshir va nayzalar bilan go'r qazib, qalpoq va etaklarida tuproq tashirdilar, yigitlarning o'ligini izzat-hurmat bilan yerga qo'ydilar, ularning ko'zlarini qarg'alar, burgutlar cho'qimasin deb ko'mdilar. Lyaxlarning o'ligini to'da-to'da qilib asov otlarning dumiga bog'lab, dalaga haydadi-
lar, otlarni xo'b yogurtirib, o'liklarni xo'b sava-
ladilar. Asov otlar zovur va marzalardan oshib,
qonga, tuproqqa belangan lyaxlar o'ligini sudrab
borar edi.

Kechqurun hamma bo'linmalar yig'ilishib majlis tuzdi, har kimning botirliklaridan, kelajak bo'g'lnlarga doston bo'ladigan qahramonliklardan so'zlashdilar. Xiyla vaqtgacha yotmadilar, hamma yotganda ham chol Taras yotmadi, dushman

ichida Andriyning ko'rinxaganligiga sabab nima ekan deb xayol surib ketdi. «Xoin o'z qardoshlari-
ga qarshi chiqishga nomus qildimi yoki juhud
meni aldadimi, o'g'lim bandi tushdimi?» – deb
o'ylab ketdi. Ammo Andriyning ko'ngli ayollarga
haddan tashqari moyilligi esiga tushib, yuragini
g'am bosdi, siqildi, o'g'lini oshifta qilgan polyak
qizidan o'ch olishni ko'ngliga tugib qo'ydi. Xayo-
liga o'sha qizdan o'ch olar ekan, uning husniga,
selkillagan sochiga qaramay, kazaklar orasi-
da rosa sudrab yurardi. Baland tog'lar tepasida
uning oppoq qordek go'zal siynasi, chiroyli kift-
lari qon-u tuproqqa belanar edi. Momiqdek chi-
royli badanini burda-burda qilib sudratar edi.
Biroq taqdir nima qilishini, ertaga nima bo'lismeni
Bulba bilmaydi. Sekin-sekin ovunib, alhol u ham
uyquga ketdi. Kazaklar hali ham gaplashar, pos-
bonlar tuni bilan mijja qoqmasdan, tevarak-atrof-
dan ko'z-qulqoq bo'lib, gulxan yonida o'tirar edi.

VIII

Oftob qiyomga kelguncha ham yo'q edi, zapo-
rojyeliklar davra olib yig'ildilar. Sechdan xabar
keldi; kazaklar yo'qligida tatarlar kelib, Sechni
talon-toroj qilibdi, unda qolganlarning hamma-
sini poymol qilib, bandga solib haydabdi va yer
ostida yashirin saqlangan xazinani ham topib
olib ketibdi. Bor-yo'q mollarni olib, to'ppa-to'g'ri
Perekopga yo'l solishibdi. Yolg'iz bitta kazak Mak-
sim Goloduxa yo'lda tatarlar qo'lidan chiqib, ta-
tar mirzasini so'yib, uning yonidagi hamyonini
olib, tatar otiga minib qochibdi. Tatarlar uni bir
yarim kun-u ikki kecha quvlabdi. Bir otni o'ldi-

rib, boshqasiga minib, buni ham o'ldirib, yana boshqasini minib, zaporoyeliklarning Emannoda turganlarini yo'lda bilib, kazaklar lashkargohiga yetib kelibdi. Kelgan odam bo'lgan yomon voqeani aytdi, xolos, ammo nima sababdan bunday halokat bo'lganini, kazaklar odatlarini qilib mastlikda bandga tushdilarmi, xazina ko'milgan joyni tatarlar qanday bildilar, bu haqda hech narsa aytmadı. Kazak juda charchab, shishib ketibdi, yuzi oftob va shamoldan qurishib ketibdi; turgan joyida dumalab, qotib uxlab qoldi.

Bunday hollarda zaporoyeliklar darrov otlanib o'g'rilar ketidan quvar edilar, chunki bandga tushganlar Kichik Osiyo bozorlariga, Smirnaga va Krit oroliga borib qolar, kokildor kazaklar Xudo bilsin yana qayerlarda xor bolardi. Shuning uchun zaporoyeliklar yig'ilishgan edi. Hech kim boshidan qalpog'ini olmadi, chunki atamanlar huzuri ga buyruqlar tinglashga emas, balki o'z tengdoshlari bilan maslahatlashgani kelgan edilar.

Yig'indagilar:

- Avval keksalar, maslahat beringlar! – deb qichqirishar, yana boshqalar:
- Askarboshi, maslahat ber! – der edilar.

Askarboshi qalpog'ini boshidan olib, hammaning kattasi va boshlig'idek emas, tengdosh o'rtoqdek kazaklarning ko'rsatgan izzat-hurmatlariga tashakkur aytib:

– Oramizda keksalar, aqli balandlar ko'p, biroq meni hurmat qilib, maslahat so'radinglar, mening maslahatim shuki, o'rtoqlar, fursatni o'tkazmasdan tatarning payiga tushmoq kerak, chunki tatarning qanday odamligini o'zingiz bilasiz; talab ketgan mol-mulkulari bilan bizning kelishimizni

poylab o'tirmaydi, darrov barbod qilib sovuradi, keyin ushog'ini ham topolmaymiz; maslahatim – yo'lga tushmoq. Bu yerda xo'b sayl qildik. Kazaklarning qanday odamligini lyaxlar ko'rdilar. Dinimiz yo'lida hol-qudratimiz yetgancha jonbozlik qilib, ularning tanbehini berdik, och shahardan bizga manfaat ko'p emas. Shunday qilib, mening maslahatim «yurmoq».

Zaporojyeliklarning hamma bo'linmalaridan «yurmoq!» degan baland ovoz chiqdi.

Ammo Taras Bulbaga bu gaplar yoqmadi, yerga qaradi, qovog'i solindi, tog' tepasida o'sgan, uchlariga nina-nina bo'lib, qirov tushgan mayda butalar singari oq-qora aralash qoshlari chimirildi.

– Askarboshi, sening bergen maslahating noto'g'ri! – dedi Taras. – Sen noma'qul gapirding! Lyaxlar qo'lliga bandi tushgan odamlarimiz bu yerda qolib ketsa maylimi, buni esingdan chiqarganga o'xshaysan. Chamamda, sen eng birinchi muqaddas qonunimiz – birodarlik, qardoshlik qoidasini oyoqosti qilishimizni xohlaydiganga o'xshaysan, qardoshlarimizni tiriklayin po'stlarini shilsinlarmi yoki tanlarini to'rt taqsim qilsinlarmi, burun getmanni, Ukrainadagi boshqa rus pahlavonlarni shaharma-shahar, qishloqma-qishloq sazoyi qilganlaridek, endi bularni ham shunday sazoyi qilsinlarmi? Bizning muborak joylarimizni shuncha haqorat qilganlari kammi? Axir bizlar o'zimiz kimmiz? Hammangizdan so'rayman, o'z qardoshini tashlab ketgan, musofirlikda, g'ariblikda yolg'iz tashlab ketgan odam qanaqa kazak bo'ldi? Agar shunaqa bo'lsa, kazakning obro'si va hurmati hammaga bir pul bo'lib qolgan bo'lsa, hammamiz oppoq mo'ylovlarimizga tuflatib, o'zimizni haqorat qildirib qo'yadigan

bo'lsak, mendan hech kim gina qilmasin. Men o'zim yolg'iz qolaman.

Tik turgan zaporojyeliklar hammasi bezovta bo'la boshladi.

Askarboshi turib:

– Mardona polkovnik, tatarlarning qo'lida ham bizlarning qarindoshlarimiz bandi ekanlarini va ularni darhol qutqarib olmasak, ular umrbod majusiy butparastlarga qullikka sotilib ketishlarini, bu xo'rlik har qanday qiyin o'limdan ham battarligini yodingdan chiqardingmi? Nasroniylarning qoni baravariga tushgan xazinamiz ular qo'liga kirganligini esingdan chiqardingmi! – dedi.

Kazaklar o'ylanib, nima deyishlarini bilmay qoldilar, hech qaysilari o'zlarini uyat-nomusga qoldirishni tilamas edilar. Bu gapdan keyin hammadan keksa Kasyan Bovdyug nomli mo'ysafid o'rtaga chiqdi. Barcha uni izzat-hurmat qilar edi. U ikki marta askarboshi etib saylangan, urushlarda ham juda polvon edi, ammo yoshi ulg'a-yib qolganidan, urushlarga chiqmay, maslahatga aralashmay qo'ygan va o'zi eski bir askar bo'lganidan kazaklar yig'ilishganda ularning har xil bo'lmish voqealar, urushlar to'g'risidagi gap va hikoyalarini eshitib, yonboshlab yotishni yaxshi ko'rар edi. Boshqalarning gapiga sira aralashmas, faqat quloq solib, og'zidan sira tushmaydigan tamakisining kulini barmog'i bilan bosib, ko'zini yumibroq o'tirar edi, uxbabmi yoki quloq solibmi o'tirganini hech kim bilmas edi. U urushga chiqmasdi, ammo bu gal mo'ysafidning g'ayrati qo'zg'ab ketib, kazakchasiga qo'lini siltab turib:

– Mazam ketib qolibdi! Endi men ham boray-chi, biror ishga yarab qolarman! – dedi.

Mo'ysafid chol o'rtaga chiqib, so'zga og'iz ochganda, hamma hayron bo'lib qoldi, chunki ko'p vaqtlardan beri uning so'zini eshitmagan edilar. Hamma Bovdyuga nima der ekan, deb uning og'ziga qarab turar edi.

– Hurmatli og'alar, endi menga ham biror og'iz so'z aytish navbatি keldi, – deb so'z boshladi Bovdyug. – Bolalarim, men keksaning so'ziga ham qulоq solinglar. Askarboshi dono so'zladi, kazak askarlarining boshi va ularning homiysi hamda yurtimiz xazinasining qo'riqchisi bo'lgan askarboshimiz bundan ortiq dono va ma'qul so'z ayta olmaydi. Gap shu! Bu mening birinchi so'zim bo'lsin. Endi qulоq soling, ikkinchi so'zim nima? Ikkinchi so'zim shuki, polkovnik Taras ham xo'b ma'qul, haqiqat gapni aytdi. Xudo umrini uzoq qilsin, yurtimizda bu xil kishilar ko'paysin! Kazakning birinchi vazifasi, birinchi izzati qardoshlik qoidasini bajo keltirishdir. Og'alar, yoshim shunchaga kirib, hech eshitganim yo'qki, kazak o'z qardoshini tashlab yoki unga xiyonat qilib ketgan bo'lsin. Ular ham, bular ham bizga qardosh, bittasi ozmi, bittasi ko'pmi baribir, hammasi qardoshlarimiz, hammasi baravar qadrdonimiz. Shunday qilib, aytadigan gapim shuki, tatarlar qo'liga tushganlarga ko'proq yaqin va mehribon bo'lganlar tatarlar payiga tushsinlar, lyaxlarga bandi tushganlarga ko'ngli yaqin bo'lib, haqqoniy ishni bitirmasdan ketishni istamaganlar, mayli bunda qolsinlar. Askarboshining vazifasi tatarlar orqasidan boruvchilarga bosh bo'lib bormoqdir, bunda qoluvchilar o'zlariga bir boshliq saylab olarlar. Mo'ysafid cholning so'ziga qulоq solsan-giz, boshliq mansabiga Taras Bulbadan boshqa

munosib odam yo'q. Botirlikda oramizda unga baravar keladigan hech kim yo'q.

Bovdyug buni aytib, jim bo'ldi, uning bergen maslahatiga, ko'rsatgan yo'l-yo'rig'iga kazaklar ham xursand bo'ldilar. Hammalari qalpoqlarini irg'itib:

– Barakalla, otamiz, indamay yurib-yurib oxi-ri bugun bir gapirding, yaxshi gapirding, urushga otlanib chiqqaniningda kazaklar kuniga yarab qolarman degan eding, so'zing bekor ketmadi, kunimizga yarading, – deb qichqirishdi.

– Nima deysizlar, shunga rozimisizlar? – deb so'radi askarboshi.

– Rozimiz hammamiz! – deb qichqirishdi kazaklar.

– Bas, maslahatimiz bitdimi?

– Bitdi! – deb qichqirishdi kazaklar.

Askarboshi:

– Bolalarim, endi butun lashkarga berilgan buyruqni eshiting! – deb oldinroq chiqib qalpog'ini kiydi, qolgan zaporoyyeliklarning barchasi qalpoqlarini olib, bosh yalang yerga qarab turdilar. Ulug'lari so'zlaganda kazaklar hamisha shunday bo'ysunib turar edilar. – Aziz birodarlar, endi bu yerdan ketadiganlar o'ng tomonga, qoladiganlar chap tomonga o'tinglar, har bo'linma-ning ko'pchiligi qaysi tomonga o'tsa, ataman o'sha tomonga o'tsin, kamchilik tomon boshqa bo'linmalarga qo'shilsin.

Hammalari qimirlashib qoldilar, birov u to-monga, birov bu tomonga o'ta boshladi. Qaysi bo'linmaning ko'pchiligi qayoqqa o'tsa, ataman ham o'sha yoqqa o'tdi, kamchilik tomon boshqa bo'linmalarga qo'shildi. Har ikki tomon salkam

baravar chiqdi. Nezamaykovskiy bo'linmasining hammasi deyarli qoldi, Popovich bo'linmasining yarmisidan ko'pi, Umanskiy, Kanevskiy bo'linmasining hammasi qoldi, Steblikivskiy va Timoshevskiy bo'linmalarining yarmisidan ko'pi qoldi. Qolganlarning hammasi tatarlar ketidan quvlab borish tarafdoi bo'ldi. Har ikki tomonda botirlar bor edi. Tatarlar izidan borishga tarafdoi bo'lib chiqqanlar ichida keksa, mardi maydon kazak Cherevatiy, Pokotipolo, Lemish, Prokovich Xomalar bor edi; Demid Popovich ham bu tomonga o'tdi, chunki g'ayrati tez va bir yerda ko'p turib qolsa chidolmaydigan odam edi; lyaxlar bilan urushib ko'rdi, endi yana tatarlar bilan urushib ko'rmoqchi bo'ldi. Bo'linmalardan Nost-yugan, Pokrishka, Nevilichkiy, yana bir qancha pahlavonlar tatar bilan olishib bilak quvvatini, qilich damini sinab ko'rmoqchi bo'ldilar. Qolmoqchi bo'lgan kazaklar orasida ham azamat polvonlar, mardlar ko'p edi. Bo'linmalardan Demitrovich, Kukubenko, Vertixvist, Balaban, Bulbenko, Ostap bor edi. Bundan bo'lak yana bir necha mashhur va ma'ruf kazaklar bor edilar. Chunonchi, Vovtuzenko, Cherevichenko, Stepan Guska, Oxrim Guska, Mikola Gustiy, Zadorojniy, Metelitsa, Ivan Zakrutiguba, Mosiy Shilo, Dyogt-yarenko, Sidorenko, Pisarenko, yana bir Pisarenko, yana bir qanchalar. Bularning bari ko'pni ko'rgan, har yurtda bo'lgan: Anatoliy bo'ylarini kezgan, Qrimning sho'rlagan yerlarida, dasht va biyobonlarida, Dneprga quyiladigan katta-kichik barcha daryolarda, Dneprning barcha burun va orollarida bo'lgan odamlar edilar. Moldavanlar, alatlar, turklar yurtida ham bo'lgan, Qora den-

gizni ikki quyruqli qayiq bilan boshdan-oyoq kezib chiqqan, ellik qayiq bir bo'lib ulkan kema-larga qaroqchilik qilgan: birtalay turk kemalarini g'arq qilgan, umrlarida behad va behisob o'q otgan, qimmatbaho kimxob va zarboflarni yirtib paytava qilgan, bir emas, qayta-qaytadan shimlarining cho'ntagini nuqul oltinga to'latib olgan odamlar edi. Bulardan har qaysisining o'z umridasovurgan mol-dunyosi behad va behisob edi va bu mol-dunyolar boshqalarga umrbod yetar edi. Ular hammani ziyofat qilib, yer yuzidagi hamma o'y-nasin-kulsin deb mashshoqlar yollab, bor-yo'qlarini sovurganlar. Hali ham ko'mib qo'ygan mol-dunyosi, kumush kosa va cho'michi yo'g'i ular orasida kam edi; mabodo falokat bosib tatarlar qo'qqisdan Sechga bostirib kelib qolsalar, mol-dunyolarni topmasinlar deb, Dnepr orollaridagi qamishzor-larga bekitib qo'yardilar. Bu dunyolarni tatarlar u yoqda tursin, ba'zida egasi ham topolmas edi, chunki ko'mgan joyi esidan chiqib ketar edi. Lyax-lardan yor-birodarlarining o'chini olmoqni va Iso dini uchun fido bo'lmoqni istab, bu yerda qolgan kazaklar ana shu xildagi odamlar edi. Mo'ysafid Bovdyug ham qolishni xohladi: «Tatarlar orqasidan quvlab borishga endi menda hol yo'q, ammo kazaklar qismatiga tushgan mardona o'lim topib, yer bag'rida yotmoqqa bu yerda o'tin bor. Ko'p zamon-lardan beri o'ladigan bo'ssam, din yo'lida jonbozlik qilib, urushda o'lay deb, Xudodan so'rар edim. Murodimga yetdim. Keksaygan kazak hech qayerda bundan ortiq yaxshi o'lim topolmaydi», – dedi.

Hamma ikki yoqqa ajralib, har bir bo'linma saf tortib turgandan keyin, askarboshi saflar orasidan aylanib chiqqach dedi:

- Hurmatli og'alar, bir-biringizdan rozimisizlar?
- Hammamiz rozimiz, ota! – deb javob berdilar kazaklar.
- Endi bir-birlaring bilan o'pishib xayrlashing-lar, chunki bir-birlaringni ko'rish-ko'rmaslikla-ringni Xudo biladi. Atamanning so'zidan chiq-manglar, kazaklar nomusi nima buyurganini o'zlarining bilasizlar.

Kazaklarning hammasi bir-birlari bilan o'pishib xayrlashdilar. Avval atamanlar oqargan mo'y-lovlarini silab, quchoqlashib o'pishdilar, keyin qo'llarini qattiq ushlashib, go'yo bir-birlaridan: «Og'ayni, yana ko'risharmikanmiz, yo'qmi?» – deb so'ramoqchi bo'lardilar-u, lekin so'ramas edilar. Har ikki tomon bu yerdayam ish yetarli bo'lishini ko'rishlarini bilib xayrlashdilar, lekin darrov ajralib ketmasdan, kamayib qolganlarini dushman bilmasligi uchun qorong'i tunda ayrilishga qaror qildilar. Keyin ovqatlanmoq uchun hamma o'z bo'linmasi tomonga ketdi.

Yo'nga tushadiganlarning bari ovqatdan keyin yotdi; bunday rohatda oxirgi marta yotayotganlarini sezgandek qattiq uyqu bilan uzoq yotdilar. Kun botguncha uxbab, qorong'i tushgach, aravalarni tayyorlashga kirishdilar. Tayyor bo'l-ganlaridan keyin avval aravalarni jo'natdilar, keyin o'zlari yor-birodarlarini bilan yana xayrlashib, aravalalar ketidan asta-asta boraverdilar; otliqlar tovush chiqarmay, otlarni «chu-chu»lamay, sekin piyodalar ketidan bordilar, birozdan keyin qorong'ida ko'zdan g'oyib bo'ldilar. Faqat otlar tuyog'ining ovozi, hali yurishib ketmagan yoki kechasi qorong'ida yaxshi moylanmagan

aravalarning g'ijirlagan ovozi uzoqdan eshitilar edi, xolos.

Garchi ketganlar ko'zdan g'oyib bo'lib, ko'rinnmay qolgan bo'salar ham, qolganlar anchaga-cha qo'llarini qimirlatib xayrlashdilar. Har qaysilari joy-joylariga qaytgach, yulduzlarning yoruq'ida aravalarning yarmisi va o'rtoqlaridan ko'p kishilarning yo'qligini ko'rganlaridan keyin ko'ngillari buzildi, taralabedodlikda o'tgan boshlarini quyi solib, beixtiyor xomush bo'lib qoldilar.

Taras kazaklar tushkunlikka tushib, botirlar ni o'z tabiatiga nomunosib ma'yuslik egallaganini ko'rdi, ammo hech narsa demadi, chunki fursat o'tsin, ko'nikihsin, o'rtoqlaridan ayrılganlardan xijil bo'lgan ko'ngli biroz yozilsin dedi. Ammo ichida tayyorgarlik ko'rib, kazakchasiga qiyqirib, hammani birdaniga xursand qilib yubormoqchi edi, faqat zoti slavyan bo'lganlar, sayoz daryolar oldidagi ulug' dengizlarga o'xshagan slavyanlar-gagina xos jo'shqinlik paydo qilmoqchi va ma'yus ko'ngillarni avvalgidan ham xushnud va tetik qilib, hammaning gayrat va himmatini yana bir qo'zg'atib yubormoqchi edi. Ulug' dengizlar to'polon va dovul vaqtida mavjlanib toshadi, oshadi, chinqiradi, kuchsiz kichik daryolar ko'tarolma-gan ulug' to'lqinlarni ko'taradi. Shamol bo'lmay tinch turgan paytlarda bu dengizlarning oynadek tiniq ko'z ilg'amas yuzi barcha daryolardan ravshanroq jimirlashib, qaragan ko'zlarga abadiy nur, azaliy huzur bag'ishlaydi.

Taras navkarlarini chaqirib, bir chekkada alo-hida turgan aravaning yukini yechmoqqa buyur-di. Bu arava boshqalardan mustahkamroq va kattaroq edi. Yo'g'on g'ildiraklariga ikki qavat

mahkam temir qoqilgan, ustidagi yuki ham og'ir, ho'kiz terisi bilan yopilgan, qora moy surtilgan yo'gon arqon bilan bog'langan edi. Aravada Tarasning yerto'lasida qachonlardan beri yotgan o'tkir may solingan katta-kichik bochkalar bor edi. U mabodo, katta bir voqeа ro'y berib: «Pusht-pushta doston bo'lib qoladigan ishlar bolsa, har bir kazak tabarruk maydan to'yib ichib, ulug' ayyom kunlarda odamning ruhi ham ulug' bo'sin», – deb bir qancha sharob saqlab qo'ygan edi. Navkarlar ulug'larining buyrug'ini eshitgach, darrov arava oldiga kelib, shamshirlari bilan arqonlarni kesib, qalin ho'kiz terilaridan qilingan yopiqlarini oldilar, bochka va xumlarni aravadan tushirdilar.

– Nimangiz bo'lsa oling, – dedi Bulba. – Kimning nimasi bo'lsa olsin, cho'michimi, otini sug'oradi-gan chelagimi, qo'lqopimi, telpagimi – nimasi bo'lsa olsin; idishi yo'qlar hovuchini tutsin.

Kazaklarning bari cho'michi bormi, chelagi bormi, to'ldirib olaverdilar, idishi yo'qlar hovuchlab icha boshladilar. Tarasning navkarlari odamlarni oralab yurib, hammaga xum va bochkalardan quyib berardilar. Lekin Taras: «Men buyruq bermaguncha ichmanglar», – deb buyurdi. Biror so'z ayt-moqchi, shekilli. Eski may o'zi har qancha kuchli, kishining ruhini har qancha tetik qiladigan bo'lsa ham, uning yoniga yana yaxshi gap qo'shilsa, bunda mayning kuchi ikki hissa oshishini Taras yaxshi bilardi.

– Aziz qardoshlar, menga ko'rsatgan hurmatingiz har qancha ulug' bo'lsa ham, bu ziyo-fat uning uchun emas, ketgan o'rtoqlarimiz bilan xayrashish ziyofati ham emas. Hozir uning ham, buning ham mavridi emas. Oldimizda ulug' ish-

lar, kazaklarga munosib botirliklar ko'rsatadigan katta ishlar bor. Qani, o'rtoqlar, birdaniga ichaylik, avvalo, muqaddas dinimiz rivoji uchun ichaylik, dinimiz butun dunyoga yoyilsin, yer yuzida yolg'iz bizning dinimiz bo'ssin! Shu qatorda Sech uchun ham ichaylik, ko'p yillar yashnasin yurtimiz, yildan-yilga rivojlanib, bir-biridan azamat, bir-biridan ko'rkam, mard yigitlar yetishsin: shu qatorda o'zimizning shon-shavkatimiz uchun ham ichaylik, nevaralarimiz va ularning bolalari, bizlarni yodlab, yor-birodarlikni mahkam ushlagan, buning qoidasini bajo keltirgan, qardoshlariга xiyonat qilmagan odamlar bor ekan desinlar. Qani, birodarlar, din uchun ichaylik, din uchun!

Oldingi safda turganlar gurillagan ovoz bilan:

– Din uchun! – deb qichqirishdi.

Keyin orqaroqda turganlar ham qo'shilishib:

– Din uchun! – deb yosh-qari hamma baravar ichdi.

– Sech uchun! – dedi Taras qo'lini yuqori ko'tarib.

Oldingi saflardan ham:

– Sech uchun! – degan baland ovoz chiqdi.

Keksalar ham oqargan mo'ylovlarini qoqib:

– Sech uchun! – dedilar; ular ketidan o'spirinlar ham lochindek kerilib: – Sech uchun! – dedilar.

Kazaklarning o'z yurtlarini yod etib chiqargan ovozlari uzoq dalalarni yangratdi.

– Endi o'rtoqlar, yer yuzidagi barcha nasroniyalar hurmatiga oxirgi ho'plamni ichaylik!

Kazaklarning hammasi, kosalarida qolgan oxirgi ho'plamni yer yuzidagi barcha nasroniyalar sharafiga ichdilar.

– Yer yuzidagi barcha nasroniyalar uchun! – degan ovoz har bir bo'linmaning har bir safida takror-takror eshitildi va xiyla vaqtgacha o'chmadi.

Kosalar bo'shadi, lekin hammalari qo'llarini ko'targancha turar edilar. Hammalarining ko'zlar maydan javdirab shod va xursand bo'lsa ham, ko'ngillari xijilroq edi. Endi ular urushdan oladigan manfaatlar, o'lja va g'animatlarni, oltin-kumush, qimmatbaho qurol-aslahalar, kimxobzarbof kiyimlar, cherkas otlari kimga, qaysi bir baxtliga g'animat bo'lishini emas, balki boshqa narsalarni o'ylar edilar. Baland tog'lar ustiga qo'nib, pastdag'i bepoyon dengizni, unda mayda qushlardek yurgan kema va qayiqlarni, uning ingichka bir chiziqdek ko'rinish turgan qirg'oqlarini, atrofida pashshadek ko'ringan shaharlar ni, boshini egib, mayda o'lanlardek ko'ringan daraxtzorlarni tomosha qilib turgan burgutdek o'y-o'ylashib qolgan edilar. Burgut tevarak- atrof ga birma-bir boqqandek, ular ham yiroqda qorayib ko'ringan qismatlariga boqar edilar. «Dala va qo'riqlar, yo'l va cho'llar bizning qonimizga serob bo'lar, buzilgan aravalarga, singan qilich va nayzalarga, oq suyaklarimizga to'lar», – der edilar. Kokili qonga belanib qotib qolgan, mo'ylovi osi-lib qolgan boshlar soy toshiday dumalab yotar, burgutlar kelib, ko'zlarini cho'qir, o'yar, ammo bunday keng, bunday yayragan qabristonning hurmati ulug'. Mardonialik, oliyhimmatlik bilan qilingan hech bir ish nobud bo'lmagani, dorining zarrachasi ham miltiq og'zidan behuda ga ketmaganidek, kazaklar shuhrati ham, ularning shon-shavkati ham sira yo'qolmas. Oq soqli ko'ksiga tushgan, balki soch-soqli oqargan

bo'lsa ham kuch-quvvati, mardligi hamon ruhi-da yashayotgan, tetik ruhi so'nmagan mo'ysafid do'mbirachi chol ularni yodlab, odamning yurak-bag'rini ezuvchi, alamli dostonlar aytganda, shuhrati olamni tutgan, avlod-avlodga dos-tonlar bo'lg'usi, chunki ovozi yaxshi chiqsin deb usta toza nuqradan ko'proq ishlatgan jomning dang'illagan tovushi shahri azimlarga ham, kul-ba-yu xarobalarga, qasr va oshiyonlarga ham baravar yetib boradi. Ibodatga chorlagandek, alamli so'zlarning jaranglagan ovozi uzoq zamon-larga, yiroq-yiroqlarga eshitiladi.

IX

Zaporojyeliklarning yarmisi tatarlar ketidan quvlab ketganini shahardagilardan hech kim bilmadi. Faqat qal'a kungurasida turgan pos-bonlar aravalarning bir qismi yo'lga tushib, daraxtzor orqasiga o'tib ketganini bildilar, xolos, ammo kazaklar pistirma qilib poylab yotmoq-chilar deb o'yladilar. Farang muhandisi¹ ham shu xayolda edi. Bu orada askarboshining ayt-gan gaplari to'g'ri chiqib, shaharda osh-non tan-qis bo'lib qoldi; o'tgan eski zamonning taomilini qilib, lashkarga qancha ovqat lozimligini ol-dindan tuzukroq hisoblay olmaganlar. Qal'adan chiqib hamla qilmoqchi bo'lib urinib ko'rdilar, ammo botirlarning yarmisi kazaklar qilichidan o'tdi, qolganlari shaharga quruq qochib kirdi.

¹ Farang muhandisi – qadimda qal'alarni mustahkam-lash hamda qamal qilish ishlarida fransuzlar usta sanalgan. Shu sabab Polsha, Litva va Rossiyaga ularni ko'p chaqirtirishardi.

Biroq juhudlar fursatdan foydalanib, sirdan voqif bo'ldilar; zaporojyeliklarning qayoqqa va nega ketganlarini, qaysi bo'linmadan qancha odam ketganini, lashkarboshilari kimligini, qolganlar qanchaligini, endi ularning fikri nimaligini bilib oldilar. Xullas, oradan bir necha daqiqa o'taro'tmas shahardagilar hamma gapdan xabardor bo'ldilar. Shahardagilarning lashkarboshilari botirlanib, jangga tayyorlana boshladilar. Taras shahardagi shovqin-suron, g'avg'o va harakatni ko'riboq payqadi va darrov farmon chiqarib, tayyorgarlik ko'ra boshladi, hamma bo'linmalarни uch guruhga bo'lib, ot-aravalardan istehkom yasadi, bu tariqa urush qilganda zaporojyeliklar sira yengimas edilar. Ikki bo'linmani pistirma-ga qo'ydi. Siniq nayza bormi, boshqa qurollar bormi, yog'och bormi to'plab, tevarak-atrofga qoziq qoqtirdi. To'g'ri kelib qolsa, dushmanning otliq askarlarini bu yerga qamab olmoqchi edi. Hamma ishi tayyor bo'lgandan keyin kazaklarga va'z aytdi; ularning ruhlarini ko'tarib, dalda berish uchun emas, chunki bunga ehtiyoj yo'qligini bilar edi, yuragida saqlagan gaplarni aytib olmoq uchun va'z so'zladi.

– Og'alar, bizning o'rtamizdag'i birlikning nimaligini sizga aytmoq istayman. Ota-bobolarmizdan eshitgansizki, bizning yurtimiz avval juda ulug' va aziz ekan; bizni hamma hurmat qilar ekan, yunonlargacha bizni bilar ekan, bizga boj-xiroj berar ekan; shaharlarimiz obod, ibodatxonalarimiz rivojda, katoliklardan chiqqan dinsiz podsholar emas, o'zimizdan, rusdan chiqqan podsholarimiz bor ekan. Dinsizlar kelib, hamma narsani egallab oldilar, hamma barbod bo'lib

ketdi, yolg'iz bizlar qoldik; azamat eridan ajrab, tul qolgan yesirdek biz ham yesir qoldik, yurtimiz ham bizdek yesir qoldi. O'rtoqlar, ana shunday og'ir zamonda bizlar qardoshlik ahdi paymonini qildik, qardoshchiligin negizi ana shunaqa, bu qardoshlik ahidian muqaddas, aziz hech narsa yo'q. Ota-onasini yaxshi ko'radi, bola ham o'z ota-onasini yaxshi ko'radi, ammo jigarlarim, bu yaxshi ko'rish boshqa, chunki hayvonlar ham o'z bolalarini yaxshi ko'radilar. Jon va tan bilan bog'lanib, qardosh bo'lish, yolg'iz odamlar orasida bordir. Boshqa yurtlarda ham bu qardoshlik bo'lgan, lekin rus tuprog'idagidek qardoshlik hech qayerda bo'lgan emas. Sizlarning ko'plaringiz ko'p yurtlarni ko'rgansiz, ko'p yillar musofirchilikda yurgansiz; bu yurtdagilar ham odam, ular ham Xudoning bandasi, siz-u bizdek gapirishadi, biroq sidqidil bilan, yurak-bag'ridan chiqarib gapirish ularda yo'q. Aqlari ham joyida, bizga o'xshagan odamlar, lekin baribir ular boshqa. Azizlarim, rus qalbi singari yaxshi ko'rish, aql yoki boshqa bir narsa bilan emas, balki butun jon-taning, borlig'ing bilan yaxshi ko'rmoq, eh-ha! – Taras shunday deb qo'llini siltadi, oq mo'ylo-vini uchirdi, so'ngra yana dedi: – Yo'q, hech kim bu xilda yaxshi ko'rolmaydi! Endi bu dunyoning odamlarida insof qolmadi, pastkashlik rivoj olib ketdi, faqat o'zim bo'lay deydilar; xirmon-xirmon bug'doyim, g'aram-g'aram pichanim, yaylov to'la yilqim bo'lsin, omborlarda xum-xum sharoblar tursin deydilar; kim bilsin allaqanday shaytoniy odatlarni qiladigan bo'lib qoldilar; tillarini tiymaydilar; qarindosh qarindosh bilan so'zlamoqni xohlamaydi; bozorda chorvani sotgandek bir-bir-

larini arzonga sotadilar. Yot podshoning iltifoti, podshoniki qayoqda, saxtiyon chorig'i bilan tumshuqlariga temsa ham, bir mumsik polyak boyning qilgan iltifoti ularga har qanday qardoshlikdan qimmatroq. Ammo har qanday past, razil odam bo'lsa ham, xushomadgo'ylikning loyiga belangan, qora kuyaga bo'yalgan bo'lsa ham, chirrog'larim, harnechuk badanida zarracha rus ruhi bor; axir bir kun ruhi uyg'onib, sho'rlik attang deb, peshonasiga uradi, razolatda o'tgan umriga la'natlar o'qib, sharmandalik loyini yuvmoq uchun o'zini har bir azob-uqubatga solishga tayyor bo'ladi. Rus tuprog'ida qardoshlik nimaligini barcha bilsin, o'lim haq bo'lsa, ulardan hech kim bunday o'lim topolmaydi! Hech qaysisi! Bizga nasib bo'lgan o'lim bilan o'lmoqqa u ko'r sichqonlar toqat qilolmaydilar!

Atamanning so'zi shu bo'ldi. Ko'pni ko'rib sochlari oqargan kumushdek boshini gapi tamom bo'lgandan keyin ham qimirlatib turar edi; uning so'zi yig'ilganlarning hammasiga qattiq ta'sir qilib, yurak-bag'riga borib tegdi; safda turgan mo'ysafid keksalar ham sochi oqargan boshlarini quyi solib, jim bo'lib qoldilar. Qarigan ko'zlar jiq-jiq yoshga to'ldi. Mildir-mildir oqqan yoshlarini astagina yeng uchida artib olgach, hammalari ittifok qilgandek birdaniga qo'llarini, ko'pni ko'rgan boshlarini silkitib qo'ydilar. Chol Taras ularga o'tmishdan ko'p narsalarni eslatdi, alam-hasratlarni ko'p tortgan, mehnat va mashaaqqatlarni ko'p chekib, jang-jadallarni ko'p ko'rib, tiriklikning azob-uqubatini ko'p tortib pishgan, aqli to'lgan odamlarning ko'nglida bo'ladigan yoki bu qattiqliklarni ko'rmasa ham, ularni dunyoga

keltirgan qari ota-onalarining baxtiga yosh qalbi ko'pni sezgan o'spirinlarda ham bo'ladigan totli hissiyotlarni qo'zg'atdi.

Dushmanning askari ham karnay va nog'oralar ni chalib, shahardan chiqa boshladi; ulug'lari be-hisob navkar va chokarlari bilan kibr-havo bilan kerilib chiqdilar. Semiz polkovnik buyruq berar edi. Miltiqlarini o'qtalib, sovut-qalqonlarini yal-tiratib, ko'zlarini chaqchaytirib, kazaklar ustiga yopirilib kela boshladilar. O'q yetar yergacha yaqinlashib kelishlari bilan kazaklar bordaniga yetti qarichlik miltiqlardan o'qqa tutib, tinmas-dan otaverdilar. Miltiq ovozidan dala-yu dashtni gumbur-gumbur bosdi. Yer-u ko'kni tutun qop-ladi, kazaklar tinmasdan otar edilar. Orqadagilar miltiqni o'qlab oldindagilarga uzatar edilar; dush-manlar kazaklarning miltiqlarini o'qlamasdan otishlariga hayron qolar edilar. Yer-u ko'kni tu-tun qoplab, ikki tomon ham bir-birini ko'rolmay qoldi, safdagilardan hali unisi, hali bunisi yiqilib turar, kimligini hech kim bilmas edi. Lekin lyax-lar o'q yomg'irday yog'ilib turganini, jang qizib borayotganini payqadilar. Tutun chiqib, o'zlarini bir chetga olish uchun ketlariga chirangan edi-lar, oralarida ko'p kishilarning yo'qligini ko'rди-lar. Kazaklardan bo'lsa yuztadan ikkita-uchta o'ldi. Kazaklar bir dam ham to'xtamasdan otaver-dilar. Buni ko'rgan farang muhandisi ham ular ning bu xilda urush qilishlariga hayron bo'lib, qoyil qolganidan hammaning oldida: «Zaporoye-liklarga qoyilman! Boshqalar ham boshqa yurtga borganlarida shunaqa urushsinlar!» – dedi-da, darrov: «To'plarning og'zini kazaklar tomoniga to'g'rilang», – deb maslahat berdi. Cho'yan zam-

baraklarning katta og'zidan gumburlab chiqqan o'q ovozidan yer ham larzaga kelib, hamma yoqni tutun bosdi. Uzoq-yaqindagi shaharlarning bozor va mahallalariga ham zambarak tovushi eshitildi, dori hidi keldi. Ammo to'pchilar mo'ljalni juda baland olgan ekanlar, o'q yuqorilab, kazaklar tepasidan o'tib, yerga tushdi va tushgan joyida qop-qora tuproqni ag'darib tashlab, yerga kirib ketdi. Buni ko'rgan farang ustasi sochlarni yulib, kazaklar tinmasdan o'q yog'dirib turgan bo'salar ham, bunga qaramay, to'pni o'zi mo'ljalga olib otishga tutindi.

Taras buni uzoqdan ko'rib, Nezamaykovskiy va Steblikovskiy bo'linmasining falokat bosishini bilib turib edi, shuning uchun: «Darrov aravalor orasidan chiqib, otga mininglar!» – deb hayqirdi. Ammo Ostap askarlari bilan yetib kelib, o'zini o'rtaga urmasa, kazaklar aravalor orasidan ham chiqolmas edilar, otga ham minolmas edilar. Ostap olti to'pchining piltasini tortib oldi, lekin to'rttasidan tortib olishga ulgurolmadi, chunki lyaxlar uni qaytardi. Bu orada farang to'pchi kazaklarning hech qaysisi haligacha ko'rmagan katta to'pning piltasini o'z qo'lliga oldi. Bu to'pning katta og'zi hayhotdek ochilib turar, undan necha ming ajal baqrayib turgandek edi. Gumburlatib chunonam otdiki... keyin uning ketidan yana uch to'p otildi, yer tagida ham to'p otligandek to'rt marta gurillagan ovoz chiqdi. Bu to'plar askarga qiron soldi. Ko'p kazaklarning boyaqish kampir onalari oriq qo'llarini so'ligan ko'ksilari-ga urib yig'larlar; Gluxov, Nemirov, Chernigov va boshqa shaharlarda ko'p kazaklarning xotinlari

tul qoldilar, har kuni boyaqishlar bozorga chiqib, har bir o'tgan-ketganga tikilib suygan yorlarini izlarlar, ammo shahardan o'tgan askarlar orasi-da suygan yorlari topilmaydi.

Nezamaykovskiy bo'linmasidan deyarli tirik askar qolmadi. Boshog'i oltindek bo'lib, to'lib tur-gan bug'doyni do'l urib ketgandek, ularni shun-doqqina qirib to'kdi.

Kazaklarning qutlari o'chib, hayron qoldilar. G'azablari oshdi, bo'linma atamani Kukuben-ko odamlarining yarmisi qirilib ketganini ko'rib, darg'azab bo'lib qolgan odamlari bilan o'zi-ni o'rtaga urdi, avval duch kelganining boshini sapchadek kesib tashladi, ko'p othqlarning otini ham, o'zini ham nayza bilan urib-yiqitib, to'pchi-lar tepasiga bordi va bir to'pni o'lja oldi. Nari-roqda Umanskiy bo'linmasining atamani Stepan Guska katta to'pni tortib olish harakatida edi, bularni bu yerda qoldirib, o'zini dushmanning boshqa to'dasiga urdi, Nezamaykovskiy bo'linma-sining odamlariga dushman pisand emas, ularni bosib-yanchib, qirib borardilar. Lyaxlarning saf-lari siyraklanib, o'lklari dasta-dasta bo'lib yotar edi. Aravalor oldida Vovtuzenko, oldinda Cherevi-chenko, orqadagi aravalor oldida Degtyarenko, uning orqasida bo'linma atamani Vertixvist turar edi. Degtyarenko ikki lyaxni nayzaga olib, endi uchinchisini olmoqchi edi, lekin bunisi osonlik bilan jon bermay qattiq olishib qoldi. Lyaxning ot va egar-jabduqlari xo'b dabdabali, orqasida navkar va chokarlarning o'zidan ellik kishi bor edi. Degtyarenkonni yengib, otidan yiqitdi, qilichi-ni uning boshiga ko'tarib: «Siz itvachchalarning bittasi ham menga bas kelolmaydi!» – deb baqirdi.

– Men bas kelaman! – deb o'rtaga chiqdi Mosiy Shilo. U bir necha bor dengizda qaroqchilariga bosh bo'lgan, issiqsovqoni ko'p ko'rgan juda polvon kazak edi. Trapezont¹ shahrida turklar qo'liga tushib, turklar uni sheriklari bilan birga kemada bandi qilib olib ketgan, qo'l-oyoqlariga kishan solib, dengizning sho'r suvidan boshqa hech narsa bermay, qiyagan edilar. Boyaqish bandilar barcha azob-uqubatlarga chidadilar, lekin dinlaridan qaytmadilar. Ammo qaroqchi boshi Mosiy Shilo toqat qilolmay, dinidan qaytib musulmon bo'ldi, gunohkor boshiga salsa o'radi, turklar podshosi ishonib, uni barcha bandilarga bosh qilib, bandixonaning kalitini qo'liga berib qo'ydi. Bechora bandilar uning bu ishidan ko'p ranjidilar, chunki o'z oralaridan chiqib, dinini yutib, zolimlar bilan birlashib ketgan battol qo'l ostida bo'lgandan ko'ra, boshqa bir dinsiz qo'l ostida bo'lgan yaxshiroq ekanini bilardilar. Darvoqe, shunday bo'ldi. Mosiy Shilo bandilarning hammasini uch qator zanjirga bog'ladı, arqonni suyakkacha botirib, chambarchas bog'ladı. Hammani xo'b savaladi, turklar bunday sado-qatli qulni topganlariga suyunib, aysh-ishratga kirib va shariatlarini unutib, mast bo'lganlari-da, Mosiy Shilo oltmishto't kalitning hammasini keltirib bandilarga ulashdi va: «Kishanlarni yechib daryoga tashlanglar, qo'lingizga qilich olib turklarni choppinglar» deb buyurdi. Bundan kazaklar ko'p o'ljalar bilan yurtlariga qaytib kelgan edilar va ularning bu ishlarini ko'p zamolargacha do'mbirachilar xo'b maqtab kuyladilar.

¹ Trapezont – Turkiyaning Qora dengiz bo'yidagi shahlaridan biri, savdo markazi.

Askarboshilikka saylar ham edilar-ku, ammo devonaroq edi. Gohida har qanday dononing ham aqli yetmaydigan ishlar qilar, ba'zida esa juda tentakligi o'tib ketar edi. Bud-shudini ichkilikka sarf qilib, Sechda hammadan qarzdor bo'lib qoldi, buning ustiga, o'g'rilik qilib, sharmandasi chiqdi. Bir kecha birovning uyiga kirib, egar-jabduqlarini o'g'irlab chiqib, araqfurushga garovga qo'yibdi. Bu qilmishi uchun uni bozor joyda yog'ochga bog'lab qo'yib, har kim kuchi yetguncha bir urib o'tsin deb, oldiga bitta so'yil tashladilar. Ammo uning burungi ishlari hammaga mashhur bo'lgani uchun zaporoyyeliklar orasida unga so'yil ko'taradigan hech kim topilmadi. Mosiy Shilo shunaqa odam edi.

Lyaxning tepasiga yetib kelib: «Siz itlarni o'ldiradigan odamlar ham bor», – dedi. Ikkovi xo'b olishdi; zarbadan ikkovining hamsovut va qal-qonlari qayrildi; lyax uning Sovutini kesib tashladi, qilichining dami sovutdan o'tib badaniga qadaldi. Kazakning temir ko'ylagi qip-qizil qonga bo'yaldi, Shilo bunga parvo qilmay, zabardast, baquvvat qo'lini ko'tarib, lyaxning boshiga chunonam urdiki, jez dubulg'asi boshidan uchib ketdi, o'zi gandiraklab yiqilib tushdi. Shilo uni chopishga, cho'qintirishga tutindi. Yengilgan dushmanni yana chopib nima qilasan, kazak! Orqangga qara! Kazak orqasiga qaramadi, o'rgan lyaxning navkarlaridan biri kelib, bo'yniga pichoq urdi. Shilo qayrilib qaradi, kushandasini tutay dedi, lekin u dorining tutini ichida g'oyib bo'ldi. Har tarafdan miltiq o'qi yog'ildi. Shilo gandiraklab qoldi va yegan zaxmi qattiq ekanini fahmladi. Qo'li bilan yarasini ushlagancha yiqildi; o'rtoqla-

riga qarab: «Alvido! Aziz o'rtoqlar, dinimiz va yurtimiz Rossiya abadiy yashasin! Aslo putur yetmasin!» – dedi. Quvvati ketgan ko'zlarini yumdi, kazakning ruhi ko'p azob chekkan tanasini tashlab ketdi. U tomonda Zadorojniy o'z odamlari bilan chiqib keldi. Bo'linma boshlig'i Vertixvist saflarni o'ng-u so'lga surib kelar, Balaban ham maydonga o'zini urgan edi.

Taras bo'linma boshliqlari bilan qichqirishib:

– Og'alar, qalay, qortiqda doringiz sop bo'lgani yo'qmi? Holingiz qalay, kazaklar, bo'sh kelmayapsizlarmi? – deb so'radi.

– Otamiz, dorimiz hali bor, kuch-quvvatimiz joyida, kazaklar bo'sh kelmayaptilar!

Kazaklar bir zo'r berdilar. Saflarni aralash-quralash qilib yubordilar. Past bo'yli polkovnik, har tarafga sochilib ketgan odamlarini yig'moq uchun: «Sakkizta rang-barang bayroq ko'taring», – deb buyurdi. Lyaxlarning hammasi bayroq tagiga to'plandi. Ammo saflarini rostlab olguncha bo'lmay, bo'linma boshlig'i Kukubenko askarlari bilan o'zini o'rtaga urib, qorni katta, semiz polkovnikka hamla qilib qoldi. Polkovnik uning zarbiga dosh berolmay, otini burib qochdi. Kukubenko uning orqasidan uzoqqacha quvlab borib, askarlariga yo'latmadi, yon tomonda turgan Stepan Guska buni ko'rib, qolida arqon bilan otining yoliga yotib olib, uning oldidan to'sib chiqdi. Payt topib, uning bo'yniga arqon tashladi. Polkovnik ikki qo'li bilan arqonga yopishib, uni uzishga urindi, yuzlari momataloqdek ko'karib ketdi. Ammo yaxshilab urilgan nayza allaqachon qornidan teshib chiqib, yerga qadaldi. Polkovnik yerga qoqilgandek shu yerda qoldi. Biroq Ste-

pan Guska ham omon qolmadi. Kazaklar u yonbu yonga qaraganlaricha yo'q ediki, dushmanlari Guskani to't nayzaga oldilar. Bechora: «Dushmanlarga qiron kelsin, rus yurti dorilamon yashasin!» – dedi va boshqa so'z aytolmasdan jon berdi.

Kazaklar qayrilib qarasalar, bir tomonda kazak Metelitsa lyaxlar orasiga qirg'in solyapti; yana bir tomonda ataman Nevilichkiy o'z askarlari bilan bosib-yanchib kelyapti. Aravalar turgan yerda Zakrutiguba dushmanni qaytarib, jonbozlik qilib turibdi. Chekkadagi aravalar oldida uchinchi Pisarenko bir gala dushmanni qaytardi; bir tomondagи aravalar oldida ikki tomon olishib qolib, jang aravalar ustiga ham chiqib ketdi.

Ataman Taras hammaning oldiga o'tib olib:

– Ha, og'aynilar! O'q doringiz bormi? Askarlarda kuch ko'pmi? Kazaklar bo'sh kelmayapti larmi? – dedi.

– Otamiz, o'q-dorimiz bor, kazaklarda hali kuch ko'p, kazaklar hali bo'sh kelmaydilar!

Bovdyug aravadan yiqildi: o'q xuddi diliga borib tegibdi, ammo chol jon-jahdi bilan bor quvvatini yig'ib: «Dunyoda armonim qolmadi, hammaga Xudo shunday o'lim bersin! Rus yurti qiyomatgacha bor bo'lsin!» – dedi. Shuni deb Bovdyugning ruhi yuksaklarga parvoz qilib ketdi: dunyodan avval o'tgan qariyalarga rus tuprog'ida qanday jang, bu mamlakatda muqaddas din yo'lida qanday jonbozlik qilayotganliklarini so'zlab bergani ketdi.

Birozdan keyin ataman Balaban ham yiqildi. Uch yeridan shikast yedi; bir yeriga nayza, bir yeriga o'q, bir yeriga shamshir tegdi. U ham mashhur botir kazaklardan edi; sho'r daryoda ko'p qaroqchiliklar qilgan edi. Ammo Anatol

qirg'oqlariga qilgan safari hammadan dabdabali edi. Bu safarda turklardan ko'p o'ljalar oldilar; mol-bisotlar, qimmatbaho matolar ko'p tushirdilar. Biroq qaytishda jazolarini tortdilar – boyaqishlar turklarning zambarak o'qiga uchrab, kemalarining yarmisi girdobga tushib chirpirak bo'lib ag'darilib ketdi va ko'plar suvga cho'kdlar, ammo kemalarning ikki yoniga bog'langan qamishlar ularni g'arq bo'lishdan asrab qoldi. Balaban kemasini jadal haydab, o'zini kunro'yaga oldi va shu bilan omon qoldi, chunki kunning shu'lasidan turklar uni ko'rolmadilar. Keyin tun bo'yi kemalarning teshilgan joyini tuzatish, qayiqqa kirgan suvni tovoq va bosh kiyim bilan sepish bilan ovora bo'ldilar. Ishtonlarini yirtib, yelkan qilib, turklarning yildirim kemalaridan qochib qutuldilar. O'zları omon-eson Sechga qaytib kelganlarini qo'yavering, Kiyevdagı Mejigorskiy ibodatxonanıning ruhoniysiga oltin bilan tikilgan kimxob to'n, Zaporojyedagi Pokrovga nuqul kumushdan yasalgan qoplama keltirdilar. Do'mbirachilar ko'p zamonlargacha ularning qilgan ishlarini alqab, maqtab yurdilar. Balaban endi o'limi yaqinligini fahmlab, boshini egdi-da, sekkingina aytdi: «Og'alar, yaxshi o'lim topdim, yettisini qilich bilan chopdim, to'qqizini nayzadan o'tkazdim, otim oyog'i ostida ko'plari poymol bo'ldi, o'qimdan o'lganlarning hisobini bilmayman. Rus yurti dunyo turguncha tursin!» – dedi-yu, jon berdi.

– Kazaklar, kazaklar! Qo'shinimiz gulini nobud qilmang! – deb Kukubenkonı o'rəb oldilar; Nezamaykovskiy bo'linmasidan atigi yetti kishi qoldi, bular ham zo'rg'a bardosh qilib turibdilar; Kukubenkoning kiyimlari qora qonga bo'yaldi.

Uning holi tangligini ko'rib, Tarasning o'zi madad-ga yugurdi. Ammo kazaklar fursat o'tganda yetib keldilar: uni o'rab olgan dushmanlarni quvlaganlaricha bo'lmay, naq diliga nayza urdilar. U yetib kelgan kazakning qo'liga sekin suyanib yiqildi; qip-qizil qoni xuddi buloqdek qaynab oqib ketdi, Kukubenko ko'zlarini javdiratib aytdi: «O'rtoqlar, Xudoga shukrki, sizlar oldingizda o'ldim! Bizdan keyin qolganlar bizlardan ham yaxshi yashasinalar. Iso suygan rus tuprog'i abadiy shon-shavkatlar ichida yashasin!» – dedi-yu, yosh ruhi tanasidan chiqdi. Uning ruhini farishtalar osmonga olib chiqib ketdilar. Unda ruhi huzur topar, Iso: «Kukubenko, suyganim, kel, o'tir. Bevafolik qilmading, noinsoflik qilmading, odamni baloga giriftor qilgani qo'ymadning, mening dinimni asradning, qo'riqlading!» – deydi. Kukubenkoning o'limi hammani motamga soldi. Kazaklarning saflari juda siyraklanib qoldi, botirlarning ko'pi nobud bo'ldi, ammo shunday bo'lsa ham, kazaklar bardosh qilib turardilar.

Taras qolgan bo'linmalar bilan qichqirishib:

– Og'alar, qalaysizlar, qortiqda dorilaringiz bormi? Qilichlarizingiz dami qaytmadimi? Char-chamadingizmi? Kazaklar bo'sh kelmayapti-larmi? – dedi.

– Otamiz, dorimiz hali bor, qilichlarimiz o'tkir, kazaklarda hali kuch ko'p!

Kazaklar xuddi hech talafot ko'rmagandek, yana hamla qilib ketdilar. Bo'linma boshliqlaridan atigi uch kishi qoldi. Har tarafda qizil daryolar, har ikki tarafning o'liklaridan ko'priklar paydo bo'ldi. Taras osmonga boqsa, qator-qator qarchig'aylar uchib yuribdi. Birovga davlat nasib

bo'lar! Bir yoqda allaqachon Metelitsyani nayzaga olibdilar. Yana bir Pisarenkoning boshi chirpirak bo'lib kesilib tushdi, ko'zları ola-bula alanglanib yumildi; to'rt taqsim qilib, chopilib tashlangan Oxrim Guska ham ag'anab tushdi. Taras: «Ha, bo'linglar!» – deb ro'moli bilan ishora qildi. Ostap uning bu ishorasini fahmlab, pistirmadan chiqib, dushmanning otliqlariga o'zini urdi. Lyaxlar uning hamlasiga bardosh qilolmay qochdilar. Ostap ularni quvlab, yerga nayza va yog'ochlardan qoziq qoqilgan joyga haydab kirdizdi. Lyaxlarning otłari qoqilib, egalari ustidan uchib tushaverdi. Araval lar orqasida hammadan keyinda turganlar dushman o'q yetar yerga yaqin kelganini ko'rib, to'sat dan o'qqa tutib qoldilar. Lyaxlar hammasi bir yerga g'uj bo'lib, esankirab qoldi. Kazaklar g'ayratga mindilar; har tomondan «Zafar biz tarafda, zafar biz tarafda!» degan ovozlar ko'tarildi. Shodiyna karnay chalib, zafar tug'ini tikdilar. Shikast yegan lyaxlar har tarafga tumtaraqay qochdilar. Taras qal'a tomonga qarab: «Hali batamom g'ala ba qilganimiz yo'q» – dedi; voqeа shunday edi.

Shahar darvozasi ochilib, barcha otliq askar larning shon-shavkati bo'lgan navjuvon otliq askarlar dabdaba bilan chiqdilar. Hammasing tagida bir xilda to'riq arg'umoq ot, hamma dan oldinda bir juvonmard pahlavon kelar edi. Jez dubulg'asi tagidan qora kokillari chiqib turar, go'zallarning go'zali qo'li bilan tikilgan qim matbahо sharf qo'lida hilpirab borar edi. Taras buni ko'rib tanigach, es-hushi og'ib, hayratda qoldi. U Andriy edi. Pahlavon jangning jonboz lik zavq-shavqiga to'lib, qo'liga bog'langan tuhfa ga loyiq mardlik ko'rsatmoq havasi bilan mast

bo'lib, bir gala tozilar ichida barchasidan ildam, barchasidan chiroyli tozichadek javlon urib borar edi. Shikor ustasi uni olkishlab qo'yib yubordi, u ham to'rt oyoqlab, yakka kiftlab, qorni to'zg'itib, avjiga olganda har qanday yugurik quyonni ham yolda qoldirib borar edi. Chol Taras uning o'ng-u so'lini chopib kelishini tomosha qilib, ag'rayib qoldi. Taras toqat qilolmay: «Hoy, o'z qarindoshlaring-nimi? Hali-ya? Iblis bolasi, o'zingnikini urasanmi?» deb baqirdi. Ammo Andriy kim bilan urush qilayotganini, oshnami, begonami farq qilmay, o'ng-u so'lini surishtirmay urar edi. Uning ko'ziga hech narsa ko'rinmas, faqat parishon kokillar, daryo yuzida suzib yurgan oqqushdek siynalar, oppoq qordek tomoq va kiftlar, totli-totli o'pish uchun yaratilgan dudoqlar ko'rinar edi, xolos.

Taras baqirib: «Hoy, azamatlar, aldab-suldab chakalakka olib kelinglar uni, chakalak ichiga kelsa bo'lgani!» – der edi. Ildam, chaqqon kazaklaridan o'ttiz kishi darrov hozir bo'lishdi, bular uzun telpaklarini rostlab olib, ot qo'yib dushmanning oldini to'sib chiqmoqchi bo'ldilar. Yon tomondan kirib, oldindagilarga hamla qildilar, ularni parokanda qilib orqadagilardan ayirib tashladilar, keyin ikki tomonni ham xo'b kaltakladilar. Golokopitenko Andriyning orqasiga qilichining teskarisi bilan urdi. Kazaklar darrov orqaga qarab qochdilari. Andriy g'azablandi, yosh qoni tomir-tomirlarini o'ynatdi. Otiga qamchi urib, jon-jahdi bilan kazaklar ketiga tushgancha, orqasiga qayrilib qaramay, ketidan atigi yigirma kishigina kelayotganidan bexabar, ot chopib boraverdi. Kazaklar esa otlarining joni boricha choptirib borib, chakalakka urib ketdilar. Andriy quvlab borib,

Galokopitenkoga yetib olay degan edi, qo'qqisdan birovning zabardast qoli otining jilovidan ushladi, qarasa oldida Taras! A'zoyi badaniga larza tushib, rangi o'chdi...

Andriy, sherigini urmoqchi bo'lib quvlagan va muallimiga duch kelib, kaltak yegan maktab bola holiga tushdi: butun g'azab-alami bir onda yo'qolib yuvosh bo'lib qoldi, ko'z oldida dahshat bilan turgan otasidan boshqa hech narsani ko'rmasdi.

Taras o'g'lining ko'ziga qarab turib:

– Xo'sh, endi nima qilamiz? – dedi.

Andriy bu savolga hech qanday javob berolmasdan yerga qaragancha turaverdi.

– Qalaysan, o'g'lim, lyaxlaring joningga ora kirdimi?

Andriydan sado chiqmadi.

– Shunaqa ham xiyonat bo'ladimi! Diningni sotding-a! O'z qardoshlariningni sotding-a! Qani, otdan tush!

U yosh boladek bo'ysunib, otdan tushdi, otasi oldiga kelib, jonsiz tanadek jim turdi.

– Qimir etmasdan jim tur! Seni dunyoga keltirgan ham o'zim edim, endi o'ldiruvchi ham o'zim bo'lay! – dedi Taras. Keyin bir qadam orqasiga chekinib, yelkasidan miltig'ini oldi.

Andriyning rangi bo'zdek oqardi, lablari qimirlab, birovning nomini atadi, ammo ayni shu mahal atagani – Vatanining nomi ham emas, onasining nomi ham emas, og'a-inilarining nomi ham emas, polyak malikasining nomi edi. Taras otdi.

O'roq bilan o'rilgan bug'doy boshog'idek, pi-choq bilan bo'g'izlangan qo'zidek boshi shilq etib tushdi, bir og'iz so'z aytmay, o't ustiga yiqildi.

Bolasini o'ldirgan ota jonsiz tanaga uzoq tikilganicha qarab turdi. Andriy o'lganda ham chiroy-

li edi. Yaqinda kuch-quvvatga to'lgan, xotinlarni shaydo qilgan mardonavor chehrasida hali ham ajib bir go'zallik ko'rinish turardi. Qop-qora qoshlari tobut ustiga yopilgan barqutdek yiltirar va qoni qolmagan aftining har bir tarxini ayirib turar edi.

– Kazaklikka qayeri kam edi? Qaddi baland, qoshlari qalam, yuzida kiborlik, qo'li jangda mah-kam edi! Esiz yigit-a! Yaramas itdek xor bo'lib o'ldi! – dedi Taras.

Shu onda yetib kelgan Ostap:

– Ota, nima qildingiz? Siz o'ldirdingizmi? – deb so'radi.

Taras boshi bilan ishora qilib, «ha» dedi.

Ostap o'likning nursiz ko'zlariga tikilib qaradi. Ukasiga achinib:

– Ota, endi dushmanlarga xor bo'lmasin, dar-randa-charrandalarga yemish bo'lmasin, hurmat bilan yer bag'riga qo'yaylik, – dedi.

– Uning bizdan bo'lak ko'madiganlari, yig'-lovchilar bor! – dedi Taras. – Bo'ri-bo'rsiqlarga yemish qilib tashlab ketaversammikan yoki uning bahodirligini hurmat qilsammi? Har bir botir har qanday dushmani bolsa ham, bahodirlikni hurmat qilishi kerak-ku, – deb andak fursat andi-shaga borib qoldi.

Xuddi shu payt Golokopitenko ot choptirib keldi.

– Sho'rimiz quridi, ota, lyaxlar kuchayib ketdil-
lar, ularga madad keldi! – Golokopitenko so'zini tamom qilishga ulgurmagan ham edi, Vovtuzenko ot choptirib keldi.

– Ataman, balo yog'ildi-ku! Dushmanga yana madad keldi! – Vovtuzenko bu so'zni aytar-aytmas Pisarenko piyoda yugurib keldi.

– Ota, qayerdasan, kazaklar seni izlab yuribdilar: ataman Nevilichkiy oldi, Zadorojniy ham oldi, Cherevichenko ham oldi, ammo kazaklar bardosh qilib turibdilar, seni ko'rib, undan keyin olaylik, – deydilar.

– Ostap, otga min! – dedi Taras va kazaklarni ko'rib olay, ular ham o'lar oldida atamanlarini ko'rib qolsinlar deb, shoshganicha ularning te-pasiga ketdi, lekin chakalakdan chiqmaslaridan dushmanlar atrofdan o'rab kelib qoldilar. Daraxtlar orasidan har tomondan nayza ko'targan, qilich yalang'ochlagan oqliqlar chiqaverdilar. Taras: «Ostap, Ostap, bo'sh kelma!..» – deb qichqirdi-da, o'zi qilichini yalang'ochlab duch kelganini choppaverdi. Oltiasi birdaniga Ostapga yopishdi, lekin yaxshi soatda yopishmagan ekanlar, birining boshi uchib ketdi, biri yuztuban ag'darilib tushdi, biri biqinidan nayza yedi, biri botirroq ekan, o'qqa chap berib, boshini olib qochdi, o'q otiga tegib, to'shidan tig' parrondek o'tib ketdi, ot osmonga sapchib yiqilib, ustidagi odamni bosib tushdi. Taras: «Barakalla o'g'lim, barakalla, Ostap!.. Hozir oldingga yetib boraman!..» – deb yopirilib kelayotganlarni urib-yiqitib borar va ikki ko'zi Ostapda edi; bir vaqt qarasa, kam emas, sakkiztasi birvarakayiga yopishibdi. «Ostap!.. Ostap, bo'sh kelma!..» Biroq Ostapni yengib qo'yguday bo'ldilar; biri bo'yniga arqon tashladi; bog'ladilar ham, tutdilar ham. Taras o'ng-u so'nga urib, duch kelganining boshini sapchadek uzib, Ostap oldiga borishga harakat qilar edi. «Oh, Ostap! Ostap!..» Biroq shu paytda boshiga og'ir bir tosh tekkandek bo'lib, ko'zi tindi. Kesilgan boshlar, nayza, tutun, o'tning shu'lesi, daraxtlarning shox va barglari

aralashib, ko'ziga ko'rindi. Ildiziga bolta urilgan azamat chinordek gumburlab yerga yiqildi, ko'zini tuman bosdi.

X

Taras go'yo og'ir mast uyqudan karaxt bo'lib uyg'ongandek hushiga kelib: «Uzoq uxbabman-a!» – deb o'rnidan turdi va qanday yerda yotganligini fahmlab olishga urindi; a'zoyi badanida sira quvvat qolmabdi. Yot bir uyning devor-burchaklari ko'ziga sal-pal chalinganday bolardi. Nihoyat oldida uning har bir nafas olishiga quloq solib turgandek tepasida o'tirgan Tovkachni tanidi.

Tovkach o'zicha: «Oxirat uyqusiga kirgan eding-ku! Tag'in qolding-da!» – deb o'yladi-yu, lekin unga hech narsa demay, barmog'i bilan ishora qilib, jim yot dedi.

Taras es-hushini yig'ib olib, o'tgan voqeani yodiga solmoqchi bo'lib:

– Axir aytsang-chi, qayerdaman? – deb so'radi yana.

Do'sti jahl bilan koyib:

– Jim dedim, jim! Yana nima so'raysan? Qiyma-qiyma bo'lib yotibsan-ku, ko'rmayapsanmi? Ikki haftadan beri ikkovimiz dam olmasdan ot choptirib, bu yerga yetib keldik, sen isitma ichida har balolar deb, dovdirab kelding. Bugun endi orom olib uxlading, xolos. Agar o'z jonimga bir balo orttirmay desang, jim yot, – dedi.

Ammo Taras diqqat qilib, es-hushini yig'ib olishga va o'tgan voqealarni esiga tushirishga harakat qilardi.

Axir meni lyaxlar o'rab olib, tutishlariga sal qolgan edi-ku? Ular orasidan qutulib chiqishim juda mushkul edi-ku?

Erka bolaning xarxashasidan bezor bo'lgan enaga sabri qolmay bolani jerkiganidek, Tovkach achchiqlanib:

– Shaytondan tug'ilgan, jim yot deyman senga! – deb koyidi. – Qanday qilib qutulganligingni bilgанин bilan senga nima foyda? Qutulibsan, bo'pti-da! Senga vafodorlik qiluvchi odam bor ekan, senga shu yetadi-da, hali kechalari ozmuncha yuguramizmi? Sen bu bahongni anchayin odamning bahosi deb bilasanmi? Yo'q, sening boshingni ikki ming oltinga baholadilar.

Taras birdaniga o'rnidan turishga urinib:

– Ostap nima bo'ldi? – dedi-da, Ostapning asirga tushganligi, uning ko'z o'ngida uni bog'lab olganliklari, allaqachon lyaxlar qolidaligi yodiga tushdi.

Keksa boshini g'am bosdi. Yarasiga bog'langan lattalarini uzib-yirtib, irg'itib tashladi. Qich-qirib bir narsalar demoqchi edi, gapirolmasdan g'udrandi. Isitmasi yana oshib, gapi chalkashib, talvasalay boshladi. Vafodor do'sti koyib, so'kib, oldida turar edi. Tovkach bir iloj qilib qo'loyog'idan tutib, xuddi yosh bolani o'rab-chulg'ab, jarohatlarini qaytadan bog'ladi, keyin mol terisiga o'rab, chilvir bilan chirmab, egarga mahkam bog'lab olib, yana yo'lga tushdi.

– O'ligingni bo'lsa ham, yurtimizga olib keta-man! Lyaxlarga seni xor-zor qilib qo'ymayman, etingni burda-burda qilib, suvga tashlatib qo'ymayman. Ko'zingni kalxatlar cho'qisa ham, go'rga, polyaklar yurtidan kelgan polyak kalxati

emas, o'zimizning sahroyi kalxatlarimiz cho'qisin.
O'lizingni bo'lsa ham, Ukrainaga olib boraman!

Vafodor do'stining gapi shu edi; hech dam olmasdan kecha-kunduz baravariga ot choptirib uni behush holda Zaporojyening Sechiga olib keldi. U yerda har xil dori-darmonlar, giyohlar bilan davolashga tutindi. Allaqqayerdan juhud xotin topib keldi. U bir oy muttasil uni turli dori-darmon bilan boqdi, bir oy deganda Taras andak tuzalib, boshini ko'tardi. Dori-darmonlar kor qildimi yoki o'zining baquvvatligi sabab bo'ldimi bir yarim oy deganda oyog'ini bosdi, jarohatlari bitdi, faqat qilich tekkan joylarda qolgan yamoqlar mo'ysafid kazakning qanday qattiq yarador bo'lganidan nishona berib turar edi. Ammo Taras xiyla xomush va g'amgin bo'lib qoldi. Peshonasiga uchta katta ajin tushdi va keyin sira ketmadi. Tevarak-atrofiga qarasa, eski qadrdon birodarlaridan hech kim qolmabdi, Sechdagilar barchasi yangi odamlar. Haqqoniyat, din va qardoshlik sadag'asi bo'lganlaridan hech kim qolmabdi. Askarboshi bilan birga tatarlarni quvlab ketganlardan ham allaqachon hech kim qolmabdi. Hammalari dunyodan o'tibdilar, hammalari halok bo'libdilar. Gohlari jangda mardona o'lim topibdilar, ba'zilari Qrimning sho'rtob sahrolarida tashna va nonsizlikdan nobud bo'libdilar, ba'zilari bandilikdagi uyat, xor-zorlikni ko'tarolmay o'lib ketibdi. Avvalgi askarboshi ham allaqachon o'lib ketibdi. Eski yor-birodarlaridan hech kim qolmabdi, bir zamonlarda qaynab toshgan kazak kuchi allaqachon yer bag'riga kirib, o't bosib ketibdi. Nihoyatda katta, serdabdaba-yu, sermojaro bir to'y, bir kayf-safo majlisi, bir ma'raka bo'lib

o'tibdi. Eshitgani shu bo'ldi. Bu to'yda itish-to-voqlar bitta qolmay sindirilibdi, bir qultum may qolmabdi, kelgan mehmonlar, xizmatkorlar barcha qimmatbaho asboblarni, qadahlarni o'g'irlab ketibdilar, endi to'yxonaning egasi koshki bu to'y bo'lмаган bo'lsa edi deb, xafa bo'lib yuribdi. Tarasning ko'nglini ovlab xursand qilmoqchi bolardilar, biroq harakatlari behudaga ketardi. Sersoqol mo'ysafid do'mbirachilar qayta-qayta aylanib kelib, Tarasning ishlarini alqab o'qir edilar, lekin Taras ularga beparvo edi, uning qovog'i sira ochilmas, chehrasidan g'amginlik ketmas, boshini quyi solib, ma'yus: «Bolajonim, Ostapginam!» – derdi, xolos.

Zaporojyeliklar dengiz safariga otlanmoqda edilar. Ikki yuz qayiq Dnepr daryosiga tushirildi. Kichik Osiyo ularning sochi olingan boshlarini, uzun kokillarini, bu o'lkaning obod qirg'oqlarini yiqqan va yoqqanlarini yana ko'rdi. Qonga bo'yalgan dalalarida behad va behisob gullari har tarafga sochilib, oyoq osti bo'lganidek, fuqaroning sallalari ham har tarafga sochilib, oyoq osti bo'lar, daryolarga oqar edi. Zaporojyeliklarning qora moyga belangan shalvarlari, ilondek qamchi tutgan baquvvat qollarini ko'p ko'rdi bu o'lka. Toklarini poymol qilib, uzumlarini yeb quritdilar. Machitlarida go'nglar tepa-tepa bo'ldi. Qimmatbaho eroni shollarni otlariga yopinchiq qildilar, kir to'nları ustidan belbog' qilib bog'ladilar. Ulardan qolgan kichkina mushtuklarni odamlar topib olardi.

Zaporojyeliklar qayiqlariga tushib, shod-xurram qaytdilar. Turklarning o'n zambarakli katta kemalari ular ketidan quvlab kelib, o'n zambarakdan baravariga otib, kazaklarning xarob

qayiqlarini qushdek har tarafga parokanda qildilar. Qayiqlarning uchdan bir qismi dengiz gir-dobiga g'arq bo'ldi. Ammo qolgan qayiqlar yana to'planishib, o'n ikki sandiq to'la oltin-kumush bilan Dneprga yetib keldilar. Biroq Tarasda bunday ishlarga sira havas yo'q edi. U yolg'iz o'zi ovg'a chiqqan bo'lib, sahro va dalalarga ketar, lekin miltig'i o'qlangancha qaytib kelar edi. Dengiz bo'yiga borib, miltig'ini yerga qo'yib, g'am-g'uussaga to'lib o'tirar edi. Bunda uzoq-uzoq o'tirar. «Bolam, Ostap, bo'tam, Ostap!» der edi, xolos. Oldida bepoyon Qora dengiz mavj urib, tovlanib turar edi; uzoqdagi qamish ichida baliqchi qush qich-qirar, Tarasning oqargan mo'ylovi kumushdek yaltirar, ko'z yoshi chak-chak tomar edi.

Tarasda toqat qolmadidi: «Nima bo'lsa ham borib bilaman, tirikmi, o'lilikmi? Go'rdami yoki go'rda ham asari qolmadimikin? Bilmaguncha qo'ymayman!» Oradan bir hafta o'tgach otliq, qurol-aslahalik, qilich-qalqon va nayzalik, egari qoshiga to'rva osilgan, ko'vachada talqoni, miltiq dori soladigan qortig'i, otga kerakli jabduqlar bilan Uman shahriga yetib keldi. Shaharga kirib to'ppa-to'g'ri, derazalari kichkina, kir bosgan, qandaydir bir nar-sa bilan bulg'angan, iflos bir uyga keldi. Uyning mo'risiga latta tinqilgan, teshilib yotgan tomi to'la chumchuq edi. Shundoqqina eshik tagida axlatlar uyulib yotibdi. Boshiga qorayib ketgan marvarid qadalgan toqi kiygan juhud derazadan qarab turardi.

Taras otdan tushib, otini eshik oldidagi temir ilgakka bog'larkan:

– Ering uydami? – dedi.

Juhud xotin:

– Uyda, – dedi-da, darrov otga yem uchun bir cho'michda bug'doy, otliq uchun bir kosa pivo olib chiqdi.

– Ering qani?

– Narigi uyda, ibodat qilyapti, – dedi juhud xotin. Bulba kosani og'ziga olib borganda ta'zim qilib: – Sog' bo'ling, – dedi.

– Sen bu yerda qol, otimga yem-xashak, suv berib qo'y, men o'zim kirib gaplashib chiqaman, unda ishim bor.

Juhud ma'lum-u mashhur Yankel edi. Bu yerga kelib, birovning joyini ijaraga olib saroyvonlik qilar ekan; sekin-sekin tevarak-atrofdagi boyon va mansabdorlarni qo'nga olib, hammaning pulini so'rib olibdi, juhudligini bu yurtga shunday ko'rsatibdiki, qayerga borsang, uning nishonasi bor. Atrofi uch tosh yergacha xarob bo'lma-gan bitta ham uy qolmabdi; hammasi buzilgan, yiqilgan; butun yurt xuddi o'lat tekkandek yoki o't tushib kuygandek vayronaga aylanibdi. Agar Yankel bunda yana o'n yil tursa, butun mam-lakatni xarob qilar ekan.

Taras ichkari uyga kirdi. Juhud kir bosgan chodirini yopinib, ibodat qilar ekan, o'z dinining qoidasiga oxirgi marta tupurmoq uchun orqasi-ga qayrilgan edi, orqasida turgan Bulbaga ko'zi tushdi. Juhudning ko'ziga daf'atan Bulbaning boshini keltirgan kishiga va'da qilingan ikki ming oltin ko'rindi, lekin o'zining nokasligidan o'zi uyalib, juhudning dilini doim qurtdek yeb yotgan hirsini, oltin o'chligini bildirmaslikka urindi.

Taras juhudga qarab:

– Hoy, Yankel, men seni o'limdan qutqarib qoldim, men bo'imasam, zaporojyeliklar seni bur-

da-burda qilar edilar, endi navbat senga yetdi, bir xizmat qil, – dedi. Yankel unga ta'zim qila-qila, borib, sekin eshikni yopdi, uning yuzi sal burishdi.

– Qanday xizmat? Agar imkonni bor xizmat bo'lsa, nega qilmay.

– Indama, meni Varshavaga olib bor.

– Varshavaga? Nega Varshavaga? – dedi Yankel taajjubdan qoshlari qayrilib, kiftlari uchib ketdi.

– Indamasdan meni Varshavaga boshlayver. Nima bo'lsa ham uni yana bir marta ko'rgim, hech bo'lmasa bir og'iz so'z aytgim keladi.

– Kimga!

O'g'lim Ostapga!

– Ajabo, hali eshitganingiz yo'qmi?..

– Eshitganman, bilaman, hammasidan xabarim bor, mening boshimga ikki ming oltin va'da qilibdilar. Tentaklar boshimning bahosini yaxshi bilibdilar! Men senga besh ming oltin bera-man. Ikki mingini mana hozir ol (Bulba charm hamyonidan ikki ming oltinni to'kdi), qolganini qaytgach olasan.

Juhud darrov ro'mol olib, tillaning ustiga yop-di. Tillanining bittasini qo'liga olib, aylantirib tomosha qilgach, tishlab ko'rib:

– Ajab tilla ekan, voy, g'alati tilla ekan! Bunday oltinni janobingiz kimdan tortib olgan bo'sangiz ham, boyaqish bir soat ham dunyoda turmasdan o'sha ondayoq o'zini daryoga tashlab, cho'kib ketgandir! – dedi.

– Sendan iltimos ham qilmasdan o'zim yo'l topib ketaverar edim-ku, biroq la'nati lyaxlar meni tanib qolib, tutib oladilarmi, deb xavotir qila-man, chunki ayyorlikka uquvim yo'q, siz juhud-lar ayyorlikka yaratilgansizlar, sizlar shaytonni

ham aldaysizlar. Sizlar har narsani bilasizlar, shuning uchun sening oldingga keldim. So'ngra bitta o'zim Varshavada hech narsa qilolmayman. Darrov aravangni qo'sh, meni olib bor!

– Janobingiz, baytalni qo'shdig-u ketaverdik, deb o'ylaydilarmi! Sizni yashirmsandan shundoq ketaversak boladi deb o'ylaysizmi?

– Bo'lmasa, bilganingcha yashir; bo'sh bochkaga tiqib qo'yasanmi?

– Voy, voy. Sizni bochkaga bekitib boladi deb o'ylaysizmi? Axir bilmaysizmi bochkani ko'rgandan keyin, har qanday odam ham araq deb o'ylaydi-da.

– Mayli, araq desalar deyaversinlar.

Juhud:

– ly-ye! Mayli deysizmi? – deb ikki qo'li bilan gajaklarini silab, keyin yuqori ko'tardi.

– Ha, buncha hovliqasan?

– Axir bilmaydilarmiki, araqni Xudo ichmoq uchun yaratgan? Bundagilarning hammasi nafsi buzuq, shirinxo'rlar, lyax bochkani ko'rsa besh tosh yergacha orqasidan yugurib borib, teshmaguncha qo'ymaydi. Teshgandan keyin araq oqmasa, darrov gumon qiladi, bo'sh bochkani juhud bekorga aravaga ortib yurmaydi, bir balosi bor deb payqaydi. «Tutinglar juhudni, bog'langlar juhudni, qamanglar, pullarini tortib olinglar!» deydilar. Chunki nima balo bo'lsa, juhuddan ko'radir; chunki juhudni hamma it qatorida ko'radi, juhud bo'lgandan keyin odam emas deb o'ylaydilar!

– Bo'lmasa, baliq ortgan aravaga o'tkazib qo'y.

– Hech bo'lmaydi, azbaroyi Xudo, bo'lmaydi! Polshada hozir hamma itdan battar och, baliqni ham o'g'irlab ketadilar, sizni ham payqab qoladilar.

– Bilganingni qil, nima qilsang ham, meni olib bor!

Juhud yengini shimarib olib, qo'llarini pan-shaxa qilib, yaqin kelib dedi:

— Topdim chorasini pan, hozir har yerda qo'rg'on va qal'alar solmoqdalar, Nemetchinadan¹ farang ustalari kelganlar, shuning uchun yo'llarda g'isht, tosh ortib borayotgan aravalar ko'p. Siz arava tagiga yotib oling, ustingizdan g'isht ortaman. O'zingiz baquvvat, polvon odamsiz, og'ir bo'lsa sizga hech narsa qilmas, aravaning tagidan teshik qilib qo'yaman, ovqatni o'sha teshikdan berib turaman.

— Nima qilsang qil, ishqilib, olib borsang bo'l-gani.

Bir soatdan keyin ikki xarob qirchang'i ot qo'shilgan arava, ustida g'isht bilan Uman shahri-dan chiqib jo'nadi. Bir otga baland bo'yli Yankel mingan, u yo'l bo'yiga qoqilgan qoziqdek novcha bo'lib, sakragan sari, qalpog'i tagidan chiqib tur-gan uzun jingalak kokili selkillab o'ynar edi.

XI

Bayon qilingan voqealar bo'lgan zamonda chegaraga yaqin joylarda bojxona degan narsa-lar, tujorlar ofati bo'lgan bojchi amaldorlar sira yo'q edi va shu sababdan har kim xohlagan nar-sasini har qayerga olib boraverardi. Mabodo, bi-rov tujjorning yukini tintib, musodara qilguday bo'lsa, o'z nafsi uchun qilar edi, xususan, yukning ichida ko'zga yaxshi ko'ringan narsalar bo'lsa va uning bilagida kuchi ko'p, mushtumi og'ir bo'lsa, shunday qilardi. Ammo g'ishtga talabgor bo'lindi, shuning uchun arava shaharning kat-

¹ Nemetchina – burun Germaniyani shunday atardilar.

ta darvozasidan bemalol kirib boraverdi. Bulba qafasdek joyda o'tirib, aravalarning taqir-tuquri va aravakashlarning shovqin-suronidan boshqa hech narsa eshitmas edi. Chang-to'zon bosgan kalta burul otiga minib, dingillab ketayotgan Yankel aylanib-aylanib borib juhud mahalla deb yurgizilgan qop-qorong'i iflos tor ko'chaga qayrildi. Bu ko'chaning juhud mahalla deyilishining boisi shu ediki, Varshavadagi juhudlarning hammasi shu mahallada turar edi. Bu ko'cha teskarisiga ag'darilgan orqa hovliga juda o'xshab ketar, oftob yuzini aslo ko'rmas edi. Qop-qora bosgan yog'och uylarning derazalaridan har qayerda bir xoda chiqib turar va bu uylar ko'chani battarroq noxush qilar edi. Goh-gohida g'isht devorlar uchrab qolar, ammo bu g'isht devorlar ham qorayib ketgan edi. Gohida devorning yuqorisidagi bir parcha ganchiga oftob tushib, ko'zni qamashtiradigan darajada yaraqlar edi. Bunda har narsa poyma-poy, bir yoqda mo'rilar, bir yoqda eski-tuski lattalar, buzuq bochkalar, po'choqlar. Bundagilar axlati bormi, tashlandi buyumi bormi, hammasini ko'chaga chiqarib tashlardilar va o'tgan-ketganlarga bu axlatlarni ko'rib va hidlab, «huzur» qilishga imkon berar edilar. Ko'chaning u betidagi uydan bu betidagi uyga tortilib, juhudlarning paypoqlari, kalta ishtonlari va ćudlangan g'oz osib qo'yilgan yog'ochlarga otliqlarning boshlari tegay-tegay der edi. Gohida upa-eliklarni xo'b surtib, munchoqlarni taqib olgan juhud xotining basharasi ko'hna derazadan ko'rinish qolaradi. Aft-basharalarini kir bosgan, sochlari qo'ng'iroq, bir gala chuvrindi juhudbachchalar loyga belanib, shovqin ko'tarib o'ynashar edi. Chumchuq

148
 tuxumidek butun aft-basharasini sepkil bosgan sap-sariq juhud oynadan boshini chiqarib, darrov Yankel bilan g'ujurlashib ketdi, keyin Yankel bir hovliga kirdi. Ko'chada yana bir juhud keta-yotgan edi, u ham to'xtab gapga aralashdi; Bulba nihoyat g'isht tagidan emaklab chiqqanda juda hovliqishib, so'zlashib turgan uch juhudni ko'rdi.

Yankel unga qarab: «Nimaiki talabingiz bo'lsa hammasini qilamiz, o'g'lingiz shahar zindonida yotar ekan, posbonlarni ko'ndirish juda qiyin, lekin uni sizga ko'rsatish muyassar bo'lsa ham, ajab emas», – dedi.

Bulba uchala juhud bilan birga ichkari uyga kirdi.

Juhudlar yana o'z tillarida chuldirashib ketdilar. Taras har qaysisiga bir-bir qarab o'tirar edi. Ichdan bir narsani sezganday bo'ldi. Loqayd va tund yuzida allaqanday umid olovi yondiki, odam najotdan umid uzib, dilgir bo'lib turgan paytda bir-dan paydo bo'lib qoladigan quvvatli umid kishini shunday kayfiyatga soladi. Uning keksaygan qalbi yigitlarnikidek, gurs-gurs ura boshladidi. Taras:

- Juhudlar, mening gapimga qulq solinglar,
- dedi; uning bu so'zida qandaydir bir shodlik alomati bor edi. – Olamda sizlarning qo'lingizdan kelmagan ish yo'q, sho'r daryoning qa'rida bo'lsa ham topasizlar, burungilarning: agar juhud xohlassa, o'zini-o'zi ham o'g'irlaydi, degan gapi bor. Bolam Ostapni qutqarib bering! Mal'unlarining qo'lidan chiqib, qochish chorasi ko'rsatting. Manavi odamga o'n ikki ming oltin va'da qildim, yana o'n ikki ming qo'shay. Qimmatbaho qadahlarimni, yerga ko'milgan oltinlarimni beray, uy-joylarimni, ustimidagi kiyimimni sotay, umrim

boricha nima o'lja qilsam, hammasini sizlar bilan teng bo'lay va shunga siz bilan shart bog'lay!

Yankel uh tortib:

— Yo'q, yo'q! Aslo iloji yo'q, janobi pan, sira bo'lmaydi! — dedi.

Juhudning unisi ham:

— Yo'q, yo'q! Iloji yo'q! — dedi.

Keyin uchovi bir-biriga qarashib oldi.

Uchinchi juhud boshqalarga qarab, hadik bilan:

— Bir harakat qilib ko'rmaymizmi? Xudo bersa, ajab emas, — dedi.

Juhudlarning uchovi nemischalashib ketdi. Bulba qulog'ini dikkaytirib, har qancha qilsa ham, hech tushunolmadi. Hadeb: «Madoxay», «Madoxay» deganlarini fahmladi, xolos.

— Mening gapimga qulq soling. Yer yuzida yolg'iz bir odam bor, shu odam bilan maslahatlashmoq kerak. U shunday odamki, donolikda Sulaymon payg'ambarga teng; uning qo'lidan kelmag'an ish boshqa hech kimning qo'lidan kelmaydi. Shu yerda o'tiring! Mana kalit! Hech kimi ni kirgizmang! — dedi Yankel.

Juhudlar ko'chaga chiqib ketdilar.

Taras eshikni yopib olib, kichkina darchadan iflos juhud mahallani tomosha qilib o'tirdi. Uch juhud ko'chaning o'rtasida turib olib, bir-biriga gap bermay so'zlashar edi. Bir fursatdan keyin ularga yana bittasi qo'shildi, yana birozdan keyin tag'in bittasi keldi. Taras yana haligi «Madoxay», «Madoxay» degan so'zni eshitdi. Juhudlar hadeb ko'chaning bir tomoniga qarar edilar. Nihoyat ko'chaning oxiridagi xaroba bir uy orqasidan juhudcha kavush kiygan bir oyoq va uzun to'nning etaklari ko'rindi. Juhudlar birvarakayiga

«Ana, Mardoxay, Mardoxay!» deb qichqirdilar. Yankelga qaraganda oriqroq, lekin yuzida ajinlari ko'proq, yuqori labi juda qalin bir juhud munta-zir bo'lib turgan juhudlar oldiga keldi. Juhudlar biri olib, biri qo'yib bir nimalar der edilar. Mardo-xay Taras turgan uyning darchasiga qarab-qarab qo'yar edi, bundan Taras uning to'g'risida so'zla-shayotganlarini fahmladi. Mardoxay qo'lini paxsa qilib, boshqalarning so'zini bo'lib, bir narsalar der, hadeganda yoniga tupurib, to'nining etagini ko'tarib qo'yar, qo'lini kissasiga tiqib, allaqanday soqqalar olar va ishtonini ko'rsatar edi. Bir mahal juhudlar hammasi chug'urlashib shunday g'avg'o ko'tardilarki, nariroqda qorovul turgan bir juhud ularga ishora qilib: «Jim bo'ling!» – dedi. Buni ko'rib turgan Taras o'zidan xavotir ola boshladi, ammo juhudlar, albatta, ko'chada mojaro qilish-lari va ularning tiliga iblis ham tushunmasligi esiga tushib, xotirjam bo'ldi.

Oradan ikki daqiqacha o'tgach, juhudlar Taras-ning oldiga kirib keldilar, Mardoxay Taras yoni-ga kelib, uning yelkasiga qoqib: «Biz xohlagan-u, Xudo xohlagan ish bo'lmay qolmaydi», – dedi.

Taras tengi yo'q bu Sulaymonga tikilib qa-ragach, ko'ngli birmuncha oromlandi; darhaqiqat, uning qiyofasi odamni unga inontirar edi; yuqori labi juda badburush, bunday yo'g'on tortib ket-gani beziz emas. Bu Sulaymonning soqolida atigi o'n besh tola mo'y bor, bu ham faqat chap to-monida edi. Yuzida sho'xligidan yegan kaltak-laridan qolgan chandiqlari ko'p ediki, ularning sanog'i allaqachon esidan chiqib ketganligi va ularni tug'ma xollar qatorida sanashga o'rganib qolganligi beshag-u beshubha edi.

Madoxay uning donoligiga ofarin o'qib hayron qolgan sheriklari bilan birga chiqib ketdi. Bulba yakka qolib, umrida hech bir bo'lмаган ajib bir holatda edi, umrida bir marta xavotirlanib, ko'ngli tashvish tortib, iztirobga tushdi. U endi avvalgidek azamat chinor daraxtiga o'xshamas edi, endi yuragi qolmadi, quvvati ketdi. Shitir etgan tovush yuragini o'ynatar, ko'cha boshida ko'ringan har bir juhudning sharpasi uning yuragini orziqtirar edi. Shu ahvolda kunni kech qildi. Yemadi, ichmadi, ko'chadagi kichik dera-zadan ko'zini aslo olmadi. Nihoyat kech paytida Madoxay bilan Yankel uzoqdan ko'rindi. Tarasning yuragi yorilguday bo'ldi.

Asov otdek betoqlanib:

– Nima bo'ldi? Ish o'ngidanmi? – deb so'radi.

Juhudlar nafaslarini rostlab, javob qaytarishga ulgurmay, Madoxayning, garchi xiyla xunuk bo'lsa ham, toqisi tagidan gajak bo'lib, chiqib turgan kokili yo'q bo'lib qolganini Taras darrov payqadi, Nimadir aytmoqchi bo'lib allanimalar dedi, lekin Taras hech narsani anglamadi. Yankel ham xuddi tumovdan aziyat chekayotgan bemordek ha deganda qo'lini og'ziga tutar edi, xolos.

– E marhamatli xo'jam! – dedi Yankel. – Endi sira iloji yo'q! Azbaroyi Xudo, iloji yo'q. Bu xalq shunday yaramas ekanki, boshiga tupurishdan boshqasiga arzimaydi. Mana, Madoxay aytsin, u dunyoda hech kim qilmagan ishni qildi, lekin Xudoning xohishi bo'lmadidi. Uch ming askar posbonlikda turibdi, ertaga ularni dorga osarmishlar.

Taras juhudlarning ko'ziga tikilib qaradi, biroq endi, avvalgidek betoqat va g'azabnok emas edi.

– Agar janoblari ko'rmoq istasalar, ertaga saharda, tong otmasdan avval bormoq kerak. Posbonlar rozi bo'ldilar, yasovulboshi ham va'da qildi. Ammo manglayi qoralar nihoyatda badnafs xalq ekan-da! Sho'rim qursin! Bizlarning oramizda ham bunaqasi yo'q. Har qaysisiga ellik oltindan berdim, yasovulboshiga bo'sha...

– Yaxshi. Meni uning oldiga olib bor! – dedi Taras. Avvalgi mardonaliqi yana qaytdi.

Yankel:

– Nemis mamlakatidan kelgan ajnabiy graf kiyimini kiydirib olib boraman, – deb edi Taras uning bu taklifiga rozi bo'ldi. Uzoqning mulohazasini qilgan juhud kiyim-boshlarini allaqachon hozirlab ham qo'ygan ekan. Kech bo'lib qolgan edi. Uyning egasi, boyagi sepkil bosgan sariq juhud chiptaga o'xshash bir narsa bilan qoplan-gan yupqa bir to'shak olib chiqib, so'riga Bulbaga o'rinn solib berdi. Yankel yerga to'shak solib yotdi. Sariq juhud bir piyolachada allaqanday sharbatni ichib olgandan keyin paypogi va kavushi bilan jo'jaxo'rozga o'xshab, xotini ikkovi javonga o'xshagan bir narsa ichiga kirib ketdi. Ikki juhudvachcha, ikki kuchukvachchadek javon tagida – yerda yotdi. Ammo Taras uxlamadi. Barrmog'i bilan xontaxtani tiqirlatib xomush o'tirardi, Og'zidagi tamakisini tutatar edi, xolos. Juhud tuttundan aksa urib, ko'rpgaga burkandi. Taras tong yorishar-yorishmas Yankelni oyog'i bilan turtib uyg'otdi.

– Juhud, tur, grafga kiyim-boshini ber!

U tezda kiyindi. Mo'ylov va qoshlarini qoraga bo'yadi, boshiga ixchamgina qora toqi kiydi. Bu qiyofada uni yaqin qarindosh kazaklari ham

taniyolmas edilar. Afti o'ttiz beshdan oshmagan odamga o'xshar edi. Ruxsori qip-qizil, yuzidagi yamoqlari undagi salobatni yana oshirar, zarbof kiyimlar, juda yarashib turardi.

Ko'chalar hali ham uyquda. Pulparastlardan hech kim hali shahar ko'chasiga chiqqani yo'q, Bulba bilan Yankel cho'qqayib o'tirgan laylakka o'xshagan bir imorat oldiga keldilar. Yalpaygan, pastak bu imoratning bir yog'idan laylakning bo'ynde uzun mezana chiqib turar, mezananing tepasida kichkina tomcha ham bor. Bu imoratning vazifasi ham ko'p edi; kazarma ham, avaxta ham, hatto qozixona ham shu yerda edi. Bizning yo'lovchilarimiz darvozadan kirib, katta ayvonga chiqdilar. Bunda bir mingga yaqin odam yotardi. Ro'paradagi pastakkina eshik oldida o'tirgan posbonlar chertmak o'ynab o'tirardilar. Posbonlar kelgan-ketganlarga uncha parvo qilmas edilar, shuning uchun Yankel:

– Bizmiz, og'alar, – degandan keyin qayrilib qaradilar.

Ulardan biri bir qo'li bilan eshikni ocharkan, ikkinchi qo'lini chertmakka tutib berib:

– Kiringlar! – dedi.

Ular qorong'i, tor yo'lakka kirdilar va bu yo'lakdan borib, yana shunaqa yuqorisi bor deraza zalgaga chiqdilar. Bir necha kishi birdaniga baqirishib:

– Kimsan? – deyishdi; Taras birtalay mukammal qurollangan odamni ko'rdi.

– Hech kimni kirgizishga ruxsat yo'q.

Yankel:

– Bizmiz, biz! Azbaroyi Xudo, bizmiz! – deb shuncha qichqirsa ham, hech kim unga qulq solmadi. Yaxshiki, shu paytda semiz bir odam

kelib qoldi; aftidan, kattalardan bo'lsa kerak, chunki hammadan qattiqroq so'kinar edi.

– Janobingiz bizlarni bilasiz-ku, graf janoblari hali yana ko'p muruvvat qiladilar.

– Qo'yib yuboring, la'natilar, boshqa hech kimni kirgizmang. Hech qaysingiz qilichingizni qo'y mang, itdek yerda ag'anab yota ko'rmang...

Bu farmoyishlarning ketini bizning yo'lovchilarimiz eshitmadilar. Yankel kimni ko'rsa:

– Bizmiz, pan, biz, oshnamiz, – der edi.

Ular bora-bora yo'lakning oxiriga yetganlardan keyin posbonlarning biridan:

– Endi mumkinmi? – deb so'radi.

– Mumkin, biroq avaxtaning ichkarisiga sizlarni kirgizarmikanlar. Yan ketib qoldi, uning o'rninga boshqa odam turibdi, – dedi posbon.

Juhud ohistagina:

– E, attang, ishimiz pachava-ku, marhamatliz xo'jam! – dedi.

Taras hech narsaga qulq solmay o'jarlik bilan:

– Boshla! – dedi.

Juhud nochor itoat qildi.

Tepasi qubba zindonning oldida shop mo'ylov bir sarboz turibdi. Mo'ylovi uch yoqqa ayri bo'lib, bittasi balandga, bittasi pastga, bittasi to'g'riga qarab ketgan; shuning uchun mushukka o'xshar edi.

Juhud ikki bukilib yonboshlab yurib, uning oldiga bordi.

– Muhtaram afandim, ulug' martabali pan janoblari!

– Sen juhud, menga gapiryapsanmi?

– Ha... janobi pan!

Mo'ylovorning ko'zлari charaqlab:

– Him... Men oddiy bir askarman, – dedi.

– Azbaroyi Xudo, men hokimning xuddi o'zi deb o'ylagan edim. Hay, hay, hay... – Juhud shunday derkan besh panjasini kerib, bosh chayqadi: – savlatni qarang-a! Xudo haqqi, polkovnikning xuddi o'zi. Agar yana bir ellik bo'lsa, polkovnikning xuddi o'zi bo'lardi-ya! Janobingizni pashshadan ham ildamroq arg'umoqqa mindirib qo'ymoq kerak, ana undan keyin mashq beraverar edingiz!

Sarboz pastki mo'ylovini rostlab qo'ydi, ko'zlar juda xurram bo'lib suyunib ketdi.

Juhud yana so'z qotib:

– Harbiylar ham g'alati bo'ladi-da! Ulardan yaxshi odam bo'lmaydi: voy, voy, ta'rifini qo'yavering. Bog'ichlari, tugmachalari... oltindek yiltiraydi-ya! Qizlar ko'rganda... Voy, voy!

Juhud yana boshini aylantirib qo'ydi.

Sarboz yuqori mo'ylovini burab, otning kishnashiga o'xshanqirab ketgan bir tovush chiqardi.

– Janobingizdan bizga bir xizmat ko'rsatishingizni so'rayman. Ulug', boshqa yurtdan kelibdilar, kazaklarni bir ko'ray deydilar; kazak degan xalqni aslo ko'rmagan ekanlar, – dedi juhud.

Yevropaning chala Osiyo bir qismini tomosha qilish uchun boshqa yurtlardan ko'p ajnabi graf va baronlar Polshaga sayohatga kelar edilar. Maskoviya bilan Ukrainiani ular Osiyo hisoblar edilar. Shu sababdan sarboz boshini egib, ta'zim qilgach, bir necha kalima so'z qotmoqni lozim topdi:

– Bilolmadim, janobi oliv, ularni ko'rib nima qiladilar. Ular odam emas, it! Dirlari ham hech kim tanimagan rasvo bir din.

– Shaytondan bo'lgan, bekor aytibsan! It – sen bo'lasan! Bizning dinimizni bulg'atgani qanday

tiling bordi! Sizlarning bid'at dinlaringizni hech kim tanimaydi, – dedi Bulba.

Sarboz:

– E-ha, e-ha! Oshnam, kimligingni bildim. Sen ham mana shu yerdagi bandilardansan. Shoshmay tur, men odamlarimizni chaqiray, – dedi.

Taras chakki ish qilib qo'yanini bildi, ammo qaysarligi ustiga alami qo'shilib, qilgan xatosini tuzatish to'grisida o'ylashga qo'ymadni.

Yaxshiki, Yankel darrov kelib qoldi.

– Muhtaram afandi! Qanday qilib graf kazak bo'lsin. Agar bandi kazak bo'lsa, ustidagi jomalar ni qayerdan oladi, qiyofati shunaqa bo'ladimi?

– Menga cho'pchagingni aytma! – shunday deb sarboz boshliqlarni chaqirmoq bo'lib, og'zini ochdi.

Yankeining quti o'chib:

– Shavkatli podshohim! Chaqirmang! Xudo haqqi, shovqin solmang. Ovozingizni chiqarmang, umringizda ko'rmangan narsangizni beramiz, o'n so'mlik tilladan ikkitasini beramiz, – dedi.

– E-ha, ikki oltin! Ikki oltiningiz menga nima? Sochimning yarmisini qirib qo'yaniga sartaroshga ikki oltin beraman. Hoy, juhud, yuz oltin bersang, unda mayli! – dedi va sarboz yuqori mo'ylo vini burab qo'ydi. – Agar yuz oltin bermasang, hozir chaqiraman!

Rangi o'chib, qoni qochgan juhud charm hamyonini yecharkan, qaltirab:

– Nega buncha ko'p so'raysiz? – dedi. Ammo uning baxtiga hamyonida yuzdan ortiq pul yo'q edi, sarboz ham yuzdan ortiq sanashni bilmas edi.

Sarboz ko'proq so'ramaganiga afsuslangan dek bo'lib pullarni qo'lidan qo'liga olib turganini ko'rgan Yankel hovliqib:

– Afandim, afandim, tezroq ketaylik! Bu odam-larning yomonligini ko'rdingizmi! – dedi.

Bulba achchiqlanib:

– Hoy, shaytonning sarbozi, pulni olishga olding, endi ko'rsatmayman deysanmi; yo'q, endi ko'rsat. Pul olganingdan keyin ko'rsatmaslikka haqqing yo'q! – dedi.

– Keting, keting, yo'qoling! Bo'lmasa hozir ma'lum qilaman; sizni darrov tutib... Sizga ayta-man, tezroq tuyog'ingizni shiqillating!

Bechora Yankel:

– Afandim, afandim, yuring ketaylik, azbaroyi Xudo, ketaylik, qurib ketsin, tushida bosingira-sin! – deb qarg'ar edi.

Bulba boshini quyi solib, sekin orqasiga qayrildi. Bekorga qo'ldan ketgan oltinlar esiga tushganda, alamiga chidamagan Yankel uni koyib, orqasidan borar edi.

– Tegib nima qilardingiz? It akillasa akillardi-da! Bu xalq so'kmasdan turolmaydi. Sho'rim qursin, Xudoning xohishi shu ekan-da! Bizni quvlab chiqargani uchun yuz oltinimizni oldi-ya! Bizlar bo'sak, kokilimizni yulib olsalar ham, aft-basharamizning rasvosini chiqarsalar ham, hech kim bizga yuz oltin bermaydi. E, Xudoyim, o'zing rahm qil!

Ammo bu mag'lubiyat hammadan Bulbag'a yomon ta'sir qildi. Uning ko'zida paydo bo'lgan o't buning alomati edi.

Go'yo bexushlikdan seskanib uyg'ongandek:

– Yur, ketamiz! Bozor joyiga boramiz. Uni qanday qyniar ekanlar, shuni ko'rmoq istayman, – dedi.

– E afandim, nima qilasiz borib? Baribir buning foydasi yo'q-ku.

Bulba qaysarlik qilib:

– Yur, boramiz! – dedi, juhud yosh bolaning enagasi bolaning xarxashasiga ko'nib, uning aytganini qilgandek uh tortib, orqasiga tushib ketaverdi.

Mahbuslarga jazo beriladigan maydonni topib borish qiyin emas, chunki hamma o'sha yoqqa borar edi. U dag'al zamonda dor avom xalq uchun emas, balki kibor toifalar uchun ham katta tomosha edi. Qancha-qancha xudojo'y kampirlar, qancha-qancha qo'rkoq qiz-juvonlar tomosha qilgandan keyin, tuni bilan bosinqirab, ko'zlariga qonga belangan o'lifiklar ko'rinib, mast sarbozlaridan battar baqirishsalar ham, bu tomoshadan qolmay dor tagiga borar edilar. Ularning ko'plari yuraklari zirillab, qarashga toqatlari qolmay, teskari qarab ko'zlarini yumib:

– Voy, vo-yey, muncha azob beradilar-a! – der edilar-ku, lekin baribir, ketmasdan qanchaga-cha bolsa ham turaverar edilar. Ba'zilari yaxshiroq tomosha qilmoq uchun og'izlarini ochib, qollarini cho'zib, odamlarning tepasiga minib olguday bo'lar edilar. Birtalay kichkina, oddiy kallalar orasidan qassob xum kallasini chiqarib turar va bu ishlardan yaxshi xabardor kishidek jallodlarning har bir harakatiga diqqat qilib turar, yonida turgan miltiqsoz ustani «oshna» derdi, chunki bayram kunlarida u bilan birga araqxonaga kirib, ichishar edi. Ba'zilar juda qizishib gapirar edilar, ba'zilar hatto bas bog'lashar edilar. Biroq odamlarning ko'pchiligi, butun dunyoga va bu dunyoning barcha mojarolariga qarab turaveradigan odamlar edi. Hammadan oldinda shahar soqchilari bo'lgan mo'ylovdor sarbozlar oldida boyvachcha yoki boyvachchanamo bir yi-

git sipohiy kiyimda turar edi. Bu sipoh, bisotida nimasi bo'lsa hammasini ustiga ilib chiqibdi, uyi-da yirtiq ko'ylagi bilan eski etigidan boshqa hech narsa qolmagandir. Bo'ynida past-u baland ikki qator zanjir osig'liq, zanjirga qandaydir bir tan-ga ham ilib qo'yilgan, yonida mahbubasi turib-di, uning ipak ko'ylagini birov kir qilib qo'ymasin deb, to'rt tarafga alanglagani-alanglagan. Mah-bubasiga hamma voqeani aytib tushuntirib ber-di, aytmagan hech narsasi qolmadı. «Jonim Yu-zitsya, ko'rib turganingiz bu odamlar gunohkorni qanday qiy nab, o'dirishlarini tomosha qilgani kelgan odamlardir. Jonginam, ko'z oldingizda turgan anavi oyboltalik, shop-u shaloplik odam jalloddir, jazo beruvchi o'sha. Turli xil qyinoqlar-ga solganda ham gunohkor darrov o'la qolmay-di. Keyin boshini kesib tashlaydi; bundan keyin, jonim, birpasda o'ladi. Avval xo'b dodlab pitirlay-di, lekin kallasi chopilishi bilan tovushi o'chadi; suv icholmaydi, ovqat yeyolmaydi, chunki jonim, tanasida boshi yo'q-da!» Yuzisya ham bu gaplar-ga qu loq solib, yuragi orziqib, eshitib o'tirardi. Tomlarda liq to'la odam. Tuynuklardan do'ppiga o'xshagan g'alati qalpoqchalar kiygan, mo'ylovi badburush basharalar qarab turar edi. Kibor boyonlar boloxonalarda boshlariga chodir tikib o'tiradilar. Oppoq qanddek yiltiragan tishlarini ko'rsatib kulib turgan boyvuchchaning chiroy-li qo'llari panjarani ushlab turibdi. Biqqi semiz janob gerdayib tamanno bilan qarab turardilar. yengi tashlangan, yasangan bir malay sharob-u sharbatlar va laziz ovqatlar tashib turardi. Qora ko'zli sho'x bola oppoq qo'liga holva va mevalarni olib, odamlar ustiga irg'itar edi. To'da-to'da bo'lib

turgan och sipohiylar qalpoqlarini tutar edilar, rangi aynigan qizil to'nining zARBog'ichlari qoraygan askarbachchaldardan birovi novcha bo'yini cho'zib, uzun qo'li bilan bola tashlagan narsani ushlab olgach, avval o'pib, siynasiga bosib, keyin og'ziga solardi. Boloxonada oltin qafasda osig'liq turgan qarchig'ay ham tomoshabinlardan edi. U ham bo'ynini qayirib, butini ko'tarib odamlarga tikilib qarardi. Odamlar birdaniga g'avg'o ko'tardilar, har tarafdan: «Olib kelyaptilar!.. Olib kel-yaptilar!» degan tovush chiqdi.

Bosh yalang, kokillari o'sib tushgan, soqollari o'sib ketgan kazaklar qo'rmasdan, xafa ham bo'lmasdan mag'rurona va mardona kelar edilar. Qimmatbaho movut kiyimlari to'zib, yirtiqlari osilgan edi. Xaloyiq tomoniga qaramas va salom ham bermas edilar. Oldinda Ostap.

O'g'li Ostapni ko'rganda chol Tarasning ko'nglidan nimalar o'tdi? Qanday hissiyotlar dilidan kechdi? Odamlar orasidan unga boqar va uning har bir harakatini diqqat bilan kuzatib turardi. Mahbuslar dor tagiga yaqin keldilar. Ostap to'xtadi. Bu achchiq o'lim sharbatini avval ichadigan u edi. Sheriklariga qarab qo'lini yuqori ko'tarib, baland ovoz bilan aytdi:

– Xudoyo, nasroniying azob tortib, dodlaganini bu yerda ko'rgan fosiqlarga eshitgulik qilma! Hech qaysimizdan churq etgan ovoz chiqmasin! Shunday deb dor tagiga yaqinroq keldi.

Bulba:

– Barakalla, o'g'lim, barakalla! – dedi-da, mo'ysafid boshini quyi soldi.

Jallod uning to'zigan kiyimlarini yechib oldi. Qo'l-oyog'iga kunda soldilar, so'ngra... jahannam azobini tasvirlab, o'quvchilarimiz dilini si-

yoh qilib o'tirmaymiz, bu azoblarni tasvirlasak, o'quvchilarimizning tepe sochlari tik bo'lar edi. Bu qynoqlar u dag'al zamonning o'z mahsuli edi, u zamonlarda odam bolasi faqat qonli urushlar ni bilar va shuning uchun qonxo'rlikka o'rganib, ko'ngli toshdek qotib ketgan va insonparvarlikdan bexabar edi. O'sha asr odamlarining ba'zi bir saralari bu vahshiyliklarga qarshi bo'lalar ham, ularning qarshiligi behudaga ketar edi. Podsholalar, ilm-ma'rifat soyasida qulf-dillari ochilgan ko'p dilovarlar bunday dahshatli choralar faqat kazak millatining qahr-g'azabini qo'zg'atajagini fahmlar edilar. Biroq davlat ayonlari, hokim va to'ralarning qilgan beboshlik va g'addirliklari oldida podshoning hukmi va donishmandlarning fikri hech narsa bo'lmay qolardi. Bu g'addirlar kaltabinlik, xudbinlik va go'daklar kabi bema'ni-yu bema'za mag'rurliklari orqasida mamlakat idorasini masxara va hajvga aylantirdilar. Ostap azob-u qynoqlarga mardona turib, bardosh qilib berdi. Hatto qo'l-oyog'ining suyaklarini majaqlaganlari da va buning mudhish ovozi jim turgan odamlardan oshib uzoqdagi tomoshabinlar qulog'iga yetganda, boyvachchalar ko'zlarini yumib teskari qaraganlarida ham, undan sado chiqmadi, ammo faqat yuzi taskin topdi. Taras odamlar ichida boshini quyi solib, ammo qosh-qovog'ini ko'tarib, mardona qarab turar va: «Barakalla, o'g'lim, balli o'g'lim!» – deb tahsin o'qir edi, xolos.

Biroq qynoq juda jonidan o'tib, o'ladigan bolganda toqati qolmadi, shekilli, ko'zları javdirab, to'rt tarafga qaradi. Yo Xudo, qani endi bir oshna ko'rinsa! Hamma yot, hamma – begona! Hozir ayni shu mahal qarindoshlaridan loaqlal bir kishi bo'lsa edi. Ojiza onasining dod-faryodini yoki

sochlarini yulib, oq ko'ksiga uruvchi rafiqasining yig'isini eshitgisi kelmaydi. Uning tilagi shu, u bunday paytda yaxshi so'z bilan uni yupatuvchi, ko'nglini ovlovchi bir er yigitni ko'rmoq istaydi. Holdan ketib, darmonsiz yiqlarkan:

– Otam! Qayerdasan? Eshityapsanmi? – deb qichqirib yubordi.

Hamma jimjit turgan bir kezda:

– Eshitdim! – degan bir hayqiriq chiqdi-yu, jami xaloyiq ichiga g'ulg'ula tushdi.

Otliq sipohlardan bir qanchasi odamlarni oralab qidirishga tutindi. Yankelning rangi o'chib murda bo'lib qoldi; sarbozlar undan nariroq ketganlaridan keyin Tarasga qaramoqchi bo'lib, qo'rqa-pisa qayrilib boqdi, ammo Taras yo'q, al-laqachon izi ham qolmabdi.

XII

Tarasning izi topildi. Bir yuz yigirma ming kazak qo'shini Ukraina chegaralarida paydo bo'ldi. Bu qo'shin o'lja qidirib chiqqan, yoki tatarlarni quvlab kelgan kichik bir askar emasdi. Yo'q, endi butun millat qo'zg'aldi, chunki xalqning sabr kosasi to'ldi. Haq-huquqlarini poymol qilganlardan, uni xo'rlaganlardan, ota-bobosining dini va urf-odatlarini haqorat qilganlardan, ibodatxonalarini oyoqosti qilganlardan, zulm qilgan, ezgan, jabr-u jafosini o'tkazgan ajnabiylaridan, o'z diniga kirgizmoqchi bo'lgan bid'atchilaridan nasroniyalar yurtida juhudlar hokimlik qilib millati, nomusi to'kilganligi uchun, xullas, ko'p zamonalardan beri kazaklarning qahr-u g'azabini qo'zg'atib, alamini oshirib kelayotgan barcha be-

dodliklar uchun endi o'ch olib, alamini chiqarish uchun qo'zg'aldi. Yosh bo'lsa ham, dili baquvvat getman Ostranitsa¹ behad va behisob kazak qo'shiniga bosh bo'lib borar edi. Maslahatchisi va do'sti keksa Gunya uning yonida borardi. Sakkiz polkovnik har qaysisi o'n ikki ming askarga bosh edi. Ikki yasovulboshi bilan ikki bosh bayroq dor uning ketidan borardilar. Bosh tug'chi tug' tagida borar edi. Yana birtalay bayroq va tug'lar bor edi. Tug'dorlar tug'larini ko'tarib borardilar. Yana birtalay amaldor va mansabдорлар, karvonboshi, mirzaboshi, yasovul-bakovullar bor edi, bularning har qaysisi qo'l ostida piyoda va otliq askarlar bor edi. Safarbar askarlar qancha bo'lsa taxminan yana shuncha fidoyilar, ko'ngillilar bor edi. Qayerdaki, kazak bo'lsa hammasi qo'zg'aldi; Chigirindan, Pereyaslavdan, Baturindan, Gluxovdan, Dneprning etak tomonidan – undagi barcha orol va irmoqlardan otlanib keldilar. Dala-dashtlarda son-sanoqsiz ot-aravalar keti uzilmasdan borardi. Ana shu kazaklar orasida haligi sakkiz guruh askar ichida eng yaxshisi Taras Bulba qo'l ostidagi askarlar edi. Uning keksaygan yoshi, ko'p ish ko'rganligi, qo'shinga yo'lboshchilik qilishga ustaligi, dushmanga qahri hammadan ortiqligi uni boshqalardan ortiq va martabasini ulug' qilardi. Uning berahm-beshafqat battolligi, hatto kazaklarning o'zlariga ham haddan tashqari ko'rinar edi. Uning sochi oqargan boshi faqat o't bilan dorni bilar edi, xolos. Askarboshilar o'tirishib kengashganda uning beradigan maslahat-

¹ Ostranisa – XVII asrda Ukraina kazaklari Polsha hukmronligiga qarshi kurashganlarida, kazaklarga bosh bo'lgan botirlardan biri.

lari ham faqat yiqitmoq, yoqmoq, qirmoq, qiyratmoq edi.

Kazaklar ko'p jonbozlik qilgan janglarni ham, urushning qanday qizib borganini ham bunda uzun bayon qilib o'tirishning keragi yo'q, chunki bularning hammasi tarixga yozilgan. Rus tuprog'lda din yo'lida qilingan urushlar ta'rifi ma'lum-u mashhur. Dindan zo'r kuch yo'q. Mavj urib har doim o'zgarib, turlanib turgan dengiz o'rtasidagi yuksak tosh naqadar qudratli, naqadar dahshatli bo'lsa, din ham shunday kuchli, shunday qudratli. Dengiz o'rtasidagi azamat tosh dengiz qa'ridan chiqib, yaxlit bir toshdan yaratilgan gavdasini ko'klarga-cha yuksaltiradi. Qaysi tomondan qaralsa ham tosh ko'rindi, uning oldidan chopishib, o'tib keta-yotgan to'lqinlarni pisand qilmay turaveradi. Unga kelib tekkan kemaning sho'ri qursin! Mayda-mayda bo'ladi, ichida nimasi bo'lsa suvga g'arq bo'ladi, yo'q bo'ladi, halok bo'lganlarning dod-voyidan havoda bir larza qoladi, xolos.

Ozod qilingan shaharlardan polyak askarlarining qanday qochganliklari, insofsiz ijarador juhudlarning qancha-qanchasi qanday dorga osilganligi; polyak podshosining lashkarboshisi Nikolay Pototskiy behisob va beedad qo'shini bilan ham hech narsa qilolmasdan bu azamat kuch qarshisida ojiz qolganligi; shikast yeb, qochib, kichkina bir daryoda eng sara askarlarini suvda halokatga yetkazganligi, Polonniy degan bir manzilda bahodir kazak askarlari uni qurshab olganlaridan keyin polyak lashkarboshisi hech chora topolmay nochor-u noiloj «Polyak qiroli va boshqa a'yoni mamlakat, barcha talablaringizga rozi

bo'larlar, burungi barcha haq-huquqlaringiz, barcha imtiyozlaringizni qaytararlar» deb qasam bilan va'da bergenligi – hammasi tarix sahifalarida bir-ma-bir to'la bayon qilingan. Ammo kazaklar buna-qa va'dalarga rozi bo'ladiganlardan emas edilar, chunki polyaklarning qasami nimaligini bilgan edilar. Agar o'sha manzildagi rus ruhoniylari u vaqtida Pototskiyni qutqarib qolmasalar, u polyak boyonlari bilan mansabdor va amaldorlarning hasadlarini qo'zg'atib, ko'zlarini kuydirib, olti ming arg'umоq minganlar boshida dabbaba surmas, senat a'zolariga ziyofatlar berib, seymda¹ davr-davron surmas edi. Jami poplar yig'ilishib, qo'lida buti bilan shayxlarini oldilariga solib, zarbof kimxob jomalarda kazaklar qarshisiga chiqdilar, kazaklar boshlarini egib, yalang bosh bo'lib ta'zim bilan turdilar. Hozirgi vaziyatda kazaklar, hatto qirolning o'zi kelsa ham hurmat qilmas edilar, ammo o'z dinlariga, o'z butlariga qarshi turmadilar va ruhoniylarni izzat qildilar. Getman polkovniklar bilan maslahatlashib, Pototskiyni qo'yib yuborishga rozi bo'ldi. Nasroniylarning butxonalariga aslo tegmaslik, eski nizo va adovatlarni unutib, kazak qo'shinlariga hech ziyon-zahmat yetkazmaslik to'grisida undan qasamlik va'da olib, qo'yib yubordilar. Bunday sulhga faqat bir polkovnik rozi bo'lmadi, bu odam Taras edi. Boshidan bir tutam sochini yulib qichqirdi:

– Hoy, getman, hoy, polkovniklar! Nomardlar ishini qilmang! Lyaxlarga inonmang, betavfiqlar hammangizni sotadilar.

¹ Seym – Polsha Xalq Respublikasida: davlat hokimiyati-ning oliy organi.

Mirzaboshi ahdnomani bitib bo'lgach, getman qo'l qo'yib muhrini bosgach, Taras toza va a'llo po'latdan yasalgan turk qilichini yechib, kaltakni sindirgandek ikki bo'lak qilib, bir bo'lagini bir tarafga, bir bo'lagini yana bir tarafga uloqtirib tashladi.

– Xayr endi! Bu qilichning ikki bo'lagi qo'shilib, butun qilich bo'lмаганидек, бизлар ham, do'stлar, bu dunyoda qo'shilmaymиз! Mening bu vidolashib aytgan gaplarim yodingizda bo'lsin, – bu so'zni aytganida, tovushi zo'raydi, baland ko'tarildi, kuchaydi, uning bashoratkarda bu so'zларидан hammaning ko'ngli buzildi: – олар oldida meni yodlarsiz! Tinchlik, huzur-halovat topdik deb o'ylaysizmi, aysh qilamiz deb o'ylaysizmi? Aysh qilasiz-ku, lekin boshqacha aysh qilasiz! Getman boshining terisi shilinar! Teringga somon tiqlar va ko'п zamonlargacha bozorlarda odamlarga tomosha bo'lar! Siz, panlar ham boshingizni saqlab qololmaysiz! Agar hammangizni tiriklayin qozonga solib pishirmasalar, unda zindonlarda g'isht devor ichida ko'milib, halok bo'lasiz!

Askarlariga qarab dedi:

– Endi, siz yigitlarga aytay, qaysingiz o'z ajalingiz bilan о'lmoq istaysiz? Pechka tepasida, xotinlar to'shagida ag'anab yotib emas, araqxona oldida devor tagida dumalab yotib emas, kuyov bilan kelindek bir ko'rpa va bir yostiqda yotib, halol kazak ajali bilan о'lmoq istaysizmi! Yoki uy-uyingizga qaytib, chala kofir bo'lib polyak poplarini yelkangizga orqalab yurmoq istaysizmi?

Taras qo'l ostidagi askarlarning hammasi:

– Birodarimiz, polkovnik! Hammamiz sen bilan bиргамиз! Qayoqqa boshlasang, shu yoqqa keta-

veramiz, – deb qichqirishdi. Boshqa polklardan bir odam bular tomoniga o'tdi.

Taras:

– Unday bo'lsa yuringlar! – dedi-da qalpog'ini bostirib olib, qolganlarga dahshat bilan bir qarab qo'ygach, otiga minib odamlariga dedi: – Hech kim bizni orqamizdan so'kmas! Qani, yigitlar, otlaning, katoliklarga mehmon bo'laylik.

Bundan keyin otiga qamchi berib, yo'lga tushdi, yuz ot-aravadan iborat karvon ham uning ketidan jo'nadi; bular ichida ko'p otliq va piyoda kazaklar bor edi. Taras orqasiga qarab, qolganlarga dahshat bilan bir qaradi, uning bu qarashida qahr-u g'azab to'la edi. Ularning yo'lini to'sishga hech kim jur'at qilolmadi. Ular jo'nab ketdilar, butun qo'shin qarab qolaverdi. Taras orqasiga qarab-qarab, dahshat qilib borar edi.

Xijolat bo'lgan Getman bilan polkovniklar hayratda qolaverdilar. Hammalari xomush bo'lib, qandaydir xunuk bir xabarni ko'ngillari sezgandek o'nya cho'mib turardilar. Tarasning gapi bekor emas, uning so'zlari o'z isbotini topdi. Oradan bir necha vaqt o'tgach, Kanevdagi xiyonatkorona voqeadan so'ng getmanning boshi, yana bir qancha atoqli kishilar bilan birga qoziqqa ilindi.

Taras nima bo'ldi? Taras qo'shini bilan birga Polshada sayr qilib yurib, o'n sakkiz ravotga, qirqa yaqin polyak butxonasiga o't qo'yib, Krakov shahriga yaqinlashib qoldi. Ko'p lyaxlarni qirdi, ko'p yaxshi saroy va qasrlarni vayron qildi, talon-toroj etdi; polyak boyonlarining ombor va yerto'lalarida bir necha yuz yillardan beri asrab kelingan sharob-sharbatlarni chiqarib to'kdilar, bisotxona, xazinalardagi qimmatbaho matolarni,

jomalarni qiymalab o'tga tashladilar. Taras doim: «Sira ayamang, hech narsani ayamang!» der edi, xolos. Kazaklar qoshi qora, siynasi tuxumdek oq, gul yuzli qizlarni ham ayamadilar; muqaddas joylarga qochib sig'inganlarida ham omonlik topmadilar. Taras ularni sig'ingan bu muqaddas joylari bilan birga qo'shib kuydirdi. Qancha-qancha oq bilaklar alanga ichidan chiqib, ko'kka ko'tarilar, dod-faryodlaridan yer larzaga kelar, sahroda-gi o't-o'lanylар тоqat qilolmay so'lar edi desak, rost. Ammo berahm kazaklar bu nolalarni pisand qilmadilar, qaytaga dodlovchilarning bolalarini ham ko'cha-ko'ydan tutib, nayzaga ilib o'tga tashladilar. Taras nuqul: «Nomard lyaxlar, bu sizlarga Ostapning ma'rakasi!» – der edi. Har bir qishloqqa kelganda shunday ma'raka qilar edi. Aloha, Tarasning qilayotgan ishlari anchayin qaroqchilik bo'lmay zo'rroq ish ekanini Polsha hukumati payqadi va boyagi Pototskiyni besh ming askar bilan Tarasni, albatta, tutib kelish uchun yubordi.

Kazaklar hech tutqich bermay olti kungacha dalama-dala pastqam yo'llar bilan qochdilar. Otlar bu chopishga zo'rg'a-zo'rg'a chidash bersalar ham, harqalay kazaklarni qutqardi. Ammo Pototskiy bu gal zimmasiga yuklangan vazifani yaxshi ado qildi: kazaklarni sira qo'ymasdan hormay-charchamay quvlab bordi va Dnepr daryosi bo'yida ularga yetib oldi. Bunda vayron bir qo'rg'on bor edi, Bulba shu qo'rg'onga kirib oldi.

Dnepr daryosining labida baland tosh tepe us-tidagi bu qo'rg'onning yiqilgan devorlari, buzilgan qal'alari pastdan yaqqol ko'rinish turar edi. Har lahzada o'rnidan qo'zg'alib, pastga uchib tushganday bo'lib turgan bu tosh tepaning atrofi

g'isht parcha va toshlar bilan to'lgan edi. Tojdor getman Pototskiy Tarasnini ana shu qirga qaragan tomondan o'rabi oldi. Kazaklar g'isht bormi, tosh bormi otib, to'rt kungacha olishdilar. Bi-roq kuchlari qolmadi, o'q-dorilar, ovqatlari ham sop bo'ldi; shundan keyin Taras o'zini dushman ichiga urib, o'tib ketishga qaror qildi. Kazaklar darvoqe o'tib ham ketardilar, yildirimdek uchar otlari yana bir dafa vafodorlik ko'rsatsalar ham ajab emas edi, biroq juda jon-u jahdlari bilan ot chopib ketayotganlarida, Taras to'satdan: «To'xta! Mushtugim tushdi! U dushmanغا o'lja bo'lmasin!» – deb qichqirib qoldi. Keksa ataman suvda bo'lsin, quruqda bo'lsin, urushda bo'lsin, uyda bo'lsin, doim yonida birga olib yurgan bu mato-hini engashib, o't ichidan qidirib turgan bir payt-da bir gala dushman kelib, uni azamat yelkasi-dan tutdi. A'zoyi badanidagi bor quvvatini yig'ib bir zo'r urib, silkinib ko'rdi, lekin avvalgi kuchi qolmabdi, burungidek, yopishgan dushmanlar-ni to'zg'itib yuborolmadi. Azamat mo'ysafid chol: «Qarilik qursin, qarilik!» – dedi-da, yig'lab yubor-di. Ammo ayb qarilikda emas edi; zo'rni zo'r yeng-di. Oz emas, ko'p emas, birdaniga o'ttiz kishi qo'l-oyog'iga yopishdi. Lyaxlar: «Qo'lga tushdingmi, nomard, endi bu itga beriladigan jazoni o'y lab topish kerak», – der edilar. Xullas, getmanning roziligi bilan olomon oldida uni tiriklayin o'tda kuydirishga hukm qildilar. Shu yerning o'zida yashin tegib, sinib tushgan yalang'och bir daraxt bor edi, zanjirlarga bog'lab, shu daraxtga osdilar, ikki qo'lini mixladilar; keyin har qayooqdan qaraqanda ko'rinish tursin deb balandroq ko'tardi-lar-da, daraxt tagiga o'tin to'playverdilar. Ammo

Tarasning o't bilan ishi yo'q, boyaqishning ikki ko'zi dushman bilan otisha-otisha qochib keta-yotgan kazaklarda edi. Balandda osig'liq turgani-dan hamma yoq unga kaftdek yaqqol ko'rinar edi.

– Azamatlar, tezroq daraxtzor orqasidagi te-palikka chiqib olinglar, u yoqqa dushman borol-maydi! – deb qichqirar edi u.

Biroq shamol uning so'zlarini boshqa yoqqa olib ketdi.

– Bekordan-bekorga o'lib ketadilar-da! – der edi betoqat bo'lib. Dnestr daryosining bo'z suvi yaraqlab turgan pastlikka bir qaradi-da, ko'zla-rida shodlik chirog'i yondi. Chakalak orgasidan chiqib kelgan to'rt qayiqning tumshug'ini ko'rib qoldi va butun kuch-quvvatini yig'ib, bir baqirdi:

– Azamatlar, suv bo'yiga tushinglar, chap to-mondagi yoldan tushinglar. Daryo bo'yida qa-yiqlar turibdi, hammasini olib ketinglar, ketin-gizdan quvlasinlar!

Bu gal shamol o'ngdan kelib, uning so'zlarini kazaklar aniq eshitdilar. Ammo bergan bu masla-hati uchun kallasiga to'qmoq yedi; boshi aylanib, ko'zi tinib, hamma yoq ostin-ustin bo'lib ketdi.

Kazaklar tepa tagidagi yo'l bilan jonlarining boricha qochdilar. Quvlaganlar ham ketma-ket yetay deb qoldilar, qarasalar, yo'l aylanasiga ilon izi bo'lib ketibdi. Hammalari bir nafas to'xtab: «O'rtoqlar, bo'lganicha-boldi endi!» – dedilar-da, qamchilarini yuqori ko'tarib, bir talpindilar... Arg'umoq tatar otlari osmonda ilondek cho'zilib, jardan sakrab o'tdilar-u, to'g'ri Dnestr daryosiga kirib ketdilar. Faqat ikki kishi daryoga yetolmay toshga tegib, hatto «voy» deyishga ulgurmay oti bilan o'sha yerda halok boldi. Kazaklar otlari bilan

suzib borib, allaqachon qayqlarni yechmoqda edilar. Lyaxlar kazaklarning qulog eshitmagan, ko'z ko'rmagan bu botirliklariga qoyil qolib: «Biz ham sakraylikmi, yo'qmi?» deb turib qoldilar. Bechora Andriyni afsun qilgan go'zal qizning tug'ishgani – yosh polkovnik yolg'iz o'zi uzoq o'ylab o'tirmasdan kazaklar ketidan ot qo'ydi, osmonda oti bilan uch marta charxpalak bo'lib toshning qirrasiga borib tushdi-da, burda-burda bo'lib ketdi. Miyasining qatig'i qonga aralashib, baland tosh bag'rida o'sgan butalarga sachrab ketdi.

To'qmoq zarbidan behush bo'lib qolgan Taras Bulba endi andak hushiga kelib, daryo tomonga boqsa, kazaklar qayqlarga o'tirib suzib ketyaptilar. Tepadan o'q yomg'irdek yog'ib turibdi-ku, lekin ularga yetmayapti. Buni ko'rgan chol atamanning ko'zlarida yana xursandchilik chirog'i yondi.

Yuqoridan turib, ularga qarab:

– Og'aynilar, xayr! Meni yodlab turinglar, kеласи ко'кламда яна келиб, яна бир саъл qilib kettinglar! Nomard lyaxlar, nima murodingiz hosil boldi? Olamda kazaklar qo'rqa digan biror nima bor deb o'ylaysizmi? Shoshmang, vaqt kelar, ruslar dini, pravoslaviyaning nima ekanini bilsizlar! Yiroq-yovuqdagi xalqlar hozir ham fahmlab qoldilar. Rus tuprog'idan o'z podshosi chiqar, unga bo'ysunmagan kuch yer yuzida qolmas!..

Tagidagi o't alangalab oyoqlariga, daraxtga tutashib bormoqda edi... Ajabo, rus kuchini yengishga qodir bo'lgan kuch, o't, azob olamda bormi!?

Dnestr kichik daryo emas, kirgan-chiqqan aylanma joylari, qamishzor to'qaylari, chuqur va sayoz yerlari ko'p, g'ozlari g'ag'illashganda oynadek suvning beti jaranglab ketadi. Bo'ynini

aslo egmasdan suzib ketayotgan yovvoyi o'rdaklar, churrak, olmaboshlar va boshqa anvoysi turli parrandalar juda ko'p. Kazaklar ikki quyruqli ixcham qayiqlarda ildam-ildam suzib, sayozga kelganda sekin burilib o'tib, qushlarni hurkitib, atamanlarini og'izlaridan qo'ymay so'zlashib borar edilar.

VİY¹

Kiyev shahrida ulkan ibodatxona bor. Shu ibodatxonaning darvozaxonasi oldiga osib qo'yilgan jom erta bilan dang'illab chalinishi bilan mактабга bola-yu talabalar shaharning to'rt tomonidan qator-qator kelaverardilar. Savod va nutq o'рганayotgan pastki sinf toliblari hamda ilohiyot va falsafa bilan shug'ullanayotgan yuqori sinf talabralari daftар-qalamalarini qo'lтиqlab, darsxonaga kirishardi. Savodxonlar nuqul kichkina tirranchalardan iborat, ular bir-birlarini itarishib, chiyillashib so'kishar, hammasining kiyim-boshi yirtiq-yamoq, kir va iflos, cho'ntaklarida oshiqmi, patdan qilingan hushtakmi, tishlangan somsa, ba'zida chumchuq bolasi, ishqilib, har balo bo'lar edi. Gohida bulardan bitta-yarimtasining cho'ntagidagi chumchuq bolasi dars vaqtida birdan chirqillab yuborsa, boyaqish egasi domladan xo'b dakki eshitar, gohida olcha novdasi yelkasiда o'ynar edi. Ilmi kalom² o'quvchi nazmxonlar siporoq edilar. Bularning kiyim-boshlari aksari butun bo'lar edi-ku, lekin so'zning husni ramz-u majoz bo'lganidek, bularning husni-basharala-

¹ Viy – sodda xalq to'qib chiqargan xayoliy bahaybat maxluq malorossiyaliklar yer tagidan chiqadigan jinlarning boshlig'ini «Viy» deydilar. Ularning qovoqlari osilib, yerga tushgan boladi. Bu hikoyaning boshdan-oyoq hammasi xalq orasida yurgan afsonadir. Men hikoyani andak bo'lsa ham, o'zgartirgim kelmadi va eshitganimni sodda qilib yozdim (*yozuvchidan*).

² Ilmi kalom – inqilobdan avval eski madrasalarda o'qitiladigan to'gri so'zlash ilmi.

ridagi yirtiq-yamoqlari edi. Birining ko'zi olayib joyidan o'ynab ketgan, birining labi do'rdaygan, xullas, har qaysisida bir alomat bo'lar; bularning tovushi yo'g'onroq, gaplashgan va ont ichganda tovushlari sal do'rillabroq chiqar edi. Falsa-fa o'rganuvchilarning tovushlari yana bir parda yo'g'onroq bo'lib, kissalarida achchiq tamaki cho'pidan boshqa hech narsa bo'lmas edi. Ularda bir narsani asrab qo'yish odati bo'lmas, nimaiki topsalar, shu tobda nafslariga urar edilar, ular-dan tamaki va araq hidi shunday burqirab turar ediki, mabodo, birorta kosib ularning yonidan o'tib qolguday bo'lsa, xuddi tozi itdek anchaga-cha havoni hidlab qolar edi.

Bu paytda bozor ham endigina qizib kelayot-gan bo'lganidan teshik kulcha, shirmoy non, tarvuz urug'i, ko'knor urug' sepilgan shirin non sotib yurgan xotinlar, yupqa endan yoki boshqa matodan to'n kiygan talabalarni ko'rsalar, etak-laridan tortib:

– Keling! Beri keling, mulla! Teshik kulcha oling!
Zag'-zag'ni qarang, Xudo ursin, o'zim pishirganman!
Asal deysiz! – deb har yoqdan chuvillashar edi.

Yana bittasi uzunroq burama nonni ko'tarib:

– Mullajon, bu yoqqa qarang, burama nondan oling! Anavi xotindan ola ko'r mang, basharasini qarang, ta'viyaligini aytинг – burni qursin, qo'lli-ning iflosligini ko'ring! – der edi.

Lekin falsafashunoslar bilan dinshunoslarning etaklaridan tortgani qo'rqar edilar, chunki ular, yeb ko'ray, deb changallab olib ketaverar edilar.

Seminariyaga kelgach, har kim o'z darsxonasi-ga kirib ketar edi. Darsxonalar pastak-pastak bo'lsa ham, sahni keng, darchasi pastgina, eshiklari katta-katta, o'tiradigan eshakchalari

kir, mog'or va iflos bo'lar edi. Darsxonaga kirib o'tirishlari bilan vijir-vijir o'qish boshlanar, shogirdlar saboqlarini xalfalariga o'tkazar edilar. Savodxonning ingichka tovushi kichkina darchalar oynasiga tekkanda, oynalar ham shu xilda ingichka aks-sado chiqarar edi. Bo'yi, osilib tushgan lablari, faylasufga munosib bo'lgan tilshunoslardan biri burchakka kirib olib, g'o'n-g'illar edi, xolos, uning nima o'qigani eshitilmas, faqat olisdan do'rillagan ovoz eshitilar edi, ammo xalfalarning qulog'i shogirdlarning o'qishi-da bolsa ham, ko'zлari eshakcha tagida, chunki shogirdning cho'ntagidan nonmi, somsami yoki qovoq urug'imi, bir narsa ko'rinish qolar edi.

Ba'zida talabalar mакtabga ertaroq kelib qolsalar yoki professorlari odatdagidan sal hallyab kelishini bilsalar, hammalari maslahatlashib, mushtlashar edilar. Maktab bolalarining odob-axloqini tergab turuvchi peshqadamlar ham bu mushtlashuvda qatnashishga majbur edilar. Dinshunoslardan ikitasi o'rtaqa chiqib, mushtlashish tartibini, ya'ni, har bir sinf o'zi mushtashidi yoki hammalari ikki tarafga bo'linitib, shogirdlar bir taraf, talabalar bir taraf bo'ladilarmi, buni aniqlab berar edilar. Harnechuk avval shogirdlar boshlar edilar, lekin notiqlar aralashdi deguncha, darrov o'zlarini bir chekkaga olib, tepalikka chiqar va bu yerdan turib, jangni tomosha qillardilar. Keyin, uzun-uzun qora mo'ylovli falsafashunoslар aralashar edilar, gardani qalin dinshunoslар kirishar edilar. Jangning oqibati aksari shu bo'lar ediki, dinshunoslар zo'r chiqib hammani qochirardilar, falsafashunoslар yonboshlarini qashigancha darsxonaga qochib, bun-

da hordiq chiqarardilar. Shu paytda darsxona-ga kirib qolgan professor, o'zi ham bir vaqtlar shunday janglarda qatnashganidan talabalar-ning qip-qizil basharalarini ko'ra solib, hazilakam jang bo'lmananini darrov fahmlar edi. Bir yoqda bir professor tilshunoslardan birini darra bilan savalab tursa, boshqa biri falsafashunoslardan birini taxtakach bilan qo'liga urardi. Dinshunos-larga boshqacharoq muomala qilinar, ya'ni, ular, professor aytganidek, har qaysisi dona-dona tas-ma qamchi yer edi.

Ba'zi bayram va hayit kunlarida maktab o'quv-chilari bilan talabalar uylariga ketib, qo'g'irchoq o'yini tomoshasini ko'rsatar edilar. Gohida mas-xarabozlik o'yinlarini namoyish qilar, o'shan-da bo'yи Kiyev minorasidek novcha dinshunos chiqib, Misr podshosi vazirining xotini Zulayho bo'lib yoki Osiya bo'lib o'ynab berar edi. O'yinni hammaga manzur qilsa, bir bo'lak mato yoki bir qop tariq, yo bo'lmasa yarimta pishirilgan g'oz va boshqa narsalar tushar edi.

O'talarida eskidan allaqanday bir adova-ti bo'lgan bu talabalar bilan mакtab o'quvchi-lari shunday qashshоq ediki, kuni zo'rg'a o'tar va lekin hammasi nihoyat darajada ochofat va yuho bo'lganidan har qaysisining kechqurun bir o'tirishda qanchadan chuchvara yeganini sanab bo'lmas, shuning uchun ham ba'zi saxiy boylarning bergan nazr-niyozi ularga kifoya qil-may, peshqadam darsxonlar bilan dinshunoslарdan bir nechta bosh bo'lib, bir necha savod-xon bilan bir necha tilshunosga bitta falsafa-shunosni serka qilib, gohida peshqadamlarning o'zlari ham qo'shilishib, yelkalarida qop bilan

birovning paykalini qiyratgani jo'nar edilar. Bundañ keyin madrasaga kelib, qovoq bo'tqa pishirar, qovun-tarvuzga xo'b to'yib olar edilar. Shunday to'yar edilarki, ertasiga xalfalarga saboqlarini o'tkazayotganlarida og'izlari bilan o'qisalar, qorinlari ham qudurab turar edi. Darsxonlar bilan dinshunoslarning to'ni shunday ro'dapo bo'lar, ya'ni, tovonlaridan ham uzun edi.

Ta'til vaqtı bo'lsa, ya'ni, iyun oyidan boshlab, talabalarning uylariga tarqaydigan vaqt kelsa, ularning kuni tug'ar edi. Bu kezda savodxonlar, darsxon, peshqadam talabalar katta yo'lga tushib olib, turnaqator tizilib ketaverar edilar. Borar joyi bo'lмаганлари sheriklaridan birortasiniкiga ketar edi; falsafashunoslar bilan dinshunoslar o'qituvchilik qilar, ya'ni, badavlat kishilarning bolalarni o'qitar va buning badaliga yiliga yangi etik va ba'zida etikdan tashqari yana to'nik ham olardilar. Bu talabalarning hammasi galalashib, to'dalashib jo'nardi. Dala joyga qo'nib, osh pishirar edilar. Har birining yelkasida bittadan to'rva, ichida bitta ko'ylak, bir juft paytava bo'lar edi. Dinshunoslar hammadan ozoda va pishiq bo'lardilar. Shuning uchun etiklari yirtilmasin deb, xususan, loygarchilikda, kaltakka ilib, yelkalariga tashlab, pochalarini shimarib, loydan kechib ketaverar edilar. Yo'lning bir chekkasida qishloq ko'rinish qolsa, darrov katta yo'ldan chiqib, qishloqqa yo'l solar, tuzukroq uy oldiga kelganda, deraza tagida qatorlashib, ovozlarining boricha xonish qilar edilar. Bu yerga kelib, uy-joy qilib qolgan keksa kazaklardan bo'lgan uy egasi, ikki qo'lini iyagiga tirab olib, ularning xonishiga xo'b yig'lar, so'ngra xotinini chaqirib: «Xotin, mullavachchalarning

o'qigani bama'ni bo'lsa kerak, moying bormi va uyingda boshqa biror narsa bormi, nima bo'lsa bir chiqarib ber!» – der edi. Keyin, bir tovoq to'la varaqi somsa, chuchvara, lo'ndagina bir bo'lak yog', yana bir necha kulcha, ba'zida oyog'i bog'liq tovuq – hammasi to'rvaga tushaverar edi. Talabalar bu bilan qorinlarini to'qlab, yana yo'lga tushar edilar. Ammo nari borgan sari, yo'lda uy-uylariga yetib, sonlari kamayib borar va oxiri ota-onasining uyi hammadan yiroqda bo'lganlargina qolar edi.

Bunday sayohatlardan birida talabalardan uchtasi qishloqqa kirib, yemish bo'lguday biror yegulik topish uchun katta yo'ldan burildilar, chunki to'rvalari allaqachon bo'shab qolgan edi. Bularning biri dinshunos Xalyava, biri falsafashunos Xoma Brutiana, biri notiq Tiberiy Gorobets edi.

Dinshunos novcha, yag'rinli kishi bo'lib, yomon bir odati bor ediki, nima to'g'ri kelsa, albat-ta, o'g'irlar, o'zi juda tund bo'lib, mast bo'lsa, supurgi o't ichiga kirib yotaverar, maktabdoshlari uni qidirib topguncha ko'p sarson bo'lar edilar.

Falsafashunos Xoma Brut doim dimog'i chog', xushchaqchaq odam edi. Yastanib yotib, tamaki chekishni yaxshi ko'rар, ichadigan bo'lsa, albatta, mashshoqlarni chorlab, tapir-tupir o'yingga tushib, xo'b xumoridan chiqar edi. Maktabda darrani ko'p yer edi-ku, lekin faylasufona beparvolik bilan: peshonadagi bo'lmasdan qolmaydi, deb kaltakni hech pisand qilmas edi.

Notiq Tiberiy Gorobets mo'ylov qo'yish, araq ichish, tamaki chekishga hali haqsiz edi. U haliga-cha kokilini kestirgani yo'q, shuning uchun fe'l-u atvori to'g'risida hech narsa ham deb bo'lmaydi,

ammo mактабга doim peshonasini g'urra qilib keliшидан juda urushqоq odam chiqishi aniq edi. Xalyava bilan Xoma ikkovi uning oldida peshqadam bo'lib, унга og'alik qilganliklarini ko'rsatgандек kokilidan tortib, xo'b urar edilar va ba'zida uni dastyor o'rnida ishlatib, yugurdak qilar edilar.

Uchovlari katta yo'ldan qishloqqa burilganlarida kech kirib qolgan, lekin kun endigina botganidan havo hali iliq edi. Dinshunos bilan falsafashunos indamasdan tamaki chekib borar edilar. Notiq Tiberiy Gorobets qo'lida xipchin bilan yo'ldagi «qoqi gul»ning bo'ynini uzib borar edi. Yo'l biyobondagi mayda chakalaklar, unda-bunda to'p-to'p bo'lib turgan eman va yong'oq daraxtlarini oralab borar va gohida adirga, gohida ko'm-ko'k gumbazdek bo'lib turgan tepalikka qarab, ilon izi bo'lib ketar edi. Ikki joyda pishay deb qolgan bug'doyzor ko'ringanidan yaqin o'ttada qishloq borligi ma'lum bo'ldi. Biroq bug'doy ekilgan joydan o'tib, bir soatdan ko'proq yo'l yursalar hamki, hech xonadon ko'rinnmadи. Qorong'i tushib qoldi. Kunbotardagi shafaqdan andakkina asar qoldi, xolos.

- Nima balo bo'ldi! Qishloq yaqindek ko'rинган edi, - dedi hayron bo'lib falsafashunos Xoma Brut.

Dinshunos indamasdan u yon-bu yonga alanglab qo'ygach, tamakini og'ziga olib, yo'liga ketaverdi.

Falsafashunos:

- Azbaroyi Xudo, hech zot ko'rinnmaydi-ya! - dedi yana to'xtab.

Dinshunos og'zidan tamakisini qo'ymay:

- Napiroq borsak, bitta-yarimta xonadon ko'rinib qolar, - dedi.

Ammo allaqachon kech kirib, hamma yoq tim qorong'i bo'lib qoldi. Osmondagi parcha-parcha bulutlar qorong'ilikni yana oshirdi. Havoning avzoyiga qaraganda na yulduz, na oy chiqadigan. Talabalar yo'ldan adashib, anchadan beri boshqa yo'ldan borayotganliklarini bildilar. Falsafashunos oyog'i bilan u yon-bu yonni titkilab:

– Yo'l qayoqda? – dedi.

Dinshunos indamasdan turib-turib, bir mahal:

– Darvoqe juda qorong'i-ya! – dedi.

Notiq nariroqqa borib, engashib, paypaslab yo'lni topmoqchi bo'ldi, ammo qo'lli ha deganda tulkining iniga kirib ketaverdi. To'rt tomon odam oyoq bosmagan – cho'l-biyobon edi. Yo'lovchilar yana andak yo'l yurib ko'rdilar, ammo har qancha yursalar ham, dashtdan sira chiqmadilar. Falsafashunos qiyqirib ko'rmoqchi bo'ldi, ammo ovozi hech qayoqqa yetmay sira javob bo'lmasdi. Birpasdan keyin xuddi bo'ri ovoziga o'xshagan bir tovush uzoqdan zo'rg'a eshitildi.

– Ana xolos, endi nima qilamiz? – dedi falsafashunos.

– Nima qillardik, shunday yotaveramiz! – dedi dinshunos va chontagiga qo'l solib chaqmog'ini olib, yana tamakisini chekdi. Ammo falsafashunos uning bu gapiga rozi bo'lmasdi; har kecha yarim pudcha dumaloq nonni, to'rt qadoq-cha yog'ni yeb oladigan odati bor edi, lekin bugun qorni toza ochiqdi. So'ngra garchi o'zi ancha xushchaqchaq bo'lsa ham, bo'rilardan andak qo'rqr edi.

– Yo'q, Xalyava, sira ko'nmayman, biror narsa yeb, qorinni ozroq qappaytirib olmasdan, it yotish, mirza turish degandek, och qoringa cho'zilib

yotaveramizmi? Yana bir urinib ko'raylik, zora qo'rg'on uchrab qolib, kechalikka bir piyola araq nasib qilsa, – dedi falsafashunos.

Araq so'zini eshitganda, dinshunos bir tupurib oldi, so'ngra:

– Gaping to'g'ri, kechasi dashtda qolib nima qilamiz, – dedi.

Talabalar yana yo'lga tushdilar, andak yurib edilar, xayriyatki, yiroqda itning vovillagani eshitildi. Itning ovozi qaysi yoqdan kelayotganiga qu-loq solib bilgach, yuraklari botirlanib, ozroq yur-gan edilar, miltillagan chiroq ko'rindi. Falsafashunos:

– Qo'rg'on ko'rindi, azbaroyi Xudo, qo'rg'on! – dedi.

Uning o'ylagani noto'g'ri chiqmadi. Birozdan keyin ikkitagina xonali bir qo'rg'oncha ko'rindi. Ularning darchalaridan chiroq yorug'i tushib turar, devor tagida o'ntacha olxo'rot daraxti bor edi. Talabalar taxta darvozadan qarasalar, hovli da allaqancha chorbozorchi karvonlarning aravalari turibdi. Osmonga bitta-ikkita yulduz chiqqan payt bo'lib qolgan edi.

– Ogaynilar, kirgizmaganiga qo'yaymiz, xo'p-mi? Bir kecha qo'ndirmay ko'rsin-chi!

Talabaning uchovi birdaniga darvozani qoqdilar:
– Oching!

Uyning eshigi g'irchillab ochildi. Bir lahza o'taro'tmas talabalar nimcha po'stin kiyib chiqqan bir kampirni ko'rdilar.

Kampir gum-gum yo'talib:

– Kim? – dedi.

– Enajon, eshicingizni oching, bir kecha qo'nib ketamiz, yo'ldan adashdik, dalada yotaylik de-

112
 sak bo'lmaydi. Dala qursin, och qorindan battar ekan.

– Qanaqa odamsizlar?

– Birovga ozor yetkazadigan odamlardan emas-miz: bittamiz dinshunos Xalyava, faylasuf Brut va yana bittamiz notiq Gorobets bo'lamiz.

Kampir:

– Hech ilojim yo'q, hovlim to'la odam, uyning hammasi band, sizlarni qayoqqa joylayman? Tag'in hammangiz novcha-novcha, katta odamlar ekansiz, sizdaqalarni kirgizsam, uyim qulab tushadi. Falsafashunos va dinshunoslarni xo'b yaxshi bilaman! Sizdaqa piyonistalarni kirgizaversam, uyimdan ham ajrayman. Keting, keting, sizdaqalarga joy yo'q! – dedi.

– Enajon, rahm qiling! Isoning ummatlari begunoh, bekorga o'lib ketsalar yaxshimi? Nima qilsangiz qiling, bir yoqqa joylang bizni! Agar bizdan birorta nojo'yalik o'tsa, noma'qul ish qilguday bo'sak, qo'limiz sinsin, ishqilib, har narsa bo'laylik. Ana bo'ldimi?!

Kampir sal bo'shashgandek bo'ldi. Biroz o'yalanib:

– Mayli, kirgizay, biroq har qaysingizni alohidadan yotqizaman, bo'lmasa, birga yotsangiz, xavotir olib, tinch uxlolmayman, – dedi.

Talabalar:

– Mayli, ixtiyor senda. Nima desang ko'namiz, – dedilar. Darvoza g'irchillab, talabalar hovliga kirdilar.

Falsafashunos talaba kampirning ketidan borib turib:

– Enajon, hozir ichim shunday qaldir-quldirki, birov xuddi soqqa otayotganga o'xshaydi; isho-

nasizmi, ertadan beri og'zimga ushoq kirgani yo'q, – dedi.

– Ana endi gapiga qara! Hech narsam yo'q, bugun qozon osganim ham yo'q, – dedi kampir.

– Ertaga haqingizni yaxshilab to'lar edik, naqd qilib berardik, – dedi falsafashunos va keyin o'zaro sekin shivirlab: «Sizga berib qo'yibmiz, ola-san-a!» – dedi.

– Yo'qoling, yo'qoling, shunga ham shukr qiling, qaysi go'rдан kelib qoldilar, bunday ta'bi nozik boyvachchalar!

Falsafashunos Xoma kampirning bu gaplari dan ranjib, xomush bo'lib qoldi. Shu onda tuzlagan baliqning hidi dimog'iga urildi. Dinshunos Xalyavaning shalvariga ko'zi tushib, kattakon qoq baliqning dumi kissasidan chiqib turganini ko'rdi. Aravadan katta baliqni allaqachon o'ja qilib kelibdi, ammo bu ishni yomon niyatda qilmay, faqat odatini tashlay olmaganidan qilganligi uchun allaqachon baliqni unutib, agar do'ngalak bolsa ham, duch kelgan yana bir narsani joylash harakatida o'zi bilan o'zi ovora bo'lib turganida, falsafashunos Xoma o'z kissasiga qo'l solgandek, uning kissasiga qo'l solib baliqni olib qo'ydi.

Kampir ularni har yerga bittadan joylashtirdi. Notiqni uyga, dinshunosni bo'sh hujraga, falsafashunosni ham bo'sh qo'yxonaga joylashtirdi.

Falasafashunos yolg'iz o'zi qolgach, haligi baliqni bir lahzada yeb qo'ydi; qo'yxonadagi chetan devorning u yon-bu yoniga alanglab qaragach, narigi yoqdag'i og'ilxonadan tumshug'ini chiqarib qaragan cho'chqani bir tepib, teskari qarab yotgancha uxlamoqchi bo'ldi. Shu paytda og'ilxonaning pastak eshigi ochilib, kampir ikki bukchayib kirib keldi.

Falsafashunos:

– Ha, buvi, nimaga keldingiz? – dedi.

Ammo kampir qulochini yozganicha indamasdan uning tepasiga kelaverdi.

Falsafashunos ichida:

– Iy-ye, yopiray! Hoy, kampir, ovora bo'l mang, muroding hosil bo'l maydi, qarib qolgansiz, – deb o'zini nariroq oldi. Kampir azza-bazza bostirib, tepasiga kelaverdi.

Falsafashunos:

– Hoy, kampir buvi, axir hozir ro'za kuni. Ming tilla bersangiz ham, ro'zamni ochmaydigan odamman, – dedi.

Ammo kampir indamasdan qulochini yoyib, hadeb, uni ushslashga harakat qilaverdi.

Falsafashunos vahimaga tushdi, xususan, kampirning ko'zlar allanechuk charaqlab ketganini ko'rganda, juda ham qo'r qib ketdi.

– Buvijon, sizga nima bo'ldi? Xudo panohingiz bo'sin, nari turing! Yo'qol! – deb baqirdi.

Lekin kampir indamay, yakkash qulochkashlab, uni ushlab olmoqchi bo'lar edi.

Qochmoqchi bo'lib o'rnidan tursa, kampir eshik oldida turib olib, chaqchaygan ko'zlarini unga tikkancha baqrayib turaverdi. Birpasdan keyin, yana chovut qilib qoldi.

Falsafashunos kampirni qo'li bilan itarib yubormoqchi bo'lgan edi, qarasa, na qo'lini ko'tara olaadi, na oyog'ini qimirlata oladi, hatto ovozi ham chiqmay qolganini bilib, kapalagi uchib ketdi; gapiray desa, labi pichir-pichir qiladi-yu, tovushi chiqmaydi. Yuragining duk-duk urishidan boshqa tovush eshitilmaydi. Bir mahal kampir kelib, uning ikki qo'lini yig'di, boshini bukib engashtir-

di, mushuk sapchiganday bir sapchib, bo'yniga minib olib, qolidagi supurgi bilan yonboshiga bir urgan edi, talaba otdek dingillab chopib ketdi. Bu ishlar shunday tez bo'ldiki, talaba es-hushini yig'ishtirib ololmay, nima qilishini bilmasdan, oyoqlarim toymasin deb, ikki tizzasini mahkam ushlagancha, dingillab ketaverdi; lekin oyoqlari unga itoat qilmay, chopog'on cherkes otidan ham tezroq yugurib ketayotganini payqab hayron qoldi. Qo'rg'on yiroq qolib, sayhon yalanglikka chiqqlaridan keyin bir tomonda ko'mirdek qop-qorayib turgan daraxtzor ko'ringach, o'ziga kelib: «Eh-ha, ajina alvasti ekan-ku!» – deb qo'ydi ichida.

Osmonda oy o'roqdek yaraqlar, tun yarmisi-dagi ko'r oydin yer yuziga yoyilgan yupqa chodirdek yelpinar edi. Daraxtzor, o'lanzor, yer-ko'k barisi ko'zini yummay, baqraygancha uxbab qolganga o'xshar edi. G'ir etgan shamol bo'lsa-chi, jimjit kechaning toza nam havosi iliq. Daraxt va butalarning dumli yulduzdek soyasi bir bag'riga qadalgan nayzaga o'xshaydi. Falsafashunos Xoma Brut yelkasiga minib olgan narsaning nimaligini bilmay yo'rtib ketayotgan chog'dagi tun manzarasi shunday edi. Allaqanday noxush hislarning hujumi dilini siqib ranjitar, lekin jismini huzur ichida fahmlar edi. Boshini quyi solib boqsa, oyog'ining takkinasida turgan o't-o'lalar buloqdek tip-tiniq suv tagida qolganga, tagi ko'rinish turgan tiniq dengiz tagidagi o'tlarga o'xshar edi. Har holda yelkasiga minib olgan kampir bilan o'zining aksini suvda, oynada ko'rgandek, ravshan ko'rdi. Osmonda yorishib turgan oy emas, allaqanday oftob. Qo'ng'iroq gullar boshlarini egib, qo'ng'iroqlarini chalayotgan-

larini ham eshitdi. Suv bo'yidagi g'umay ichidan chiqib kelgan suv parisini ko'rdi; uning vujudi dirillab turgan nurdan yaratilganga o'xshar, parining oyoq va belini ham ko'rdi. Suv parisi yuzini o'ngga o'girib qaradi; uning yuzini, chiroqdek yonib turgan ko'zlarini ko'rdi; qo'shiq aytib, uning yurak-bag'rini ezib, yaqiniga kelay-kelay dedi-ku, lekin kelmay, larzonlanib, qah-qaha urib, qochib ketdi. Bir mahal chalqancha tushib yotdi, sirlanmagan chinnidek nozik, sutdek siynasi oftobdan gardish shu'la tashlab tovlanar, siynasi ustidagi suv qatralari qator-qator marjonga o'xshar edi. Suv ichida butun badani larzon urib, kular edi.

Xoma Brut bularni ko'zi bilan ko'ryaptimi, yo'qmi! O'ngimi, tushimi? Anavi yoqdan kelayotgan tovush nima? Shamolmi, nag'ma tovushmi? Ting-ting qiladi, chirpirak bo'lib uriladi, alamli taronasi yurakka tig'dek qadaladi...

Falsafashunos Xoma Brut yeldek uchib keta-yotib, pastga qaradi-yu:

— «Ajabo, qanday sir ekan bu?» — dedi ichida o'ylanib. A'zoyi badanidan ter sharillab oqib ketyapti, allaqanday g'alati huzur ichida tinkasi qurigan, vahima aralash allanechuk alamli bir lazzat kayfini surib borar edi. Gohida nazarida yuragi qolmaganday bo'lardi-da, butun vahimaga tushib yuragini changallab qolardi. Tinkasi qurib holdan ketgach, nochor va notavon bo'lib, bilgan duolaridan qaysi biri esiga kelsa, shuni o'qiyverdi. Ins-jinsning ziyon-zahmatidan saqlaydigan duolarning hammasini o'qiyverdi. Bir mahal sal yengillashganday, qadami sekinlashib, shitobi susayganday bo'ldi; yelkasidagi ajina ham omonat o'tirganday, tushib ketayotganday sezildi.

Juda g'alati ko'ringan qalin o't-o'lanylар ham endi badaniga tegib, oyog'i tagidagilarining anchasi o'zi bilgan o'tlar ekanini fahmladi. Osmondagи o'roq - oy yaraqlab turibdi.

Faylasuf Xoma Brut o'ziga kelib: « Yopiray, yengillashdim-a! » – deb bilgan duolarini pichirlab, yana o'qiy boshladi. Bir mahal yelkasidagi kampirni irg'itib tashladi-da, darrov o'zi unga minib oldi. Kampir shunday yo'rg'alab ketdiki, ustiga minib olgan Xomaning nafasi qaytib ketar, nazarida yer gir-gir aylanardi. Hamma yoq yop-yorug'. Dala tekis bo'ssa ham, kampir juda tez uchib borayotganidan undagi narsalarning bari-si aralash-quralash bo'lib, faqat miltillab ko'rinish ketar, nimaligi aniq bilinmas edi. Yo'lda yotgan bir kaltakni olib, kampirni kuchi boricha savalay ketdi. Dod-voyi olamni tutdi; avval jahl va ach-chiq bilan xo'b dag'dag'a qildi, keyin dag'dagasi pasayib, sekin-sekin yuvoshlandi, ovozi mayin-lashib, xushovoz bo'ldi, keyin yana pasayib, kumush qo'ng'iroqday jingillab, uning ko'ngliga ta'sir qildi. Shu chog'da rostanam kampirmikin degan o'y beixtiyor ko'ngliga keldi.

Kampir tinkasi qurib: « Voy, tob-u toqatim qol-madi, sop bo'ldim! » – dedi-yu, yiqlidi.

Xoma uning ko'ziga tikilib qaradi. Tong yorishib, Kiyevdagи butxonalarning zarhal gumbazlari olisdan yaraqlab ko'rinish qolibdi. Yigit qarasa, oldida kokillari yoyilib tushgan, kipriklari nashtardek go'zal bir qiz oppoq ikki qo'llini ikki tarafga tashlab, jiq-jiq yoshga to'lgan ko'zlarini ko'kka termiltirib behush yotibdi.

Xoma yaproqdek dir-dir titradi. Juda achinib ketdi, allaqanday vahima butun vujudini titrat-

di. U qo'rqqanidan ortiga qaramay qochdi. Dili o'ynab, nima bo'lganini hech bilolmay, ko'ngliga tushgan yangi hislarni tushunolmay hayron edi. Qo'rg'onma-qo'rg'on yurishga ham xohishi qolmasdan, to'ppa-to'g'ri Kiyevga yo'l solib, bo'lgan voqeaning siri nimaligini yo'l-yo'lakay o'ylab ketaverdi.

Shaharda talabalardan hech kim qolmagan, birovlarning bolalarini o'qitish yoki boshqa tirik-chilik uchunmi, hammalari qishloqma-qishloq to'zib ketgan edilar, chunki Malorossiya qishloqlariga borsalar, kulcha bormi, qaymoq, shapaloq-shapaloqdek chuchvaralarni pul to'lamasdan yeb ketaveradilar. Tob tashlagan katta uydagi mактабхонада hech kim qolmabdi, fалсағашунос мактабнинг тешик-туynugi, томи qolmay hamma yerini shuncha qidirsa ham, hech qayerda na bir bo'lak yog' va na talabalar yashirib-netib qо'yган bir burda non topoldi.

Ammo biroz o'ylab ochlik chorasinи topdi, hushtak chalib, bozordan bir-ikki marta aylanib o'tdi. Bozorning bir chekkasiga borganda boshiга durracha tagidan sariq ko'ylak kiyib olib, tasма, miltiq pitra, gildirak singari mayda-chuyda sotib turgan bir beva juvonga bir-ikki ko'z tashlab qо'yган edi, darrov shu kuniyoq toza undan pishirilgan varaqi somsa, tovuq go'shti, yana turli lazzatli ovqatlarga qorni to'ydi. Xullas, olchazor ichidagi pastakkina uyga kirganda, dasturxonga qо'yilgan har xil ovqatlarning sanog'i yo'q edi. Shu kuni kechqurun Xomani qovoqxonada og'zida tamaki, so'rida yastanib yotgan holda ko'rdilar. U atayin hammaga ko'rsatib, qovoqxonanegasi juhudga yarim tilla pul tashladi; oldida kosasi,

kelgan-ketganlarga sira parvo qilmas, hech kimni nazar-pisand etmas, dimog'i chog', chamasida bo'lib o'tgan ajoyib voqeani xayoliga ham keltirmas edi.

Ayni shu kunlarda Kiyevdan ellik chaqirimcha narida qo'rg'on qilgan badavlat yuzboshilardan birining qizi bir kun sayilga chiqqan ekan, kaltak zarbidan mayib bo'lib, zo'rg'a otasining uyiga yetib kelibdi; hozir o'lar holatda yotgan emish va men o'lsam, janozamni kiyevlik seminarist ta'labalardan bo'lgan Xoma Brut o'qisin, so'ngra uch kungacha arvohimga duo o'qisin deb vasiyat qildim, degan shov-shuv gap tarqaldi. Xomaning o'zi gapni rektordan eshitdi. Rektor atayin uni o'z hujrasiga chaqirib: «Hech to'xtamasdan darrov yo'lga tushgin, hurmatli yuzboshi bir odam bilan arava yuboribdi», – dedi.

Xoma sababini o'zi ham bilmay, negadir yuragi orziqib, bir cho'chib tushdi, ko'ngli tashvishlanib, bir falokat borligidan darak berar edi. Nima sababdan borishga ko'nmaganini o'zi ham bilmay, uzil-kesil qilib, bormayman, dedi.

Rektor talabalari bilan so'zlashganda, ba'zida izzat-hurmat bilan so'zlashar, shuning uchun:

– Gapimni tinglang, domine Xoma, sizdan birov borasizmi, yo'qmi deb so'rayotgani yo'q, faqat shuni bilib qo'yingki, mabodo, o'jarlik qilib, yana ko'p gapiradigan bo'lsangiz, orqangizga va boshqa a'zoyingizga novda nihol bilan shunday savalatamanki, minba'd hammomga bormoq zarurati ham qolmaydi. – dedi.

Xoma Brut, mabodo, payt kelsa, qochmoqchi bo'lib qulog'ining orqasini qashigancha churq etmasdan, sekingina tashqari chiqib ketdi. O'yala-

nib terak ekilgan hovliga chiqadigan baland zinadan tushib ketayotganda rektorning ovozini eshitib qolib to'xtadi. Rektorning yonidagi odam yuzboshi yuborgan kishi bo'lsa kerak, u arava oldidagilarga allanarsalarni buyurar edi.

Rektor:

- Yuborgan doni bilan tuxumlari uchun ulug'-dan ko'p minnatdorman. So'ragan kitoblari tayyor bo'lishi bilan darhol yuboraman, ko'chirish uchun kotibga berdim. O'g'lim, tag'in yoddingdan chiqmasin! Yana aytgil, u kishining qishlog'ida yaxshi baliqlar bo'ladi. Xususan, osetra balig'i bor, u nihoyatda ajoyib baliq, mabodo, to'g'ri kelib qolsa, shu baliqdan yuborsalar, chakki bo'lmas edi. Bizning bozorimizda ham bor-ku, lekin u yerdagidek yaxshisi emas, so'ngra chaqasi ham qimmatroq. Sen Yavtux, yigitlarga bir kosadan may quyib ber, xo'pmi? Aytgancha, talabani bog'langlar, qochib ketmasin.

Falsafashunos talaba bu so'zlarni eshitib:

«Ha, shaytondan tarqagan! Novcha ro'dapo, darrov payqabdi-da!» deb qo'ydi.

Xoma soyabonlik bir aravani ko'rib, avval g'ildirak ustidagi bug'doyxona deb o'yladi. Darvoqe, turgan arava Krakov shahrida ko'p rasm bo'lgan, xumdonga o'xshash ichi chuqur va qayssi shaharda yarmarka bo'lsa, darrov hidini bilib; elliktasi birgalashib, har xil mollar bilan o'sha yarmarkaga keladigan juhudlar bo'ladi-ku, ana shular tushadigan arava xilidan edi. O'rta yoshlik azamat kazaklardan olti kishi uni bunda poylab turgan ekan. Ustlaridagi populklik toza movut to'nları ularning ulug'roq kishilardan ekanidan, yuz-ko'zlaridagi tirtiq yamoqlari bir mahallarda

urushlarda bo'lib, ko'p ish ko'rsatganliklaridan xabar berar edi.

Falsafashunos: «Nima qilay endi, nima bo'lsa bo'lar», – deb o'z ichida o'ylagach, ovozini baland chiqarib, ular bilan so'rashdi:

– Salomatmisiz, og'aynilar?

Kazaklardan bir qanchasi:

– Salomat bo'ling, faylasuf og'a! – deb u bilan so'rashdilar.

Aravaga chiqarkan:

– Hammamiz bir hamroh ekanmiz-da! Lekin aravangiz joyida ekan. Mashshoqlar bo'lsa, o'yin qilib ketsak ham bo'larkan! – deb qo'ydi.

Aravakash qalpog'ini araqxonaga tashlab chiqqanligidan boshini latta bilan tang'ib olgan edi. Aravakashga do'st bo'lgan bir kazak:

– Aravamiz ulkangina, – deb uning yoniga o'tirib oldi. Qolgan besh kishi talaba bilan birga arava-ning ichiga tushib, shaharda xarid qilingan har xil narsalar tikilgan qoplar ustiga joylashib oldilar.

Falsafashunos so'z boshlab:

– Ajoyib, agar bu aravaga to'dirib yuk ortsa, may-li-da, tuzmi, yoki temir-tersakmi, ishqilib, bir yuk ortsa, necha ot qo'shmoq kerak bo'larkan, – dedi.

Aravakash yonida o'tirgan kazak birpasdan keyin:

– Ha, ko'p ot kerak bolardi, – deb qo'ydi.

Kazak nazarida hammani qanoatlantirgan javob berdim, dedi shekilli, keyin ot yetib borgun-cha hech indamadi.

Yuzboshining kimligini, fe'l-atvori, ta'bi qan-dayligini, bunday g'alati hodisaga uchrab, hozir o'lar holatda yotgan va uni ham mojaroga tiqqan qizning voqeasi nima bo'ldiykin? Qizning uyida

nimalar bo'layotgan ekan? Falsafashunos bularni bilgisi kelib, kazaklardan so'roqlar edi. Lekin kazaklar ham, faylasuf bo'salar kerak, bu savol-larga sira javob bermasdan, indamay qop ustida chilimlarini tortib yotaverdilar. Faqat bulardan bittasi arava minib borayotganga qarab: «Hoy, ovsar chol Overko, esingdan chiqmasin, Chux-raylovga yetganda yo'l ustidagi araqxona oldida menmi yoki yigitlardan birortasi, mabodo, uxlab qolguday bo'lsa, uyg'otib qo'y!» – deb amr-farmon qilgach, qotib uxlab qoldi. Ammo buning amr-farmoni behuda edi, chunki ulkan arava Chuxraylov yo'lidagi araqxonaga yaqinlashishi bilan hammalari birdaniga: «To'xta, to'xta!» deb baqirib ketdilar. So'ngra Overkoning otlari ham shunday o'rgangan ediki, araqxonaga yetdi deguncha, o'zлari to'xtardilar. lyul oyining issiq kunlari bo'lsa ham, hammalari aravadan tushib, pastakkina iflos bir uyga kirdilar. Araqxona egasi juhud og'zi qulog'iga yetib, eski qadrdonlarini darrov kutib oldi. Juhud bir necha bo'lak go'shti ni etagi bilan bekitib olib keldi va xontaxta ustiga qo'ydi. Kazaklar xontaxtani gir aylantirib o'tirdilar. Mehmonlarning har biri oldida bittadan sopol piyola paydo bo'ldi. Falsafashunos Xoma ham bu o'tirishda qatnashmog'i lozim bo'ldi. Malorossiya-liklar xursandchilik qilganlarida bir-birlari bilan o'pishaveradilar yoki yig'i boshlaydilar. Shuning uchun bir on ichida uyda o'pishish boshlanib ketdi. «Qani, Spirid, o'pishib qo'yaylik!». «Dorosh, beri kel, bir quchoqlay!». Hammasidan keksaroq va mo'ylovlariqa oq kirgan bir kazak qo'lini iyagiga tirab olib, ota-onam yo'q, yetimman, g'aribman, hech kimim yo'q, deb azza-bazza yig'i boshladi.

Nasihatgo'yroq bo'lgan bittasi yakkash: «Qo'y, yig'lama, azbaroyi Xudo, yig'lama! Xudo biladi u yog'ini... ne bo'ptiki yig'laysan!» – der edi, xolos. Dorosh degan yana birovi juda ezma bo'lib qoldi va faylasuf Xomadan har narsani so'rayverdi:

– Maktabingizda nima o'qiysiz, butxona popi o'qiydigan narsalarni o'qiysizmi yoki boshqami? Shuni bilgim bor, – der edi nuqlu.

Boyagi nasihatgo'y keksa salmoq bilan:

– Surishtirib nima qilasan, senga ne, Xudo o'zi biladi, biluvchi udir, – der edi.

– Anavi kitoblarda nimalar yozilganini bilgim keladi, poplar aytadigan gaplarmi yoki boshqami,

– deb xiralik qilar edi Dorosh.

Nasihatgo'y buzruk bo'lsa:

– Xudoyo tavba! Xudoyo tavba! Nima dedi bu odam? Xudoning xohishi shunday bo'lsa, nima deysan, Xudoning irodasini o'zgartirib bo'lmaydi, – der edi.

– Kitobda nimaiki yozilgan bo'lsa, bilgim kela-di, maktabga kiraman, Xudo haqqi kiraman, o'qib mulla bo'lolmaydi deb o'ylaysanmi? Mulla bo'laman, men bilmaydigan hech narsa qolmaydi!

Nasihatgo'y:

– Ey, Xudoyim, Xudoyim!.. – dedi-yu, boshini xontaxtaga qo'ydi, chunki boshini ko'tarib o'tir-gani holi qolmadi.

Kazaklarning boshqalari xo'jayinlari to'g'risi-da hamda osmondag'i oyning yorug'i nimadanligi to'grisida so'zlashar edilar.

Falsafashunos Xoma kazaklarning boshi solinib qolganligini ko'rgach, fursatni g'animat bilib, qochmoq payiga tushdi. Avval yetimligidan hasrat qilgan boyagi g'arib mo'ysafidni so'zga solib ko'rmoqchi bo'ldi.

– Ota, nega muncha ko'z yoshi to'kasiz? Men ham yetimchaman! Qo'yib yuboringlar meni, o'z holimga qo'ying. Sizga mening nima kerakligim bor? – dedi.

Ba'zilari:

– Qo'yib yuboraylikmi? Yetimcha ekan, qayoqqa borsa borsin deb bir-birlariga qaradilar.

Nasihatgo'y boshini ko'tarib:

– Yo Xudo, yo Xudo! Mayli, qo'yib yuboringlar, qayoqqa borsa borsin! – dedi.

Kazaklar talabani sirtga chiqarib, qo'yib yubormoqchi bo'lib turgan edilar, haligi ezmarog'i:

– Tegmanglar unga, maktabini surishtirib bilmoxchiman, men ham mактабга kirib o'qimoqchiman, – deb ularning ra'yini qaytardi.

Ammo Xoma qochib ham uddasidan chiqolmas edi, chunki o'tirgan yerida turmoqchi bo'lsa, oyoqlari yog'ochdek qotib qolibdi, uyning eshiklari ko'ziga bir nechta bo'lib ketdi, shuning uchun eshikni topishi ham amrimahol edi.

To kech kirmaguncha yo'l eslariga ham kelmay, hammalari bemalol o'tiraverdilar. Keyin eslariga tushib otlandilar. Aravaga chiqqach, hammalari ashulani baralla qo'yib, otlarga qamchini shig'ab jo'nadilar. Lekin aytgan ashulalarining na so'zini, na ma'nosini birov tushunsa, o'lay. Tuni bilan yo'l yurib, ko'z yumib topib boradigan yo'llardan ha deganda dam-badamda bir adashib, bora-bora bir mahal balanddan pastlikka tushdilar. Pastlikka tushganlarida faylasuf u yoq-bu yoqqa qarab, sixcha kaltak yoki novdadan to'qilgan chetan devorlarni, pastak daraxtlar orasidan mo'ralab turgan uylarning tomini ko'rdi. Bu yuzboshiga qarashli kattakon bir qishloq edi. Vaqt allama-

hal bo'lib, yarim kechadan oshgan, osmon qop-qorong'i, unda-bunda bitta yulduz ko'rinar edi, xolos. Hech qaysi uyda bittayam chiroq ko'rinnmaydi. Ular itlar vovillab chiqqan hovliga kirdilar. Hovlining ichki tomonida poxol tomlik bostirma va uy edi. Darvozaxonaning ro'parasida, o'ttada turgan kattaroq uyda yuzboshining o'zi tursa kerak. Arava omborxonaga o'xshagan kichikroq uy oldiga kelib to'xtadi. Kelganlar aravadan tushib, yotgani ketdilar. Ammo falsafashunos boyning dargohini tomosha qilgisi keldi, lekin ko'zini har qancha yirsa ham, hech narsani tuzukkina ko'rolmadi: uy emas, ayiq turganga o'xshar, mo'rkon emas, mudarris turgandek ko'rinar edi. Xafsalasi pir bo'lib, u ham yotgani ketdi.

Falsafashunos uyg'onsa, hovli besaranjom. Yuzboshining qizi shu kecha o'libdi. Xizmatkorlar hovliqishib, har tarafga yugurishar edi, ba'zi kampirlar yig'lashar, bir qancha tomoshabinlar bir narsadan quruq qolgandek devorlardan mo'ralashar edilar. Falsafashunos tunda ko'rolmagan joylarini endi xo'b ko'rib olmoqchi boldi. Yuzboshining uyi, u mahalda Malorossiyada rasm bo'lgan poxol tomli pastak-pastak kichkina uylar ekan. Qo'nqaygan, kichkina ravvoqchaning dar-chasi olaygan ko'zga o'xshab, ko'k va sariq sir bilan bo'yalgan, oy surati solingan edi. Ravoqning eman yog'ochidan qilingan ustuni bir muncha hashamdar bo'lib, o'rtasigacha dumaloq, tagi olti qirrali, tepasi guldor edi. Ravoqning tagi zinapoya, zinapoyaning ikki tomoniga ikki eshakcha qo'yilgan. Uyning ikki tomonidagi bostirmalarning ustuni ham serhasham edi. Uyning oldida sada bo'lib o'sgan baland bo'yli ko'm-ko'k nok darax-

tining yaproqlari titrashar edi. Hovlining o'rtasida ikki qator solingan bir necha omborxona bor, omborxonaning o'rtasi uyga eltadigan yo'l bo'lib qolgan edi. Omborlar orqasida, shundoqqina darvozaxona oldida, bir-biriga ro'para solingan, tumorcha bo'lib tushgan yerto'la turar, bularning tomi ham poxol. Pastakkina eshikli yerto'ladan bittasining tumor nusxa devorlariga har xil suratlar solingan, devorning bir yog'iga qo'lida bir qadah pivo bilan bochkada o'tirgan odam surati chizilgan. Piyolaga «Oq ichaman» degan xat yozilgan. Yerto'laning yana bittasiga xumcha-yu mo'ndichalar surati solingan, devorning ikki chekkasida, chiroyli bo'sin deb, ikki oyog'ini ko'tarib turgan ikki ayg'ir, tamaki, chirmanda surati solingan. So'ngra «Mayxo'rlik kazakning kasbi» degan so'z ham bor. Omborlardan bittasining tomidagi katta tuynukdan nog'ora bilan mis karnay ko'rinish turibdi, darvoza oldida ikkita zambarak turibdi. Xullas, bundagi narsalardan, hovli egasi serzavq odam bo'lib, uyi to'yxona, hashamxona ekanligi ko'rinish turar edi. Darvozadan tashqarida ikkita yel tegirmon bor edi. Hovlining orqasiga ketgancha ko'kalam maydon, chorborg' bo'lganidan daraxt orasidan uylarning o'zi ko'rinnas, faqat mo'rkonlari tepasidagi soyabonchalari ko'rinar edi, xolos. Qishloq tog'ning keng va tekis bo'lib yoyilib ketgan yon bag'rida edi. Shamol tomon tik tog' bo'lib, boyning hovlisi shu tog'ning etakkinasida edi. Pastdan qaraganda, tog' yana ham baland ko'rinar, uning cho'qqisida unda-bunda o'sgan maymoq-saymoq supurgi o'tlar ko'm-ko'k osmonda qorayib ko'rinar edi. Tog'ning manzarasi kishi ko'nglida allaqanday noxush,

mungli tuyg'ularni tug'dirardi. Tog'ning bag'ri qor-yomg'ir suvidan chok-chok bo'lib ketgan, yuqorida ikki joyda ikkita uy turibdi. Uylarning biri har tarafga shox otgan katta olma tagida, olmaning tagiga tuproq uyilib, kichkina tirgovich bilan ko'tarilib qo'yilgan, shamoldan to'kilgan olmalar dumalab-dumalab, boyning hovlisiga tushar edi. Tog'ning tepasidan tushib kelgan aylanma yo'l yuzboshining hovlisi yonidan o'tib, qishloqqa borar edi. Falsafashunos tog'dan tushib kelgan yo'lga qarab, bunday tik yo'ldan kecha qanday tushganlarini o'ylab, yuragini vahima bosdi, keyin yuzboshining otlari juda aqlli ekan-da yoki yuzboshining odamlari mast holda shunday vahimali yolda aravalari bilan ag'anamay tushgan bo'salar, miyalari xo'b butun, zab puxta odamlar ekan-da, deya ko'nglidan o'tkazdi. Falsafashunos hovlining baland joyida turgan edi, keyin qayrilib bu tomonga qarasa, butunlay boshqa bir manzarani ko'rdi. Qishloq turgan qirlikning etagi qancha olislasa, yashilligi shuncha quyuqlashar, orada yigirma chaqirimdan ortiq yo'l bolsa ham olisdagi qator-qator qishloqlar ko'kalamzor ichida ko'm-ko'k ko'rinish turar edi. Ko'kalam maydonning o'ng tomoni tog', uzoqdagi Dnepr daryosi xuddi bir qora yo'ldek ko'rinar edi.

– Zab alomat joy ekan-da! Qani endi shunda tursang, daryo va ko'llarda baliq ovlab, matrap yoki miltiq bolsa-yu, bulduruq va bazg'aldoqlarni ovlab yursang! Lekin bu pichanzorda boshqa hayvonlar ham serob bolsa kerak. Mevalardan har qancha quritib shaharga eltib sotsa yoki yaxshisi, araq qilsa ham bo'ladi. Bu yerdan qanday qilib qochib qolishni o'ylab ko'rish ham yomon emas.

Chetan devor orqasida burgan o't bosgan yolg'iz oyoq yo'lga ko'zi tushdi. Avval shunchayin aylanib, tomosha qilib yurgan kishi bo'lib, keyin uylarni pana qilib sekingina dalaga qarab juftak urmoqchi bo'lib, beixtiyor shu yo'lga qadam qo'yishi bilan birovning zabardast qo'li yelkasiga tushganini payqab qoldi. Qayrilib qarasa, kecha yetimligidan, g'aribligidan hasrat qilib yig'lagan o'sha keksa kazak turibdi.

– Falsafashunos taqsir, bekorga ovora bo'lma, bu qo'rgondan qochib ketolmaysan, qochib qutuladigan joy emas. Piyodaga yo'l ham chatoq. Yaxshisi, boyning qoshiga bor, anchadan beri mehmonxonada seni kutib turibdi, – dedi.

– Xo'p, mayli... jonim bilan, qani yuring! – dedi falsafashunos va uning ketidan ergashdi.

Keksayib qolgan mo'ysafid yuzboshi qayg'uga cho'mib, iyagini ikki qo'liga tirab, mehmonxonda o'tirar edi. Yoshi ellikka borib qolgan, lekin chehrasidagi qayg'u-alam, rang-ro'yi, to'satdan boshiga tushgan musibat ruhini ezib tashlaganligidan avvalgi sho'xligi va xushchaqchaqligidan asar ham qolmagan edi. Xoma boyagi kazak bilan boshlashib kirib kelganda, u bir qo'lini iyagidan olib, kelganlarning engashib bergen salomlariga boshi bilan ishora qilib javob berdi.

Xoma bilan kazak odob saqlab poygakda turdilar.

Yuzboshi xushmuomalalikka ham, dag'allikka ham yo'yib bo'lmaydigan bir tarzda:

– Yaxshi kishi, kim bo'lasan? Qayerliksan, nasling-nasabing kim? – deb so'radi.

– Talabalardan bo'laman, falsafashunos Xoma Brutman.

– Otang kim edi?

- Janob to'ram, bilmayman.
- Onang kim edi?
- Onamni ham bilmayman. Aqlga havola qilsak, albatta onam yo'q emas, ammo kimligini, qayerdaligini va yurtini, qachon dunyodan o'tganligini, azbaroyi Xudo bilmayman.

Yuzboshi jim bo'ldi va birpas o'ylanib qolganga o'xshadi.

- Mening qizim bilan qanday tanishding?
- Janob to'ra, tanishganim yo'q, Xudo haqqi, tanishganim yo'q. Dunyoda shuncha yashab haligacha boyvuchcha qizlar bilan tanishganim yo'q. Ular sha'niga haqorat bo'lmasin-u, lekin yuzlari qursin.

– Bo'lmasam, nima sababdan qizim boshqa birovga emas, seni o'qisin dedi?

Falsafashunos yelkasini qisib:

- Buning sababini Xudo bilmasa, men bilmayman. Lekin boylar aksari juda borib turgan mullalarning ham aqli yetmaydigan ba'zi chatoq ishlarni qilishlari hammaga ma'lum. Hatto: «Boy buyursa, yuguraver!» – degan masal ham bor.

– Taqsir falsafashunos, yolg'on so'zlayotganining yo'qmi?

– Yolg'on so'zlasam, shu turgan joyimda qotib qolay.

Yuzboshi hafa bo'lib:

- Yana bir nafas o'lmasdan turganda edi, busirni, albatta, bilar edim... «Ota, boshqa hech kim menga fotiha o'qimasin, darrov Kiyevdag'i madrasaga bir odam yuborib, undagi talaba Xoma Brutni keltiring. Uch kecha haqimga duo qilib o'qisin. Uning o'zi biladi...» Nima biladi, bunisini aytolmadi. Jigarporam, bundan ortiq hech

narsa aytolmasdan dunyodan o'tdi. Sen yaxshi kishi, avliyo bo'sang kerak, avliyoliging hamma-ga ma'lumdir. Shuning uchun qizim ham sening yaxshi ishlaring to'g'risida eshitgandir.

– Kim? Menmi? – dedi Xoma hayron bo'lib. Keyin yuzboshining ko'ziga tikilib turib: – Men avliyo ekanmanmi? Xudo saqlasin, to'ram! Nimalar deyapsiz! Uyat bolsa ham aytay, men ro'za kuni non sotuvchi xotinnikiga kirib, gunohga botib chiqqan edim.

– Xo'sh... taqdir shu ekan-da. Endi sen bugundan boshlab ishga kirish.

– Janobingizga aytar edimki... albatta, muqadas kitobdan xabardor bo'lgan har bir odam qo'lidan keladi... Biroq bu o'rinda ruhoni yoki hech bo'lmassa, pop kerak edi. Ular bilimdon kishi bo'ladilar, yo'l-yo'riqni yaxshi biladilar; men bo'sam... So'ngra mening tovushim ham uncha emas, o'zim ham qandayligimni Xudo bilsin. Savlat-salobat ham yo'q menda.

– U yog'ini o'zingga havola qildim, o'zing bil, lekin qizim bechoraning qilgan vasiyatini bajo keltirish uchun hech narsamni ayamayman. Bugundan boshlab uch kecha o'qib, savobini uning arvohiga bag'ishlaganingdan keyin, narzingni beraman, lekin bilib qo'yki, meni xafa qiladigan bo'sang, agar shayton bolsa ham, yomon qilaman.

Yuzboshi oxirgi so'zni shunday qattiq gapirdiki, uning ma'nosini falsafashunos ham obdan tushundi.

– Qani, yur ketimdan, – dedi yuzboshi.

Ikkovlari dahlizga kirdilar. Yuzboshi kira-verishdagi birinchi uyning ro'parasidagi katta uyning eshigini ochdi. Xoma burun qoqmoqchi

bo'lib dahlizda birpas to'xtab qoldi, keyin yuragiga allaqanday vahima tushib, zo'rg'a ostonadan ichkariga kirdi. Uyga qizil xitoyi gilamlar to'shalgan. Burchakda turgan butlar tagida, baland so'rida, zar uqa va zar popuk qadalgan ko'k baxmal ko'rpara qizning jasadi yotar edi. O'likning bosh va oyoq tomoniga chechak o'rab, yoqib qo'yilgan uzun-uzun mum shamlarning shu'lesi kunduzining yorug'ida zo'rg'a ko'rinar edi. Sho'rlik ota-si orqasini eshikka o'girib, qizining yuziga termilib o'tirganidan, o'likning beti falsafashunosga ko'rinnadi. Ammo yuzboshining manavi gaplarni eshitib, uning kapalagi uchib ketdi:

– Jonim bo'tam, musicham, yoshingni yashamay, bag'rimni dog'lab g'unchalizingda, bemahal xazon bo'lganingga uncha kuymayman, battol dushmanim kimligini, o'limingga sabab bo'lgan odamning kimligini bilmaganimga kuyaman. Seni haqorat qilmoqchi bo'lgan yoki sha'ningga nojo'ya bir gap aytmoqchi bo'lgan odamni bilsam, koshki edi, agar mendek keksa bo'lsa bola-chaqasini, yosh bo'lsa, ota-onasini ko'rolmay o'lib ketardi, o'ligi dashtlarda qolib, parranda-yu charranda-larga yemish bolardi. Sho'rim qursin mening, chamandagi gulim, to'rg'ayim, jonim, endi narsiz ko'zlarimdan chak-chak oqqan yoshlarimni etagim bilan artib, dard-u hasratda o'taman, ammo dushmanim xursand bo'lib suyunadi, men mo'ysafid ojiz va bechoraning holiga kuladi.

Bu gaplarni aytdi-yu, to'xtadi, chunki xo'rligi kelib, ko'zidan yosh sharillab oqib ketaverdi.

Yuzboshining bu motamzada yig'isi falsafashunosga ta'sir qilib, rahmi keldi. Yo'talib olgach, keyin ovozim xirillamasin deb tomog'ini qirib qo'ydi.

Yuzboshi u tomonga o'girilib, o'likning bosh tomonida, bir necha kitob turgan lavh yonidan joy ko'rsatdi.

Falsafashunos ko'nglida:

– Uch kechanli bir amallab o'tkazarman, keyin boy ikki cho'ntagimni to'ldirib beradi-ku, – deb qo'ydi.

Falsafashunos yaqinroq kelib, yana bir marta yo'talib olgandan keyin, u yon-bu yonga sira parvo qilmay, o'likning yuziga ham qaramaslikka harakat qilib, o'qishga tutindi. Hamma yoq jim-jit. Shu paytda, yuzboshining tashqari chiqqani ni fahmladi. O'likning yuziga qaramoqchi bo'lib, sekin boshini o'girdi, qarasa... A'zoyi badani jimirlashib ketdi. Yer yuzida misli topilmaydigan barno qiz ekan. Bunday chiroyli husn, bunday latofat hech zamon ko'rinnmagandek, xuddi tiridek yotar edi. Qordek oppoq suluv yuzi kumush-dek yiltirar, bir xayolga cho'mganga o'xshar, yuzi kunduz, qilichdek qalam qoshi bu kunduz ichidagi tun. Ko'zları yumuq, qoshi mag'rurona ko'tarilgan, kipriklari dard-u alam o'tida yongan yuziga o'qdek qadalib tushibdi. Og'zi tabassum bilan ochilgan la'lga o'xshaydi... Ammo bu chehra allaqanday dahshatli tig'dek falsafashunosni jarohatladi. Go'yo hamma shodlik girdobiga mast bo'lib, charx urib turgan paytda birov kelib, mazlum xalq qo'shig'ini boshlagandek ruhi siqilib, nola qilgandek bo'ldi. La'l lablari qon talashib, yurak-bag'riga yopishganga o'xshar edi. Birdaniga qizning yuzida unga oshna bo'lgan mash'um bir narsa ko'rindi, beixtiyor baqirib yubordi:

– Ajina! – ko'zini undan oldi, rangi o'chib, duolarini o'qiyverdi.



Yotgan qiz u o'ldirgan o'sha ajina ekan.

Kun oqqanda o'likni butxonaga eltdilar. Falsafashunos qora tobutning bir tomonini yelkasiiga olganda, yaxdek sovuq narsa badaniga tek-kandek bo'ldi. Yuzboshi marhumaga tegishli tor uyning bir tomonini ko'tarib, hammadan oldinda ketyapti. Qorayib, o't bosib ketgan uchta konus-simon mezanalik yog'och butxona, qishloqning bir chekkasida xomush turar edi. Anchadan beri hech bir marosim o'talmaganligi ma'lum bo'lib turar, butlarning har biri oldida bittadan sham yo-qib qo'yilgandi. Tobutni butxonaning o'rtarog'iga, mehrob oldiga keltirib qo'ydilar. Chol yuzboshi, qizining yuzidan yana bir marta o'pib, falsafashunosni yaxshilab siylanglar, keyin ovqat yeb olgach, butxonaga kirgizib qo'yinglar, deb amr-farmon qilgach, engashgancha, tobutkashlar bilan birga tashqari chiqib ketdi. Tobut ko'targanlar-ning hammasi oshxonaga kirib, qo'llarini pech-kaga surdilar, chunki malorossiyaliklarda o'likni ko'rganda shunday qiladigan odat bor.

Xuddi shu mahal falsafashunosning obdan qorni ochganidan o'lik birpas esidan chiqdi. Bir-rozdan keyin xizmatkor va malaylarning hammasi birma-bir oshxonaga yig'ilisha boshladi. Yuzboshining suyak va yuvindi dardida dumini likillatib, eshik tagida turgan itlaridan tortib, hamma xizmatkorlari shu oshxonaga jam bo'lishardi. Ularning bari u yerdan bu yerga biror yu-mush bilan ketayotgan bo'lsa ham, avval birpas o'tirib, dam olmoq va tamaki chekmoq uchun al-batta, oshxonaga bir kirib o'tar edi. Yuzboshining bo'ydoq, olista xizmatkorlari so'rining ustidami, tagidami, pechka tepasidami, xullas, qayerda yo-

tib olish iloji bo'lsa, shu yerda ertadan kechga-cha yastanib yotaverar edilar. Har qaysisi yak-kash oshxonada bosh kiyiminimi, begona itlarni haydaydigan qamchisinimi, ishqilib, bir narsasi-ni esdan chiqarib tashlab chiqar edi. Ammo ke-chasi ovqat vaqtি bo'lib yilqisini otxonaga qamab chiqqan otboqar ham, sigirlarni soqqani keltir-gan molboqar va kunduzi bilan qorasi ko'r-in-maganlarning hammasi kelganida, jamoat jam bo'lib, yig'in katta bo'lar edi. Ovqat tepasida in-damaslar ham gapga tushib ketar edi.

Kim yangi shalvar tiktiribdi, yerning ichida nima bor, kimga bo'ri uchradi, xullas suhbat suhbatga ularib ketardi. Malorossiyaliklar orasi-da mo'l bo'lgan askiyachilar ham bu izdihomda serob edi.

Falsafashunos ham oshxona tagiga kelib, hov-hda katta davra qurib o'tirganlar qatoriga kirib cho'kdi. Birozdan so'ng qizil ko'ylik kiygan bir xotin ikki qolida bir tog'ora issiq xamir oshi keltirib, o'tirganlar o'ttasiga qo'ydi. Har kim o'z cho'ntagidan yog'och qoshig'ini chiqardi, qoshigi yo'qlar cho'pdan qoshiq qilib oldilar. Nafslari andak orom olib, og'izlarining qimirlashi sal sekin-lashgandan keyin bir nechalari gapga kirishdilar. Gap o'lgan qiz to'g'risida bo'lishi tabiiy.

Mushtugining bog'ichiga allaqancha tugmacha va mis chegalar qadab olganidan attorning do'koniga o'xshagan yosh cho'pon:

– Boyvuchchamiz shayton bilan tanish-bilish ekan, rostmi shu gap? – deb so'radi.

Falsafashunosimizga oshna bo'lgan Dorosh darrov:

– Kim? Boyning qizimi? Shaytonning o'zi edi, azbaroyi Xudo, ajina edi! – dedi.

Yo'lda ketayotganda hammani yupatmoqchi bo'lgan odam:

– Qo'ysang-chi, behuda gapni, Dorosh. Bizga nima daxli bor bu gapning, nima bo'sa bo'lar, nima qilasan gapirib, – dedi.

Ammo Doroshning bas qiladigan avzoyi yo'q edi. Haligina bir yumush-la omborchi bilan birga yerto'лага tushib, bochkalardan bir-ikki marta shimirib olganligidan kayfi baland, sergap bo'lib qolgan edi.

– Nima deysan? Gapirma deysanmi? Axir mening o'zimni ham eshak qilib mingan-da! Azbaroyi Xudo, mingan, – dedi.

Bog'ichiga tugma qadab olgan haligi yosh cho'pon:

– Amaki, ajinaning biror alomati bo'ladimi, yo'qmi? – so'radi.

– Yo'q, tanib bo'lmaydi, aziz kitoblarning hammasini o'qib tushirsang ham taniyolmaysan, – dedi Dorosh.

Boyagi nasihatgo'y:

– Bunday dema, Dorosh, tanisa bo'ladi, Xudo har bir maxluqqa qandaydir alomat berib qo'ygani bekorga emas. Bilimdon kishiilar ajinaning kichkina dumি bo'ladi deydilar, – dedi.

Mo'ysafid chol:

– Xotin kishining qarisi ajina-da, – dedi bema-lolgina so'zlab.

Ayni shu mahal bo'shagan tog'oraga yana osh quyib turgan xotin:

– O'zlarin-chi? Sizlar ham qolishmaysiz! Xudi semiz cho'chqaga o'xshaysizlar! – deb qo'ydi.

Oti Yavtux bo'sa ham Kovtun deb laqab qo'yilgan mo'ysafid chol aytgan gapi kampirga obdan

ta'sir qilganini fahmlab, zavq bilan kulib qo'ydi. Molboqar bo'lsa, shunday xaxolab beso'naqay kuldiki, go'yo ikki ho'kiz qamtimma-qamti turib, baravariga bo'kirdandek bo'ldi.

Yuzboshining o'lgan qizi to'g'risida boshlangan gap falsafashunosning ko'ngliga g'ulg'ula solib, voqeani bat afsil bilgisi keldi. Shuning uchun gapni yana shu tomonga burish niyatida yonida o'tirgandan so'radi:

– Dasturxon tepasida o'tirgan guruhning hammasi boyning qizini nega ajina deydi, shuni bilsam degan edim. Biror kishiga ziyoni tegdimi, yoki birovni nobud qildimi?

Yuzi kurakdek yapaloq bo'lgan hangamat lablardan biri:

– Har balo bo'lgan-da, – deb qo'ydi.
– Itboqar Mikitani kim bilmaydi yoki anavi...
– Itboqar Mikitaga nima bo'lgan edi? – so'radi falsafashunos.

– Shoshma! Itboqar Mikita voqeasini men aytib beraman, – dedi Dorosh.
– Yo'q, men aytaman, mening og'aynim edi, – dedi otboqar.

– Yo'q, men aytay, – dedi Spirid.

O'tirganlar baqirishib:

– Mayli, mayli, Spirid gapira qolsin, – deyishdi.
Spirid gap boshladi:

– Sen, taqsir falsafashunos Xoma, Mikitani bilmas eding, topilmaydigan odam edi. Mendan ikki odam narida o'tirgan endigi itboqar anavi Mikola uning bosgan iziga ham arzimaydi. Bu ham o'z ishiga puxta-ku, lekin shunday bo'lsa ham, Mikitaga qaraganda bu bir tog'ora mag'zava.

Dorosh uning so'zini ma'qullab, boshini qimirlatib:

– Gapga chechan ekansan, ma'qul, – deb qo'ydi.
Spirid yana gap boshladi:

– Sen burningdag'i burunakini artishga ulgur-mayin uning ko'zi darrov quyonga tushardi. «Bos, Razboy, ol. Tez!» deb itlarni ovga solib yuborsam, keyin sapchib otiga minib olib chunonam quvladiki, undan it o'zib ketadimi, itdan u o'zib ketadimi, bilib bo'lmas edi! Biroq yaqindan beri xo'jayinning qiziga ko'proq qaraydigan bo'lib qoldi. Unga xushtor bo'lib qoldimi yoki qiz uni jodu qildimi, harnechuk bechora xarob bo'ldi, xotinchalish bo'lib qoldi. Shunday bemaza bo'lib ketdiki, aytgani odam or qiladi!

– Ma'qul, – deb qo'ydi Dorosh.

Qiz bir marta ko'z tashlab qo'ydimi, bas, jilovni qo'ldan berib, adashib Razboyni Brovka der, qo-qinib-yiqilib ketar, g'alati bo'lib qolardi. Bir kun otxonada otini qashlab tursa, qiz kelib, Mikita, beri kel, oyog'imni ustingga tashlay desa, tentak shunga ham suyunib ketib: «O'zing minsang ham mayli», – debdi. Qiz oyog'ini ko'targanda lo'ppigina, paxtadek oyoqlarini ko'rishi bilan: «Senga mubtalo bo'ldim», – debdi. Tentak bo'ynini egib beribdi, ikki pochasidan tutib, xuddi ayg'ir ot-dek dalama-dala chopaveribdi, lekin qayerlar-ga borganini bilmas emish. O'lar holatda zo'rg'a qaytib kelibdi-yu, ammo shundan beri qovjirab tarashadek bo'lib qotib qolibdi. Bir kun otxonaga kirsalar, Mikita turgan joyda bir hovuch kul bilan bitta bo'sh paqir turganmish. Demak, Mikita o'zidan-o'zi kuyib kul bo'libdi. Ammo juda g'alati itboqar edi-da, unaqasi endi topilmaydi.

Spirid gapini tamomlashi bilan, itboqarning fazi-latlari to'g'risida har tarafdan har kim so'zlay ketdi.

– Shepchixanining voqeasini eshitganmisan? – dedi Dorosh, Xomaga qarab:

– Yo‘q.

– Eh-ha, barakalla, chamamda, mактабингизда hech narsa o‘qitmas ekanlar-da. Bo‘lmasa, qulqoq sol: qishlog‘imizda Sheptun degan bir odam bor. Yaxshi yigit. Ba’zida bekordan-bekorga yolg‘on so‘zlaydigan odati bor, qo‘li ham egriroq. Lekin... yaxshi odam, uyi ham yaqinda, ana shu yerda. Xuddi mana shu mahalda, ovqatlanib bo‘lgandan keyin er-xotin yotishibdi, kun issiq ekan, shu sababdan xotini hovliga chiqib yotibdi, Sheptunning o‘zi ichkarida, so‘riga chiqib yotibdi, yo‘g‘-a, undoq emas, xotini ichkarida, eri tashqarida yotgan ekan...

Ostonada qo‘lini yuziga qo‘yib turgan ayol:

– Xotini so‘rida emas, yerda yotgan ekan, – deb so‘zga aralashdi.

Dorosh unga bir qarab olib, keyin ko‘zini yerga tikdi, so‘ngra yana unga bir qarab qo‘ygach:

– Hammaning oldida ich ko‘ylagingni yechib olsam qalay – yaxshi bo‘lmas; jim o‘tir, – dedi.

Uning bu do‘qi bekor ketmadi. Kampir jim bo‘lgancha qayta ovoz chiqarmadi.

Dorosh so‘zini davom ettirdi:

– Uyning o‘rtasiga osig‘liq turgan belanchakda qizmi, o‘g‘ilmi, bilmayman, bir yashar go‘dak yotgan ekan. Sheptunning xotini, yotgan joyida eshikni it tirnaganini eshitibdi. Itning vovillaganiga odam uyda toqat qilib turolmasmish. Xotin qo‘rqib ketibdi, chunki xotin kishi degan shunday bo‘ladiki, agar kechki payt eshik orqasidan tilingni chiqarib ko‘rsatsang ham, joni halqumiga kelaveradi. Biroq qo‘rqlasa ham, ko‘ray-chi, zora

ovozini o'chirsa, deb qo'liga kosov olib chiqsa, it bir zumda uning oyog'i orasidan o'tib, to'ppato'g'ri belanchak tepasiga boribdi. Xotin qarasa, it emas, xo'jayinning qizi emish. Kunda ko'rib yurganidek bo'lsa, mayli-ya, shunday bahaybatmishki, o'zi ko'm-ko'k, ko'zlar cho'g'daymish. Bolani mahkam ushlab olib, bo'g'zini g'ajib qoni ni so'raveribdi. Xotin: «Voy sho'rim!» deganicha dodlab uydan qochib chiqsa, dahliz eshigi bekimish. Yugurgancha tom tagiga qochib, qaltirab o'tirsa, bir mahal qiz u yerga ham chiqib ke layotgan mish. Qiz uni tutib olib, uni ham tishlayveribdi. Ertalab Sheptun, xotinini tom tagida chala o'lik holda topibdi, ko'm-ko'k ko'karib ket gan mish. Nodon xotin ertasiga o'ldi. Ana shuna qa ishlar boladi, ajina shunday falokat bo'ladi! Asilzoda odamning pushtidan bo'lsa ham, ajina ajinaligini qiladi-da.

Dorosh gapni qoyil qilganiga o'zi xursand bo'lib, u yon-bu yonga qarab olgach, mushtugini tamaki solish uchun tozaladi. Ajina hikoyasi sira tamom bo'lindi. Har qaysisi biror yangi gap aytmoqchi bo'lar edi. Bittasinikiga ajina bir g'aram pichan bo'lib, xuddi eshigi tagiga kelib turgan mish, bit tasining boshidagi bosh kiyimini yoki mushtugi ni o'g'irlab qochgan mish, qishloq qizlaridan bir nechasingin sochini kesib, ba'zilarining chelak chelak qonini so'rib ketgan mish.

Bir mahal hammalari eslariga kelib qarasalar, gap bilan ovora bo'lib, qorong'i tushganini bilmay qolibdilar. Birma-bir turishib, har qaysisi o'z yotog'iga tarqab, biri hovlida, biri bostirma tagida, biri oshxonada yotdilar.

Mo'ysafid chol falsafashunosga qarab:

– Qani, taqsir Xoma, endi biz ham o'lik tepasi-ga boraylik, – dedi.

So'ngra Spirid bilan Doroshni ham boshlab hammalari butxonaga ravona bo'ldilar. Yo'lda har qadamda uchragan itlarni savaladilar, itlar ham irillashib, ularning xipchinini tishlashar edi. Falsafashunos bir qadah araqni ichib, o'zini obdan rostlab olgan bo'lsa ham, chirog'i yoniq butxonaga yaqinlashgan sari ko'ngliga vahima tushib, cho'chir edi. Eshitgan haligi har xil vahima gaplari, g'alati voqealar vahimasini yanada oshirdi. Devor va daraxtlar tagidagi tim qorong'i-lik sal yorisha boshladи, ochiqroq yalandilikka chiqdilar, keyin tevaragi eski devor bilan aylan-tirilgan butxonaning torroq hovlisi sahniga kirdilar. Hovlining narigi yog'i yalandilik, taqir joy edi, bir tarafi zulmatdek ko'ringan o'lanzor edi. Bir-galashib kelganlarning uchovi Xomani boshlab, tikroq zinadan chiqib, butxonaga kirdilar. Ular shu yerda falsafashunos bilan xo'shlashib, ishing o'ngidan kelsin, salomat bo'l, deb xo'jayinning aytganini bajo keltirib, uning orqasidan eshikni berkitib chiqdilar.

Falsafashunos tanho qoldi. Avval homuza tortib esnab oldi, keyin kerishdi, so'ngra ikki qo'lliga puflab olgandan keyin u yon-bu yonga qaradi. O'rtada qora tobut. Qorayib turgan butlarning har qaysisi oldida sham yoqilgan. Shamlarning yorug'i yolg'iz mehrobni yoritib, butxonaning o'rtasiga zo'rg'a tushar, uzoqdagi burchaklari qop-qorong'i edi. Qadimgi baland ikonostas¹ juda es-kirib qolgan, tillakori, cho'l pilari unda-bunda hali ham yaltirardi, lekin oltin ko'chib ketgan joylari

¹ Ikonstans – butlar turadigan mehrob.

qorayib qolgan, avliyolarning yuzlari qop-qorayib xunugi chiqqandi. Falsafashunos yana bir marta u yon-bu yonga alanglab qo'ydi-da, keyin:

– Nimadan qo'rqaman? Tashqaridan bu yerga birov kirolmaydi, oxiratdan keladigan arvoхlar bilan o'liklar haqiga biladigan har xil duolarim borki, bir marta o'qisam, menga aslo daxl qilolmaydilar, – dedi va qo'lini siltab, yana takrorladi: – Nimadan qo'rqaman! Qani, boshlaylik, – deb qo'ydi.

So'ngra mehrobga yaqinroq borgan edi, bir necha shoda shamga ko'zi tushdi.

«Juda yaxshi bo'ldi, butxonaning hamma yeri-ga sham yoqib tashlay, kuppera-kunduzidek yorug' bo'lsin. Attang, Xudoning uyida chekish mumkin emasligi yomon-da», – deb qo'ydi dilida.

Keyin sira ayamay butxonaning tokchasi bormi, piramoni, suratlari bormi, har yerga mum shamlarni qadayverdi; birpasda butxona charog'on bo'lib ketdi. Faqat butxonaning yuqori ship tomoni qorong'iligicha qoldi, tillasi unda-bunda qolgan qadimgi o'ymakori zarhal chor cho'plardagi suratlar ho'mrayishib qaragandek edilar. Tobutga yaqinroq kelib, qo'rqa-pisa sekin o'likning yuziga baqraygancha qoldi, chunki qizning husniga toqat qilib bo'lmas edi.

Yuzini o'girib, o'zini nariroq olmoqchi bo'ldi-ku, ammo birov vasvasa qilgandek allaqanday g'alati boldi, xususan, odamni vahima bosganda kishining ko'ngliga g'ulg'ula tushib, beixtiyor bo'lib qoladi-ku, unda ana shunday holat ro'y berib qayrilib qaradi, keyin boyagiday badani uvishib, yana bir marta ko'z tashladi. Darvoqe, o'likning nihoyat darajada ko'hlikligi vahimali ko'rindi. Agar ozroq xunuk bo'lgandayam munchalik vahi-

mali bo'lmasmidi? Ammo o'likning basharasi ruhsiz, jonsiz, so'niq tanaga sira o'xshamas, tirikka o'xshar va falsafashunosning nazarida qiz ko'zini yuminqirab, unga qarab turganga o'xshardi. Hatto o'ng ko'zining kipriklari tagidan bir qatra yosh oqib tushgandek bo'ldi va yosh yuziga tushib to'xtab qolganda, bilsa yosh emas, qon ekan.

Darrov minbar tepasiga borib, kitobni ochdi-da, dalda bo'lsin, dedi shekilli, ovoz chiqarib o'qiy boshladi. Tovushi butxonaning ko'p zamonlardan beri sadosi chiqmay gung bo'lib qolgan yog'och devorlariga borib tegdi. Aks-sadosi ham bo'lмаган bu mudhish bir sukunat ichida tanho uning ovozi do'rillar, bu jimjitlik o'ziga ham mudhish ko'rinardi. Shunday bo'lsa ham, o'ziga-o'zi dalda berib:

«Nimadan qo'rqaman? O'lik tobutidan turmaydi, chunki duoning quvvatidan qo'rqadi, yotsa-yotaversin-da! Qo'rqoqlik qilsam, erkakligim qoladimi? Sal ko'proq ichib yuboribman, shuning uchun andak vahima bosyapti. Burnakidan otib olsammikin? Ko'p yaxshi, asil burnaki-da!» der edi dilida.

Ammo kitobni har varaqlaganda sekingina, zimdan tobutga qarab qo'yar va nazarida birov qulog'iga shivirlab: «Ana, ana, turib kelyapti! Ana, tobutdan mo'ralab qarayapti!» – degandek bolardi.

Ammo shunday jimjitki, kishini vahima bosardi. Tobut qimirlamas, shamlar nur sochar edi. Ichida o'lik yotgan, yop-yorug' kimsasiz butxona tunda vahimali bo'ladi.

Falsafashunos hech vahima qilmaslik uchun ovozini yanada baland ko'tarib, qiroat bilan o'qiyverdi, lekin: «Mabodo, boshini ko'tarsa; o'rnidan

tursa nima qilaman!?" degandek damba-dam beixtiyor qarab qo'yar edi.

Ammo tobut qimir etmadi. Tiq etgan ovoz chiqsa-chi, loaqal bir burchak chirqildoqning ovozi chiqsa-chi... naridagi shamlardan bitta-yarimtasi bir chirsillab qo'ymasa, yoki erigan shaming qatrasи yerga tushib «chip» etmasa, boshqa tovushdan asar yo'q edi.

«Mabodo, boshini ko'tarsa-chi!»

O'lik boshini ko'tardi.

Xoma hayron bo'lib qaradi-yu, ko'zini ishqalab qo'ydi.

Ammo u tobutda yotmay, o'tirganga o'xshadi. Ko'zini tobutdan oldi-yu, vahimaga tushib, darrov yana qaradi. Bir mahal qarasa, o'lik o'rnidan turib, ko'zini ochmay yurib kelyapti; ha deganda qo'lini qulochkashlab birovni tutmoqchi bo'ladi.

To'ppa-to'g'ri unga qarab kelyapti; Xoma qo'rqqanidan atrofiga aylantirib, chizib qo'ydi. Duoga zo'r berib, yakkash jin va parilarga uchrab yurgan bir rohibdan o'rganib olgan duolarini tinmasdan o'qiyverdi.

Tobutdan turgan qiz uning chizgan chizig'iga juda yaqin keldi, lekin chiziqni bosib o'tishga madori yo'qligi bilinib turibdi: bir necha kunlik o'likdek unniqib, ko'karib ketibdi. Uning basharasiga qaragani Xomada tob-u toqat yo'q; chunki u bahaybat edi. O'lik tishini-tishiga urib, ko'zini ochdi. Ammo ko'ziga hech narsa ko'rinnadi, shekilli, nihoyatda achchiqlanib, yuzlari titrab-qaqshab (achchiqlangani shundan bilindi) ikki qo'lini yoygancha boshqa tarafga qarab ketdi; Xomani tutmoqchi bo'lib, duch kelgan har bir ustunni quchoqlar, har burchakka bir kirib chiqar edi.

218
Aloha, tinchidi, so'ngra barmog'i bilan do'q qilib, tobutiga tushib yotdi.

Falsafashunos hali ham o'ziga kelolmay, ajananing bu tor uyiga vahima bilan qarab-qarab qo'yar edi. Bir mahal tobut birdaniga ko'tarilib, butxonaning u yonidan-bu yoniga g'irillab uchaverdi, tobut uning shundoqqina boshining ustida uchib yurganini ko'rди-yu, lekin chizgan boyagi chizig'iga yaqin kelolmaganini bilib, o'qishga zo'r berdi. Tobut butxonaning qoq o'rtasiga kelib tushdi va tushgan joyida qimirlamasdan turaverdi, ko'm-ko'k ko'karib ketgan o'lik, yana boshini ko'tardi. Shu paytda uzoqdagi xo'rozning qichqirgan ovozi eshitilib qoldi. O'lik tobutga tushib, qopqog'i yopildi.

Falsafashunosning yuragi duk-duk urar, badanidan chak-chak ter oqar edi. Ammo xo'rozning ovozini eshitib, andak dadil bo'ldi va chala qolgan varaqlarini tamomlash uchun tez-tez o'qiyverdi. Tong otishi bilan butxona ning ruhoniysi va hozir qavmboshi bo'lib turgan Yavtux chol kirib keldilar.

Falsafashunos nariroqdagi yotoqqa kelganda ham anchagacha uxmlay olmasdan yotdi, ammo charchaganligi ta'sir qilib, qattiq uxmlab qoldi va tushgacha turmadni. Uyqudan turganda, kechasi bo'lib o'tgan voqealari xuddi tushda ko'rgandek bo'ldi. Quvvat bo'lsin deb, bir kosa may berdilar. Dasturxonga o'tirganda, katta bir tovoq go'stni yeb sopladi. Ammo sababini o'zi ham bilmag'an allaqanday noxushlik ro'y berib, butxonada bo'lib o'tgan voqeani birovga aytishga yuragi dov bermadi. Qiziqsinib so'raganlarga: «Ha, ko'p alovmatlar bo'ldi», – deb qo'ya qoldi. Qorni to'yganda

benihoyat xushmuomala, muloyim va odampar-var bo'lib ketadigan bir xil odamlar boladi, falsafashunos ham shundaylardan edi. Og'zida tamakisi bilan yotib olib, hammaga juda muloyim boqish qilib, hadeb yoniga tupurar edi, xolos.

Ovqatdan keyin falsafashunos dimog'i chog' bo'lib, qishloqni xo'b sayr qilib, hamma bilan tанишди, hatto ikki uydan quvlab ham chiqardilar. Chiroylikkina bir juvonnikiga kirib, ko'ylagi bilan kamzulining molini bilay deb, u yoq-bu yog'ini ushlab ko'rgan edi, juvon orqasiga kurak bilan tushirib qoldi. Lekin kech kirgan sari kayfi qochib, xafaligi oshaverdi. Kechki ovqatga bir soat-cha qolganda xizmatkorlarning hammasi hovliga yig'ilishib, tindi-mindi o'yinini boshladilar. Har kim yutsa, yutqizganni eshak qilib minar edi. Bu o'yin tobora qizib, juda tomosha bo'ldi. Yuzi tovoq-dek molboqar podachi, yakkash aft-basharasini ajin bosgan pak-pakana, nimjon mol boquvchi podachini minar edi. Gohida molboqar podachi Doroshga mindirar, Dorosh bolsa har gal uni minganda: «Ha, polvon ho'kizim!» deb qo'yardi. Siporoq xizmatkorlar oshxona ostonasida o'tirar edilar. Yoshlar podachi yoki Spiridning qiziq gaplaridan kulaverib, ichaklari uzilganda ham, bular og'izlaridan tamakini qo'ymay, qovoqlarini solib o'tiraverar edilar. Xoma ham bu o'yinga aralashmoqchi boldi-ku, aralashmadi, chunki allaqanday qora xayollar miyasiga mixdek qada-lib boshidan sira ketmas edi. Kechki ovqat tepasida o'zini har qancha xursand qilmoqchi bolsa ham, osmonni qorong'i bosgan sari, uni ham vahima bosaverdi.

Mo'ysafid chol Dorosh bilan birga o'rnidan turarkan:

– Qani, mullavachcha, vaqt o'tmasin – yu-mushimizga boraylik, – dedi.

Xomani kechagidek yana butxonaga eltib, us-tidan bekitib, yolg'iz qo'yib ketdilar. Tanho qol-gach, yuragiga tag'in qo'rquv tushdi. Qorayib turgan butlar, yiltiroq chor cho'plari, mudhish sukunat ichida butxona o'rtasida turgan qora to-but yana ko'ziga ko'rindi.

– Mayli, bu vahimadan endi qo'rqlmayman. Av-val qo'rqqan edim. Ha! Avvalbosha vahimaliroq edi, endi xavf qolmadi, sira qolmadi, – deb qo'ydi.

Darrov mehrobga chiqib, atrofiga chiziq tortdi, bir-ikki duo o'qib bo'lgach, kitobdan ko'z uzmaslikka va hech narsaga parvo qilmaslikka qasd qilib, ovozini balandlatib o'qiyverdi. Bir soatcha shu zaylda o'qigan edi, andak charchagandek bo'ldi, yo'tali ham qistab qoldi. Kissasidan qortig'ini olib, burnaki otmoqchi bo'ldi-yu, lekin av-val ko'z qiri bilan tobutga qarab qo'ydi. Yuragi orziqib tushdi, chunki o'lik xuddi chiziq tepasiga kelib, ko'karib ketgan ruhsiz ko'zlarini unga tikib turar edi. Talabaning yuragi chiqib ketguday bo'ldi, a'zoyi badaniga titrab, bo'shashib ketdi. Ko'zini kitobdan olmay duoga zo'r berdi va shu paytda o'lik yana tishini tishiga urib, uni tutmoq qasdida qollarini qulochkashlayverdi. Ammo talaba bir ko'zining qirini tashlagan edi, o'lik uning turgan yerini topolmay, boshqa yerda axtarayot-ganligini va uni ko'rolmayotganini bildi. O'likning ruhsiz lablari qimirlab, og'zidan g'uldiragan yomon gaplar chiqdi, ovozi xirillab, gaplari qay-nayotgan mumdek baqir-buqir qilib chiqar edi. Nima deyayotgani ma'lum emas edi-ku, ammo vahimali xunuk gaplar ekanini bildi. Sehr bilan

jodu qilayotganini fahmlab, falsafashunosning quti o'chib ketdi.

O'lukning jodusidan butxonada shamol ko'tarilib, xuddi birtalay parranda uchgandek, qanot ovozi eshitildi. Butxona derazalarining oy-nasiga, temir chambaraklariga bir narsalarning qanoti tekkanini, panjalari bilan temirga yopishib, g'irchillatganini, allakimlar eshikni urib, buzib kirmoqchi bo'layotganini eshitdi. Yuragi hech tinmasdan qattiq duk-duk urardi. Ko'zini yumib olib, hadeb duolarini o'qiyverdi. Bir mahal uzoq-dan bir qichqiriq eshitildi; olisdagi xo'roz ekan. Tinkasi qurib holdan ketgan falsafashunosga bir-roz jon kirib, andak tinchidi.

Uning o'rniiga kelgan odamlar bechorani o'lar holatda ko'rdilar. Ko'zlaricha qachaygan, o'zi devorga tiranib olib, kirganlar har qancha turt-kilab itarsalar ham bo'zrayar edi, xolos. Sudrab olib chiqqach, yo'lda bora-borguncha suyab bordilar. Boyning hovlisiga kelganda sal hushiga ke-lib, may so'radi. Mayni ichgandan keyin sochini silab turib:

– Olamda har balo bor-ku, lekin bunday falokat... – dedi-yu, keyin: – bor-ey... – deb qo'lini siltadi.

Uni gir aylantirib o'rab olganlar so'zlarini eshitib, boshlarini solib hayron qoldilar. Og'il-xonani tozalash yoki suv tashish kerak bo'lib qolganda har kim xohlasa, ish buyuradigan dast-yorgina bola bor edi, hatto shu bola bechora ham ag'rayib qoldi.

Oqsoch kampirga qarashib yuradigan va belini tang'ib bog'lab olganidan tiqmachoqdekligi ko'rinib turgan o'rta yoshli satang bir xotin bor edi; uning satangligi shunday ediki, ko'ylagiga doim

bir parcha lattami, qalampir munchoqmi, mabodo, hech narsa topilmasa, bir parcha qog'ozmi, ishqilib, bir narsa taqib olardi. Shu tobda ana shu xotin bu yerdan o'tib ketayotgan ekan, falsafashunosni ko'rib qolib:

- Assalom-u alaykum, Xoma, voy-voy, nima balo bo'ldi senga! – dedi chapak chalib.
- Nima deganing bu, nodon xotin?
- Xudoyo tavba! Soching bitta qolmay oqarib ketibdi-ku!

Spirid ham unga tikilibroq qaragach:

- Eh-ha! Rost aytadi! Xuddi Yavtux cholning o'zi bo'lib qolibsan-ku! – dedi.

Falsafashunos bu gapni eshitib, oshxona to-monga yugurgancha ketdi, chunki bunda bir parcha oynaga ko'zi tushgan edi; pashsha o'tirgan bu oynaning atrofiga o't-o'lanlar qadalgan, hatto boychechakdan gul bargak ham bog'laniganligidan boyagi satangning pardoz qiladigan oynasi ekanligi ma'lum edi. Oynaga qarab hali-gilarning gapi rostligini bilgach, cuti o'chib ketdi, sochining yarmisi oqarib ketibdi.

Xoma Brut xafa bo'lib, xayol surib ketdi. Xo'b o'ylab-o'ylab, keyin:

- Boyning oldiga borib, voqeani aytaman, endi bas, o'qimayman, deyman. Shu tobda darrov meni Kiyevga jo'natsin, – dedi o'ziga-o'zi.

Shu xayollar ichida yuzboshining eshigiga qarab jo'nab qoldi.

Yuzboshi mehmonxonasida xomush o'tirgandi. Avval qanday bo'lsa, hali ham shu zaylda xafa va g'amgin edi. Yuzlari yanada battarroq so'lishibdi, kam ovqat yeganligi, yoki umuman yemaganligi bilinib turar edi. Rangi nihoyatda o'chib, bo'zarib qolganidan toshdek qotib qolganga o'xshar edi.

Bosh kiyimini qo'liga olib, ostonada to'xtab turgan Xomaga ko'zi tushgach:

– Assalom-u alaykum, ishlaring qalay, joyida-mi? – dedi.

– Joyidalikka joyida-ya, shunday jin urgan ekan-ki, bosh kiyimini qo'ltiqlab qochavermoq kerak.

– Nega bunday deysiz?

– Xo'jayin, qizingiz... albatta asilzodaligi aniq-ku, bu tomondan hech kim gumon qilmaydi-ya, biroq xudo jonini rohatda saqlasin, sha'niga yomon gapirmoqchimasman, bunga g'azabingiz kelmasin...

– Nima qilgan ekan qizimga?

– Shayton yo'liga kirgan ekan. Shunday alo-matlarni ko'rsatdiki, hech qanday kitobda buning ta'biri yo'q.

– O'qiyver! O'qiyver! Seni chaqirtirgani behuda emas. Sho'rlik bolam o'z jonining g'amini yeb, nojo'ya, badxayol fikrlariki bor, hammasidan musaffo bo'lay deb, duoga zo'r bergen-da.

– Xo'jayin, ixtiyor sizda, lekin azbaroyi Xudo, toqatim qolmadi.

– O'qiyver, o'qiyver! – dedi yuzboshi boyagidek xushmuomalalik bilan. – Endi bir kecha qoldi. Savob ish qilasan, yana quruq ham qo'ymayman.

– Har narsa bersangiz ham... Nima qilsangiz qiling, lekin men o'qimayman! – dedi Xoma uzil-kesiliga.

– Hoy falsafashunos, gapga qulog sol! Bunaqa mojarolashishni yomon ko'raman; bu qilgingni o'sha mакtabingga borganda ko'rsatar-san, mening ta'bim ko'tarmaydi, men uradigan bo'ssam, domlangga o'xshab xipchin bilan urmayman. Charm darrani bilasanmi? – dedi yuzboshi dag'dag'a bilan.

Falsafashunos ovozini pastroq qilib:

– Nega bilmay, charm darrani kim bilmaydi, zARBiga toqat qilib bo'ladigan narsa emas, – dedi.

– Shunday aytib qo'yay yigitlarimning darra-sini yemagansan-da! – dedi yuzboshi haybat bilan o'rnidan turarkan, avzoyi buzilib, dag'dag'asi oshdi va boshiga tushgan musibat tufaylidir bিroz yuvoshlangan ta'bi yana aynib, zolimligi tut-di. – Mening odatim shuki, avval obdan savalatib, keyin jarohatiga tuz bosa, boz yana savalataman. Bor, yumushingni qil, qilmasang, sog' qolmay-san, agar qilsang, ming tilla olasan!

Falsafashunos tashqari chiqib keta turib:

«Ana xolos! Barakalla-yey. Bu odam bilan ha-zillashib o'tirmay. Shoshma, shoshma, oshnam, shunday juftak urib qochayki, itlaring bilan quv-lasang ham yetolmagine», – deb qo'ydi.

Darvoqe, albatta, qochmoqqa qasd qilib qo'ydi. Faqat tushdan keyingi paytni poylab turdi, chun-ki bu paytda xizmatkorlarning hammasi bostir-malar tagidagi pichan ichiga kirib olib, shunday pishillab xurrak otardilarki, yuzboshining hovlisi fabrikaga o'xshab ketar edi. Kutgan bu payti ham keldi. Hatto Yavtux ham oftobga chiqib, ko'zini yumib yotib oldi. Falsafashunos xavotir va ha-dik bilan qo'rqa-pisa sekin boyning chorborg'iga qarab boraverdi. U xayolida chorborg'dan dala-ga chiqib ketish oson, hech kim ko'rmaydi deb o'yladi. Chorborg' qaralmaganidan juda chaka-lab bo'lib ketgan va shuning uchun bekitiqcha qilinadigan bu xil ishlarga juda qulay edi. Ba'zi ro'zg'or ishlari bilan qatlanib turadigan bittagina yolg'izoyoq yo'l bo'lmasa, boshqa yo'l yo'q, to'qay bo'lib o'sib ketgan oichalar, qizil qatlar, uchidagi

yopishqoq pushtirang g'unchasi bosh tortib o'sib ketgan «qariqizlar» chakalak bo'lib, hamma yo'ni bosib ketgan edi. Chetandek o'ralashib, chakalak bo'lib ketgan har xil daraxt va butalar tepasiga tashlangan to'rdek tushgan chirmoviqlar, yovvoyi qo'ng'iroq gullarga qo'shilishib tanob tashlab, osilib-osilib yotibdi. Chorbog'ning bir chekkasi-dagi chetan devordan naryoqqa qaralmasdan supurgi o't bosib ketgan maydon bo'lib, o't shunday yo'g'on tortib, g'ovlab ketgan ediki, mabodo, birov o'roq bilan o'rmoqchi bo'lsa, o'rog'i sinar edi. Falsafashunos chetan devordan oshib tushmoqchi bo'lganda tishlarigacha qaltirab, yuragi shunday qattiq ura boshladiki, o'zi ham qo'rqib ketdi. Ro'dapo etagi birov yerga mixlab qo'ygandek sudralar edi. Devordan oshib tushishga ulgurmagan edi, birovning: «Qayoqqa borasan, qayoqqa?» degan shovqinidan qulog'i shang'llab ketdi. U darrov o'zini o't ichiga oldi-yu, eski ildizlarga qoqilib-suqilib, ko'r sichqonlarni bosib-yanchib qochdi. Supurgi o't ichidan yalanglikka chiqib olsam, nariyog'i tikanak, tikanakka kirib olsam marra meniki, to'ppa-to'g'ri Kiyev yo'liga chiqsam kerak, der edi. Yalanglikdan o'tib to'satdan tikanakka kirib qoldi. Parcha-parcha etaklari tikanakda ilinib qolib, sayhonroq yerga chiqdi. Shoxlari tarqalib o'sgan tol egilib, yerga tegay-tegay deb turardi. Kichkina buloqchaning suvi kumushdek tiniq. Falsafashunosning avvalo qilgan ishi shu boldiki, yotib suv ichib oldi, chunki nihoyatda chanqagan edi. Labini arta turib: «Zab suv ekan-da! Birpas dam olay», – dedi.

– Yo'q qochganimiz ma'qul, yetib oladilar!

Bu so'zlarni birov xuddi tepasiga kelib aytdi. Qayrilib qarasa, oldida Yavtux turibdi.


«Badbaxt Yavtux, oyog'ingdan ko'tarib yerga ursam... Ta'viya aftingni-yu, boshqa hech yeringni qo'y may so'yil bilan xo'b do'qillatsam» deb qo'ydi falsafashunos ichida jahl bilan.

Yavtux yana:

— Muncha aylanib bekor qilding, og'ilxona yonidan to'ppa-to'g'ri o'tib, men yurgan yo'ldan yursang, yaxshi bo'lardi, so'ngra to'ningga ham achinaman, movuti toza ekan, gazini qanchadan olgan eding? Kel endi, xo'b sayil qildik, endi uyga qaytsak ham bo'lar, — dedi.

Falsafashunos boshini qashib, Yavtuxning ketidan boraverdi. «La'natijajina endi tazirimni beradi-ku! Biroq menga nima bo'ldi, nimadan qo'rqaman? Erkak emasmanmi? Ikki kecha o'qidim, endi yana bir kechaga Xudoning o'zi madadkor. Xudo urgan ajina, xo'b gunohga botgan ekan-da, bo'lmasa, shayton muncha yo'qlamas edi uni», — dedi ichida.

Yuzboshining hovlisiga kirib kelganda uning miyasi shu xil xayollar bilan band edi. Bunday o'ylar bilan o'zini mardona tutib, gohida omborchining yordami bilan boyning yerto'lasiga tushishga haddi sig'gan Doroshdan, yerto'lagacha tushib, bir shisha may olib chiqqin deb so'radi. Keyin ikki do'st bostirma tagida o'tirib, uncha-muncha emas, yarim chelak mayni ichib oldilar; bir mahal falsafashunos o'rnidan turib: «Mashshoqlarni keltiring, bo'lmasa iloj yo'q!» deb qichqiraverdi. Keyin mashshoqlarni ham kutmay, hovliga tushib, tapir-tupir o'yinga tushib ketdi. Talaba tushgacha tinmasdan o'ynayverdi, uning atrofida davra qurib olgan jami xizmatkorlar turib-turib: «Shunday charchamay o'ynay-



digan odam ham bo'larkan-da, tavba!» deyishib, tarqalib ketdilar. Aloha, falsafashunos ham char-chab, shu yerdagina yota qoldi. Kechqurun katta qo'shqulogda to'la sovuq suv sepmagunlaricha turmadi. Kechqurungi ovqat tepasida kazakning mardligi, hech narsadan qo'rmasligi to'grisida xo'b ezmalandi.

– Qani jo'naylik, vaqt bo'lib qoldi, – dedi Yavtux.

Falsafashunos ichida: «Tiling kuysin, badbaxt to'ng'iz! – dedi-yu o'rnidan turib, – yur», – dedi.

Yolda falsafashunos hadeb har tomonga alanglar, gohida hamrohiga so'z qotib qo'yar, lekin Yavtux indamas, Dorosh bo'lsa o'zi kamgap edi. Osmon tim qorong'i, olisdan bo'rilarining uvillagan ovozi kelar, itlarning vovillagani ham allanechuk vahimali edi.

– Uvillayotgan bo'ri emas, boshqa bir narsaga o'xshaydi, – dedi Dorosh. Yavtux indamadi. Falsafashunos ham hech narsa deyolmadi.

Ular butxonaga yaqinlashib, uning eskirgan yog'och peshtoqi tagiga yetdilar. Butxonaning xarobaligi, bu atrofning egasi bo'lgan boy, Xudoni yig'ishtirib qo'yib, o'z imonini ham o'ylama-ganligini ko'rsatar edi. Yavtux bilan Dorosh yana uni yolg'iz tashlab chiqib ketdilar. Butxonaning ichi o'sha-o'sha, kecha qanday vahimali bo'lsa, hali ham shunday. U bir zum to'xtadi. La'natijinaning tobuti o'rtada turibdi. «Qo'rqlayman, Xudo haqqi qo'rqlayman!» dedi-da, yana gir atrofini chizib, bilgan duolarini o'qiyverdi. Kishining vahimasi keladigan jimjitlik. Lipillab yonib turgan shamlardan butxona yorug'. Falsafashunos bir varaqni ochdi, keyin yana bir varaqladi, keyin qarasa, kitobda yo'q narsalarni o'qiyotgan ekan. Qutি

o'chib, cho'qinib olgach, xonish qila boshlagan edi, yuragi ozroq daldalandi, sharillatib o'qiyverdi. Kitobning varaqlari ketma-ketiga ochilaverdi.

Hamma yoq jimjit turgan paytda, to'satdan tobutning temir qopqog'i qarsillab sindi-yu, o'lik o'rnidan turib kelaverdi. Bu safar u battar vahimaliroq. Tishlari bir-biriga tegib shaqillab, lablari dir-dir tutrab, jodusidan shovqin-suron, to'polon ko'tarildi. Butxonada shamol turib, butlar yiqilaverdi, derazalarning oynalari sinib tushaverdi. Eshiklar oshiq-moshig'idan sug'urilib, dahshatli jinlardan allaqanchasi Xudoning uyiga yig'ildi. Qanot va tirmashgan tirnoqlarning tovushi butxonani bosdi. Nimaiki bor hammasi izg'ishib, falsafashunosni qidirar edi.

Xomaning kayfidan asar qolmay, hushyor bo'lib qoldi. Yakkash cho'qinib, og'ziga kelgan duoni o'qiyverdi, ajina bo'lsa, uning atrofida charx urib aylanib yurar, palid dumি va qanotining uchi unga tegib ham ketar, ammo bularga tuzukroq qarab, nimaligini bilishga falsafashunosda yurak yo'q edi. Xuddi soch va tuklari to'qay bo'lib ketgan kattakon vahimali bir narsa devorga yopishib olibdi. Sochlari orasidan ikkita vahimali ko'z, qoshlarini keribroq qarab turar edi. Chaqchayib turgan nishga o'xshagan bir necha ming six va nayzalar har tarafga chiqib, qop-qora kesaklar ularga ilinib turar edi. Bularning barisi Xomaga tikilib, uni qidirar, lekin sehr qilingan chiziq bor uchun uni ko'rolmas edilar.

– Viyni keltiringlar, boringlar, Viyni chaqiringlar! – degan ovoz chiqdi o'likdan.

Shu onda butxona jimjit bo'lib qoldi. Olisda bo'ri uvilladi, keyin butxonada birovning yurgani

eshitildi. Xoma ko'zining qiri bilan boqib edi, qara-sa, pak-pakana, dum-dumaloq, oyoqlari maymoq bir odamni yetaklab kelyaptilar. A'zoyi badani qop-qora; tuproqqa belangan, qo'l-oyoqlari irg'ib chiqqan baquvvat tomirga o'xshar edi. Pakana odam har onda ketiga bir chirani, tixirlik qilib, tap-tap etib kelar, qovoqlari yergacha osilib tush-gan; yuzi temirdanligini ko'rib, Xomaning quti o'chib ketdi. Uni qo'llig'idan ushlab, xuddi Xoma turgan joyga keltirib qo'ydilar.

– Qovog'imni ko'tarib qo'yinglar, ko'rolmayaman, – dedi Viy, yer qa'ridan chiqqandek ovoz bilan. Behisob jinlarning barisi birdaniga yopishib, uning qovog'ini ko'tarib qo'ydilar. Allaqayoqdan – g'oyibdan kelgan ovoz: «Qaramal!» desa ham, fal-safashunos sabr qilolmay qaradi.

– Ana! – deb qichqirdi Viy va temir barmog'ini six qilib ko'rsatdi. Jinlarning hammasi falsafashunosga yopisha ketdilar. Xoma nafasi uzilib yiqildi, vahimasidan joni chiqib ketdi.

Shu onda xo'roz qichqirdi; avval ham bir qich-qirgan edi. Xo'roz tovushini hammadan avval jinlar eshitib, qo'rqqanidan hammasi har yoqqa to'zib qochishdi. Har qaysisi tezroq qochmoqchi bo'lib, biri eshikka, biri derazaga o'zini urdi. Bi-roq qocholmasdan eshik va derazaga yopishgan-chaga qoldilar. Keyin pop kelganda, Xudoning uyini bunday iflos bo'lganini ko'rib, kapalagi uchib, falokat tekkan bunday yerda janoza o'qishga ja-sorati yetmadi. Butxona shu palid bo'lganicha abadiy qoldi, eshik va derazalariga yopishgan jin-lar shu zaylda qoldilar, butxonani o't va tikanak bosib, odam oyoq bosmaydigan chakalakzor, vayronaga aylandi.

Bu voqeaning xabari Kiyevga eshitilib, falsafashunosning taqdiri dinshunos Xalyavaga ham ma'lum bolganda, hayron bo'lib bir soatcha o'ylanib qoldi. Hov o'shandan beri Xalyavaning turmushida ham katta o'zgarishlar bo'lib, uning toleyi balandlik qildi. Maktabni bitirib chiqqach, uni eng baland jomxonaga zang uruvchi etib tayinladilar. Butxonaning jom chaladigan minorasiga chiqadigan taxta zina juda omonat qilinidan u doim qashqa bo'lib yurar edi.

Allaqachon faylasuflik darajasiga mingan va mo'ylovi sabza bo'lib qolgan Tiberiy Gorobets bir kun Xalyavaning qoshiga kelib:

– Xomaning voqeasini eshitdingmi? – dedi.

Zang uruvchi Xalyava:

– Xudoning amri shu bo'pti, yur araqxonaga, uning arvohini bir xushnud qilaylik! – dedi.

Haqini obdan tanib, ichkilikka ishtiyoqi balandligidan, kiygan to'ni bilan shalvari u yon tursin, hatto boshidagi bosh kiyimidan ham araq va tamaki hidi kelib turgan yosh faylasuf darrov ko'na qoldi.

Araqxonaning oqsoq egasi ular oldiga uchinchi marta araq va may keltirib qo'yanida, zang uruvchi Xalyava:

– Yaxshi odam edi Xoma! Asil odam edi, bekorga nobud bo'lib ketdi! – dedi.

– Nega bunday nobud bo'lganini bilaman, qo'rqqanidan o'lgan. Agar qo'rmasa, ajina hech daxl qilolmas edi. Cho'qinib olib, ajinaning naq dumiga bir marta tupurmoq kerak, shunda hech ziyon-zahmat yetkazolmaydi, buni obdan bilib oldim. Kiyevning bozorida yurgan xotinlarning barisi ajina-da, axir!

Xalyava uning bu gapini ma'qullagan ishora-sini qilib, boshini qimirlatib qo'ydi. Ammo tili tutilib, juda g'uldirab qolganini fahmladi, shekilli, sekingina o'rnidan turib, gandiraklaganicha hov bir chekkadagi o't ichiga kirib berkinib oldi. Biroq eski odatini unutmay, tokchada yotgan ko'hna etik charmini qulay qilib ketdi.

IVAN IVANOVICH VA IVAN NIKIFOROVICH O'RTASIDA BO'LIP O'TGAN O'TMISH JANJALLARIDAN HIKOYAT

Bu hikoyada bayon etilgan voqealar bundan ancha avval, burungi vaqtda bo'lganini bildirib qo'yishni zimmam-dagi vazifam deb bilaman va bundan tashqari, bu voqeal tamomila hech qachon bo'limgan yolg'ondir. Shahardagi imoratlar ham boshqacha. Shaharning o'rtasida to'qay bo'lib yotgan ko'l ham allaqachon qurib qolgan. Sudya va sud a'zosi va hokimdan tortib, jamiki amador va mansabdorlar xayr yo'lida yur-gan juda hurmatli odamlardir.

I BOB

Ivan Ivanovich va Ivan Nikiforovich

Ivan Ivanovichning po'stini juda yaxshi! Ni-hoyat darajada a'llo! Barrasi-chi, barrasi! Bay-bay! Barrasini ayting! O'zi ko'k rangda-yu, biroz oq astari bor. Bunday narsa boshqa hech kim-da yo'qligiga har kim bilan garov bog'lashaman! Ta'rif-u tavsifga sig'maydi: baxmal! Nuqra, o't-olov! Yo Xudo, yo azizlar, yo avliyolar! Nega axir mening bisotimda bunday po'stin yo'q. U kishi bu po'stinini Agafiya Fedoseyevna Kiyev shahriga bormasdan burun tiktilgan edi. Agafiya Fedoseyevnani siz ham taniysizmi? Maslahatchi to'ra-ning qulog'ini tishlab, uzib olgan o'sha edi-da.

Ivan Ivanovich ko'p yaxshi odam! Uning Mirgoroddagi hovlisini ayting, uyning har tarafi qarag'ay ustunlik ayvon, ayvonga qo'yib qo'yan kursilarini ayting. Kun isib ketganda, Ivan Ivanovich po'stin va boshqa kiyimlarini yechib tashlab, ko'ylakchan, hovlida va ko'chada bo'layotgan ishlarni tomosha qilib, ayvonda istirohat qiladi. Derazalarning tagida o'sgan olma va nashvatilar ni ayting! Derazalarni ochishingiz bilan, shoxlari ichkariga urib kiradi. Bu – uyning oldi, endi bog'idan keling! Bog'ida nimalar yo'q? Olxo'ri, gilos, olcha, anvoyi sabzavot, kungabooqar, bodring va qovunlar, no'xat, loviya va boshqalar, hattoki g'allaxona bilan temirchilik ishxonasigacha bor.

Ivan Ivanovich ko'p yaxshi odam. Qovunni juda yaxshi ko'radi. Uning eng sevgan ovqati shu. Ovqatdan bo'shagan zamon, ko'ylakchan ayvonga chiqadi. Gapka degan oqsoch xotinga bir emas, birdaniga ikkita qovun keltirtiradi. Qovunni o'z qo'li bilan so'yib, urug'ini alohida bir qog'ozga o'rabi qo'yadi, undan so'ng yeya boshlaydi. Yeb bo'lgandan keyin, yana o'sha xotinga siyoh bilan qalam keltirtirib, qovun urng'i o'ralgan qog'oz ustiga o'z qo'li bilan: «Ushbu qovun falon kunda yeyildi», – deb yozib qo'yadi. Agarda birorta mehmon ham bo'lgan bo'lsa: «Falonchi ham bor edi», – deb yana qo'shib qo'yadi.

Mirgorod shahrining marhum sudyasi Ivan Ivanovich uyiga hamma vaqt havas bilan qarar edi. Darvoqe, uyning o'zi ham chakki emas. Menga shunisi ma'qul ediki, uning to'rt tarafiga dahliz va dahlizchalar solingan edi. Agar yiroqdan turib qarasangiz, bir-birining ustiga mingashgan tomlardan boshqa narsa ko'rinas edi. U

tomlarning o'zi ham cho'zma taxlangan tovoqqa, yoxud daraxtning butog'iga juda o'xshab ketardi. Tomlar qamish bilan yopilgan. Tol, eman va ikki olma daraxtining uzun-uzun shoxlari tom ustiga tushib, ko'lanka tashlab turar edi. Daraxtlar orasida yilt-yilt qilib, darchalar ko'rinar edi, va hatto ko'cha tomonda ham darcha bor edi. Dera-zalarning o'ymakorlik bilan ishlangan va oq sirli darpardalari bor edi.

Ivan Ivanovich ko'p yaxshi odam! Poltava shahrining hokimi ham u kishini taniydi! Dorosh Tarasovich Puxivochka Xorol shahridan kelayotganida, albatta, unikiga bir tushib o'tadi. Koliberd mavzusining ruhoniysi Pyotr hazratlari bo'ssalar, hovlilariga uch-to'rtta mehmon kelib qolsa, hamma vaqt, nasroniy dinining buyurganlariga Ivan Ivanovichdek astoydil ixlos bilan amal qiladigan badavlat kishini sira ko'rganim yo'q derdilar.

Yo Parvardigori olam, bu umr qanday tez o'tadi! Xotinidan ayrilganiga o'sha vaqtida ham o'n yil bo'lgan edi. U kishining farzandlari yo'q edi. Oqsoch Gapkaning farzandlari bor, hovli sahnida doim uning bolalari o'ynashardi. Ivan Ivanovich ularning har biriga doim bir donadan teshik kulcha, yoxud bir tilimdan qovun va yoxud bir donadan nashvati berardi. Yerto'la va omborlarning kaliti Gapkada turardi, ammo yotog'idagi katta sandiqning hamda o'rta omborning kaliti Ivan Ivanovichning o'zida turardi va hech kimni u yerga yo'latmas edi. Gapka juda bardam ayol bo'lib, ustiga matadan yubka kiyardi: boldirlari sergo'sht, yuzlari tirsillar edi.

Ivan Ivanovichning Xudojo'y va taqvodorligini ayting! Har yakshanba kuni po'stinini ki-

yib, butxonaga boradi. Butxonaga kirishi bilan to'rt tomonga salom berib, aksari to'g'ri xonaqoga borib o'tiradi va yo'g'on ovozi bilan qiroatga qo'shilishadi. Ibodat tugashi bilan tilanchilar-ning hammasiga sadaqa bermasdan qo'ymaydi, bunday behuda ish bilan shug'ullanishni o'zi xohlamasa ham, lekin u kishining tabiatlaridagi saxiylik shu «xayrli ish»ga yetaklaydi. Tilanchilar orasidan yirtiq-yamoq kiyingan ojiz va notavon bir xotinni topib:

– Omonmisan, bechora? Qayerdansan? – deb hol-ahvol so'rardi.

– Taqsir, qo'rg'ondan keldim: uch kundan beri hech narsa yegan-ichganim yo'q, o'z tuqqan bolalarim haydar yubordilar.

– Ey, g'aribi bechora! Nega kelding bu yerga?

– Taqsir, o'zim xayr so'ragani keldim, hech bo'lmasa, non puli berguday saxiylar topilib qolar dedim.

Shunday fursatda Ivan Ivanovich, o'z odatlari bo'yicha, so'rар edilar:

– E, shundaymi, qorning ochmi, non yeysan-mi?

– Nega yemay? Itdek ochman.

– Ha, – der edi Ivan Ivanovich, – ko'ngling, bal-ki go'sht ham tilar?

– Nimaiki bersangiz mayli.

– Ha, nondan go'sht yaxshimi?

– Och odam surishtirib o'tiradimi, nima bersangiz roziman, – deb kampir qo'llarini uzatardi.

– Qani, jo'na! Xudo bersin! – der edi Ivan Ivanovich, – Nega qarab turibsan? Seni urayotganim yo'q-kul!

Shu taxlit muomala bilan boshqa tilanchilar-dan ham «hol-ahvol so'ragach», uylariga quruq

jo'natib yuborar edi, yoxud bechora tilanchilar Ivan Nikiforovich degan qo'shnisini kiga, yo sudyanikiga, yo shahar hokiminikiga bir qadah araq ichgani kirar edilar.

Sovg'a-salom olib kelgan kishilarni Ivan Ivanovich ko'p do'st tutar, sovg'a-salomni juda yoqtirar edi.

Ivan Nikiforovich ham u kishiga o'xhash ko'p yaxshi odam. U kishining hovlisi Ivan Ivanovich-nikiga qo'shni. Ular shunday qalin do'stlarki, dunyo ularga o'xhashini ko'rmagan desa ham bo'ladi. Anton Prokofyevich Pupopuz degan yana bir kishi borki, haligacha moviy yengli, mosh rang surtuk kiyadi va har yakshanba kuni sudyanikida ovqat qiladi. Ana o'sha kishi aksari der edilarki: «Ivan Ivanovich bilan Ivan Nikiforovichni shaytonning o'zi bir-biriga mahkam bog'lagan, biri qay tarafga yursa, ikkinchisi ham uning ketidan qolmaydi».

Ivan Nikiforovich umr bo'yи bo'ydoq o'tdi. Gohida uylangan edi degan gaplar yursa ham, u gaplar yolg'on edi. Kaminalari Ivan Nikiforovichni juda yaxshi bilaman va shu sababdan ayta olamanki, u kishi uylanishni niyat ham qilgan emaslar. Bir zamon Ivan Nikiforovichning orqasida dumi bor degan gap tarqalgan edi. Bunday fisq-u fasod gaplarni kim tarqatarkan? Shu qadar noloyiq, yopishmagan va to'qima bo'hton gaplarki, muhtaram o'quvchilarga bu gapning yolg'onligini bildirib o'tirishni lozim ham topmayman, chunki yolg'iz alvasti degan maxluqning dumi bo'lgani va ularning ham ba'zi birlaridagina dum borligini o'qimishli kishilarning hammasi biladi. Alvastilar aksari xotin toifasiga mansub bo'lib, erkak toifasidan bo'lganlari kamdir.

Bu do'stlar har qancha qalin bo'salar ham, bir-birlariga o'xshamas edilar. Ularning ta'birlarini, eng yaxshisi, qiyos yo'li bilan bilsak bo'ldi: Ivan Ivanovichda juda xushmuomalalik va gapdonlik fazilati bor. Xudoyo, gapi shunday yaxshiki! Uning gapini eshitmoqdan hosil bo'ladigan lazatni, boshingizni boqqan va tovoningizni qashigandagi huzurga o'xshatsa bo'ladi, xolos. Uning gapini eshitganingizda xomush bo'lib qolasiz. Huzur qilasiz, cho'milib keyin uxlagandek mazza qilasiz! Ivan Nikiforovich bo'salar, aksincha, doim sukut qiladilar, ammo gapirguday bo'salar, shunday shartta kesadilarki, har qanday o'tkir tig' ham bunday kesolmaydi. Ivan Ivanovich oriqroq, novcha bo'yli Ivan Nikiforovichning bo'yи pakanaroq bo'lsa ham, yo'g'ondan kelgan. Ivan Ivanovichning boshi dumini pastga qilib to'ntarib qo'yan turpga o'xshaydi; Ivan Nikiforovichning boshi esa dumini yuqori qilib qo'yan turpga o'xshaydi. Ivan Ivanovich ayvonda ko'ylakchan bo'lib faqat tushlik ovqatdan so'ng yotadi: kechqurun bo'lsa po'stinini kiyib, yoki uning uni ni sotadigan shahar do'koniga borar, yo dalaga chiqib, bedana ovlar edi. Ivan Nikiforovich bo'lsa, ertadan kechgacha eshik oldida – zinada yotadi, agarda kun uncha issiq bo'lmasa, albatta, oftoba tovlanib yotadi va boshqa hech qayerga borgisi kelmaydi. Ertalab hafsalasi kelib qolsa, yana kirib yotadi. Avvallari ba'zida Ivan Ivanovichning kira edi. Ivan Ivanovich ta'bi juda nozik odam va odob bilan gaplashilganida og'zidan hech bir behuda so'z chiqmaydi va o'zgalarning og'zidan chakki gap chiqsa, xafa bo'ladi. Ammo Ivan Nikiforovich ba'zida tilini tiyolmay qoladi.

Shunda Ivan Ivanovich, darrov o'rnidan turib: «Bas, Ivan Nikiforovich, bunday gunoh gaplarni gapirguncha, tezroq oftobga tushaylik», – deydi. Ivan Ivanovichning sho'rvasiga pashsha tushguday bo'lsa, juda xafa bo'ladi, toqati qolmaydi, likopchalarni otib yuboradi, mezbonni ham koyib tashlaydi, Ivan Nikiforovich bo'lsa, cho'milishni, to bo'g'zigacha suvga kirib, suvga xontaxta va samovar qo'ydirib, suvning salqinida choy ichishni yaxshi ko'radi. Ivan Ivanovich soqolini haftada ikki marta oldiradi, Ivan Nikiforovich bir marta. Ivan Ivanovich har narsaga qiziqadigan odam: uning oldida bir gapni boshlab tugatmasang, baloga qolasan. Agar bir narsadan norozi bo'lsa, darhol izhor qiladi. Ivan Nikiforovichning xushnoxushligini yuziga qarab darrov bilib bo'lmaydi; bir narsadan xursand bo'lsa ham, izhor qilmaydi. Ivan Ivanovich picha qo'rqoqroq odam. Ammo Ivan Nikiforovich uning aksi, shalvari juda keng, agar uni puflasangiz ichiga butun uskunasi bilan hovli joylashib ketadi, Ivan Ivanovichning ko'zlar katta-katta bo'lib, ko'zining rangi tamaki rangiga o'xshaydi; og'zi qadimgi rus alifbesining «i» harfiga o'xshab ketadi. Ivan Nikiforovichning ko'zlar esa bit ko'z, rangi sariq, qoshi qalin, yuzi semiz bo'lganidan ko'zlar zo'rg'a ko'rindan, burni bo'lsa pishgan olxo'rige o'xshaydi. Ivan Ivanovich sizni siylab burnakisidan tutsa, avval tamaki qutisining qopqog'ini bir marta yalab, so'ngra barmog'i bilan bir chertib, keyin sizga uzatarkan, basharti oshna bo'lsangiz: «Marhamatingizdan umidvor bo'lmoq'im mumkinmi, xo'jam?» – der va agar oshna bo'lmasangiz: «Mansab va darajalari, nomlarini bilmoq sharafi menga tuyassar bo'lma-

sa ham, marhamatlaridan umidvor bo'lmg'im mumkinmikan, davlatpanohim» – deydi. Ivan Nikiforovich esa sizga to'ppa-to'g'ri burnakisining qutichasini uzatib, kaltagina qilib: «Marhamat», – deb qo'ya qoladi. Ivan Ivanovich bo'sin, Ivan Nikiforovich bo'sin, ikkoblari ham burga degan maxluqni juda yomon ko'radilar va shuning uchun ko'chadan o'tgan har bir chorbozorchi juhudni to'xtatib, o'sha maxluqni yo'qotish uchun lozim bo'lgan dorillardan olmasdan qo'ymaydilar. Lekin juhudning molini olmasdan burun, yahudiy dindagi bo'lgani uchun uning o'zini xo'b so'kib oladilar.

Biroq Ivan Ivanovich bilan Ivan Nikiforovich o'rtaida bir nav ayirma bo'ssa ham, har holda ikkovi ham yaxshi odam.

II BOB

Ivan Ivanovichning qilgan orzusi, Ivan Ivanovich bilan Ivan Nikiforovichning oralarida qanday suhabatlar o'tgani va u suhabatning ogibati nima bo'lganining bayoni

Iyul oyida bir kun ertalab Ivan Ivanovich ayvonda yotar edi. Kun nihoyat darajada issiq, havo quruq va qaqshagan o'tdek tovlanardi. Ivan Ivanovich juda erta turib, shahardan tashqariga chiqib, o'roqchilarini ko'rib, qo'rg'onini aylanib, uchragan dehqonlar bilan gaplashib, xotin-xalajdan, qayerdan kelmoqda, qayerga ketmoqda va nima uchun kelib-ketmoqdaligini surishtirib kelib, juda horigandan so'ng, yana yotgan edi. U yotgan joyida ombor va saroylarga va hovlida yurgan tovuqlarga qarab turib, o'ylanib ketdi: «Xudoga shukr, xo'b davlatim bor-da, menda yo'q

narsadan nima bor? Parrandam bor, imoratlarim joyida, omborim bor, xushbo'y arag'im bor, bog'imda nok-u nashvatim, olchalarim bor, sabzazorimda ko'knor, karam va no'xatlarim bor, nima kam? Muhtoj bo'lgan nimam bor ekan?»

O'ziga bunday ma'nodor savolni bergandan so'ng Ivan Ivanovich fikrga g'arq bo'ldi, bu orada yangi narsalarni axtarib, Ivan Nikiforovichning devoridan nariyog'idagi narsalarga beixtiyor ko'zi tushib qoldi. Qotma bir kampir uzoq yotib qolgan kiyimlarni birma-bir olib chiqib, shamollatish uchun uzun arqonga yoymoqda edi. Shu paytda yeng uchlari to'zigan, eski bir «mundir» yenglarini uzatib, quchog'ida zarbof nimcha bilan arqonga osildi, ketidan tugmalari tamg'ali, yoqasini kuya yegan, to'ralar kiyadigan to'n chiqdi, so'ng ustiga dog' tushgan oq shim chiqdi, bir mahallar Ivan Nikiforovichning oyog'i sig'gan bu shimga endi qo'li ham zo'rg'a sig'ar edi. Keyin yana bir necha shim chiqib, bular «I» harfiga o'xshatilib, dorga osildi. Ivan Nikiforovich bundan yigirma yil avval mirshablikka hozirlanib, mo'ylov qo'ygan vaqtida tiktingan kazakcha ko'k kamzul chiqdi. Oxirida mezananing nayzasiga o'xshagan qilich chiqdi. So'ngra, tugmalari bir mirilik chaqadek, sabza rangli kafanga o'xshagan bir narsaning etaklari yelpinib ko'rindi. U etaklar orqasidan zar uqali va ochiq nimcha ko'rindi. Birpasdan keyin nimchaning ustiga marhuma onasidan qolgan va har cho'ntagiga bitta tarvuz sig'adigan eski ko'ylik tashlandi. Bularning hammasi Ivan Ivanovichga juda g'alati tomosha bo'ldi. Bu onda ko'k yoki yashil yenglarning qizil tikkan uchlari, yoki osig'liq kimxoblarning u yer bu yeriga kunning shu'lesi

tushib tovlanar va bu manzara qishloqma-qishloq yurgan darbadar nayrangbozlarning chodirxayoliga o'xshab ketar edi. Xususan, chodirxayolchilar tilla tojli shaddodni, takas yetaklagan avliyonini o'yin qilib ko'rsatganlarida, orqada g'ijjak chiyilab, lo'li labini do'mbira qilib chalib ketayotganda, kun botib, Janub kechasining salqin shabdasi semiz-semiz qishloqi xotinlarning toza yelka va siynalariga qattiq urgan chog' bo'ladi-ku, ana shunga o'xshab ketadigan bir manzara.

Birpasdan keyin kampir entika-entika ombordan qadimiy bir egar ko'tarib chiqdiki, uzangilari uzilgan, yonidagi to'pponcha osadigan charm g'ilofi to'zigan, bir vaqtarda alvon rangda bo'lgan, zar tikkani mis qubbalar taqilgan yopg'ichi bor edi.

Ivan Ivanovich o'ziga: «Voy, ahmoq kampir-ey! Halizamon Ivan Nikiforovichning o'zini ham shamollatgani olib chiqadi, shekilli!» – deb qo'ydi.

Darvoqe, Ivan Ivanovichning o'ylagani rost chiqdi. Besh daqiqa o'tar-o'tmas, Ivan Nikiforovichning dag'al matodan qilingan katta shimi hovli sahning yarmisicha yerni egalladi. Keyin kampir bitta bosh kiyim bilan bitta miltiq olib chiqdi.

«Xo'sh, bu nima bo'ldi? – deb o'yladi Ivan Ivanovich. – Men Ivan Nikiforovichning qo'lida bir umr miltiq ko'rgan emas edim, nima qilgani bo'ldi bu? O'zi miltiq otmasa ham, miltiq saqlar ekan-da! Miltiqning unga nima keragi bor ekan? Lekin xo'b yaxshi narsa-da! Ko'pdan beri shunday miltiqni orzu qilar edim. Shuni qo'nga tushirmasam hech bo'lmaydi, miltiqbozlikni yaxshi ko'raman».

– Hoy kampir, hoy kampir, – deb barrog'i bilan imlab chaqirdi Ivan Ivanovich.

Kampir devor yaqiniga keldi.

- Onajon, u nima?
- Ko'rib turibsiz-ku, miltiq.
- Qanday miltiq?
- Kim bilsin qandayligini? O'zimniki bo'lsa, nimadan yasalganini bilardim, lekin xo'jayinniki.

Ivan Ivanovich o'rnidan turib, miltiqni tomosha qila boshladi va miltiqni qilich bilan birga shamollatgani olib chiqqani uchun kampirni koyimoqchi bo'lganini ham unutdi.

Kampir yana so'z qotib:

- O'zi temirdan bo'lsa, ajab emas, – dedi.

Ivan Ivanovich o'zicha shivirlab:

«Hm! Temirdan, nega temirdan ekan?» – deb qo'ydi-da, keyin yana:

- Qanchadan beri bu miltiq xo'jayinnikida? – deb so'radi.

- Anchadan beri, shekilli.

- Yaxshi narsa, – deb davom etdi Ivan Ivanovich. – Unga nima darkori bor? Men iloj qilib so'rab olaman yoki bir narsaga alishaman. Kampir, xo'jayin uydami?

- Uyda!

- Nima qilyapti? Yotibdimi?

- Yotibdi!

- Xo'p, uning oldiga kiraman.

Ivan Ivanovich kiyindi. Mirgorod ko'chalarida odamdan ko'ra it ko'proq bo'lganidan, qo'liga butoqlik so'yilini olib yo'lga tushdi.

Ivan Nikiforovichning hovlisi Ivan Ivanovich-nikiga qo'shni bo'lib, o'ttada faqat chetan devor bo'lsa ham, Ivan Ivanovich devordan tushmay, ko'chadan bordi. Bu ko'chadan chiqqach, yana bir tor ko'cha bor edi; bu ko'cha shunday tor edi-ki, ikkita bir otliq arava duch kelib qolsa, ara-

valarni orqa g'ildiragidan tortib, ketiga tislantirib ko'chaga chiqarmaguncha, o'tolmas edilar. Biroz piyoda o'tguday bo'lsa, tor ko'chaning ikki tarafida devor tagida o'sgan tikanlar etagiga ilashardi. Bir tomondan Ivan Ivanovichning saroyi, ikkinchi tomondan Ivan Nikiforovichning ombori, darvoza-si va kaptarxonasi shu tor ko'chaga chiqar edi.

Ivan Ivanovich darvoza tagiga kelib, zanjirini qoqishi bilan, ichkaridagi itlar vovillashdi, lekin kirgan odamning tanish ekanligini ko'rgach, itlar galalashib, dumlarini likillatib, orqalariga qaytdilar. Ivan Ivanovich hovli sahnidan ham o'tdi; hovlida Ivan Nikiforovichning o'z qolidan don yeydigan hind kaptarlari o'ynashar, tarvuz va qovun po'choqlari, ba'zan sabzavot va ba'zan siniq g'ildiraklar, bochka belbog'lari yotar, kir ko'yakli bir bola yerda, tuproqqa belanib yotar edi; xullas, rassomlar yaxshi ko'radigan bir manzara, arqonga yoyilgan kiyimlarning ko'lankasi hovli sahniga tushib, salqin qilar edi. Kampir ta'zim bilan uni kutib oldi va esnagach, baqraygancha turib qoldi. Zina tepasidagi ikki ustunga qo'ndirilgan soyabon uyning ziynati edi, lekin u bu faslda Malorossiyada hazilakam isimaydigan, piyoda yo'lga tushgan har kimning boshini misdek qizitadigan oftob qizig'idan saqlamas edi. Faqat kechqurunlari sayrga chiqadigan Ivan Ivanovich o'z odatiga xilof qilib bunday jaziramada ko'chaga chiqqanidan miltiqqa uning qanchalik ishqni tushganligini bilavering.

Ivan Ivanovichning kirgan uyijuda qorong'i edi, negaki deraza darpardalari berk, darpardalar ning kichkina yorug'idan kirgan oftob shu'lesi osmondagи kamalakdek tovlanar va shu'lesi ro'paradagi devorga tushib, rang-barang lavhalar

chizar edi ham qamish tomlar, daraxtlar, hovlida osilgan kiyimlarning aksini ko'rsatar, shu sababdan uyning ichi allaqanday chiroyli bo'lib, g'ira-shira ko'rinar edi.

– Xudoyo tavba, o'zing asragin! – dedi Ivan Ivanovich.

– Ey, assalom-u alaykum, Ivan Ivanovich! – degan ovoz keldi uyning bir burchagidan. Shundan so'nggina Ivan Ivanovichning ko'zi yerda, gilam ustida yotgan Ivan Nikiforovichga tushdi. – Huzuringizda yalang'och turganim uchun kechiring. – Darvoqe, Ivan Nikiforovich g'irt yalang'och yotar, hatto ko'y lagi ham yo'q edi.

– Zarari yo'q, bugun uxladingizmi, Ivan Nikiforovich?

– Ha, uxladim. Siz uxladingizmi, Ivan Ivanovich?

– Ha, uxladim.

– Bo'lmasa, endi turdingizmi?

– Meni aytasizmi endi turding deb? Xudo yorlaqasin sizni, Ivan Nikiforovich? Shu vaqtgacha uxlab bo'ladimi, men qo'rg'onдан endigina keldim. Yolda arpa-bug'doylarni ko'rdim, xo'b bitibdi! O'tlar ham baland, barradek, serdon!

Ivan Nikiforovich Gorpinani chaqirib:

– Ivan Ivanovichga araq va qaymoq bilan somsa olib kel! – deb buyurdi.

– Bugun kun joyida.

– Maqtamang, Ivan Ivanovich. Kuni qursin, do'zax-ku! Shayton urg'an kun! Issiqliqdan qayerga ochishingni bilmaysan!

– Ey, Ivan Nikiforovich, shaytonni tilga olmasangiz bo'lmaydi-dal! Ko'rarsiz, bir kun pushaymon qilasiz, – lekin foydasi bo'lmaydi, bu shay-

toniy so'zlariningiz uchun u dunyoda holingiz yomon bo'ladi.

– Xo'sh, Ivan Ivanovich, men sizni nima qilib koyitdim? Na otangiz, na onangizga til tekkizdim. Sizni ranjitadigan biror gap dedimmi?

– Bas endi, Ivan Nikiforovich, bas!

– Xudo haqqi, sizni ranjitganim yo'q, Ivan Ivanovich!

– Ajab, bedanalar hali ham kirkakka¹ kelma-yapti.

– Siz o'zingizcha nima deb o'ylasangiz o'ylay-vering, lekin men sizga hech qanday ozor ber-ganim yo'q.

Ivan Ivanovich uning so'zini eshitmagan bo'lib:

– Bilmayman, nega bedanalar kelmas ekan, hali vaqt kelmadimi... Lekin unday desam, hozir ayni vaqt, – dedi.

– Don yaxshi bitibdi dedingiz-a?

Bu gapdan keyin ikkovlari jim bo'lib qoldilar...

– Nega Siz, Ivan Nikiforovich, kiyimlaringizni yoydirib qo'ydingiz? – dedi nihoyat Ivan Ivanovich.

– Yaxshi va toza kiyimlarimni la'nati kampir chiritib qo'yibdi: shularni shamollatib qo'ydim, movuti juda muloyim, toza narsa, ag'darib qoplatilsa, yana kiysa bo'ladi.

– Buyumlaringizdan biri menga juda yoqib qoldi, Ivan Nikiforovich.

– Qaysisi?

– Menga qarang, Ivan Nikiforovich, kiyimlaringiz bilan birga osilgan miltiqning sizga nima keragi bor? – dedi va do'stiga Ivan Ivanovich burnaki taqdim qildi.

– Marhamat qilmog'ingizni so'rasam ruxsatmi?

¹ Kirkak – bedana chaqiradigan hushtak.

– Qulluq, o'zлari marhamat qilsinlar, men o'zimnikidan tortaman!

Shundan keyin Ivan Nikiforovich yonini kavlab, burnaki soladigan qortig'ini chiqardi.

– Voy, esi past kampir! Hali miltiqni ham chiqarib osdimi! Sorochindagi juhud yaxshi tamaki qiladi. Bilmadim, nima qo'shar ekan, juda xushbo'y! Qalampirmunchoq hidi keladi. Mana jindak shimib ko'ring: to'g'ri emasmi, hidi qalampir munchoqnikiga o'xshamaydimi? Oling, marhamat qiling!

– Menga qarang, Ivan Nikiforovich, mening esim hali ham o'sha miltiqda, siz nima qilasiz uni axir, u sizga kerak emas-ku?

– Nega kerak bo'lmasin? Otish lozim bo'lsa-chi?

– Ey, Xudo yorlaqagur, Ivan Nikiforovich, qachon otar edingiz siz uni? Qiyomatdami? Siz, mening bilishimcha va o'zgalarning shahodati-cha, shu choqqacha bitta o'dak ham urganingiz yo'q hamda Xudo sizni yaratishda mernan qilib yaratgan emas. Siz basavlat va qomatli bir odamsiz. Nomini atab aytmoq noloyiq bo'lgan kiyimlar¹ haligacha quritiladi-yu, siz endi botqoqda yurib, ov qilar midingiz? Yo'q, sizga tinchgina yotib dam olish kerak (Ivan Ivanovich, yuqorida aytilgani kabi, birovni bir gapga ko'ndirish lozim bo'lganida, nihoyatda sayrab ketar edi).

– Shunday, siz o'zingizga munosib ish qiling. So'zimga kiring, miltiqni bering menga!

– Aslo iloji yo'q! Bu – qimmatbaho miltiq. Hozir bunday miltiqni hech qayerdan topolmaysiz. Men buni xizmatga kirmoqchi bo'lib yurgan vaqtimda

¹ Ich kiyimlar ko'zda tutilyapti.



bir turkdan sotib olib edim, endi sizga darrov berib qo'yamanmi? Hech iloji yo'q. Bu juda kerak narsa.

– Xo'sh, nima keragi bor, axir?

– Nima keragi bor deganingiz nimasi? Uyimga o'g'rilar kirsa-chi? Shunda ham kerakmasmi? Xudoga shukr! Xotirjamman va hech kimdan qo'rqlayman? Nega? Chunki hujramda miltig'im borligidan xotirim jam.

– Juda yaxshi miltiq! Lekin Ivan Nikiforovich, qulfi buzuq.

– Buzuq bo'lsa nima qilibdi? Tuzatsa bo'ladi. Zang bosmasligi uchun kunjut moyi bilan moylab qo'ysa bo'lgani.

– Ivan Nikiforovich, sizning bu so'zlaringizdan menga do'stligingiz sira ko'rinxaydi. Siz menga oshnalik vajidan hech narsa qilishni xohlamaysiz.

– Nega siz oshnalik vajidan menga hech narsa qilmaysiz deysiz? Uyalmaysizmi? Ho'kizlaringiz mening dalamda o'tlaydi, ammo men sizdan bir marta ham haq so'raganim yo'q. Har qachon Poltavaga borar bo'sangiz, mendan arava so'raysiz va shunda ham bir marta yo'q dedimmi? Bolalaringiz chetan devordan hovlimga tushib, itlarim bilan o'ynashadi, ularga ham hech narsa demayman-ku, mayli, o'ynayversinlar, faqat u-buga tegmasalar bo'lgani!

– Shunday berishni istamasangiz, mayli, bo'lmasa bir narsaga alishaylik.

– Xo'sh, badaliga nima berasiz? – Ivan Nikiforovich bu so'zni aytib, engagiga tayangani holda Ivan Ivanovichga tikilib qaradi.

– Men sizga uning badaliga qora echkimni beraman, o'zingiz ham bilasiz, bo'rdoqiga boqib semirtirganman, obdan yaxshi echki! Kelasi yili sotsangiz, yaxshi pulga ketishiga o'zim tan.

— Men hayron bo'lamanki, qanday qilib, Ivan Ivanovich, bu gaplarga tilingiz bordi. Echkingizni men nima qilaman? Shaytonning ma'rakasiga so'yamanmi?

— Shaytonni og'izga olmasangiz, hech bo'lmas ekan-da? Gunohga botasiz, azbaroyi Xudo, gunohga qolasiz, Ivan Nikiforovich!

— Axir, Ivan Ivanovich, bu qanday gapki, miltiq badaliga allaqanday betayin bir maxluqni bermoqchi bo'lasiz!

— Ivan Nikiforovich, nega echki betayin ekan?

— Axir o'zingiz yaxshiroq o'ylab ko'ring, miltiq degan matohni hamma biladi; echkining nimaligini kim biladi? Agar bu gapni menga sizdan bo'lak odam aytgan bo'lsa, haqorat deb bilardim.

— Xo'sh, echkining nimasi yomon sizga?

— Axir siz meni kim deb o'yladingiz? Men echkini...

— O'tiring, o'tiring!.. Tavba qildim... Miltig'ingiz o'zingizga buyursin, menga desa, hujrangizda zanglab, chirib ketsin: bundan keyin bu to'g'rida gapirishni ham istamayman.

Shundan so'ng jimib qoldilar.

Birozdan keyin Ivan Ivanovich yana gap ochib:

— Uch podsho bir bo'lib, bizning podshomizga urush ochgan emishlar, — dedi.

— Ha, Pyotr Fyodorovich aytgan edi. Qanday urush ekan? Sababi nima ekan?

— Ivan Nikiforovich, chamasi, sababini bilib bo'lmaydi, shekilli. Uch podsho bir bo'lib bizlarni turk diniga kirgizmoqchi bo'salar kerak deb o'layman.

Ivan Nikiforovich boshini ko'tarib:

— Voy ablahlar, ho, qarang-a? — dedi.

– Mana, ko'rdingizmi, bizning podshoyimiz shu vajdan ularga qarshi urush olibdi. «Yo'q, o'zingiz bizning dinimizga – Iso diniga kiring», – debdi podshoyimiz.

– Nima deysiz, Ivan Ivanovich? Biznikilar zo'r chiqar.

– Ha, zo'r chiqadilar. Shunday qilib, Ivan Nikiforovich, miltiging'izni alishmaysizmi?

– Ivan Ivanovich, o'zingiz xo'b olim kishisiz, ga-pingiz tentaklarnikiga o'xshaydi, axir men ahmoq bo'pmanmiki...

– O'tiring, o'tiring, Xudo olsin, keragi yo'q! Menga desa chirib ketsin. Endi gapirmayman.

Shu onda dasturxon keltirdilar; Ivan Ivanovich bir qadahni ichib, qaynoq somsani yeb oldi.

– Menga qarang, Ivan Nikiforovich, men sizga haligi echkidan boshqa yana ikki qop suli ham berayin, siz suli ekkaningiz yo'q-ku. Bu yil bari-bir suli sotib olasiz.

– Azbaroyi Xudo, Ivan Ivanovich, siz bilan gaplashadigan kishi avval no'xatga xo'b to'yib olmog'i kerak! (Bu hali holvasi: Ivan Nikiforovichning og'zidan bundan battar gaplar ham chiqadi). Butun boshli bir miltiqni ikki qop suliga kim alishibdi? Egningizdagagi po'stinga-ku alishtirgингиз kelmaydi-a?

– Lekin, Ivan Nikiforovich, uning ustiga yana haligi echkini ham bermoqchi bo'lganimni unutmang!

– Nima! Shunday miltiqqa ikki qop suli bilan bitta echkimi?!

– Xo'sh, nima bo'libdi, ozmi?

– Miltiqqa-ya?!

– Albatta, miltiqqa.

- Shunday miltiqqa ikki qop?
- Ikki bo'sh qop emas axir, sulisi bilan, echkini unutdingizmi?
- Bag'ringizga bosib, erkalab yotavering o'zingiz o'sha echkingizni, agar buni xohlamasangiz, shaytonni bag'ringizga bosing!
- Ana xolos... sizga sal tegsa, bas... Ko'rasiz, bunday bediyonat so'zlar uchun u dunyoda tilingizga bigizni qizdirib tiqarlar. Siz bilan gaplashib bo'lgandan so'ng odam bet-qo'lini yuvib, boshiga suv olmasa bo'lmaydi.
- O'zingiz insof qiling, Ivan Ivanovich: miltiq juda noyob narsa, juda g'alati ermak buyum, buning ustiga, uyga ham yaxshi ziynat...

Ivan Ivanovichning achchig'i chiqa boshlaganidan, endi:

- Siz, Ivan Nikiforovich, miltig'ingizga devona to'rvasiga yopishganday yopishhib olibsiz, - dedi alam bilan.
- Siz, Ivan Ivanovich, xuddi erkak g'ozga o'xshaysiz!

Agar Ivan Nikiforovich shu so'zni aytmasa, ikkalasi biroz mojarolashib, do'stliklariga halal yetmas edi. Lekin bu dafa ish teskarisiga aylanib, Ivan Ivanovichning juda jahli chiqib ketdi.

- Nima dedingiz, Ivan Nikiforovich? - deb baqirdi.
- Men, Ivan Ivanovich, sizni erkak g'ozga o'xshaysiz dedim.
- Janobingiz, odamning darajasi va nom-u nasabiga ehtirom va odob bilan qaramoqni yoddan chiqarib, bunday haqoratomuz nom bilan meni beobro' qilishga nechuk jur'at qildingiz?

– Nimasi haqorat buning? Xo'sh, Ivan Ivanovich, qo'lingizni muncha paxsa qilib gapirasiz, axir!

– Takror so'rayman: nega siz odob-axloqqa rioya qilmay, meni erkak g'oz dedingiz?

– Basharangizga tupurdim, Ivan Ivanovich? Buncha tovuqday qaqlaysiz?

Ivan Ivanovichning sabr-toqati qolmadi; lablari dir-dir titradi, og'zi burishib qiyshayib ketdi, ko'zлari shunday o'ynab, pirpiradiki, qaragan odam qo'rqar edi. Ivan Ivanovich nihoyatda achchiqlanganda bunday bo'lmasa, boshqa mahalda hech bunday bo'lmas edi.

Ivan Ivanovich zarda bilan achchiqlanib:

– Men ham sizga aytamanki, sizdaqa odamni pisand ham qilmayman.

– Azbaroyi Xudo, zarracha g'am yemayman, – dedi Ivan Nikiforovich.

Lekin Xudo ursinki, bu gapi yolg'on edi, chunki bu gap unga juda alam qilgan edi.

Bundan keyin ostonangizga qadam qo'ymayman.

– O'ho! – dedi Ivan Nikiforovich, lekin o'zi, alamiga chidamasdan, nima qilishini bilmay o'rnidan tikka turib ketdi.

– Hoy kampir, hoy bola! – deb qichqirgan hamon eshikdan haligi arvoх kampir bilan uzun ro'dapo kamzulga o'ralashgan pakana bo'yli bir bola kirib keldi:

– Bu kishini qo'lidan ushlab, tashqariga chiqarib qo'yinglar! – deb amr qildi u.

Ivan Ivanovich bunday beobro' bo'lganligiga nihoyat darajada achchiqlanib:

– Mendek asilzodani-ya? Qani, yaqinimga kelib ko'ring-chi, ahmoq xo'jayiningiz bilan birga

qo'shib abjag'ingizni chiqarayki, qarg'a cho'qi-guday yeringiz ham qolmasin! – dedi. (Ivan Ivanovich jahli chiqqanda juda boplab gapirar edi).

To'rtovining turishi juda g'alati edi. Ivan Nikiforovich qip-yalang'och bo'lib uyning o'rtasida turardi. Kampir bo'lsa quti o'chib, og'zini ochib ang-rayib qolgan edi. Ivan Ivanovich bo'lsa, qadimgi Rim notiqlari singari qo'lini ko'targancha turardi. Ularning bu holati g'alati bir tomosha edi. Lekin tomoshabin haligi ro'dapo kamzul kiygan va burnini kavlab bemalol turgan bola edi, xolos!

Ivan Ivanovich aloha bosh kiyimini qo'liga oldi.

– Siz, Ivan Nikiforovich, «juda yaxshi» muomala qildingiz. «Juda yaxshi!» Bir kun men ham sizga qaytaraman.

– Yo'qoling, Ivan Ivanovich, yo'qoling! Ehti-yot bo'ling, qo'limga tusha ko'rman! Tushguday bo'lsangiz, abjag'ingizni chiqaraman!

Ivan Ivanovich bosh barmog'ini panjasি orasidan ko'rsatib:

– Bu gapingizga, Ivan Ivanovich, mana bu, – dedi va eshikni shunday qattiq yopdiki, yopilgan eshik yana ochilib ketdi.

Ivan Nikiforovich eshikka yaqin kelib, yana bir narsa demoqchi edi-ku, ammo Ivan Ivanovich orqasiga qaramasdan, allaqachon chiqib ketgan edi.

III BOB

Ivan Ivanovich bilan Ivan Nikiforovich oralariga nizo tushgandan so'ng bo'lgan voqealar

Shunday qilib, Mirgorod shahrining obro'si va savlati bo'lgan ikki hurmatli zot bir-birlari bilan arazlashib qoldilar, tag'in nima uchun deng? Behudaga, birini biri erkak g'oz degani uchun!

Bir-birlarini ko'rgani ko'zları qolmadı, kirish-chiqishlari barham yedi, holbuki, avval hamma ularni ayrilmas do'st deb bilardi. Darvoqe, burunlari Ivan Ivanovich bilan Ivan Nikiforovich odam yuborib, bir-birlarining hol-ahvoidan xabardor bo'lib turardilar, har qaysisi o'z ayvonida turib shunday shirin so'zlashar edilarki, ularning bu so'zlarini eshitgan odam huzur qilar edi. Har yakshanba kuni Ivan Ivanovich chakmonini, Ivan Nikiforovich bo'lsa burma bel kamzulini kiyib, bir-birlarini qo'lтиqlashib, butxonaga borar edilar. Ivan Ivanovichning ko'zi ravshanroq bo'lganidan, yo'lda keta turib, Mirgorodning ba'zi ko'chalarida bo'ladigan ko'lob suvga yoxud boshqa shunday ifloslikka ko'zi tushib qolsa, darrov Ivan Nikiforovichni ogohlantirib: «Hazir bo'ling, oyog'ingiz bu iflos chuqurga tushib ketmasin», – der edi. Ivan Nikiforovich ham, o'z navbatida, Ivan Ivanovichga bo'lgan do'stligini doim izhor qilmoq yuzasidan, qayerda uchrashib qolsalar, uzoqdan bo'lsa ham darrov burnakisini tutib: «Marhamat», – der edi. Ikkovining ham uy-joyi qanday yaxshi edi! Mana shunday qalin do'stlar... Ular o'rtasiga tushgan nizoni eshitganimda boshimga to'qmoq tekkandek bo'lib hayron qoldim! Ko'p vaqtgacha hech ishongim kelmay yurdim! Xudoyo tavba! Ivan Ivanovich bilan Ivan Nikiforovich urishib qolibdilar-a? Shunday obro'li odamlar! Yorug' dunyoda baqolik hech narsa yo'q ekan-da!

Ivan Ivanovich uyiga qaytgach, hech tinchiy olmadi. Burunlari u, eng avval otxonasiga kirib, biyasining yem-xashagidan xabar olardi (Ivan Ivanovichning biyasi – saman qashqa juda yaxshi ot edi), so'ngra kurka tovuqlari va qo'yulariga o'z qo'li bilan ovqat bergenidan keyin, uyiga

kirib yo yog'ochdan har xil idishlar yasar, yo esa ayvonda yotib dam olar edi (Ivan Ivanovich har xil yog'och idishlar yasashga juda hunarmand bo'lib, uncha-muncha ustadan qolishmas edi), yoki Lubiy, Gary va Popov matbaasida bosilgan kitoblar ni o'qir edi (o'qigan kitoblarining ismini eslay olmas edi, chunki xizmatchi xotin bolalarining ko'ngliga qarab kitobning muqovasini yirtib yuborgan edi), yoki ayvonchada istirohat qilar edi. Endi bo'ssa bu ishlarning hech qaysisini qilmadi. Gapka oshxonaga don tashib turgan bo'ssa ham, uni ko'rib qolib: «Nega bekor sang'ib yuribsan», – deb koyib ketdi, hamma vaqt biror narsaning ta'masi bilan eshik tagiga kelib donlab ketadigan xo'roz bugun ham shu yerda hozir-u nozir edi, kaltak olib quvladi, ko'y lagi yirtiq-yamoq, kir bosgan bola: «Ota, ota, holva bering!» deyishi bilan bechoraga shunday dag'dag'a qildiki, bola faqir qo'rqqanidan ura qochdi.

Bir fursat o'tgach es-hushini yig'ib olib, o'z yu-mushlari bilan band bo'lib ketdi. Kechki paytga borib ovqatlandi, keyin dam oladigan ayvoniga chiqib yotdi. Gapkaning kaptar sho'rvasi erta-labki noxushlikni tarqatdi, shekilli, Ivan Ivanovich yana avvalgidek zavq-shavq ichida ro'zg'or ishlari bilan ovora bo'lib ketdi. Bir mahal ko'zi qo'shnisining hovlisiga tushib: «Bu kun Ivan Nikiforovichning oldiga chiqqanim yo'q, bir kirib chiqay», – dedi o'zicha. So'ngra tayog'i bilan bosh kiyimini olib, ko'chaga chiqqani hamon urishib qolgani esiga tushib, «Tuf!» deb orqasiga qaytdi. Ivan Nikiforovichning hovlisida ham shunday bir hol ro'y berdi. Ivan Nikiforovich xizmatchi kam-pir bu hovliga o'tmoq uchun endi chetan devorga oyoq qo'yishi bilan u yoqdan Ivan Nikiforovich-

ning: «Qayt, qayt! Kerak emas!» – degan ovozi eshitildi. Ammo Ivan Ivanovich juda zerikdi. Ivan Nikiforovichning uyida boʻlgan bir voqea oʼchay deb qolgan nizo ustiga yana moy quymaganda, bu ikki hurmatli odam yarashib ketsalar ham ajab emas edi.

Shu kuni kechqurun Ivan Nikiforovichnikiga Agafiya Fedoseyevna kelib qoldi. Ivan Nikiforovichga bu xotinning hech qanday qarindoshligi, urugʼ-aymoqligi yoʼq edi. Bas, uning bunikiga kelishining hech bir keragi yoʼq va Ivan Nikiforovichning oʼzi ham bundan xursand emas edi, ammo xotin bunikiga kelib necha haftalar, baʼzan koʼproq ham turib qolar va butun roʼzgʼorni oʼzi egallab, hech kimni biylatmas edi. Uning bu ishi Ivan Nikiforovichga sira yoqmas, lekin shunday boʼlsa ham, ajabki, xuddi goʼdakdek unga itoat qilar edi, gohida sal tortishib qolsalar ham, Agafiya Fedoseyevna doim baland kelar edi.

Rostini aytSAM, nega xotinlar hamisha burnimizdan choynakning joʼmragini ushlaganday ushlab tortaveradilar. Rostini aytSAM, shunga sira aqlim yetmaydi. Ularning qoʼllari shunaqa uzunmi? Yo bizning burnimiz tutib tortishdan boshqa narsaga yaramaydimi? Ivan Nikiforovichning burni gʼaynoliga oʼxshab ketsa ham, xotin uning burnidan tutib, it yetaklaganday sudrab yurar edi. U kelganda Ivan Nikiforovichning hatto yurish-turishi ham boshqacha boʼlib qolar edi, yaʼni, oftobda koʼp yotmas, yotsa ham burungiday yalangʼoch yotmay, balki Agafiya Fedoseyevna ning ishi boʼlmasa ham, koʼylak va lozimini kiyib yotar edi. Agafiya Fedoseyevna sharm-hayoni bilmas va Ivan Nikiforovichning bezgagi tutib qoldu-

day bo'lsa, skipidar bilan sirkani uning badaniga o'zi surtib qo'yari edi. U kishining boshida durasi, burnida uchta so'gali bor, ustiga sariq gulli jigarrang kapot¹ kiyar edi. Qomati go'yo yo'g'on kuvga o'xshar edi va shu sababdan oynaga qaramaguncha kishi o'z burnini topolmaganidek, uning belini ham topish qiyin edi. Har qaysi oyog'i bir bolishdek kelar va kalta edi. Qilmishi g'iybat, yegani qaynatilgan sholg'om edi, qarg'ashga nihoyatda usta va bu ishlarni qilganda hech mahal aftini sira o'zgartirmas edi: uning bu qilig'i ayollardan boshqa hech kim qilolmaydigan qiliq edi.

Bu xotin keldi deguncha, Ivan Nikiforovichning uyi ostin-ustin bo'lar edi.

- Sen, Ivan Nikiforovich, qo'shning bilan sira yarashma, borib yalinma, uning muddaosi seni yo'q qilmoq, uning kimligini sen hali bilmaysan, u shunaqa odam.

- La'nati kampir Ivan Nikiforovichning qulog'iga quyaverib, Ivan Ivanovichdan uni batamom bezdirdi.

Hamma ish teskarisiga aylanib ketdi: qo'shning iti bu hovliga kirib qolguday bo'lsa, tushgan narsa bilan urib haydardilar, devordan oshib tushgan bolalarning ko'ylaklarini ko'tarib, orqlarini qavartirib, yig'latib chiqarib yuborar edilar. Hatto kampir xotin ham bir kun Ivan Ivanovich undan bir narsa so'ramoqchi bo'lganida shunday beodob harakat qildiki, nihoyatda odob-axloqli bo'lgan Ivan Ivanovich nima deyishini bilmay: «Ey, rasvo xotin! Xo'jayinidan battar-a!» deb turib tashladi.

¹ Kapot – xotinlarning uyda kiyib yuradigan ustki kalta ko'ylagi.

Nihoyat, bu haqoratlar ustiga, battol qo'shnisi, Ivan Ivanovichning xuddi chetan devordan oshib tushadigan joyiga, go'yo haqorat ustiga haqorat bo'lsin degandek, g'oz boqadigan bir katak soldi. Ivan Ivanovich uchun juda noxush bo'lgan iflos katak shunday jadallik bilan solindiki, bir kun deganda bitdi.

Bu Ivan Ivanovichning zardasiga tegib, o'ch olmoq payiga tushdi. Hatto Ivan Ivanovichning yeridan ozginasi katakka qo'shilib ketgan bo'lsa ham, sir boy bermaslik uchun alamini izhor qilmadi, ammo yuragiga shunday g'ulg'ula tushdiki, jim turishga hech toqati qolmadi.

Kuni shu tarzda o'tdi. Kech kirdi... Agar men rassom bo'lsam, bu kechaning nash'asini ajoyib qilib tasvirlab berar edim! Mirgorod ahlining uyqusini, osmondagi son-sanoqsiz sokin yulduzlarning qarashini, yiroq-yaqindan itlarning bu sukunat ichida vovillashlarini, ishq dardiga mutbalo bo'lgan so'fining itlar oldidan o'tib, mardonalik bilan chetan devordan oshib ma'shuqasinkiga tushganini, oq uylarning devorlari oydindan oqarib ko'ringanini, uylar yonidagi daraxtlarning qorayib ko'ringanini, daraxtlardan tushgan qora ko'lankalarni, hidi burqirab turgan gullar va so'ligan o'tlarni, tun oshig'i chigirkalarining tinmasdan chirillab qilgan nolalarini tasvirlar edim. Pastakkina kesak uylardan birida ko'kragi dirillagan qora qosh bir shahar qizining to'shakda yolg'iz yotib, betoqat bo'layotganini va gusarlarning qo'ng'iroq poshnasi bilan shopday mo'ylovini tush ko'rayotganini va oyning shu'lesi uning betida jilvalanib turganini ko'rsatardim. Uyning oq mo'risiga qo'ngan bir ko'rshapalakning

sutdek yorug' yo'lga tushib turgan qora soyasini tasvirlab ko'satardim... Ammo shu kechasi qo'lliga arra olib, tashqari chiqqan Ivan Ivanovichni tasvirlash qo'llimdan kelmas. Yuzida allaqancha hislarning alomati zohir edi! Ohista-ohista biqinib yurib, boyagi g'ozxona katakning yaqiniga bordi. Ivan Nikiforovichning itlari ikki orada bo'lgan jan-jaldan xabarsiz edilar, shuning uchun uni eski do'st bilib indamadilar. Kataknini eman yog'ochidan qilingan to'rtta ustun ushlab turar edi. Ivan Ivanovich bu ustunning yaqiniga kelib arra qo'ydi. Arraning ovozi uni dam-badam har yonga alanglatar edi, lekin ko'rghan alami unga dadillik berar edi. Birinchi ustun arralandi, ikkinchisiga o'tdi, ko'zлari o'tday yonar va qo'rquvdan hech narsani ko'rmas edi. Ivan Ivanovich to'satdan baqirib yubordi va qotib qoldi, uning ko'ziga bir o'lik ko'rindi. Lekin birozdan so'ng, ko'ziga o'lik-dek ko'ringan narsa bo'ynini cho'zib yotgan g'oz ekanini payqagach, o'ziga keldi. Ivan Ivanovich achchig'idan bir tupurib olib, yana ishini qilaverdi. Ustunning ikkinchisi ham arralandi. Katak qimirladi. Endi uchinchisiga tutinganida yuragi shunday taka-puka bo'lib ketdiki, qo'lli ishga bormay, bir necha marta to'xtab qoldi. Uchinchi ustunning yarmidan ko'prog'i arralanishi bilan bu omonat turgan imorat juda qiyshayib, birdan ag'anab tushdi. Ivan Ivanovich zo'rg'a qochib qoldi. Arrasini olgancha hovlisiga qochib kelib, o'zini karavotga tashladi va qilgan nobakorligining oqibati nima bo'lganiga bir karra oynadan boqishga yuragi dov bermadi. Uning nazarida xuddi Ivan Nikiforovichning hamma xonadoni – kampirdan tortib ro'dapo kamzul kiygan bolag'acha, Agafiya Fedoseyevna boshliq hammasi qora kaltak bo'lib,

Ivan Ivanovichning uyini vayron qilgani yopirilib kelayotganga o'xshar edi.

Ivan Ivanovich ertasiga kuni bilan bezgak qaltilratgandek yotdi, nazarida nobakor qo'shnisi undan o'ch olmoq uchun uyiga o't qo'yayotganday bo'lar edi va shu sababdan: biror joyga quruq poxol tashlanib qo'yilmasin, u yoq bu yoqdan xabardor bo'lib tur, nihoyatda hushyor bo'l, deb Gapkaga buyurib qo'ydi. Otini oldinroq qamchilab, hech kimga bildirmasdan, elburutdan Mirgorodga borib, sudga ariza tashlashga qaror qildi. Bu arizaning mazmuni nimaligini quyidagi bobdan ma'lum boladi.

IV BOB

Mirgorod shahar sudi mahkamasida bo'lib o'tgan voqealarning bayoni

Ko'p chiroyli shahar-da Mirgorod. Har qanaqa imorat desangiz bor! Tomi poxol, qamish, hatto taxta bilan yopilgan uylar bor! O'ngga yursangiz ko'cha, chapga yursangiz ko'cha, hammasi chiroyli chetan devorlar, devorlarni chirmovuqgul bosgan, xurma-yu xurmachalar osilgan, devor orqasida oftobdek basharasini ko'rsatib kunga-boqarlar qarab turadi, qizarib turgan ko'knorlar, katta-katta qovoqlar... Gasht! Chetan devorlarga har narsalar osilganidan yana chiroyli ko'rindi. Bir yoqda ko'ylak, bir yoqda lozim, har balo osig'liq. Mirgorodda o'g'rilik-u qalloblik yo'qligidan har kim xohlagan narsasini devoriga osib qo'yaveradi. Agar bozor joyidan o'tib qolsangiz, albatta, birpas to'xtab tomosha qilasiz. G'alati ko'li bor, hech qayerda bunday ko'l ko'rmagan-dirsiz! Bozorning salkam hammasi shu ko'lgan

chiqib ketgan. Juda g'alati ko'l! Olisdan qaragan-da poxol g'aramiga o'xshagan uylar ko'lning to'rt tomoniga to'planishib, ko'lning xush manzarasini tomosha qilayotganga o'xshaydilar.

Lekin, fikrimcha, bu shaharda sud uyidan yaxshi uy yo'qdir. Eman yog'ochidan solinganmi, yo qayindanmi – bu bilan ishim yo'q, lekin, ey azizlar, uning sakkizta derazasi bor! Qator sakkiz deraza! Hammasi, shahar hokimining qavli bilan aytganda, hali men aytgan «ko'l» degan suvga va bozorga qarab turadi. Butun Mirgorod shahrida birligina shu uy chaqmoq toshi rangiga bo'yalgan, qolganlarining barisi oqartirilib qo'yilgan, xolos. Tomi taxtadan, agar bo'yoq uchun tayyorlangan yog'ini mahkama mirzalari piyozga qo'shib yeb qo'yan bo'lmasalar va buning ustiga mazkur voqeя ro'za kunlarida bo'lmasa edi, uyning tomi qizil bo'lar edi. Uyning darvozasi bozorga qara-gan, darvozaxonada qachon qarasangiz, tovuqlar yugurishib yuradi, chunki bu yerga doim tariq va boshqa donlar sochilib qoladi! Ammo bu donlarni hech kim ataylab sepmaydi, iltimos-ga kelganlarning beparvoliklari orqasida to'kilib qoladi. Uyning ikki bo'lagi bor, biri – mahkama, ikkinchisi – qamoqxona. Imoratning mahkamaga xoslangan qismida ozoda qilib qo'yilgan ikki xona bor, biri arzga kelganlar o'tiradigan doloncha, ikkinchisi siyoh to'kilib dog'-dug' bo'lgan stol qo'yil-gan uy. Stol tepasida tumor tug'rosi¹. Suyanchig'i baland-baland to'rt kursi, devor tagida shikoyatlar saqlanadigan temir qoplama sandiqlar.

¹ Chor Rossiyada «adolat» belgisi bo'lgan tumor lavha, ustiga chor hukumatning tug'rosi bo'lgan juftanqush qo'ndirilgan bo'lar edi.

Sandiqlardan biri tepasida qora moy surtilgan bir poy etik.

Sud so'rog'i ertalabdan boshlandi. Semizligi Ivan Nikiforovichcha bo'lmasa ham, yo'g'ondan kelgan sudya, yog' bosgan to'nini kiyib olib, qo'li-da tamaki, oldida bir piyola choyni qo'yib, sud a'zosi bilan chaqchaqlashib o'tirardi. Sudyaning yuqori labi burnining tagiga yopishganligidan burni, labini xohlagancha hid va bu lab tamaki qutisi vazifasini o'tar edi, chunki burniga tashla-gan tamaki labida qolar edi. Shunday qilib, sudya o'z noibi bilan gaplashib o'tirardi. Yalang oyoq bir qiz bir chekkada patnisda choy ko'tarib turardi.

Stolning bir boshida kotib hukmnomani o'qir-di va shunday bir mujmal ohangda o'qirdiki, buni eshitganda aybdor ham uxbab qolardi. Agar sudya chaqchaqlashib o'tirmagan bo'lsa, avval uning o'zi uxbab qolardi.

Sudya piyolada sovib qolgan choydan bir ho'plab olgach:

– Men atayin ularning yaxshi sayramogi uchun nima qilmoq lozimligini bilmochi bo'dim. Bunden ikki yil burun bir yaxshi maynam bor edi. Nima bo'ldi deng? To'satdan aynib qolib, allaqanday xunuk sayray boshladi. Keyin borgan sari bat-tarlashdi; bora-bora sayrashi juda buzilib, xirillab qoldi. Holbuki, bu illatning sababi anchayin bir narsa ekan! Tomog'iga no'xatcha ham kelmay-digan bir g'udda chiqqan ekan, shu g'uddani nina bilan teshsa bo'ldi. Buni menga Zaxar Prokofyev-ich o'rgatib qo'ygandi, agar istasangiz, voqeasini sizga so'zlab beray: bir kuni unikiga bordim...

Hukmnomani o'qib bo'lgach, birpas to'xtagan kotib sudyaning so'zini bo'lib:

– Demyan Demyanovich, boshqasini o'qisam ijozatmi? – deb so'radi.

– Darrov o'qib bo'ldingizmi? Qarang, muncha tez, men eshitmay qolibman. Qani o'zi? Qani bu yoqqa bering-chi, qo'l qo'yay, yana nimangiz bor?

– Sigir o'g'risi Bokit kazakning ishi bor.

– Xo'p, o'qing! Shunday qilib, bir kun unikiga borib qoldim. Meni qanday siylab mehmon qilganini ham aytib beray. G'alati baliq bilan araq ichdik. Lekin balig'i biznikidek emas (shu yerga kelganda sudya kului va tamakini hidladi), bunda baqqollarimiz sotadigan baliqdan emas edi, sho'r baliqdan yemadim, chunki o'zingiz bilasiz, yesam me'dam qaynaydi. Ikradan tatib ko'rdim; juda yaxshi ikra ekan! Har qancha maqtasak arziydi! So'ngra ichiga xushbo'y giyohlar solingan shaftoli arag'idan ichdim. Zafar gulidan qilangan araq ham bor edi. Bu araqni ichmaganimni o'zingiz bilasiz, chakki emas. Avval ishtahani xo'b qo'zg'atib, so'ngra yemoq... Shu paytda Ivan Ivanovich kirib qolib, sudya «Ey bormisiz, ko'tin-maysiz?» – deb qoldi.

Ivan Ivanovich yolg'iz uning o'zida bo'lgan xushmuomalalik bilan har tomonga ta'zim qilib:

– Xudo madadkoringiz bo'lsin! Omon bo'linglar! – dedi. Yopiray, muomalasi bilan hammani o'ziga rom qilib oladi-ya. Bunday xushfe'llikni hech qayerda ko'rmadim. O'z martaba va obro'sini xo'b yaxshi bilar va shuning uchun hamma uni hurmat qilsa, o'zini bu hurmatlarga loyiq deb bilar edi. Ivan Ivanovichga sudyaning o'zi kursi qo'yib berdi va bir tortishda, tepa labidagi burnakini taqir qoldirmay tortib oldi; bu qiliq'i uning juda xursandligidan dalolat berar edi.

– Xo'sh, Ivan Ivanovich, nima yekishni xohlaysiz? Bir piyola choy ichadilarmi? – so'radi sudya.

– Yo'q, ko'p tashakkur, – deb ta'zim qilib o'tirdi Ivan Ivanovich.

Sudya yana takrorlab:

– Marhamat qilib, bir piyola choy iching, – dedi.

– Yo'q, rahmat, iltifotiningizga qulluq, – deb yana ta'zim qilib o'tirdi.

– Bir piyola iching axir, – dedi qistab sudya.

Ivan Ivanovich o'rnidan turib, tag'in ta'zim qilib:

– Zahmat chekmang, Demyan Demyanavich! – dedi.

– Bir piyola?

– Mayli, bir piyola ichsam icha qolay, – dedi Ivan Ivanovich va qo'lini patnisiga uzatdi.

– Yopiray, odam ham shunday xushfe'l bo'ladi-mi! Yaxshi muomala odamga shunday yoqadi-ki, aytib ado qilib bo'lmaydi!

– Yana bir piyola bersam nima deysiz?

Ivan Ivanovich piyolani patnisiga to'ntarib qo'ygach, yana ta'zim qilib:

– Taqsir, tashakkur, – dedi.

– Iltifotiningizni ayamang!

– Hech icholmayman, ko'p tashakkur, – dedi-da turib, ta'zim qilib, yana o'tirdi.

– Ivan Ivanovich, do'stlik uchun yana bir piyola iching!

– Yo'q, ichmayman, bu hurmatlaringizga tashakkur! – shu so'zni aytgach, ta'zim qilib, yana o'tirdi.

– Bir piyolagina, bir piyola iching!

Ivan Ivanovich qo'lini patnisiga uzatib, piyolani oldi.

Yopiray, shunday odobli, o'z martabasini bilgan axloqli kishilar bo'lar ekan-da!

Ivan Ivanovich oxirgi ho'plam choyni ichib bo'lgach, gap boshladi:

– Demyan Demyanavich, sizga zarur bir ish bilan kelgan edim, da'voyim bor. – Ivan Ivanovich bu so'zni aytib, piyolani patnisga qo'ydi, tamg'ali qog'ozga yozilgan arizani chiqardi.

– Dushmanim, battol dushmanim ustidan arz.

– Kim ustidan?

– Ivan Nikiforovich Dovgochxon ustidan.

Sudya bu so'zni eshitib, o'tirgan joyidan yiqilib tushishiga oz qoldi va qo'lini qarsillatib:

– Ivan Ivanovich, nima deyapsiz? O'zingizmi yo boshqa odammisiz?

– Ko'rib turibsiz-ku, o'zimman.

– Xudo yarlaqasin, avliyolar qo'llasin! Nima bo'ldi sizga, Ivan Ivanovich, Ivan Nikiforovich bilan yovlashdingizmi, o'z og'zingiz bilan aytyapsizmi shu gapni? Yana bir ayting! Orqangizza birov turib, sizning tilingizdan gapirayotgan bo'lmasin yana?

– Hayron bo'ladigan nimasi bor buning? Uni ko'rgani ko'zim yo'q: u meni shunday haqorat, shunday beobro' qildiki, bundan ko'ra o'lganim yaxshi.

– Yo Xudo, yo Iso, yo bibi Maryam! Onamni bu gapga qanday ishontiraman! Qachonki, egachim bilan koyishsam, onam: «Ey bolalarim, ikkovингиз it-mushuksiz-a. Hech bo'lmasa, Ivan Ivanovich bilan Ivan Nikiforovichdan ibrat olsangiz bo'lmaydimi», – der edi. Ana do'stlik, ana obro', ana inoqlik shu bo'ldimi hali! Qani, o'zi nima gap, nima bo'ldi, ayting!

– Demyan Demyanovich, bu nozik ish, so'z bilan aytib tushuntirib bo'lmaydi, yaxshisi, arizani o'qittirib ko'ring. Mana bu tomonidan o'qiting, bu yerida nojo'yalik yo'q.

Sudya kotibga qarab:

– Qani, Taras Tixonovich, o'qib bering-chi? – dedi.

Taras Tixonovich arizani olgach, sud kotiblaridek ikki barmog'i bilan burnini qoqib, so'ngra o'qishga kirishdi:

«Mirgorodning asilzoda boyonlari toifasiga mansub bo'lgan Ivan Ivan o'g'li Pererepenkodan ariza, shu to'g'ridakim:

1. O'zining nojo'ya iflos va yaramasligi bilan butun dunyoga mashhur bo'lgan, battol va yomonlikda hech chegarani bilmagan Ivan Nikifor o'g'li Dovgochxun, ushbu 1810-yil 7-iyulda, mening sha'nimga va shu bilan baravar nasl-u nasa-bimga nihoyatda og'ir tahqir yetkazib, haqoratli so'zlar bilan so'kdi va obro'yimni to'kdi. Mazkur asilzodaning o'zi ham, chehrasi ham xunuk va badbashara bo'lgani ustiga yana haqoratgo'ylik ta'biga g'olibdir, va so'zlagani yakkash kufrdir, o'zi Xudo bexabar dahriydir!»

Shu joyga kelganda kotib burnini yana qoqib olmoq uchun to'xtadi. Sudya bo'lsa, qo'lini qovushtirib, ta'zim bilan o'tirar va labini pichirlatib:

– Qanday o'tkir qalam, Xudoyo tavba! Shunday ham yozadimi odam! – der edi.

Ivan Ivanovich narigi yog'ini ham o'qishni so'radi, Taras Tixonovich ham davom etdi:

Mazkur asilzoda Nikifor o'g'li Dovgochxun, men uni oshna bilib do'stona bir taklif bilan unikiga kirganimda, mening sha'nimga haqorat

bo'lib tushgan so'zlar bilan haqorat qilib, xaloyiq nazarida obro'yimni to'kdi. Masalan meni: «Erkak g'ozsan», – dedi; vaholanki, Mirgorod shahrining tamomiy aholisiga ma'lumdirki, mazkur past maxluqning nomi hech qachon menga qo'yilgan emas va bundan nari ham bu nomni o'zimga taqmoq niyatida emasman. Ulug' asilzodalar naslidan ekanligimga «Uch avliyo» butxonasida saqlanayotgan tug'ilish daftari dalildir. Mazkur daftarda mening tug'ilgan kunim bilan baravar ism-sharifim ham bitilgandir. Erkak g'oz degan nom ilmdan oz-moz bahramand bo'lgan har bir kishiga ma'lumdirki, tug'ilish daftariga hech qachon qayd qilinmaydi, zeroki, mazkurning odam bo'lmasdan parranda bo'lgani, hatto maktab ko'rмаган kishilarga ham yaxshi ma'lumdir; lekin mazkur nobakor buni xo'b yaxshi bilsa ham, boshqa bir g'araz bilan emas, balki mening sha'nimga va nasl-nasabimga haqorat yetkazish va obro'yimni tushirish g'arazida kaminani ushbu yaramas ibora bilan haqorat qildi.

2. Mazkur badaxloq va beodob asilzoda, buning ustiga mening otameros mulkimga, ya'ni, ruhoniylardan bo'lmish marhum padari buzrukvorim Ivan Onisi o'g'li Pererepenkodan meros tariqasida tegmish joyimga tajovuz qildi, chunonchi, masalan, qonun-qoidalarga xiloflik qilib, g'ozlar katagini mening eshigim ro'parasiga qo'ndirib qo'ydi va bu ishni u sha'nimga yetkazgan haqoratni oshirmoqdan bo'lak g'araz bilan qilmadi, chunki mazkur g'ozlar katagi hozirgacha olisroq, yaxshi joyda turar edi, va hali ancha mahkam va mustahkam edi. Ammo mazkur asilzodaning bu ifloslikni qilishdan mening boshimga

biror yomon kulfatni solishdan boshqa maqsadi yo'q edi. Chunki katafiga, xususan, g'ozlar katafiga hech kim yaxshi ish bilan kirmasligi ham-maga ma'lum, kirgan taqdirda ham bir nojo'ya yaramas ish bilan kiradi. Buning ustiga, mazkur kataknинг ikki yog'i, ya'ni, bir juft ustunchasi kamining mulkiga ham daxl qilib chiqib turibdi, ammo mazkur mulk esa rahmatlik padari buzrukvorim Ivan Onisi o'g'li Pererepenkoning hayotligidayoq menga tekkan edi va o'zi bir parcha yer bo'lib, omborning eshididan tortib, to xotinlar tuvak yuvadigan joygacha kelardi.

3. Faqat nomini eshitganda ham kishining nafrati qo'zg'aladigan mazkur asilzoda meni o'z uyimda yondirib o'ldirish kabi shum niyatni, ko'nglida saqlaydi. Buning beshak va beshubha alomatlari quyida aytilganlardan ma'lumdir: avval mazkur nobakor asilzodani o'z xonasidan tez-tez tashqariga chiqmoqqa boshladи, o'zining xushyoqmasligi va badani haddan tashqari semizligi sababidan avvallari bu ishni qilmasdi: so'ngra rahmatli padari buzrukvorim Ivan Onisi o'g'li Pererepenkodan qolgan bir qit'a yerimni ihota qilib turuvchi devorga kelib taqalgan mazkur asilzodaga qarashli mehmonxonada har kun allamahalgacha chiroq yonib turadiki, bu ham yuqorida aytilgan gaplarning aniq dalilidir chunki alholgacha mazkur asilzoda o'zining baxil va xasisligi sababidan toza sham u yoqda tursin, hatto qora jin chirog'ini ham o'chirib qo'yari edi.

Shuning uchun so'raymanki, mazkur asilzoda Ivan Nikifor o'g'li Dovgochxunni mening uyimga o't qo'yishda va mening sha'nimga haqorat yetka-zishda, mulkimga qasd qilishda aybli bo'lganidan

va buning ustiga hammasidan battari – nomimga erkak g'oz degan nomni razolat va haqorat yo'sinda qo'shilganidan mazkurni jarima bermoqqa va ham yetkazgan zararni to'lamoqqa hukm qilgaysiz va yomonlik qilganligi sababidan o'zini kishanga solib, bandi qilib, shahar qamoqxonasiga yuborgaysiz va ushbu arizam yuzasidan darhol chora ko'rgaysiz. Qalam tebratuvchi va yozuvchi Mirgorod shahrining asilzoda mulkdor boylariidan Ivan, Ivan o'g'li Pererepenkodirman».

Ariza o'qilib bo'lgach, sudya Ivan Ivanovichning yoniga kelib tugmasidan ushlab, taxminan shu zaylda gap boshladi:

– Nima qilganingiz bu, Ivan Ivanovich? Xudodan qo'rqing. Keching bu arizangizdan, shaytonga nasib qilsin u. Qaytaga Ivan Nikiforovich bilan qo'l berib ko'rishing, oliv sifat may toping, juda bo'lmasa osongina sharob tayyorlang, meni chaqiring, birga-birga ichaylik va adovatni tashlaylik!

– Yo'q, Demyan Demyanovich! Bu unaqa siz aytgan ishlardan emas, – dedi Ivan Ivanovich, hamma vaqt o'ziga yarashgan kerilmachog'lik bilan. – Bu murosa bilan bitadigan ish emas. Xayr, xayr endi, afandilar, – dedi haligidek savlat bilan, hozir bo'lganlarning hammasi bilan xayrlashib. – Arizam oqibatsiz qolmas, amal qilsa kerak deb umid qilaman. – U hammani hayron qoldirib chiqib ketdi.

Sudya o'tirgan joyida indamay sukut qilib qoldi. Kotib burnaki hidladi, mahkamadagilar siyohdon o'rniغا ishlatilayotgan shisha idishni ag'darib yubordilar va sudyaning o'zi ham parisionlikdan qog'ozga to'kilgan siyohdan ko'z uzmay qoldi.

Biroz jimlikdan so'ng sudya:

- Siz nima deysiz bu to'g'rida, Dorofiy Trofimovich? – deb so'radi noibidan.
- Hech narsa deyolmayman, – dedi noibi.
- Shunaqa ham ishlar bo'lar ekan, – dedi sudya.

U bu gapni aytar-aytmas, eshik g'irchillab, Ivan Nikiforovichning boshi bilan to'shi ichkarida ko'rindi; gavdasining qolgan qismi hali dahlizda edi. Ivan Nikiforovichning birdan kelib qolishi, yana tag'in sud mahkamasiga kelishi bu yerdagilarni juda ajablantirdi, hatto sudya qichqirib yubordi, kotib o'qishni bas qildi, kalta frakka o'xshagan kamzul kiygan bir mirza po'lat qalamini og'ziga tiqqanicha ag'rayib qoldi, yana biri og'ziga qo'ngan pashshani yutib yubordi. Xat tashuvchi va darvozabon vazifasini bajaruvchi, yelkasi yamoq iflos ko'ylagi bilan eshik oldida qashinib turgan cho'loq ham ag'rayganidan al-lakimning oyog'ini bosib oldi.

– Ey, qanday shamol uchirdi? Qalaysiz, sog'-salomat bormisiz, Ivan Nikiforovich?

Lekin Ivan Nikiforovichning na o'lik va na tirik ekani bilinmas, eshik orasiga tikilib qolib na bu yoqqa kira olar, na u yoqqa chiqa olar edi. Sudya dahlizdagilardan birovga: «Uni ichkari-ga itarib yuborgin», – deb har qancha qichqirsa ham bo'ljadi, chunki u tomonda arzga kelgan bir kampirdan boshqa hech kim yo'q edi va bu kampir qurigan-qurishgan qo'llari bilan nima qila olar edi. So'ng labi do'rdaygan, burni cho'mich-dek, g'ilay ko'zlaridan mastligi bilinib turgan, tirsagi yirtiq bir mirza Ivan Nikiforovichning oldiga borib, ikki qo'lini ko'ksiga qovushtirib qo'ygach,

boyagi mo'ysafid cho'loqqa imo qildi. Cho'loq tizzasini Ivan Nikiforovichning qorniga tirab itardi va uning voy-voylashiga qaramay, itarib, aloha, dahlizga chiqardilar. Keyin eshikning zulfinini chiqarib, ikkinchi tabaqasini ham ochdilar. Mirza bilan uning yordamchisi cho'loq nihoyatda zo'riqqanlaridan chiqqan hovur mahkamaxonani birpas araqxonaga aylantirib yubordi.

– Biror joyingiz mayib bo'lmadimi, Ivan Nikiforovich? Volidamga aytay, sizga bir dori yuboradi, belingiz bilan orqangizga surting, darrov tuzalasiz.

Lekin Ivan Nikiforovich kirgani hamon o'zini kursiga tashladi va cho'zib voy-voylashdan boshqa narsa deyolmadi. Nihoyat, holsizlik orqasida zo'rg'a-zo'rga chiqqan ovoz bilan:

– Marhamat qilmaydilarmi? – dedi va cho'ntagidan burnaki qutisini olib yana: – oling, marhamat qiling! – dedi.

– Sizni ko'rib, juda xursand boldim, bizning huzurimizga to'satdan kelib qolib xo'b xursand qildingiz, lekin bu qadam ranjidalarining sababini bilolmasdan hayronman, – dedi sudya.

– Iltimos bilan... – dedi-yu, boshqa hech narsa deyolmadi Ivan Nikiforovich.

– Iltimos bilan, qanday iltimos?

– Da'vo bilan... – dedi-yu, nafasi tiqilib, birpasgacha so'zlayolmadi. – Voy... Muttaham!... Ivan Ivanovich Pererepenko ustidan da'vogarman.

– Ana xolos! Siz hammi? Shunday qalin do'stlar-a, shunday saxovatli odamlar-a!..

Ivan Nikiforovich hansirab:

– Iblisning o'zi u, – dedi.

Sudya cho'qinib oldi.

– Arizani oling, o'qing!

– Boshqa ilojimiz yo'q, o'qing, Taras Tixonovich, – dedi sudya kotibga qarab, chehrasida afsus alovmati ko'rindi. Burni beixtiyor yuqori labini hidjadi, avvallari bir narsadan nihoyatda xursand bo'lgan chog'ida burni bu qiliqni qilar edi, endi burnining bunday o'zboshimchalik qilgani sudyan ni yana koyitdi, o'zboshimcha burnining tanbehi ni bermoq uchun yuqori labi ustidan burnakini surtib-surtib tashladi.

Kotib, har dafa ariza o'qishdan burun qiladigan odati bo'yicha burnini ro'molchasiz tozalagach, odatdag'i ovozi bilan mana bu tariqa o'qishni boshladi:

«Ariza beruvchi Mirgorod shahrining asilzodasi Ivan Nikifor o'g'li Dovgochxundirman, ammo arizaning nima xususdaligi quyidagilardan ma'lumdir:

1. O'zini asilzoda deb ataydigan Ivan Ivan o'g'li Pererepenko, menga adovati va ochiqdan-ochiq dushmanligi vajidan, menga har xil nobakorlik va badtarin yomonliklarni qiladi va kechagi kunda ham xuddi bir o'g'ri va zo'ravon singari qo'lida bolta, arra, bolg'a va boshqa temirchilik asboblari bilan kechasi devor oshib, mening hovlimga tushdi va undagi menga qarashli og'ilxonga kirib, benomuslik qilib, o'z qo'l bilan uni buzib tashladi. Lekin bunday battol va nobakorlik va zo'ravonlikka sabab bo'lganday hech bir ish men tomondan sodir bo'lgani yo'q.

2. Va yana mazkur asilzoda Pererepenko mening jonimga qasd qilmoqchi ham va o'tmish oyning 7-kunigacha bu niyatini maxfiy saqlab, mazkur kuni menikiga kirib keldi va mening uyimda saqlanayotgan miltig'imni do'stlik va makkorlik yo'li bilan mendan so'rashni boshladi

va xasisligini qilib, bu miltiq badaliga qora echkisi bilan ikki qop suli kabi bir qancha yaramas narsalar bermoqchi bo'ldi. Ammo men uning yomon niyatini payqab, bu ishdan qaytarishga urindim, lekin u muttaham va ablah Ivan Ivan o'g'li Pererepenko past qishloqilar og'zidan chiqadigan yaramas iboralar bilan meni haqorat qildi va shundan beri ko'nglida menga adovat va xusumat saqlaydi va yana nomi mazkur bo'lgan hamda asilzodalik da'vosini qiluvchi bu bosqinchi Ivan Ivan o'g'li Pererepenko nasab jihatidan ham pastdir, ya'ni, uning egachisi ro'yи zaminga mashhur buzuq edi. Bundan besh sana muqaddam ushbu Mirgorod shahriga kelib, tushgan tirandoz askarlarga ergashib ketib qoldi va erini dehqon toifasiga yozdirdi, uning ota-onasi ham uchiga chiqqan betavfiq araqxo'rlar edi. O'zini asilzoda deguvchi mazkur zo'ravon Pererepenko bo'lsa, o'zining hayvonligini va iflos harakatlarini ota-oni va qavm-qarindoshlaridan ham oshirib yubordi va mo'min va taqvodorlik niqobi ostida haddan tashqari yomon buzuqlik ishlarni qiladi. Ro'za tutmaydi, Xudodan qaytgan bu odam echki sotib oldi va ertasiga chiroq va sham uchun moy kerak degan bahona bilan nikohsiz xotini Gapkaga uni so'yeldirdi.

Shu sababdan, iltimos qilamanki, mazkur odamni, o'gri va zo'ravonni, Xudodan qaytgan betavfiqni, o'g'rilik va zo'ravonlik qilib bir necha marta qo'lga tushgan bu muttahamni kishanga solib, podsholik qamoqxonasiga yuborgaysiz va u yerda o'z bilganlaringizcha jazosini berib, ulug'larning maslahatlari bilan darajasidan va martabasidan mahrum qilib, xo'b urgaysiz, lozim

bo'lsa Sibirga badarg'a qilinsa, ziyonlarning hammasini uning zimmasiga qo'yilsa va mening ushbu arizam yuzasidan hukm qilinsa.

Ushbuning rostligi uchun Mirgorod shahrining asilzodalaridan Ivan Nikifor o'g'li Dovgochxun qo'limni qo'ydim».

Kotib arizani o'qib bitirgan edi hamki, Ivan Nikiforovich bosh kiyimini olib ta'zim qildi va chiqib ketmoqchi bo'ldi.

Orqasidan sudya:

– Ivan Nikiforovich, qayerga borasiz? Birpas o'tiring, choy iching! – dedi. – Orishko, nega ser-rayib turibsan, nodon qiz, mirzalar bilan ko'z qisishganining nimasi? Bor, darrov choy keltir!

Lekin Ivan Nikiforovich uydan olislab ketganiga qo'rqib, shuningdek, xavf-xatardan omon qolganiga o'zining vahimasi kelib allaqachon eshikdan chiqib jo'nab qoldi va chiqib ketarkan:

– Ovora bo'lmaning, men o'zim... – deganicha orqasidan eshikni bekitib, hammani hayratda qoldirib, chiqib ketdi.

Boshqa hech chora qolmadidi. Ikkala ariza ham qabul qilinib, g'alati mojaro boshlanmoqchi bo'ldiku, biroq kutilmagan bir hodisa bo'lib, bu mojaro yana avj olib ketdi. Sudya kotib va noibi bilan tashqariga chiqqanda va mirzalar arzga kelganlar keltirgan tovuq, tuxum va nonlarni, somsa, kulchalarni endi yig'ishtirib to'rvaga solayotganlari-da, to'satdan bir qora echki ichkari kirib, barchani taajjubda qoldirib, somsa va nonga tegmasdan stolning bir burchagida osilib turgan Ivan Nikiforovichning arizasini tishlab qochdi. Qora echki qog'ozni olib shunday qochdiki, chizg'ich va si-yohdonlarni otib, quvlagan sipohiylar yugurgan bilan yetolmadilar.

Nihoyatda hayratlanarli bu hodisa hammani algov-dalg'ov qildi, chunki arizadan hali nusxa ko'chirilguncha ham yo'q edi. Sudya, yo'q, uning kotibi bilan noibi qulqoq eshitmagan bunday hodisa to'g'risida ko'p mojarolashdilar. Aloha, bu to'g'rida shahar hokimiga xat yozishga qaror qildilar, negaki, bu xil ishning tergovi ko'proq shahar mirshabxonasiga tegishli edi. Shu kuniyoq shahar hokimiga 389-raqamli xat yuborildi va bu ish ustida yana bir qiziq voqeа bo'lib o'tdiki, buni o'quvchilar endigi bobdan bilib oladilar.

V BOB

Bu bobda Mirgorod shahridagi ikki hurmatli zotning qilgan maslahatlari bayon qilinadi

Ivan Ivanovich uyidagi yumushlardan bo'shab, doimiy odaticha, picha cho'zilmoq uchun endigna ayvonga chiqqan ediki, eshik tomondan bir narsa qizarib ko'rindi, uni taajjubga solib qo'ydi. U narsa shahar hokimining yengi uchiga tikilgan qizil qaytarmasi bo'lib, yoqasi singari bu yengi ham ishqalanaverib qayishdek yiltirab ketgandi. Ivan Ivanovich o'zicha o'yladi. Pyotr Fyodorovichning gaplashib o'tirganini va qo'llarini silkibsilkib juda shitob bilan kelganini ko'rgach, hayron bo'ldi, chunki hokim bu xilda ahyon-ahyonda shoshib yurmasa, tez yurish unga odat emas edi.

Hokimning mundirida sakkizta tugmasi bor edi, to'qqizinchi tugmasi bundan ikki yil burun butxonada bo'lgan bir marosim chog'ida uzilib tushgan va yo'qolgan edi, shundan beri ellikboshilar har qancha qidirsalar va shahar boshlig'i har kuni aminlardan raport olganida: «Tug-

ma topilmadimi?» – deb doim so'rab tursa ham, tugma haligacha topilgani yo'q. Sakkiz tugmasi xotinlar ekkan loviyadek, biri chapga, biri o'ng-ga qadalgan edi. Hokimning chap oyog'iga oxirgi urushda o'q tekkanligidan, yurganda oyog'ini shunday tashlar ediki, o'ng oyog'ining hamma mehnati bekorga ketar edi. Hokim oyog'ini qancha tez qimirlatsa, shuncha orqaga qarab ketar edi. Shu tufaylidan hokim ayvonga yetib borguncha ancha vaqt o'tib, Ivan Ivanovich hokimning qo'llarini bunday silkitib ketayotganligining sababi to'g'risida bir qancha nari-beri xayollarga bor-di. Buning ustiga, hokimning yonida, hatto yangi qilichchasi ham borligini ko'rib, yanada ko'proq hayron qoldi.

Yuqorida aytganimizdek, har narsaga qiziqsinib qaraydigan Ivan Ivanovich hokimning ko'p mashaqqat bilan zinaga zo'rg'a chiqib kelayotg'anini va bir ko'targanda zinadan zinaga darrov chiqa olmay, xit qilayotgan oyog'i bilan aytishib, yerga qarab kelayotganini ko'rgach, sabr qilolmay:

– Assalomu alaykum, Pyotr Fyodorovich, – deb so'rashdi.

Shahar hokimi javobida:

– Qadrdon do'stim, valine'matim, Ivan Ivanovichga xushvaqtlik tilayman, – dedi.

– Marhamat qilib o'tiring, aftidan, ancha char-chaganga o'xshaysiz, zeroki oqsoq oyog'ingiz ko'p qiy nabdi...

Shahar hokimi, novcha odam – pakanaga, bilimdon odam – raqs muallimiga qaragandek nazar bilan Ivan Ivanovichga qarab:

– Oyog'im qursin, – dedi va bu qarashida oyog'ini cho'zib, bir depsinib qo'ydi. Ammo uning

botirlik ko'rsatmoqchi bo'lib qilgan bu harakati qaltis bo'ldi, chunki o'zi gandiraklab ketdi, tumshug'i zinaning panjarasiga tegdi, lekin hokim quvlik qilib, sir bermasdan darrov o'zini rostlab olib, go'yo tamaki qutisini olmoqchi bo'lgan-dek, qo'llini kissasiga soldi. – Qadrli do'stim, valine'matim, Ivan Ivanovich, men sizga aytsam umrimda shunday urushlarni ko'rganmanki, asti qo'yavering. Hazil emas, rost. Masalan, ming sakkiz yuz yettinchi yildagi urushda... Ey, men sizga bir nozanin nemis xotinning uyiga devoridan oshib tushganimni aytib beray. – Bu o'rinda hokim bir ko'zini qisib, ayyorona va makkorona iljayib qo'ydi.

Ivan Ivanovich hokimni bu xil so'zlardan to'xtatmoqchi va tezroq kelishining sabablarini bilmoqchi bo'lib;

– Bugun qayerda edingiz? – deb so'radi Ivan Ivanovich hokimdan. «Menga nima gapingiz bor», deb so'ragisi ham keldi, lekin odob va muomalaning nozik tomonlarini yaxshi bilganidan bunday savolning chakkiligini darrov payqadi va sabr-toqat qilib, gapning muammosi yechilishini kutdi, ammo yuragiga g'ulg'ula tushib, yuragi taka-puka edi.

– Xo'p bo'ladi, qayerga borganimni aytib beray, – dedi hokim. – Avvalo, shuni aytayki, bugun juda yaxshi vaqt...

Bu so'zni eshitganda Ivan Ivanovich o'takasi yorilguday bo'ldi.

– Lekin shoshmang, bugun men huzuringizga zarur bir ish bilan keldim, – dedi hokim.

Uning yuzi boyaga zinaga chiqib kelayotgan-dagidek tajang bo'ldi. Ivan Ivanovichning a'zoyi

badani larzaga kelib, bezgak tutganday qaltilay boshladi va o'z odati bo'yicha:

– Nimasi zarur bo'lipti, shunchalik zarur ish-mi? – deb so'radi darrov.

– Mana, marhamat qiling, ko'ring, valine'matim va aziz do'stim Ivan Ivanovich, avvalo xafa bo'lmasangiz aytay, siz mening tomonimdan bo'lsa, o'zingiz ko'rib turibsiz, menga baribir, lekin hukumatning amrini bajo keltirish kerak, hukumatning amri shuni talab qiladi; siz izzat-hurmat qoidasini buzdingga!

– Pyotr Fyodorovich, gapingizning ma'nosini uqolmadim?

– Hurmatli Ivan Ivanovich! Nega uqolmadim deysiz! O'zingizga qarashli hayvoningiz nihoyatda muhim podsholik qog'ozini olib qochibdi-yu, siz tag'in hech narsa uqmadim deysiz!

– Qanaqa hayvon u?

– Ijozatingiz bo'lsa aytaman, qora echkingiz.

– Menda nima ayb? Sudning darvozaboni eshikni nega ochadi!

– Ammo, Ivan Ivanovich, hayvon sizniki, bas, ayb sizda.

– Meni bir hayvonga teng qilganingiz uchun sizga tashakkurimni bildiraman.

– Hoy, Ivan Ivanovich, men sizga bunday deganim yo'q, azbaroyi Xudo, deganim yo'q! O'zingiz insof bilan aytинг; ulug'larning farmoyishiga muvofiq, ko'chalarda, xususan, shaharning katta ko'chalarida noplak hayvonlarning yurishlari mandir, buni siz beshak-beshubha yaxshi bilasiz. O'zingiz aytинг, bunday ish qonunga xilof emasmi?

– Bilmayman nima deyapsiz? Echki ko'chaga chiqsa nima qilipti?

– Shoshmang, shoshmang, men sizga aytsam, Ivan Ivanovich, qat'yan mumkin emas. Bizning qo'lizmizdan nima keladi, ulug'larning xohishi shu ekan, bo'y sunmoq kerak. Gohida tovuq va g'ozlar darvoqe, ko'chaga, hatto bozor joyga ham chiqadilar, ammo shoxli echki, qo'y-qo'zilarni xaloyiq to'planadigan joyga qo'ymaslik to'g'risida o'tgan yili buyruq bergan edim va xaloyiqni to'plab, bu buyruq o'qib berilsin, deb o'sha vaqtida buyurgan edim.

– Yo'q, Pyotr Fyodorovich, bu gaplardan murod menga faqat ozor yetkazmoqdir.

– Valine'matim va aziz do'stim, harne desangiz deng, lekin muroding menga ozor yetkazish deya olmaysiz. Esingizga oling, o'tgan yili tomingizni yopganingizda, hammaga joriy qilingan o'lchovdan biroz baland yopganingizda og'iz ochib, bir so'z aytmadim. Qaytaga o'zimni bilmaganga solib ketdim. Aziz do'stim. Imoningiz komil bo'lsinki, bu gal ham haligi... Lekin bo'ynimdag'i vazifam, xullas shuki, shaharning tozaligiga qarab turmog'im kerak. O'zingiz andisha qiling, shaharning katta ko'chasiga birdan...

Shaharingizning katta ko'chalari xo'b yaxshi-da! Xotin-xalajlar keraksiz, tashlandi narsalari borki, hammasini shu ko'chaga chiqarib tashlaydilar.

– Ivan Ivanovich, xafa bo'lmasangiz aytayki, men sizga emas, siz menga ozor yetkazyapsiz! To'g'ri, gohida tashlaydilar, ammo ko'pincha devorlar, saroy va omborlar tagiga tashlaydilar, nayinki katta echki katta ko'chaga va chorsiga chiqib yursin, bu shunday ishki...

– Pyotr Fyodorovich, nima bo'lipti, echki ham Xudoning maxluqi!

– Xo'p. Sizning ulamo kishi ekaningizni butun olam biladi. Albatta, men hech qanday ilm o'qigan emasman, xat yozishni o'ttiz yoshga kirganimda o'rgandim. Askardan chiqqan odam ekanimni o'zingiz ham bilasiz.

Ivan Ivanovich: «Hm», – deb qo'ydi.

Hokim yana so'z qotib:

– Ha, ming sakkiz yuz birinchi yilda qirq ikkinchi tirandozlar polkining 4-rotasida poruchik edim. Agar bilsangiz, rota komandiri kapitan Yeremeyev edi, – dedi.

Ivan Ivanovich tamaki qutisini ochib, tamakini uqalab turgan edi, hokim gapini tamomlab, barmog'ini qutiga tiqdi.

Ivan Ivanovich yana: «Hm», – deb qo'ydi.

Hokim yana so'z boshlab:

– Hukumut amriga itoat qilish vazifamdir. Ivan Ivanovich, bilasizki, sud mahkamasidan podsholik qog'ozini o'g'irlagan odam jinoyatkorlar qatorida jazoga tortiladi, – dedi.

– Bilaman, lozim bo'lsa, sizga ham o'rgatib qo'yaman. Bu so'zlar odamlarga taalluqlidir, chunonchi, qog'ozni siz o'g'irlagan bo'sangiz, ammo echki hayvondir, Xudoning bir maxluqidir.

– Ma'qul, ammo qonunda «o'g'irlagan» deyilgan... yaxshi diqqat qilishingizni so'rayman, o'g'irlagan deyilgan, xolos; na jinsi, na nasabi va na navi aytilgan, binobarin, hayvon ham aybdor qatoriga kiradi. Ixtiyor sizda, ammo hayvonni jazoga tortib, hukm chiqarishdan avval tartib buzuvchi bolgandan uni mirshabxonaga eltmoq kerak.

Ivan Ivanovich parvo qilmay:

– Yo'q, Pyotr Fyodorovich! Bunga yo'l qo'ymayman! – dedi

– Ixtiyor sizda. Lekin men kattalarning amrini bajo keltirmog'im kerak.

– Siz meni qo'rqitmoqchimisiz? Qo'siz cho'loq zobitingizni yuborib, olib ketmoqchimisiz? Xizmatkor xotinga buyurib qo'yaman, kelsa kosov bilan urib haydaydi. Sog' qo'lli ham cho'loq bo'ladi

– Siz bilan janjallahshib o'tirishga tobim yo'q. Agar echkingizni politsiyaxonaga topshirishni istamasangiz, bilganingizni qiling. Basharti, uni so'yib tandir kabob qilsangiz, bir juftini menga yuboring. Oqsochingiz Gapka echkining yog'likkina go'shtidan mazali tandir kabob qiladi-ku, shundan yuboring, xotnim Agrafena Trofimovna uning tandir kabobini juda yaxshi ko'radi.

– Tandir kabob desangiz, bir lagan yuboraman.

– Valine'matim va aziz do'stim, sizdan minnatdorman, endi ruxsat bo'lsa, yana bir so'zim bor, aytay: sudya va jamiki oshna-og'aynilarimiz sizni do'stingiz Ivan Nikiforovich bilan yarashtirib qo'yishni menga topshirdilar.

– Nima! Johil bilan-a! Unday qo'rs bilan yara-shaymi! Aslo! Hech yarashmayman! – dedi Ivan Ivanovich. Uning juda o'jarligi tutib turgan edi.

Hokim burnaki otib turib dedi:

– Bilganingizni qiling. Men sizga maslahat berolmayman, shunday bo'lsa ham, aytamanki, hozir-ku orangizga nizo tushibdi, ammo yarash-ganizingizdan keyin...

Ivan Ivanovichning shunday bir odati bor edi-ki, qachonki gapni bas qilmoqchi bo'lsa, darrov bedana ovidan gap ochar edi.

Shunday qilib, hokim muddaosiga yetolmay, noiloj yo'liga qaytdi.

VI BOB

Bu bobning bayonini o'quvchi uning mazmu-nidan bilaveradi

Suddagilar bu voqeani har qancha yashirmoqchi bolsalar ham, Ivan Ivanovichning echkisi Ivan Nikiforovichning arizasini olib qochgani ertasigayoq butun Mirgorodga ma'lum bo'ldi. Bu gapni, avvalo, hokimning o'zi bexosdan aytib qo'ydi. Voqeani Ivan Nikiforovichga aytganlarida, u kishi hech narsa demasdan: «Qora echkimasmi?» – deb so'radi, xolos.

Lekin shu payt bunda hozir bo'lgan Agafiya Fedoseyevna Ivan Nikiforovichga dag'dag'a qilib, koyib ketdi:

– Endi kim bo'lding, Ivan Nikiforovich? Agar bo'sh kelsang, hamma seni ahmoq deb masxara qiladi! Bunday isnoddan keyin asilzodaling qoladimi! Qandolatni yaxshi ko'rarding, endi qandolatfurush xotinlardan battar odam bo'lib qolasan.

Qaqajon xotin aloha uni ko'ndirdi. Afti xunuk, kir-mog'or ko'k kamzulining tirsagiga yamoq tushgan, o'rta yoshli, siyoh yalagan isqirt bir odamni topdi. Uning allaqayerdan topgan bu odami etigini qora moy bilan moylab olgan edi va har qulog'iga uchtadan qalam qistirgan, bir shishani siyohdon qilib bog'ich bilan tugmasiga osib olgan, bir o'tirganda to'qqizta somsani bermalol yeb va yana bittasini cho'ntagiga urar edi; bir taxta tamg'alik qog'ozga har xil tuhmatlardan shuncha sig'dirar ediki, hech qanday mulla bir necha yo'talmasdan, aksa urmasdan o'qiy olmasdi. Odam siyohi bo'lмаган bu maxluq ko'p azob va mashaqqat bilan uzoq vaqt yozdi va ko'p

urinib, aloha shu mazmunda bir shikoyatnama tayyorladi:

«Mirgorod shahar sudiga asilzodalardan bo'lgan Ivan Nikifor o'g'li Dovgochxundan.

Bundan muqaddam bergen arizam vajidan, menkim asilzodalardan Ivan Nikifor o'g'li Dovgochxundirman, beraman ushbu arizani azbaroyi asilzodalardan Ivan, Ivan o'g'li Pererepenko ustidan bundan muqaddam berilgan ariza xususida. Ammo mazkur arizani berishning sababi bo'lgani uchun chunonchi bundan muqaddam berilmish arizamga Mirgorod shahar sudyasining roziligi bo'lgan edi, ya'ni, shu xususdaki, bundan muqaddam arizada bayon etilgan qora echkining beodobligi va o'zboshimcha qilig'i odamlardan maxfiy saqlanar emish va uning axbori boshqa odamlardan bizga eshittirilgani xususida sudya mahkamasida bo'lmish mazkur beparvolik, al-batta, bir yomon niyatdan xoli bo'lmagani sabab uning sudga berilmog'i lozim zeroki mazkur echki beaqi hayvondir, uning qog'oz o'g'irlashi aqlga sig'maydi. Mening g'anitim bo'lgan va o'zini asilzoda hisoblab yurgan Ivan, Ivan o'g'li Pererepenkoning, ya'ni, o'g'ri va zo'ravonlikda va kufrlikda barchaga ma'lum bo'lgan mazkur g'anitim echkini o'zi o'rgatib yuborganligi shundan ma'lumdir. Lekin mazkur Mirgorod sudyasi xushomadgo'ylik odati bo'yicha o'zi ham bilmay maxfiy yo'l bilan rizolik bergandir, chunki shunday bir rizolik bo'lmasa, ushbu echki hech bir vaj bilan qog'oz o'g'irlamoqqa qobil bo'limas edi. Mirgorod shahar sud mahkamasi xizmatkorlar vajidan ko'p yolchigan. Buning isbotiga bir ko'zi g'ilay va bir qo'li cho'loq bo'lsa ham, ammo ech-

kini haydash va uni tayoq bilan urish qobiliyati yetarli bo'lgan bir zabitning doim eshik tagida poylab o'tirganini ko'rsatsak kifoyadir. Ushbudan aniq ma'lum bo'ladiki, mazkur Mirgorod sudyasi bu ishga o'zi bosh qo'shgan, ya'ni, mening g'animmim gunohiga sherikdir va harom yo'l bilan topilgan foydani o'ttada taqsim qilganlari beshak va begumondir. Mazkur va nomi zikr etilmish o'zini asilzoda deb yurgan muttaham Ivan, Ivan o'g'li Pererepenko esa bundoq badkorlarga avvaldan sherik bo'lib keldi. Shu sababdan mazkur shahar sudyasiga men Ivan Nikifor o'g'li Dovgochxon ushbuning axborot va ma'lumoti uchun ma'lum qilamanki, mazkur qora echkidan yoki uning bilan sherik bo'lgan Pererepenkodan mazkur ariza tortib olinmasa, arizaning mazmuni yuzasidan va mening foydamga odilona hukm chiqarilmasa, u vaqtida menkim asilzodalardan Ivan Nikifor o'g'li Dovgochxon sudyaning shu xilda qonunga xilof amaliy xususida oliy sudga ariza beraman va ishni o'z yo'li bilan mazkur joyga ko'chiraman, deb Mirgorodning asilzodalaridan Ivan Nikifor o'g'li Dovgochxon bo'laman».

Bu ariza darrov ta'sir qildi. Har bir ko'ngilchan odam qo'rqaq bo'lganidek, sudya ham qo'rqaqlar jumlasidan edi. Sudya kotibiga qaradi, lekin kotibi og'zini ochmasdan yo'g'on «hm» deb qo'ydi va basharasida ajab bo'pti degandek shunday fitnaning quvlik alomatlari ko'rindiki, birovni vasvasa qilib tuzog'iga ilintirganda faqat iblisning vajohati shunday bolardi. Ikki do'stni yarashtirib qo'yishdan boshqa chora qolmadi. Lekin bu yo'lda qilingan shuncha tadbirlardan murod hosil bo'lmasdi, bas, qanday qilib yarashti-

rish kerak? Ammo shunday bolsa ham, yana bir marta urinib ko'rmoqchi bo'ldilar. Lekin Ivan Ivanovich ko'nmasligini uzil-kesil aytdi, hatto qattiq jahli chiqdi. Ivan Nikyforovich esa javob o'rniga orqasini o'girib oldi va hech bir so'z aytmadni.

Shundan so'ng da'vo ishi nihoyatda tezlik bilan yurishib ketdi. Sud mahkamalari ishlarni bunday jadallik bilan ko'rishdan nom chiqarganlar-ku! Arizani oldilar, daftarga yozdilar, raqam qo'ydilar, tikdilar-tirkadilar, imzo chekdilar, xul-las, bu ishlar bir kunda taxt bo'lib, javonga taxlandi va bunda yotaverdi, bir yil, ikki yil, uch yil yotdi. Bu orada qancha-qancha qizlar erga tegib, Mirgorod shahrida yangi ko'cha chiqarildi, sudyaning bitta jag' tishi va ikkita oziq tishi tushdi. Ivan Ivanovichning hovlisida o'ynashib yuradigan bolalar burungidan ancha ko'paydi. «Bolalarning qayerdan paydo bo'lganini yolg'iz Xudo biladi!», Ivan Nikyforovich Ivan Ivanovichning qas-diga, burungisidan biroz ichkariroq bolsa hamki, yangi g'oz katagi soldirdi va Ivan Ivanovich tomonini batamom urib tashladi. Shunday qilib, bu ikki zot yuz ko'rmas bo'ldilar, lekin da'vo ishi siyoh to'kilaverib marmardek bo'lib ketgan javon ichida batartib taxlanib yotaverdi.

Lekin shu orada Mirgorod uchun nihoyatda muhim bir hodisa bo'ldi, ya'ni, shahar hokimi katta bir ziyofat berdi, bu ziyofatning dabdabsini, bundagi rang-barang odamlarni tasvirlash uchun qalam va bo'yoqni qaydan olay! Soatin-gizni ochib qarang, nimalar ko'rasiz? Chalkash, ishkal bir narsani-da. Endi hokimning hovlisini ham ko'z oldingizga keltiring, bunda ham g'ildiraklarning miqdori soat ichidagidan ko'p

bo'lsa ko'pki, oz emas? Rang-barang brichka va aravalarning son-sanog'i yo'q! Birining orqasi keng, oldi tor, birining orqasi tor, oldi keng, biri ham brichka, ham arava, biri na brichka, na arava, ba'zilari g'aram qilib qo'yilgan pichanga yoki do'kondor semiz xotinga o'xshaydi, yana biri abjag'i chiqqan juhudga yoki etidan ajramagan murdaga o'xshaydi, ba'zilari bir yondan qaragenda, uzun naylik sarxonaga o'xshaydi, ba'zilari juda xunuk, xayolda bor, haqiqatda yo'q bahaybat, vahshatli narsa deyavering.

Tirband bo'lib tigilib yotgan bu aravalalar orasida yo'g'on chorcho'plari tob tashlagan, derazaga o'xshab soyaboni qiyshayib qolgan bir narsa hammadan baland bo'lib, qo'nqayib turar edi.

Turli-tuman yaxshi chakmon, to'n, qalpoq va tel-pak, rang-barang bosh kiyim kiygan aravakashlar hovlida ot sovitib yurar edilar. Hokim to'ra xo'b ziyofat berdi. Mehmonlarni birma-bir sanab chiqsam maylimi: Taras Tarasovich, Yevpl Akinfovich, Yevtixiy Yevtixiyevich, Ivan Ivanovich, anavi emas, boshqa Ivan Ivanovich, Savva Gavrilovich, o'zimizning Ivan Ivanovichimiz, Yelevferiy Yelevferiyevich, Makar Nazaryevich, Foma Grigorovich... Bo'ldi-yey! Charchadim, yozaverib qo'lim charchadi! Xotinlarni ayting, xotinlarni!.. Qorachadan, oqdan kelgan, past bo'yli, baland bo'yli. Ivan Nikiforovichga o'xshagan semizlar va hokim to'ra qilichining qiniga sig'ib ketadigan nozik nihol xotinlar!.. Durrachalari rang-barang, qizil, sariq, jigarrang, ko'k yashil, yangi, ag'dargan, ag'darmagan, so'kib tikilgan har xil ko'ylaklar, ro'molchalar, sumkalar! Bechora ko'zlar, sizdan ajraldig! Bu tomoshadan keyin nimaga yarar-

dingiz! Yozilgan dasturxonning uzunligini ayting! G'ovur-g'ovur gapni, shovqin-suronni qarang! Bu g'ovur-g'ovur oldida tegirmon ip esholmay qoldi, qo'lidan, toshidan, parragidan chiqqan to'polon ham bunchalik emas. Gaplari nima to'g'risidali-gini aytolmasam, ehtimol. Lekin gaplari havoning issiq-sovuqligi, it, bug'doy, chepik va toycha singari foydali va zavqli narsalar to'g'risida bo'lsa kerak deb o'layman.

Bir mahal Ivan Ivanovich, unisi emas, bir ko'zi g'ilay boshqasi:

– Men shunga hayronmanki, g'ilay o'ng ko'zim (Ivan Ivanovich qiziqchi edi) bu yerda Ivan Nikiforovich Dovgochxun janoblarini ko'rolmayapti-ya, – dedi.

– Kelishni istamadi, – dedi hokim.

– Ular, ya'ni, Ivan Ivanovich bilan Ivan Nikiforovich bir-birlari bilan urishib qolganlariga (xudoga shukr) ikki yil bo'ldi, biri bor joyga unisi o'lsa ham bormaydi.

– Hali shunaqami?! – g'ilay Ivan Ivanovich bu o'rinda ko'zini yuqori qilib, qo'llarini ko'ksiga oldi.

– Ko'zi sog'lar bu dunyoda murosa-yu madora qilolmasalar, mendek g'ilaylar nima qilsin!

Uning bu gapiga hamma kulib yubordi. G'ilay Ivan Ivanovich juda askiyachi bo'lib, qiziqchilik qilgani uchun hammaga manzur edi. O'zi qotmadan kelgan, baland bo'yli, tivit chakmon kiyagan, burni tepasiga malham qo'ygan, hanuzgacha bir burchakda o'tirgan, hatto burniga pashsha kirganda ham pinagini buzmagan bir odam bir mahal o'midan turib, g'ilay Ivan Ivanovichning atrofiga to'planganlar oldiga keldi. Atrofiga odam to'planganini ko'rib, Ivan Ivanovich dedi:

– Menga qaranglar, bu yoqqa qaranglar! G'ilay ko'zimni xo'b tomosha qildingiz, endi bas, undan ko'ra ikki do'stimizni yarashtirib qo'yaylik! Hozir Ivan Ivanovich qiz va juvonlar bilan ovora; bildirmasdan sekingina Ivan Nikiforovichni chaqirtirib kelib, ikkovini to'qnashtirib qo'yaylik.

Ivan Ivanovichning bu taklifi hammaga ma'qul tushdi va hokimning ziyo fatiga, albatta, yetib keling deb Ivan Nikiforovichnikiga darrov odam yubormoqchi bo'ldilar. Lekin masala ishkalga tushib, bu muhim vazifani kimga topshirish to'g'risida o'ylashib qoldilar. Elchilikka kimning qobiliyati yaxshiliги to'g'risida rosa tortishdilar; ko'p tortishuvlardan keyin nihoyat bu vazifani Anton Prokopyevich Golopuzga topshirishga qaror qildilar.

Ammo o'quvchini bu g'alati odam bilan tanishtirmoq kerak. Anton Prokofyevich tom ma'nosi bilan nihoyatda pokiza va yuvosh odam edi. Mirgorodning ulug'lari u kishiga ro'molcha in'om qiladimi yoki ust-bosh sadaqa qiladimi, qulluq deb olaveradi; birov burniga chertsa ham, qulluq qilar edi. Agar undan «Anton Prokofyevich, to'nin gizning o'zi mosh rang, yengi ko'kdan» deb so'rasa, hamisha: «Sizda shu ham yo'q, shoshmang, eskirsa bir xil bo'lib qoladi», – deb javob berardi. Darvoqe, ko'k movuti oftobdan aynib, mosh rangga aylandi va sekin-sekin to'nining hamma yeri bir xil bo'lib qoldi. Ammo shunisi taajjubki, Anton Prokofyevich aksari, yozda movut to'n kiyib, qishda yupun kiyinardilar. Anton Prokofyevichning uyi yo'q. Avval shaharning bir chekkasida uyi bor edi, lekin uni sotib puliga uchta to'riq ot va kichikroq brichka oldi va boylarnikiga mehmondorchilikka shu ot-aravasini qo'shib boradi-

gan bo'ldi. Uch otning tashvishi ko'p bo'lib, buning ustiga yem-xashakka ham pul lozim bo'lganidan, Anton Prokofyevich ot-aravani bir dona g'ijjak bilan cho'ri qizga alishtirdi va ustiga yigirma besh so'lkavoylik qog'oz ham oldi. Keyin g'ijjakni sotdi. Cho'ri qizni saxtiyondan zar qadab tikilgan tamaki hamyonga alishdi. Hozir unikidek tamaki hamyon hech kimda yo'q. Bu davlatni deb qishloqma-qishloq aravada yurishdan bebahra bo'ldi, shahardan tashqari chiqolmay, har kimnikida yotib yurdi, ayniqsa, uning burniga chertishdan zavq oluvchi boyonlarnikida ko'proq qolib ketardi. Anton Prokofyevichning o'zi ovqatga xo'ra, xo'rakxo'r edi, «durak» va «melnik» degan qarta o'yinlarini yaxshi bilardi. Ta'bi yuvosh bo'lib, har kimga bo'yin ega-verar edi, shuning uchun bosh kiyimi bilan has-sasini qo'nga olib, yo'nga ravona bo'ldi.

Yo'lda keta turib, Ivan Nikiforovichni ziyofatga qanday qilib olib kelsam ekan, deb bora-borguncha o'ylab ketdi. O'zi garchi hurmatli bo'lsa ham, bu odamning tabiatida o'jarlik bir muncha g'olib bo'lganidan, uning bu harakati behudamasmi, darhaqiqat yotgan joyidan turmog'i ancha mashaqqat bo'lgan odam qanday qilib bora oladi? Bordi-yu, o'rnidan turdiyam deylik, lekin ashadiy dushmani borgan joyga u nechuk borsin? Shunday qilib, Anton Prokofyevich o'ylagan sari chatoqlar chiqaverdi. Havo dim, kun issiq, u terga g'arq bo'lib borar edi. Ammo Anton Prokofyevich hammaga burnini chertirib yursa ham, o'zi ko'p joylarda ancha quv bo'lib, faqat mol alishtirishda toleyi past edi. Qachon o'zini tentaklikka solishni yaxshi bilar edi va gohda dono kishilar ham ilojini qilolmagan ishkallarni osonlik bilan eplab ketar edi.

Uning topog'on aqli Ivan Nikiforovichni qanday qilib ko'ndirish yo'lini o'ylab tavakkal qilib borayotganida kutilmagan bir hol uning shash-tini qaytarib qo'ydi. Bu o'rinda o'quvchiga aytib qo'ysak zarar qilmaydigan bir gap bor; Anton Prokofyevichning ajab g'alati bir shimi bor edi, qachonki bu shimni kiysa, itlar talab pochasi-dan tishlar edi. Falokat bosib bugun ittifoqo shu shimni kiyib chiqqan ekan. Shu sababdan boyagi mulohazalar bilan bo'lib, o'y o'ylab ketayot-gan chog'ida har tarafdan hurgan itlarning ovozi qulog'iga eshitildi. Anton Prokofyevich shunday qattiq baqirdiki, (baqiroqlikda hech kim unga bas kelolmas edi), ma'lumimiz bo'lgan kampir bilan ro'dapo kamzul kiygan boladan tashqari, hatto Ivan Ivanovichning hovlisidagi bolalar ham yu-gurishib chiqdilar, itlar garchi bir pochasidangi-na tishlab qolgan bo'salar ham, u shashti qaytib, popugi pasayib qoldi va qo'rqa-pisa zo'rg'a eshik tagidagi zinaga chiqdi.

VI BOB

Va oxirgisi

Anton Prokofyevich bilan hamma hazilkash edi. Shuning uchun Ivan Nikiforovich ham uni ko'rgani hamon:

– Ha, assalom-u alaykum, itlar bilan o'ynashib nima qilasiz? – deb so'radi

– Ey, qirilsin hammasi, kim o'ynashibdi? – dedi javobida Anton Prokofyevich. – Yolg'on aytasiz.

– Azbaroyi Xudo, rost! Pyotr Fyodorovich sizni ziyo fatga aytib yubordilar.

– Hm!

– Azbaroyi Xudo, shunday iltimos qildilarki, aslo qo'yavering. Nikiforovich meni o'ziga dushman bilib qochadi, suhbatlashib birpas o'tirib ketgani hech kelmaydi, – dedi.

Ivan Nikiforovich iyagini silab qo'ydi.

– «Agar Ivan Nikiforovich bugun kelmasa, men har baloni o'ylashga haqim bor. Mening haqimda bir g'arazi bordir! Anton Prokofyevich, Xudo xayringizni bersin, nima qilsangiz ham, ishqilib, olib keling!» – dedi. – Nima deysiz, Ivan Nikiforovich, borasizmi? Bugun u yerda ulfatchilik joyida!

Ivan Nikiforovich zinapoyada turib, kekirdagini yirtib, zo'r berib qichqirayotgan xo'rozni tomosha qilaverdi.

Bo'sh kelmagan xira elchi so'zini davom ettirib:

– Ivan Nikiforovich, bugun Pyotr Fyodorovichnikiga shunday a'llo baliqlar va toza ikralar kelganki, aslo qo'yavering! – dedi

Ivan Nikiforovich bu gapni eshitganda, boshini bu yoqqa burib, gapga astoydil qulq sola boshladi.

Bundan keyin elchi g'ayratga minib, yana dadil bo'ldi va Ivan Nikiforovichning hanuz qimirlamasdan yotganini ko'rib:

– Qani, tezroq bo'ling, yuring, Foma Grigoryevich ham o'sha yerda! Qani, nima qildingiz? Qani bo'ling, borasizmi, yo'qmi? – dedi qistab.

– Borgim yo'q.

Uning «borgim yo'q» degan bu gapi Anton Prokofyevichni hayron qildi. Chunki u mening elchiligidim, biroz o'jar bolsa ham, hurmatli bu odamni bormoqqa moyil qildi deb o'ylagan edi, ammo «xo'p» o'rniga, uzil-kesil «yo'q»ni eshitdi.

– Nega borgingiz yo'q? – so'radi ranjib, Anton Prokofyevich har narsaga bunday ranjiyvermas

edi, hatto mayna qilib zavqlanadigan sudya bilan shahar hokimi yonib turgan qog'ozni uning boshiga tashlaganlarida ham sira ranjimagan edi.

Ivan Nikiforovich burnakisidan otib oldi.

– Ixtiyor o'zingizda, Ivan Nikiforovich, yo'lin-gizni to'sayotgan nimaligini bilmayman?

Ivan Nikiforovich aloha:

– Borib nima qilaman? Anavi bosmachi ham o'sha yerda-da! – dedi.

«Zo'ravon» deb Ivan Ivanovichni aytar edi.

– Xudoyo tavba! Yaqindagina...

– Azbaroyi Xudo, bormaydi! Xudo ursin, bormaydi! Yolg'on aytsam, turgan joyimda yashin tegib o'lay! – dedi soatiga o'n martadan qasam ichishga doim tayyor turgan Anton Prokofeyevich
– Qani, Ivan Nikiforovich, yuring!

– Anton Prokofeyevich, yolg'on aytasiz, ayting, o'sha yerdami u?

– Azbaroyi Xudo, yo'q! Yo'q dedim yo'q! Agar bo'lsa turgan joyimda qimirlamasdan o'lay! O'zin-giz o'ylasangiz bo'lmaydimi! Nega yolg'on so'zlay! Qol-oyog'im qursin... Ana endi ham ishonmaysizmi! Oldingizdan nari ketmay o'lay! Ota-yu onam, o'zim Xudoning rahmatidan benasib bo'laylik! Hali ham ishonmaysizmi?

Buncha qasamlardan keyin Ivan Nikiforovich uning so'ziga ishondi va ro'dapo to'n kiygan xizmatkorlarini chaqirib, shimi bilan xitoyi kamzulini olib kelishni buyurdi.

Ivan Nikiforovichning shim kiyishini, galstugini boshqalar bog'lab qo'yganini va chap yengining qo'llig'i yirtilib ketgan movut kamzulini qanday kiyishini bayon qilib o'tirish ortiqcha deb o'layman. Otlanayotganda hech so'zlamasdan, hatto Anton Prokofeyevich, Turkiyadan keltirilgan

hamyonim bor, shunga bir narsa alishmaymizmi, deganiga ham hech javob bermasdan, o'shshayib jim turganini aytibgina qo'ya qolamiz.

Bu orada majlis ahli Ivan Nikiforovichning keli shini va ikki ulug' yarashib, hammaning orzusi bo'lgan bu ishning saranjom topishini betoqatlik bilan kutar edi. Ko'pchilik Ivan Nikiforovichning kelmasligiga ishongan edi. Hatto shahar hokimi kelmaydi, deb g'ilay Ivan Ivanovich bilan garov boglashgan ham edi. Ammo g'ilay Ivan Ivanovich: «Siz o'q tekkan oqsoq oyog'ingizni tiking, men g'ilay ko'zimni tikaman», – deganidan garov buzilib ketdi, chunki mehmonlar kulishib, hokim juda izza boldi. Soat birdan ancha oshib, mirgorodliklar, hatto katta marosim kunlarida ham allaqachon tushlik ovqatini yeb oladigan vaqt yetgan bo'lsa ham, dasturxonga haligacha hech kim o'tirgani yo'q edi.

Anton Prokofyevich eshikdan kirar-kirmas, darrov hamma uni o'rab oldi. Hammaning savoliga baland ovoz bilan qichqirib: «Kelmadi», – deb kalta javob qildi. Bu gap uning og'zidan chiqar-chiqmas elchilikning uddasidan chiqolmaganligi uchun, har tarafdan uning boshiga so'kish va ta'nalar yog'ilmoqchi bo'lib, hatto ba'zilar burniga chertib-chertib olmoqchi bo'lib turgan edilar, shu paytda eshik ochilib, Ivan Nikiforovich kirib keldi.

Agar shu tobda eshikdan kirib kelgan shayton yoki go'rdan tirilib chiqqan odam bo'lsa ham, bu yerdagilar Ivan Nikiforovichni ko'rganda-gidek hayron bo'lmas edilar. Anton Prokofyevich esa hammani bunday mayna qilganligiga o'zi shod-xurram bo'lib, ikki biqinini ushlagancha qotib-qotib kular edi.

Harqalay Ivan Nikiforovichning bunday tez fur-sat ichida asilzodalarga loyiq va munosib bo'lgan liboslarini kiyib, darrov yetib kelishiga hech kimning aqli yetmas edi. Ivan Ivanovich ayni shu mahal biror hojat bilan tashqariga chiqqan edi, shekilli, yo'q edi. Mehmonlarning hayronliklari yozilib, hushlariga kelgach, Ivan Nikiforovich bilan so'rasha ketdilar va semirib yo'g'on tortgani-ga o'z quvonchlarini izhor qildilar. Ivan Nikiforovich hamma bilan o'pishib ko'rishar va hammaga «balli, balli» der edi.

Bu orada karam sho'rva hidi kelib, uyni bos-di va hiyla ochiqib qolgan mehmonlarning di-mog'ini qitiqladi. Hammalari yopirilishib dasturxon yozig'liq uyg'a kirdilar. Ba'zilari sergap, ba'zi-lari indamas ozg'in va semiz xonimlar turnaqa-tor bo'lib, oldinga o'tdilar va dasturxon tepasiga o'tirdilar. Dasturxonga qo'yilgan anvoi taomlar-ni bayon qilmay qo'ya qolay. Qaymoqli varaqi, karam sho'rva qo'shib keltirilgan kalla-pocha, g'aynoli bilan mayiz qo'shib pishirilgan kurka go'shti, spirtli ichimlikka solinib, ivitib qo'yilgan etikka o'xshagan g'alati bir ovqat, keksa oshpaz-ning lazzatli taomi, ustiga araq sepilgan, alan-galatib keltiriladigan juda g'alati, galatiligi bilan birga xonimlarni xiyla qo'rqtadigan bir xil qovurma va boshqa buning singari alvon turli ovqatlar bor edi, ularni ham aytib o'tirmayman. Bu taom-lar to'g'risida gapirib o'tirmaganimning boisi shu-ki, ularni bayon qilishdan ko'ra, tanovul qilishni afzalroq ko'raman.

Qovurilgan baliq go'shti Ivan Ivanovichga juda yoqib qoldi. U kishi nihoyatda foydali va to'yimli bo'lgan bu taomga juda kirishib ketdilar;

baliqning nozik-nozik qiltanoqlarini terib, likop-chaga tashlar edilar va shu ish bilan mashg'ul bo'lgan paytlarida bexosdan ko'zları qamti to-monga tushar edi, qarasa yo Rabbiy! Ro'parasida Ivan Nikiforovich o'tiribdilar. Xuddi shu paytda Ivan Nikiforovichning ham ko'zi unga tushdi... Yo'q! Ortiq yozolmayman, qo'limga boshqa qalam bering! Bu holatni yozmoqqa endi qalamim sustlik qiladi, joni qolmadi, uchi xit bo'ldi. Hayratdan ikkovining yuzi ham qotib, bezrayib qoldi. Ikkovining ham vajohati shunday ediki, ikki eski qadr-don do'st to'satdan duch kelib qoldi-ku, beixtiyor quchoqlasha ketib, «marhamat qiling» yoki «iltifotingizdan umidvor bo'sam mumkinmi» degan so'zlar bilan qortiqlarini bir-birlariga tutmoqqa tayyor turgandek edilar. Ammo buning baravari-da ikkovining ham vajohati noxush bir falokatni boshlaguday yomon edi. Ikkovi ham terga botdi.

Dasturxon ustida o'tirgan mehmonlarning hammasi, juda diqqat bilan qaraganlaridan hayron bo'lib qoldilar va bir mahallarda yaqin do'st bo'lgan ikki birodarga tikilgancha ag'rayib qoldilar. Xo'rozni qanday axta qilish to'g'risida shirin suhbat bilan ovora bo'lgan xonimlar ham, suhbatlarini to'xtatib, jim bo'lib qoldilar. Hamma jim bo'ldi, bu holat haqiqatan ulug' rassom qalamiga loyiq manzara edi!

Bir mahal Ivan Ivanovich ro'molchasini olib burun qoqishni boshladи. Ivan Nikiforovich esa, u yoq bu yoqqa qarab alanglagach, ochiq turgan eshikni mo'ljallab qoldi. Hokim uning bu harakatini darhol sezdi va eshikni qattiqroq yopishni buyurdi. Shundan keyin ikki do'st ovqatga urinib ketdilar va bir-birlariga sira qaramadilar.

Dasturxon yig'ishtirilgach, ikki eski do'st bir-daniga o'rinalardan turib, sekin chiqib ketish ni-yatida bosh kiyimlarini qidirib qoldilar. Hokim bir imo qilgan edi, Ivan Ivanovich, bunisi, anavi g'ilay, Ivan Nikiforovichning ketiga o'tib oldi. Hokim bo'lsa, Ivan Ivanovichning orqasiga o'tib, ikkovini bir-birga to'qnashtirib qo'l berib ko'rishmagun-la-richa qo'yib yubormaslik uchun orqalaridan ha-deb turtaverdilar. G'ilay Ivan Ivanovich Ivan Ni-kiforovichni itarib yubordi, garchi to'g'risiga itar-may qing'irroq itargan bo'lsa ham, Ivan Ivanovich turgan joyga qarab itardi, lekin hokim to'g'riga qarab itara olmasdan qiyshaytirib yubordi, chun-ki bu paytda uning hech qanday amr-farmoni-ga itoat qilmagan va falokat bosgandek bugun butunlay teskari tomonga siltanglab ketayotgan sarkash oyoqlarini hech eplay olmay qolgan edi (dasturxon tepasida har xil sharob-sharbatlar-ning ko'p iste'mol qilinganidan bo'lsa ham, ajab emas) Shuning uchun Ivan Ivanovich o'zi han-gamatalabligidan orqaga suqilib kirib qolgan qizil ko'ylakli bir xonimning ustiga yiqlilib tushdi. Bu voqeа, albatta, bir falokatning boshi edi. Biroq sudya ishni o'nglamoqchi bo'lib, hokimning o'rniga o'tdi va yuqori labidagi burnakisini bir tortish-da tortib olgach, Ivan Ivanovichni turtib yubordi. Mirgorodda arazlashganlarni rasmi shu yo'l bilan yarashtiradilar, bu rasm koptok o'ziniga o'xshab ketadi. Sudya Ivan Ivanovichni bu tomonga ita-rib yuborgan hamon, g'ilay Ivan Ivanovich ham kuchanib turib, a'zoyi badanidan ter sharillab oqib turgan Ivan Nikiforovichni u tomonga ita-rib yubordi. Ikki do'st har qancha tixirlik qilib ko'nmasalar ham, aloha ularni to'qnashtirdilar,

chunki bu ishga bel bog'lagan azamatlarga boshqa mehmonlar ham xiyla yordam berdilar.

Shundan so'ng ularni to'rt tomondan mahkam o'rab olib, bir-birlariga qo'l berishmagunlaricha qo'yib yubormadilar.

— Ey, Ivan Nikiforovich, ey Ivan Ivanovich, Xudo urdi-ketdi! Axir o'zlarining insof qilib aytingiz: nima talashib urishdingiz? Janjalingiz behuda emasmi? Xudodan, el-u yurtdan uyaling-ey!

Ivan Nikiforovich juda charchaganlikdan hansiray-hansiray (uning yarashmoqqa ko'ngli borligi bilinib turar edi) dedi:

— Bilmayman, nima qilibman Ivan Ivanovichga! Katalogimni buzib, o'zimga qasd qilishining sababi nima?

— Hech qanday yomon niyatim yo'q edi, — dedi Ivan Ivanovich Ivan Nikiforovichga qaramasdan.

— Siz muhtaram asilzodalarning huzuringizda va Xudo qoshida qasam ichamanki, menga g'anilik qilgan bu kishiga hech yomonlik qilganim yo'q. Nega u kishi meni haqorat qilib, nom-u nasabim va mansabimga ziyon yetkazadi?

— Ey, Ivan Ivanovich, sizga qanday zarar yetkazdim men? — so'radi Ivan Nikiforovich.

Yana bir damgacha bunday ginaxonlik qilsalar, adovat o'ti o'char edi. Ivan Nikiforovich burnakisini olib, «marhamat qiling» demoqchi bo'lib qo'llini kissasiga solgan ham edi.

Ivan Ivanovich ko'zini yerdan olmay dedi:

— Siz, muhtaram zotlar, mening darajam va nasli-nasabimni bu yerda zikr qilib bo'lmay turgan qabih iboralar bilan haqorat qildingiz, zarar yetkazmoq bundan ortiq bo'ladimi?

— Ijozatingiz bolsa agar, Ivan Ivanovich, sizga do'stona bir gap aytay! (Ivan Nikiforovich bu

so'zni aytganda Ivan Ivanovichning tugmasini ushladi, uning bu harakati unga juda do'stligini ko'rsatar edi). – Siz o'zingiz qayerdag'i bo'limg'ur gaplardan bekorga xafa bo'lib yuribsiz: sizni erkak g'oz deganimga shuncha xafa bo'lasiz...

Ivan Nikiforovich bu so'zni aytdi-yu, lekin chakki qilganligini o'zi fahmladi, ammo pushaymonning foydasi yo'q edi.

So'z og'izdan chiqdimi, bas, hamma harakat bekor ketadi!

Ivan Nikiforovich bu so'zni tanho joyda aytganida, Ivan Ivanovich unga hech chiday olmay, shunday g'azabga kelgan ediki, hech kimni Xudo bunday holga solmasin. Muhtaram o'quvchilar, bu qabih so'z birtalay xonimlar huzurida aytiganidan keyin nima bo'lishini o'zingiz bilavering. Ivan Ivanovich xonimlar oldida o'zini nihoyatda sipo tutmasmidi?! Agar Ivan Nikiforovich erkak g'oz demasdan parranda deganda ham, ish o'nglanib ketarmidi?!

Ammo endi iloji qolmadi!

U kishi Ivan Nikiforovichga shunday bir qaradi, shunday qaradiki! Agar bunday qaragan odamda amr qilmoq haqi bolsa, Ivan Nikiforovichni birpasda yer bilan yakson qilar edi! Ivan Ivanovichning avzoyi yomonligini mehmonlar ham payqadilar va darhol ularni ajratib qo'ydilar. Yuvvoshlik namunasi bo'lgan va har bir gadoyni ko'rganda hol-ahvol so'ramay o'tmagan bu odam, qattiq jaholat bilan o'zini olib qochdi. Jahl kishini shunday ko'ylarga solar ekan!

Bir oygacha Ivan Ivanovichdan hech qanday xabar eshitilmadi. U kishi uyiga berkinib oldi. Eski tabarruk sandiq ochildi va nima deb o'lay-

siz, – ota-bobolaridan meros qolgan pullar chiqarildi va bu pullar «qalam» ahli baloxo‘rlarning kir qo‘liga o‘tdi. Ish yuqori mahkamaga berildi. Mazkur mahkamadan da‘vo ertaga bartaraf bo‘ladi degan xushxabar kelguncha Ivan Ivanovich uyi-dan chiqmadi. Afsuski, shundan beri mazkur mahkama «ish ertaga bir yoqlik bo‘ladi» deb o‘n yildan beri har kuni bir xabar yuboradi!

Bundan besh yilcha muqaddam shu Mirgorod shahriga yo‘lim tushib qoldi. Men safarga bema-hal chiqqan ekanman. Kuz fasli bo‘lib, havo nam, yo‘llar loy, osmonni tuman bosgan vaqt edi. Tin-masdan yoqqan bemaza yog‘ingarchilikdan so‘ng siyrak bo‘lib chiqqan bemahal o‘tlar, mo‘ysafidga sho‘xlik, kampirga gul qanday yarashmasa, bu o‘tlar ham dalalarga shunday yarashmay turar edi. U mahalda havoning noxushligi menga juda yomon ta’sir qilardi: havo xira bo‘lganda ko‘nglim g‘ash tortib zerikardim. Ammo shunday bo‘lsa ham Mirgorod shahriga yaqinlashib qolganimda yuragim taka-puka bo‘lib qoldi. Yo Ollo, qancha-qancha xotiralar esimga tushdi! Bu shaharni o‘n ikki yildan beri ko‘rganim yo‘q edi! Do‘slikda mislsiz bo‘lgan ikki zot, ikki qalin do‘s shu yerda turar edilar. Bu orada qancha-qancha mo‘tabar – dongdor kishilar dunyodan o‘tdilar. Sudya Demyan Demyanavich allaqachon vafot etgan edi. G‘ilay Ivan Ivanovich ham dorilbaqo-ga rihlat qilgan edi. Shaharning katta ko‘chasi-ga kirdim. Har yerda uchiga bir tutam poxol bog‘langan xodalar qadalgan edi, chunki shahar ko‘chalarini tuzatib, yangicha qilmoqda edilar. Bir necha uylar buzilib tashlanib, ularning devorlari qo‘nqayib qolgan edi.

Bir kuni hayit edi; chipta soyabon aravamni butxona oldida to'xtatib, hech kimga payqatmasdan ohista butxonaga kirdim. Ammo, rostini aytsam, kelganimni payqaydigan odam yo'q edi, chunki bu yerda hozircha hech kim yo'q desa ham bo'lardi, ibodatini tark qilmaydigan taqvodorlar ham loy-yomg'irdan qochib kelmab-dilar. Havo xira kunda shamlar allaqanday noxush ko'rinar edi; butxonaning qorong'i jilovxonasi ham g'amgin ko'rinar edi; gardish oynali uzunchoq darchalardan yomg'ir chak-chak tomari edi... Men o'zimni sekin bir chekkaga olib, bunda o'tirgan bir mo'ysafid choldan:

– Malol kelmasa aytинг, Ivan Nikiforovich tirik-milar? – deb so'radim.

Shu onda but oldida, yonib turgan sham chiroq lopillab yonib ketdi va uning shu'lsasi to'ppato'g'ri yonimda turgan mo'ysafidning yuziga tushdi. Tikilibroq qarab, u odamning basharasini taniganimda hayratim haddan ortiq oshdi. Bu odam Ivan Nikiforovichning o'zi ekan! Ammo shunchalik o'zgaribdiki!

– Salomat bormisiz, Ivan Nikiforovich? Juda keksayib qolibsiz!

– Ha, qarib qoldim, bugun Poltavadan keldim, – dedi Ivan Nikiforovich.

– Nima deyapsiz! Shunday yomon havoda Poltavaga boardingizmi?

– Nima qilay! Da'vo ishi...

Bu gapni eshitganimda beixtiyor uh tortdim. Uh tortganimni Ivan Nikiforovich payqab:

– Xotirjam bo'ling, ish yanagi haftada ko'rib, mening foydamga hal etilishi xususida aniq xabarim bor, – dedi.

Men taajjublanib, yelkamni qisganimcha Ivan Ivanovichdan ham bir xabar olay deb nariroq bordim.

Allakim:

– Ivan Ivanovich ham shu yerda, – dedi.

U yoqqa qarab oriq bir kishiga ko'zim tushdi; Ivan Ivanovich shunaqa ozib-to'zib ketibdi-ya. Attini ajin bosgan, sochlari oqargan, ammo ustidagi to'ni o'sha-o'sha edi! Hol-ahvol so'rashgandan keyin, yuziga yarashgan jilmayishini qilib:

– Sizga bir yangi xushxabar aytaymi? – dedi.

– Qanday yangi xushxabar? – deb so'radim men.

– Ertaga ishim, albatta, bir yoqlik bo'ladi, mah-kamadagilar aniq aytди.

Men yana qattiqroq uh tortdim va juda zarur ish bilan borayotganim uchun xayrashib, tez-roq keta qolay deb, aravaga mindim. Mirgorodda pochtovoy deb nom chiqargan xarob otlar har gal tuyoqlari loyga tiqilganda qulorra yoqmagan noxush ovoz chiqarib, sekin yo'lga tushdilar. Ustiga chipta yopinib olgan juhudning boshiga yomg'ir chelakdan quygandek quyar edi. Mening ham a'zoyi badanim zax tortib ketdi. Shahardan chiqaverishda posbon turgan qorovulkxonasi ichida bir cho'loq uvadalarini yamab o'tirar edi, bu qorovulkxonasi ham orqada qolib, yana o'sha o'nqir-cho'nqir dalalar boshlandi; ba'zida ko'kalamzor, ba'zida taqir qora yerlar o'taverdi, patlari ho'l zog'-u zag'chalar hamda bir maqomda tinmasdan quyib turgan yomg'ir, qop-qora bulut bosgan osmon, yig'loqi havo. Xullas, janoblar, bu dunyo-ning hech qizig'i yo'q ekan!

IZOHLAR

Taras Bulba

N.V. Gogol aslida tarixchi bo'lmoqchi edi. Ammo u tarixchi bo'lib yetishmadi, biroq uning «tarixiy izlanishlari» izsiz qolmadi. Ular yozuvchi Gogolning butun ijodiga katta ozuqa bo'ldi. Aynan, «Taras Bulba» qissasida buning yorqin ifodasini ko'rish mumkin.

«Taras Bulba» qissasida Gogol ukrain xalqining o'z mustaqilligi uchun olib borgan kurashlarini ko'rsatdi. Ma'lumki, Ukraina yerlariga janubdan ko'pincha turklar va tatarlar, G'arbdan polyaklar, litvaliklar tez-tez hujum qilib turardilar. XIV asrda Ukrainiani Litva knyazligi bosib oldi. Hamisha Ukrainaga ko'z olaytirib kelgan Polsha jim qarab turmadni. U Litvaning o'zini ham bosib olish niyati bilan yashadi. Shuning uchun ham ko'p o'tmay Ukraina hududi shiddatli va qonli kurashlar maydoniga aylandi.

Urushdan aksar xalq – dehqonlar ommasi azob chekdi. Bosqinchilar xalqni faqat shafqatsizlarcha ekspluatatsiya qilib qolmay, o'z dumি, urf-odatlarini unutishga majbur qildilar – bu esa, o'z navbatida, stixiyali norozilik va g'azabni tug'dirar edi. Ulardan ko'plari qiynoq va haqoratlardan Ukraina janubidagi Dnepr atrofidagi yerlariga qo'chib ketib, u yerda ozod kazaklarning erkin jamoasini tashkil qildilar. Shu tarzda qurolli odam-

lar uyushmasi (qari va yosh erkaklar, ammo oиласиз) jonajon Ukrainiani polyak asoratidan ozod qilish uchun kurashuvchi Zaporojye Sechi vujudga keldi.

«Taras Bulba» qissasida ana shu davr voqealari realistik tarzda г'оят jonli ko'rsatib berilgan.

Belinskiy «Rus qissalari va j. Gogolning qissalari» maqolasida bu asar to'g'risida zavq bilan: «Agar bizning davrimizda gomercha epopeya lozim bolsa, mana sizga uning buyuk namunasi, ideali va prototipi!» – deb yozgan edi.

Gogol qissani qayta ishladi. U hajm jihatidan kattalashdi, yangi boblar kiritildi, г'оявиy o'tkir badiiy barkamol tus oldi.

Viy

Qissa afsona, xalq ijodiyoti ruhida yozilgan. Bu haqda N.V. Gogolning о'zi eslatmada shunday degan edi: «Bu qissaning turgan-bitgani xalq ijodiyotining yorqin namunasidir. Men uni hech qanaqasiga о'zgartirishni istamadim va uni qanday oddiyhkda eshitgan bo'ssam, deyarli shunday so'zlab beryapman». Mazkur gogolcha usul bingga avvaldan ma'lum – axir «Dikanka qishlog'i oqshomlari» qissasida ham bayon qiluvchilar boshqalar: dyak Foma Gordeyevich «goroxoviy panich», Stepan Ivanovich Kurochka... «Viy» qissasining asosi xalq og'zaki ijodidan bo'lganligi sababli u «Dikanka qishlog'i oqshomlari»ga o'xshaydi deyish noto'g'ri. Ukrainian folklorida Gogolning asaridagi afsonaga o'xhash asarning borligi haqida Nareusniyning «Bursak» romanidagi ayrim detallar guvohlik beradi. (Nareusniy Gogolning hamsha-

hari edi, u ham mirgorodlikdir. Ammo qissada na roman bilan, na ukrain folklorining birorta ma'lum asari bilan syujet o'xshashligi bor.

«Viy»da «Dikanka qishlog'i oqshomlari»dagi kabi xalq hayotining yuksak poeziyasi emas, balki uning o'rniغا murakkab dunyo, to'liq murosasiz qarama-qarshiliklar to'lib-toshgandir.

«Viy» qissasining g'oyaviy muammosi markazida inson taqdiri turadi. Ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlanadiki, «Viy»ning xuddi mana shu alohida o'ziga xos asarligi, uning «bir qahramonliligi» N.V. Gogolning «Kechalar», «O'lik jollar», «Revizor» va boshqa «ko'p qahramon» yoki «qahramonsiz» asarlaridan ajratib turadi.

«Ivan Ivanovich va Ivan Nikiforovich o'rtasida bo'lib o'tgan o'tmish janjallaridan hikoyat» qissasi

Ushbu oxirgi qissa «Mirgorod» to'plamining yakunidir. U to'plamga kiruvchi boshqa qissalardan oldinroq yozildi va birinchi marotaba 1834-yilda «Novoselye» almanaxida bosildi.

«Mirgorod» kompozitsiyasida «Ivan Ivanovich va Ivan Nikiforovich o'rtasida bo'lib o'tgan o'tmish janjallaridan hikoyat» qissasining tutgan o'rni alohida ahamiyatga ega. Unda N.V. Gogol ijodining realistik va satirik o'xshashliklari ancha chuqur namoyon boldi. Qissadagi satiraning obyekti faqat jonajon ikki og'aynining o'zigina bo'lib qolmay, balki Mirgorodning davlat maslahatchilari hamdir. Gogol ijodining ironik uslubbi tufayli biz Mirgorod hayotining ko'z ilg'amasi tomonlari; mansabni, idorani suiiste'mol qilish,

poraxo'rlik, o'g'irlik, suddagi sansalorlik illatlari-ni ko'ramiz. Bularning hammasi soddalik, mu-loyimlik, ba'zan, hatto qoyil qolish niqobi ostida bayon qilinadi.

Bu yerda hukm qilish, qahr-u g'azab yo'q. Bu yerda ham o'sha «Dikanka oqshomlari»dagi kabi gogolcha usul yaqqol ko'rindi. Birinchi nashrida qissaga hatto «Rudiy Pankoning bosilmagan sarguzashtlaridan biri» deb sarlavha qo'yilgan edi.

Bu asar odamzod umrining asl mohiyatiga va hayotdagi haqiqiy vazifasiga parodiyadir. Gogol odamdagи yuksak mas'uliyat burchining muhit, sharoit bois buzilishini ko'rsatmoqchi boladi. Gogol qissani Mirgorod to'plamiga kiritish uchun tahrir qilayotganda senzuradan cho'chib, kichik so'zboshi yozdi: «Ushbu qissada tasvirlangan vo-qea eng qadimgi davrga taalluqli ekanligini bildirib qo'yishni burchim deb hisoblayman. Buning ustiga u butunlay uydirma. Endigi Mirgorod butunlay boshqacha. Tuzilishlar boshqacha: shahar o'rtasidagi ko'lmaq allaqachon qurib bitgan va barcha lavozimli kishilar sudya, sud yordamchisi va shahar hokimi – hurmatli va yaxshi niyatli kishilardir»¹. Gogol bu bilan o'z asarining beozor ekanligini ta'kidlaganday edi.

¹ N.V. Gogol. Materiallar va tadqiqotlar, M. – L., 1936, 22-bet.

MUNDARIJA

Taras Bulba.....	3
Viy.....	173
Ivan Ivanovich va Ivan Nikiforovich o'ttasida bo'lib o'tgan o'tmish janjallaridan hikoyat	228
Izohlar	298

Adabiy-badiiy nashr

NIKOLAY GOGOL

TARAS BULBA

Hikoyalar

Muharrirlar
Ma'mura QUTLIYEVA,
Shahnoza RAHMONOVA

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Musahhih
Hasan TESHABOYEV

Texnik muharrir
Surayyo AHMEDOVA

Kompyuterda sahifalovchi
Sunnat MUSAMEDOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktyabrda berilgan.

Bosishga 2015-yil 19-mayda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobogi 9.5. Shartli bosma tobogi 15.96.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'oz.

Adadi 5000. nusxa. Buyurtma № 84.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi va chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278-36-89;

Marketing bo'limi – 128-78-43. faks – 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru

**«YANGI ASR AVLODI» NMM
«KAMOLOT KUTUBXONASI» RUKNIDA
QUYIDAGI YANGI KITOBLARNI NASHR ETDI:**

ANTON CHEHOV

«Buqalamun»

84x108 1/32 296 bet, yumshoq muqova

Jahon adabiyoti hikoyachiligini mashhur rus yozuvchisi Anton Chexov ijodisiz tasavvur qilish mushkul. XIX asrning so'nggi choragida rus kitobxonlari e'tirofiga sazovor bo'lgan yozuvchi hikoyalari XX asrning dastlabki yillaridayoq o'zbek kitobxonlariga taqdim etildi. Abdulla Qodiriy va Cho'lpon ham tarjima orqali hikoyanavislikni aynan Anton Chexovdan o'rgangan bo'lsa ajab emas.

Adabiyotimizda hikoyachilikda beqiyos o'ringa ega bo'lgan Abdulla Qahhor tarjimalari esa Chexov ijodini o'zbek kitobxonlariga tanishtirishda asosiy ko'prik bo'lib xizmat qildi.

Mazkur to'plamga yana qator tarjima hikoyalari ham kiritildiki, mazkur asarlar orqali Chexovning hayotiy va ijodiy saboqlaridan bahramand bo'lasiz.

IVAN TURGENEV

«Otalar va bolalar»

84x108 1/32 320 bet, qattiq muqova

Mashhur rus yozuvchisi I.S.Turgenevning o'z davrida katta shuhrat qozongan ushbu «Otalar va bolalar» romani rus adabiyotshunosligida yozuvchi ijodining cho'qqisi sifatida talqin etiladi. Adib bosh qahramon Bazarov obrazida hurfikrlilik va yangilik sari intilish kabi fazilatlarni mujassamlantirgan. Asardagi voqealar o'sha davrda chiriy boshlagan jamiyatni shunchaki isloh etish emas, balki poy-

devorini tag-tugi bilan yo'q qilib, yangisini barpo etish kerakligini ko'rsatib beradi. Turgenev Bazarovdagi nigelizm (barcha narsalarni inkor qilish)ni tasvirlash orqali rus yoshlariga xos salbiy jihatlarni ham namoyon etgan. Kattalarni hurmat, kichiklarни izzat qilishga o'rgatuvchi ushbu asar mutolaasi kitobxonga zavq bag'ishlaydi, degan umiddamiz.

FYODOR DOSTOYEVSKIY


«Jinoyat va jazo»

84x108 1/32 876 bet, qattiq muqova

Jahon va o'zbek adabiyotining durdona asarlari dan tarkib topgan «Kamolot kutubxonasi» rukni bu gal atoqli rus yozuvchisi Fyodor Dostoyevskiyning «Jinoyat va jazo» romanini taqdim etadi.

«Kambag'allik ayb emas, biroq yo'qchilik – illat. Birinchisida inson tug'ma oljanob fazilatlarni saqlab qola oladi, ammo yo'qchilikda ularni hech qachon va hech kim saqlab qola olmaydi», asardagi personajlaridan biri bosh qahramonga bu gapni hayotiy misollar asosida izohlab beradi. Universitetning sobiq talabasi bo'lgan Raskolnikov esa bu gapdan tegishli xulosa chiqara olmaydi. Natijada, yo'qchilikdan qutulish, tezda boyib ketish va yuqori mavqega ega bo'lish maqsadida aql bovar qilmaydigan jinoyat sodir qiladi. Fojiali jihat – qahramon o'z jinoyatini oqlaydi. Ammo hayot qonunlari adolatli – jinoyatni jazosiz qolishiga imkon bermaydi. Ruhiy jazo jinoyatchini o'z aybiga iqror bo'lishga majbur etadi.

Romanda shu mudhish qotillikning uzlusiz uqubatlari bilan birga go'zal muhabbat tasviri ham borki, u kitobxon qalbini beixtiyor junbishga keltiradi.



Nikolay Gogol

(1809–1852)

Taniqli rus yozuvchisi. Rus adabiyotida tanqidiy realizmga asos solgan ijodkor.

1809-yilda Poltava guberniyasida tug'ilgan. Nejin gimnaziyasini tugatib (1828), Peterburgga kelgan. Rassomchilik bilan shug'ullangan, drama to'garaklarida faol qatnashgan. A.S.Pushkin bilan uchrashuvi (1831) Gogol ijodida burilish yasagan. «Dikanka qishlog'i oqshomlari» (1831 – 1832) to'plamiga kirgan hikoya va qissalari Gogolga ulkan shuhrat keltirgan.

Sankt-Peterburg universiteti umumtarix kafedrasidagi faoliyatı unga tarix bilan chuqurroq tanishish imkonini bergen. «Mirgorod» hamda «Arabeskalar» to'plamlarida shahar hayoti manzaralari «ko'zdan yosh chiqquncha» kulgi qo'zg'atadigan usulda tasvirlangan. «Taras Bulba» (1835) qissasi ukrain xalqining chet el bosqinchilariga qarshi kurashiga bag'ishlangan. «Revizor» (1836) komedyiasida Rossiyadagi mansabparastlik, xazinani talon-toroj qilish, poraxo'rlik kabilar hajv ostiga olingan. Gogol ijodining cho'qqisi bo'lgan «O'lik jonlar» (1842) romanida Rossiyadagi o'sha davr hayotiga umumiy tavsif berilgan.

Gogolning «Revizor» (Kibriyo Qahhorova va Abdulla Qahhor tarjimasi), «Ivan Ivanovich va Ivan Nikiforovich oralarida bo'lib o'tmish janjallar hikoyati» (N. Alimuhamedov tarjimasi), «O'lik jonlar» (1959, Rustam Abdurahmonov tarjimasi) va boshqa asarlari o'zbek tilida nashr etilgan. «Revizor», «Uylanish» pyesalari O'zbekiston teatrлari sahnasida qo'yilgan.

Adib 1852-yilda vafot etgan.

ISBN 978-9943



YANGI ASR AVLODI

9 789943 2750961